

63.3  
0-95

Ochildiyev F.B.

# TARIIXIY O'LKASHUNOSLIK



63.3  
0-95

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI

Ochildiyev F.B.

# TARIXIY O'LKASHUNOSLIK

(o'quv qo'llanma)

5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar)

5120400 – Arxeologiya

5121300 – Tarix va ekskursiya-o'lakashunoslik ishi

TOSHKENT  
«DONISHMAND ZIYOSI»  
2020

JIZZAX DPI

INV № 141643

YODgorlik Resurs Markaz

UO'K 908(075)

KBK 63.3

O 95

**Mas'ul muharrir:**

**A.S.Sagdullayev, tarix fanlari doktori, akademik.**

**Taqrizchi:**

**R.X. Suleymanov, tarix fanlari doktori, professor;**

**O'.M. Mavlanov, tarix fanlari doktori, professor.**

**Ochildiyev F.B.**

O 95

Tarixiy o'lkashunoslik [Matn]: o'quv qo'llanma / F.B. Ochildiyev. – Toshkent. «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2020. – 200 b.

ISBN 978-9943-6446-6-3

Mazkur qo'llanmada tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari, yosh avlodni tarbiyalashda tarixiy o'lkashunoslik fanining o'mi, o'lkamiz tarixiy geografiyasi va tarixiy jarayonlar haqida ma'lumot keltirilgan.

Tarixiy o'lkashunoslikni o'rGANISHDA arxeologiya, etnografiya, antropologiya, toponimika, yozma va arxiv manbalarning o'mi kabi inavzular qamrab olingan. Ushbu qo'llanma tarix, arxeologiya, tarix va ekskursiya-o'lkashunoslik ishi yo'naliishlari bakalavr talabalari uchun mo'ljalangan.

UO'K 908(075)

KBK 63.3

ISBN 978-9943-6446-6-3

© Ochildiyev F.B., 2020  
© «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2020

---

## MUQADDIMA

**Tarixiy o'lkashunoslik** – o'z ona yurti hisoblangan muayyan o'lka, viloyat, shahar, tuman va qishloq hududlarini har tomonlama o'r ganishni taqozo etadi. Tarixiy o'lkashunoslikda o'lkasing tabiat, aholisi, xo'jaligi, tarixi, madaniyati, arxeologiyasi, o'lka namoyandalarini va boshqa jihatlari o'r ganiladi. O'lkashunoslik kompleks va soha o'lkashunoslikka bo'linadi. Kompleks o'lkashunoslik turli sohalarni bir-biri bilan bog'liq holda, soha o'lkashunoslik geografiya, tarix, ethnografiya, madaniyat, toponimika va boshqa sohalarga oid masalalarni alohida o'r ganadi. Hozirgi kunda ekologik vaziyat va tabiatni muhotixa qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish masalalarini ham o'r ganadi.

Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy maqsadi o'z o'lkasi tarixi, aholisi, etnografiyası, xo'jaligi, madaniyati, tabiatini va boshqalarni ashyoviy dalillar asosida o'r ganib, to'plangan ma'lumotlarni ommalashtirib, yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishdan iborat. Tarixiy o'lkashunoslik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlarning milliy qadriyatlarimizni o'r ganishi va uni ommalashtirishda tarixiy o'lkashunoslikning o'mni muhim sanatladi.

Mustaqillik tutayli O'zbekistonda yuz berayotgan tub iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'r ganishlar tarixni chuqur, xolisona tarzda hamda yangicha tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniy hayotning rivojlanishi, shaharlar tarixi tarixiy o'lkashunoslik bilan uzviy bog'liqdir. So'nggi yillarda turli shaharlarning yubileyları munosabati bilan o'tkazilayotgan anjumanlar, ilmiy tadqiqotlar o'lkamizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta ekanligini ko'rsatmoqda.

---

## I BOB. O'LKASHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

### **Reja:**

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari.
2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari.
3. Tarixiy o'lkashunoslikning shakllanishiga doir dastlabki ma'lumotlar.
4. Tarixiy o'lkashunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixidan.

**Tayanch iboralar:** Avesto, yunon, rim, fors, manba, tarixiy, o'lka, antik, ilk o'rta asr, Turon, Turonsaksoniya, Mavarounnahr, Turkiston, O'rta Osiyo, Rossiya, imperiya, Yevropa, shakllanish, rivojlanish.

### **1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari**

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'lkamizda barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, o'lkamizning o'tmishi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, etnik tarixi, moddiy madaniyat yodgorliklarini ilmiy va amaliy jihatdan xolisona o'rganishga imkon yaratildi. «Tarixiy o'lkashunoslik» quyidagi turlarga bo'linadi:

- ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi;
- jamoat o'lkashunosligi;
- maktab o'lkashunosligi.

O'lkashunoslikning har uchala turi bir-biriga aloqador bo'lib, birinchisi ikkinchisini to'ldirib boradi. *Davlat o'lkashunosligi* bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ularдан foydalanish qo'mitasi, respublika FA tarix, arxeologiya ilmiy-tadqiqot institatlari, muzeylar shug'ullanadi.

*Jamoat o'lkashunosligi* mahalliy hokimiyatlarning bevosita rahbarligida tegishli joylarda tarixiy, arxeologik, etnografik, tabiiy sohaga oid mutaxassislar tomonidan joylarda tashkil etilib faoliyat olib boradi.

*Maktab o'lkashunosligi* umumiy ta'lim maktablarida tarix, geografiya, botanika, zoologiya, til va adabiyot o'qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil etiladi. O'lka tabiatni, tarixi, aholisi, xo'jaligi, madaniyati, etnografiyasi, toponimikasi, arxeologiyasiga oid dalil va topilmalar maktab o'lkashunosligi muzeylarida namoyish etiladi.

Tarixiy o'lkashunoslik fani asosan ikki maqsadni ko'zda tutadi:

1. O'z o'lkasining o'tmishi va zamonaviy tarixini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish.
2. To'plangan ilmiy manbalardan samarali foydalanib, yosh avlodni vatandislik ruhida tarbiyalash.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston tarixini bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganish imkonini tug'ildi. Tarixiy manbalarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni keng ommaga targ'ib qilish uchun sharoitlar yaratildi. So'nggi yillarda turli shaharlarning yubileyлari munosabati bilan o'tkazilayotgan anjumanlar, ilmiy tadqiqotlar o'lkamizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta ekanligini ko'rsatmoqda.

O'z tarixini, ona yurtini, ona tuprog'ini e'zozlagan inson haqiqiy inson bo'lib yetishadi va oldiga qo'ygan vazifaga erishadi. Tarixga nazar tushlasak, o'z o'lkasini sevmagan va uning tuprog'ini ardoqlamagan biron zotni uchrata olmaymiz. Har bir yosh avlodning o'z o'lkasi tarixini o'tqanishi va vatanini sevishi muqaddas burch hisoblanadi.

## 2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari

Tarixiy o'lkashunoslik tarix fanining tarkibiy qismi hisoblanib, bir qancha manbalarga tayanib o'rganiladi. Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganishda qimmatli bo'lgan manbalarga tarixiy geografiya, arxeologik, toponimik, etnografik, antropologik, me'morchilik, arxiv va yozma manbalarni kiritish mumkin.

*Tarixiy manba* deganda uzoq o'tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma'lum bosqichdagi kechmishini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy manbalarni tushunamiz. Moddiy yodgorliklarga – qadimiy obidalar, manzilgohlar va mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal'alar

xarobalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalar kiradi. Ma'naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuylar, xalq og'zaki ijodi namunalari, afgonalar, yozma yodgorliklar, bitik, qo'lyozma kitob va arxiv hujjatlari tushuniladi. Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo'lgan va uning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan moddiy va ma'naviy manbalardan iboratdir.

*Arxeologik manbalarga* qadimgi shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiylar manzilgohlar, istehkomlar, qadimgi yo'llaming izlari, mozor-qo'rg'onlar, qoyatosh tasvirlari va boshqalar kirib, Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Arxeologik manbalar ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1. Tabiiy manbalar (paleozoologiya, paleobotanika) – inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib, ularni asosan zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadi.

2. Inson tomonidan yaratilgan moddiy manbalar, ularning mehnat qurollari, yarog'-aslalahalar, sopol idishlar, san'at va zeb-ziynat buyumlari, yozuv va hokazolar.

Arxeologiya tarix fanining tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rinn tutadi. Arxeologiya iborasi «arxaios» – qadimgi, «logos» – fan degan ikkita yunoncha so'zning birikishidan tashkil topgan bo'lib, qadimgi bilimlar haqidagi fan degan ma'noni beradi. Lekin oldingi davrlarda arxeologiyani fanning qaysi sohasiga qo'shish to'g'risida bahs va munozaralar bo'lib, ba'zi bir kishilar uni qadimgi san'at haqidagi fan, yana bir toifadagilar esa sopol buyumlarni o'rganuvchi fan, degan fikri bildirganlar. Ba'zilar esa uni tarix faniga xizmat qiluvchi ikkinchi darajali fan deb tushunganlar.

Mantiqan olib qaraganda tarix va arxeologiya fanlari aslida o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi yagona fanning sohasidir. Insoniyat o'tmish davrini arxeologiyasiz o'rganib bo'lmaydi. Arxeologiya insoniyatning o'tmish tarixini o'rganishda dala tadqiqotlari natijasida ibridoiy makonlar, qishloqlar, shaharlar hamda ulardan topib o'rganilgan ashyoviy dalillar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa moddiy manbalarga suyanib ish ko'radi.

Hozir O'rta Osiyoning barcha hududlarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ularning natijalari esa tadqiqotchi olimlarning maqolalari va ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ular tomonidan topilgan

ashyoviy dalillar respublikamizning muzeylarida saqlanib kelmoqda. Arxeologik tadqiqotlar natijasida to‘plangan materiallardan arxeologiya, O‘zbekiston tarixi, ibridoiy jamoa tarixi, o‘lkashunoslik fanlari va arxeologiya ixtisosligi bo‘yicha maxsus kurslar darslarida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanib kelinmoqda.

*Toponimika* (yunoncha «topos» – joy, «onoma» – nom) – joy nomlari to‘g‘risidagi fandir. Toponimika deganda joy nomlarini o‘rganadigan fan, toponimiya deganda esa geografik nomlar yig‘indisi tushuniladi. Toponimika geografiya, tarix, etnografiya bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimlar til tarixini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Toponimika xalqlarning tarixiy o‘tmish xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tilarning o‘tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo‘llari va shahar, qishloq geografiyasini tavsiflashga yordam beradi.

Geografik joy nomlari (keyingi o‘rinlarda toponimlar) quruqlik va suvliklardagi geografik obyektlarning, joylarning atoqli otlaridir. Toponimlar o‘zbek tili, uning so‘z boyligi, o‘zbek xalqining madaniy, ma’naviy hamda ilmiy merosiga oid boy ma’lumotlarni o‘zida ifodalab, astlar davomida saqlab, asrab kelayotgan ulug‘ xazinadir.

Joy nomlarining asosiy vazifasi – bir xil, bir tipli geografik o‘rinlar, obyektlar, hududlarni alohida, yakka holda ajratib atash va shu orqali ularni bir-biridan farqlashga xizmat qilishdir. Toponimlarda xalqning o‘ta qadimiy davrlardan tortib shu kunlargacha bo‘lgan noyob kuzatishlari, tajribalari, ularning dunyoqarashi va turli e’tiqodlari o‘z ifodasini topgan.

Agarda nomlar ifoda qilgan ma’nolar, ijtimoiy, tarixiy, tabiiy-jug‘rosiy ma’lumotlar, nomlarning tanlanish va qo‘yilish sabablari, toponimlarning kelib chiqish tarixi tahlil qilinsa, bu holat yorqin ko‘rinadi. Tilda ma’nosiz, besabab nom yo‘q. Xalqimiz qadimiy davrlardan boshlab joylarni nomlash bo‘yicha boy tajriba orttirgan, biror joyni asossiz, besabab u yoki bu tarzda atamagan. Mana shu sabab va asoslarda xalqning ona tabiat, atrof-muhit haqidagi sinchkov kuzatishlari, kishilarning kundalik turmushi va xo‘jaligiga oid boy tajribalari, ko‘hna tarixning turli davrlarda boshidan kechirganlari, ulug‘ orzu va umidlari o‘z ifodasini topganini ko‘ramiz.

*Antropologiya* arxeologik qazishmalar jarayonini, yangi paleoantropologik ma'lumotlar yig'ish va ularni tadqiq etishni talab etadi. Ma'lumki, antropologlar turli tarixiy davrlarga oid odam suyaklarini o'rghanishlari natijasida ularning tashqi qiyofalarini tiklab, qaysi antropologik irqqa oid ekanligini aniqlaydilar. Antropologiya odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi, odamzod irqining paydo bo'lishi haqidagi fan hisoblanadi. Antropologiyaga oid ma'lumotlar bundan bir necha ming yil oldin bo'lganiga qaramay, u fan sifatida XIX asming ikkinchi yarmida shakllana boshladi.

Antropologiya bir qancha qismlarga bo'linadi: odam morfologiyasi, antropogenez, irqshunoslik. Morfologiya odamning jismoniy tulishidagi belgilarning yoshi, jinsi, kasbi va tashqi sharoitiga qarab o'zgarishini o'rghanadi. Irqshunoslik odamzod irqlarining kelib chiqish davri va sabablarini, ularning yer yuzi bo'y lab tarqalishini hamda etnogenez masalalarini yechishga yordam beradi. O'lkamiz o'zining geografik o'miga ko'ra o'tmishda irqiy va etnik jarayonlarni boshidan kechirgan, shuningdek, qo'shni xalqlarning ham tarixiy taqdirini belgilab berishda katta ahamiyat kasb etgan. O'lkamiz antropologik jihatdan 3 ta viloyatga ajratilgan. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yashovchi qadimgi ajdodlarimiz yer yuzidagi uch irqning biri – yevropeoid irqining «O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i» tipiga mansub bo'lganligi aniqlangan.

*Etnografiya* (yunoncha, «etnos» – xalq, «grapho» – yozaman, xalq haqida ma'lumotlar; xalqshunoslik) xalq urf-odatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jaligi, diniy e'tiqodlari, folklor va hokazolarni o'rghanadi. Etnografiya ko'p qirrali ijtimoiy fan bo'lib, uning tadqiqot obyekti xalq va elatdir. Bu fan xalqlarning o'zaro o'xshashligi va tafovutlari, kelib chiqishi va joylashishi, madaniy-maishiy aloqalari, ijtimoiy va oilaviy turmush kabi ma'lumotlarni tahlil qiladi.

Xalq, qabila va urug' nomlari, inson qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi va yozma manbalarda saqlanib qolgan urf-odat va an'analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Hech bir inson bir-biriga tabiatи va xarakteri, xulq-atvori va histuyg'ulari bilan to'liq o'xshashlikka ega bo'lmaganidek, etnoslar ham bir-biriga to'la o'xshamaydi. Ammo tabiiy-geografik muhit va ijtimoiy-

iqtisodiy sharoit ta'siri ostida tarixiy umumiylikka ega bo'lgan xo'jalik-madaniy va tarixiy etnografik tiplar yuzaga kelgan. Shuning uchun etnografiya fanining dolzarb umumiylarini hozirgi etnoslarning kelib chiqishi, etnik tarixi va shakllanishi, joylashishi va etnik tuzilishi, an'anaviy mashg'ulotlari, madaniy tarixiy munosabatlari, moddiy va ma'naviy madaniyatni, ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmush xususiyatlarini tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

Hozirgi vaqtida etnografiyaning diqqat markazida murakkab etnik jarayonlar, xalq va elatlarning maishiy va madaniy hayotida paydo bo'layotgan barcha yangilik (innovatsiya)lar, turmush tarzidagi ba'zi o'zgarishlar, umumiylarini xususiy belgilarning an'anaviy tumush unsurlari bilan bog'liq bo'lgan muhim muammolar ham ko'ndalang bo'lib turibdi. Etnografiya qadimgi ajdodlarimizning o'tmishdagi etnik jarayonlari, maishiy turmush va ma'naviy madaniyat qoldiqlari hamda xususiyatlarini ham o'rganadi. Masalan, saklar, massagetlar, so'g'dliklar, baqtriyaliklar, xorazmliklar va marg'iyonaliklar etnografik jihatdan kam o'rganilgan. Yozuvsiz xalqlarning qadimiy tarixini o'rganishda etnografik tadqiqotlarning o'rni muhim sanaladi.

*Yozma manbalar.* Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i, kishilarning o'zaro munosabatining natijasi o'laroq yaratilgan va o'tmish zamonlarda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirgan manba sifatida o'lkamiz tarixini haqqoniy o'rganishda muhim o'rin tutadi. Yozma manbalar, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi:

1. Oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar, moliyaviy-hisobot daftarlari, rasmiy yozishmalar va boshqalar).

Ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarga oid masalalarni o'rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot daftarlari va yozishmlarning ahamiyati juda muhim sanaladi. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni o'rganishda muhim yuridik hujjat hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishma hujjatlarida soxtalari ham uchrab turishi mumkin. Shuning uchun ham ulardan foydalanishda diqqat-e'tibor va o'ta ehtiyojkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borganda, undan biron ijtimoiy-siyosiy voqealarni talqin etish uchun foydalanish ja-

rayonida, bitta hujjat bilan kifoyalananmasdan, o'xshash bir necha hujjat, manbalami ko'rib chiqib xulosa chiqarish zarur, chunki bitta hujjatda faqat bir kelishuv yoki ma'lumot ustida so'z yuritiladi. Shuning uchun ham birgina hujjat bilan tanishib chiqib ma'lum ijtimoiy-siyosiy masala ustida qat'iy fikr va qat'iy xulosaga kelib bo'lmaydi.

### *Tarixiy, geokosmografik hamda biografik asarlar.*

Tarixiy, geokosmografik hamda biografik asarlar to'g'risida shuni aytish kerakki, ular o'sha davr hukmron sinfning topshirig'i bilan yozilgan va shu tufayli ularning sahifalarida ko'proq podshohlar va xonlarning, amirlar va yirik ruhoniyarning hayoti va faoliyati yoritilgan. Jamiatning rivojlanishida asosiy kuch hisoblangan mehnatkash xalqning turmush tarzi, ularning orzu-istiklari, his-tuyg'ulari, xalq harakatlari va bu harakatlarning mazmun-mohiyati, jamiatda ro'y bergan voqeasi va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar tarixi esa ko'p hollarda chetlab o'tilgan. Umuman olib qaraganda, bu turdag'i yozma manbalarda hukmron doiralarning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan, o'sha davrdagi jamiatning maqsad va manfaatlari ifoda etilganligi bilan ajralib turadi. Bu turdag'i yozma manbalarda hukmron doiralarning dunyoqarashi o'z ifodasini topgan bo'lishiga qaramasdan, tarixiy o'lakashunoslikni o'rGANISHDA birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

*Arxiv manbalari.* Arxiv lotincha «arxivus» – hukumat binosi so'zidan olingan. Lekin «arxiv» atamasining hozirgi qo'llanish ma'nosi butunlay boshqacha. Arxiv – bu idoralar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan muassasa hisoblanadi. Arxivlarda tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, korxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklarini, ayrim shaxslarning ko'p yillik faoliyati haqida ma'lumotlar va hujjatlari saqlanadi. O'lka tarixini o'rGANISHDA bu hujjatlarning ahamiyati kattadir. Arxiv hujjatlarini qidirib topish, ular ustida ishlash va olingan ma'lumotlarni hayotga tatbiq etish murakkab ish.

O'rta Osiyoda arxiv yozuv bilan bir vaqtida paydo bo'lgan. Arxeologlar qadimgi Tuproqqal'a xarobalaridan Xorazmshohlarga tegishli III–IV asr boshlariga oid sopollarga bitilgan qadimgi hujjatlardan iborat arxiv namunalarini topishdi. 1930-yil boshlarida Mug' tog'laridagi yodgorlik xarobalaridan Divashtich arxivini topildi. Qazishmalar natijasida Divashtich arxivini VIII asrga oid bo'lib, u yerdan 80 dan ortiq

qo‘lyozma hujjatlari topilgan. Arxiv manbalari markaziy va mahalliy davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlaridan qolgan turli hujjatlar va hokazolar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

*Tarixiy geografiya.* Hozirda tarixchi va geograf olimlar tarixiy geografiya bilan tarix o‘rtasidagi farqni juda yaxshi tushunadilar. Geografiya tarixi (ko‘pincha uni geografik bilimlar tarixi ham deb atashadi) geografik kashfiyotlar va sayohatlar, shuningdek, geografik tasavvurlar, umuman, ajdodlarimizning geografik dunyoqarashlari tarixini o‘rganadi. Tarixiy geografiya fani esa o‘tmishni geografiya bilan bog‘lab o‘rganadi. Shu tariqa zamonaviy geografiya va tarixiy geografiya bitta obyektni farqli jihatlarda tadqiq etadi. Zamonaviy geografiya mazkur obyektning hozirgi holatini o‘rgansa, tarixiy geografiya uning o‘tmish tarixidagi o‘zgarishlarini tahlil qiladi.

Tarixiy geografiya alohida tumanlardagi ishlab chiqarishning turli davrlarda o‘sishi haqidagi ma’lumotlarni aniqlashtiradi yoki tarixiy voqeа-hodisalarining bo‘lib o‘tgan joylarini, geografik shart-sharoitlarini tahlil qiladi. Tarixiy geografiya fani muammolarini tarix fani o‘rganadi, ammo shu bilan birga uni geografiya fanidan ham ajratib bo‘lmaydi, chunki geografiya fanida ochilayotgan yangi ilmiy ma’lumotlar tarixiy geografiya fani uchun muhimdir. Tarixiy geografiya tarixiy bilimlarning asosiy tarmog‘i bo‘lib, usiz tarixiy jarayonlar geografiyasini o‘rganib bo‘lmaydi. Tarixiy geografiyasiz tarix haqidagi tasavvurimiz to‘liq va mukammal shakllanmaydi.

*Me’moriy yodgorliklar.* O‘zbekistonda me’morchilik tarixi juda qadimga borib taqaladi. Shuning uchun ham bugungi kunda o‘lkamizdagи me’moriy yodgorliklar kishining diqqat-e’tiborini o‘ziga tortadi (Sopolitepa, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqaq’al’a, Afrosiyob, Varaxsha, Poykend, Qanqa va boshq.).

Bizga ma’lumki, Aleksandr va uning vorislari davrida ellistik davlatlarda shaharsozlik madaniyati yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda boshqa hududlarda bo‘lgani kabi o‘lkamizda ham shaharsozlik rivojlandi. Er. avv. IV–III asrlarga kelib shaharlar rejali ravishda qurila boshladi. Uning tashqi ko‘rinishi to‘rtburchak shaklda bo‘lib, o‘rtasidan shohko‘cha o‘tgan. O‘rta Osiyo davlatlarining xalqaro maydonga tortilishi yaqin sharqdagi ellin davlatlari shaharsozligi bilan tanishishga imkon yaratdi. Bu esa ellin shaharsozlik an’analarini O‘rta Osiyo sha-

keyinchalik «Turkiston» tushunchasiga aylangan. XVI–XVII asrlarga qadar tarixiy geografik adabiyotlarda, Turkiston o'lkasi sifatida noaniq tasvirlaganlar. XIX–XX asr boshlariga oid adabiyotlarda Turkiston ikki geografik qismga bo'lib ko'rsatilgan; Sharqi Turkiston (Sinszyan-Uyg'ur o'lkasi) va G'arbiy Turkiston (O'rta Osiyo).

O'l kamiz to'g'risida ilk bor ishonchli geografik ma'lumotlarni arab sayyohlari berib o'tgan (IX–XII asrlar). Ular Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo oralig'idagi yerlarni yaxshi bilganlar va bu hududlar to'g'risida turli xil ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Arab sayyohlari o'l kamizning barcha hududlarida bo'lib, u yerlarda yashovchi aholining turmush tarzi, shahar va qishloqlari to'g'risida qiziqarli boy ma'lumotlar qoldirishgan.

**Buxoro.** Arablar istilosidan avval Buxoro shahri O'rta Osiyoning yirik savdo va madaniy markazlaridan biri edi. O'sha davrlarda Buxoroning hududi ancha katta bo'lgan. Shahar devorlar bilan o'rab olingen 7 ta darvozadan iborat bo'lgan. Shahristondan g'arbda Ark joylashgan. Arablar istilosigacha Arkda shahar hokimlari – buxorxudotlar yashardi. Arablar shaharni bosib olgandan so'ng bu yerda o'z hukmronligini o'rnatdilar. VIII asrga kelib Samarqand shahriga nisbatan ham nufuzi ortib bordi. Bu davrda shahar shahriston qismiga ajratilgan. Al-Istaxriy Buxoroda bo'lgan davrda shaharning shahriston qismidagi darvozalarining nomlarini keltirib o'tadi.

X asrda Buxoro yuksak madaniy markazga aylandi. Bu yerda jahonga tashhur bo'lgan olimlar, yozuvchilar, rassomlar xizmat qildilar. Shaliarda o'sha zamonning juda katta kutubxonasi bo'lgan. Somoniylar davrida shuhrati butun jahonga ketgan tarixiy yodgorlik – Ismoil Somoniylar maqbarasi Buxoroda qurildi.

IX asrga kelib Poykand va Romitan shaharlari sezilarli darajada o'sdi va kengaydi. X asrlarga kelib yirik shaharlar qatoriga Buxorodan keyin Tavois shahrini aytish mumkin. X–XII asr arab geograflari Istaxriy, Muqaddasiy, Ibn Hurdodbehlar ham Poykandni muhim savdo yo'lida joylashgan yirik shahar sifatida tilga olishgan. Buxoro va Poykand o'rtasidagi masofani Ibn Hurdodbeh 5 farsax, Sam'oniy esa bir kunlik yo'l deb ta'riflaydi.

**Romitan.** O'zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri «Romitan» – «Tan oromi» deb ataladi. Narshaxiyning yozishicha, Romitan katta bir

ko‘handizga ega va mustahkam bir qishloq bo‘lib, Buxorodan qadimiy-roqdir. Ba’zi manbalarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Romitanda qadimdan hukmdorlar turar joylari bo‘lgan. Buxoro shahri vujudga kelgandan so‘ng ular Romitanda faqatgina qish faslida yashaganlar. Tabariyning yozishicha, 707-yilda Qutayba Romitanni bosib olgan. Xuroson noibi Abu Muslim Buxoroga har gal kelganda o‘z qarorgohini Romitanda joylashtirgan.

*Vardonze*. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi «Qo‘rg‘oni Vardonze» nomi bilan mashhur yodgorlik (VI–XIX asrlar). Qo‘rg‘onning uzunligi 110 m, kengligi 60–70 m, balandligi 45–50 m. Vardonxudotlarning maxsus qarorgohi bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Shopurkom atamasi sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingen. Shopur Buxoroga kelib, Buxorxudotdan yer olib qasr va qishloq qudirib, unga ariq keltirgan. Narshaxiyning yozishicha, bu katta bir qishloq bo‘lib, ko‘handizga, katta va mustahkam hisorga ega. U Turkistonning chegarasida joylashgan. U joyda har haftada bir kun bozor bo‘lib, savdogarlar ko‘p kelar edi. Arablar hujumi arafasida (VIII asr boshi) Vardonze Buxorodan alohida mustaqil podsholik poytaxtiga aylangan.

*Poykend*. Poykend o‘tmishda 4 qism: 1. Darvozali ark (maydoni 1 ga); 2. Darvozali ichki shahriston (maydoni 11 ga); 3. Darvozali tashqi shahriston (maydoni 6 ga); 4. Sharq, g‘arb hamda janub tomonlarida qad ko‘targan (maydoni 100 ga dan oshiqroq) ulkan rabidlardan iborat bo‘lgan. Ayrim ma‘lumotlarning guvohlik berishicha, Poykend qadimda Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo‘lgan. Narshaxiyning ma‘lumotlariga ko‘ra, shahar aholisining aksariyat qismi savdogarlar bo‘lib, ular Xitoy va dengiz bo‘yi mamlakatlari bilan savdo qilganlar. Ibn Hurdobch va Ibn al-Faqihlar Poykendni «Madina at-tujjor», ya’ni «savdogarlar shahri» nomi bilan ta’riflaydilar.

*Tavois* (dastlabki nomi Arqud) – Buxoro vohasidagi tarixiy viloyat va shahar. Milodning boshlarida bu yerda otashkada va otashgoh bo‘lgan. Arablar ilk marta bu joyda tovusni ko‘rgach, «Zot ut-tavois» – «Tovuslar egasi» deb nom berishgan. Tabariyning yozishicha, Tavoisda Qutayba ibn Muslimning qarorgohi bo‘lgan. Tavois Buxoro-Samarqand yo‘lining ustida joylashgan bo‘lib, Narshaxiyning yozishicha, qadimgi vaqtarda har yili kuz faslida 10 kun nuqsonli mollarning bozori bo‘lgan.

O'rta asr mualliflarining asarlarida Buxoro va boshqa shaharlarni bir-biri bilan bog'lovchi savdo yo'llari haqida yozganda turli shaharlar va aholi punktlari o'rtasidagi masofalarni ham keltirib o'tishgan. Bu hududlarda qancha rabod, shahar va qishloqlar bo'lganligini sanab o'tadilar Xususan, Ibn Hurdodbeh Amudaryo kechuvi bo'lgan Amuldan (hozirgi Chorjo'y) Buxorogacha bo'lgan masofa 19 farsax bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Buxoro va Poykend o'rtasidagi masofa 5 farsax bo'lganligini ham e'tirof etadi. Maqdisiy esa Buxorodan Xorazmga o'tuvchi yo'lda 7 ta rabot, 2 ta shahar (Shuraxon, Kat) va 6 ta to'xtash joyini eslatib, Buxorodan Xorazmga 3 kunlik yo'l bo'lganligini ta'kidlaydi.

*Samarqand* shahri to'g'risida X asr arab geografi Istaxriy fikr bildirib, shaharni «Movarounnahrning quruqlikdagi bandargohi» deb ta'rif beradi. IX–XII asrlarda shahar hayoti Shahriston devorlaridan tashqariга chiqib, Cho'ponota tepaliklaridan tortib Darg'om daryosi etaklariga, Zarafshon vodiysining bepoyon kengliklariga yoyilgani ta'kidlangan. Manbalarda keltirilishicha, Samarqand o'zining ko'klamzorligi bilan mashhur bo'lgan.

Istaxriyning ta'rifiga ko'ra, Samarqandda So'g'd daryosidan janubda joylashgan va undan baland turgan shahardir. «Bu yerda ark, shahriston va rabod bor. Men arkka ko'tarilib, inson ko'zi hech qachon ko'rmagan ajoyib manzaralardan birini, ko'm-ko'k daraxtlarni, hashamatli qasrlarni, oqayotgan kanallarni va uzliksiz barq urib turayotgan madaniyatni ko'zdan kechirdim. Bularning hammasi hamisha mavjlanib turgan kanallarda va suvgaga to'la havzalarda aks etadi. Samarqandda qal'a va to'rtta darvoza bor. Sharqiy darvoza «Xitoy darvozasi» deb ataladi, u tepalikda joylashgan. Ana shu joydan ko'p sonli zinapoyalar orqali So'g'd daryosiga tushiladi. G'arbiy darvoza Navbahor deb ataladi. U ham tepalikda joylashgan. Shimoliy darvoza Buxoro darvozasi, Janubiy darvoza – Katta darvoza ham deb ataladi».

At-Tabariyning «Payg'ambarlar va podshohlar tarixi» kitobida shaharga shoh Samar asos solganligi, «Qand» esa bu joylarda yashagan turk aymog'i ekanligi aytildi. Ayrim tarixchilar shahar nomini «uch-rashuv joyi», «Savdogarlar yig'iladigan joy» tarzida talqin qiladilar. Aleksandr Maqduniy (Makedonskiy) shaharni istilo qilgandan so'ng yunonlar uni «Marokanda» deb atay boshlaganlar.

XV asrda yashab ijod etgan Hofizi Abruning arabcha yozilgan jug‘rofiy asari «Kitob al-masolik va-l-mamolik» («Yo‘llar va mamlakatlar kitobi») deb atalgan, uni «Kitob al-aholim» («Iqlimlar kitobi») deb ham nomlashgan. Asarda Samarcandning qisqacha tarixidan so‘ng shahar va shahar atrofining, shahardagi qal’alar, saroylar, machitlar, bog‘lar, qishloqlar ta’rifi berilgan.

*Nasaf*. Istaxriy ma'lumotiga ko‘ra, Nasaf ko‘handiz, shahriston va raboddan iborat yirik shahar edi. Shaharni daryo kesib o‘tgan bo‘lib, shahar darvozalari qo‘shni yirik shaharlar va aholi punktlariga eltuvchi nomlar bilan atalgan. Nasaf rabodi ham devor bilan o‘ralgan va uning to‘rt darvozasi bo‘lgan. Bu darvozalar Samarcand, Kesh, Buxoro va Gubdin deb nomlangan.

Ibn Havqal ma'lumotiga ko‘ra, Gubdin darvozasi yonida yirik bozor bo‘lgan. Sa‘moniy (XII) Nasafda to‘rt ko‘cha, ikki masjid, bir darvoza va bir rabod bo‘lganligini sanab o‘tadi. XVII asr muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha, «Mo‘g‘ul Kepakxon u yerda Saroy qurdiradi. Saroy mo‘g‘ulcha «Qarshi» deb atalganligi uchun u joylashgan shahar Qarshi nomi bilan mashhur bo‘ldi. U kichik bo‘lsa ham did bilan reja asosida qurilgan. Unda ko‘plab bog‘lar va ekin maydonlari mavjud. Ularda madrasa, xonaqo, masjidlar va hammomlar mavjud».

*Kesh* shahri haqida Ibn Havqal bunday yozadi: «Kesh ko‘handiz, qo‘rg‘on va rabodga ega bo‘lgan shahardir. Shuningdek rabodga tutashib ketgan boshqa madina ham mavjud. Undagi uylar loy va yog‘ochdan qurilgan». Al-Maqdisiy ham Keshda madina va rabodga ega bo‘lgan shahar bo‘lganligini yozgan. Uning tavsifi hozirgi Shahrисабз о‘rnida bo‘lgan Keshga to‘g‘ri keladi.

Ibn Havqalning «Yo‘llar va yurtlar» asarida Kesh haqida quyidagi ma'lumotlar saqlangan: «Kesh shahristonida to‘rt darvoza bor: Temir darvoza, uning yonida Ubaydulloh darvozasi va to‘rtinchisi tashqi shahar darvozasi. Tashqi shaharda ikkita darvoza bor: ichki shahar darvozasi va Barkanon darvozasi. Siyom tog‘laridan boshlangan daryo shaharning janubidan oqadi, yana bir daryo – Asrud; Qashqrud rustoqidan boshlanib, shaharning shimolidan oqadi».

«*Kitob al-masolik va-l-mamolik*» Abu Zayd Balxiy, Istaxriy va Ibn Havqal ijodi mahsulidan iborat geografik asar. Unda yozilishicha, IX–X asrlarda Kesh qal‘a (ko‘handiz), shahar qo‘rg‘oni (hisn) va shahar atrofi

JIZZAX DPT

(rabod) qismlardan iborat bo‘lgan. Qal’ a arablar istilosiga davrida vayron etilgan. Shahar eniga va bo‘yiga 2 km dan ortiqroq maydonni ishg‘ol qilgan va 4 ta darvozasi (tashqi devorda 2 ta darvoza) bo‘lgan. Shahar yonidan daryo oqib o‘tishi, iqlimi issiqligi, mevalari mo‘l-ko‘lligi ta‘kidlangan.

«*Hudud-ul-olam*» muallifi nomi lum, X asrda forsiy tilda yozilgan geografik asar. Mazkur asarning Movarounnahr tavsifi qismida Kesh haqida ham ma‘lumot bor. Unda shaharning shahriston, ko‘handiz va rabodi borligi, uning yonidan oqib o‘tuvchi daryo suvidan dehqonchilikda foydalanilishi, yaqinidagi tog‘lardan tuz va boshqa qazilma boyliklar qazib olinishi yozilgan.

**Chag‘oniyon.** Arab tarixchisi Istanriyning ma‘lumotlariga ko‘ra, Chag‘oniyonning Termizdan maydoni jihatdan katta, biroq Termiz aholisi soni va boyligi bilan Chag‘oniyondan ustun turgan.

Manbalarda poytaxt Chag‘oniyondan karvon yo‘llari Hisorning janubiy yonbag‘irlari bo‘ylab shimoli-sharqqa – Qorateginga va Surxon soyi bo‘ylab Pomir orqali Xitoya o‘tganligi ta‘kidlangan. Shu ma‘lumotlar bilan birgalikda bu yo‘ldagi birinchi to‘xtash joyi Hamavaron shahrini ko‘rsatib o‘tadi. Qudam ibn Ja‘far Hisordan 15 km uzoqlikda joylashgan Shahri nav yodgorligi o‘mida bo‘lganligini aytib o‘tadi. Bundan so‘nggi aholi manzili Shuman (hozirgi Hisor) bo‘lgan.

Ibn Hurdodbeh yana bir oraliq to‘xtash joyi – Abu Kasvon bekatini ham eslatib o‘tadi. Bu bekat Hamavarondan 8 farsax, Shumandan 5 farsax uzoqlikda joylashgan. Al-Muqaddasiy esa shaharda juda ko‘p muhtasham yopiq bozorlar bo‘lib, ulardan birining markazida pishirilgan g‘ishtdan qurilgan juma masjidi joylashgan, deb ta‘kidlaydi. «*Hudud al-olam*»da esa Chag‘oniyon tog‘ning yonbag‘rida joylashgan katta shahar deb ta‘rif bergen.

**Termiz.** Arablar bosqini davrida shahar maydoni 70 gektarni egalagan bo‘lib, to‘itburchak shakldagi qal’adan iborat bo‘lgan. X asrda bo‘lgan «*Hudud al-olam*» asarida, Termiz «*Jayhun bo‘yidagi ko‘rkam* va obod shahar qal’asi, daryo bo‘yida ulkan bozori mashhur, Xuttalon va Chag‘oniyon ahli shu yerda savdo qiladi», deb ta‘rif berilgan. 1220-yilda Termiz mo‘g‘ullar tomonidan vayron qilinadi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «*Zafarnoma*» asarida berilgan ma‘lumotda Termiz aholisi mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatgan, shu boisdan shahar «Ma-

uazorat qilib turgan. Muhtasib mollarning sifatini, qanor qoplar, idish-larning tozaligini, mevalarning yangi uzilganligini, tosh-tarozilaming to'g'riligini tekshirgan.

Mo'g'ullar istilosidan 1 yil avval, 1219-yil dekabrda Xiva shahrida bo'lган Yoqt Hamaviy Xivani Gurganjdan 15 farsax olisdag'i qal'a-shahar deb ta'riflaydi. Xorazm davlatining boshqa shahatlarida islom ahli hanafiya mazhabiga amal qilsa, faqat Xivada Shofiya mazhabiga amal qilishganligini yozadi.

*Farg'ona vodiysi.* Movarounnahrning muhim viloyatlaridan biri bo'lган Farg'ona Ibn Havqalning ma'lumot berishicha, katta hududni o'z ichiga olgan va ko'plab shahar hamda qishloqlarga ega bo'lган. Uning poytaxti Axsikent bo'lib, shaharda ko'plab bozorlar faoliyat ko'rsatgan. Shaharning 5 darvozasi bo'lib, ular Merdakush, Koson, Jome masjidi darvozasi va boshqalar bo'lган. Farg'ona shaharlari va savdo yo'llari haqida Istanxriy ham muhim ma'lumot berib o'tadi. U Farg'onani eng gullab-yashnagan katta viloyat, Turkiston darvozasi deb ataydi. U yerdagi tog'larda kumush, tilla konlari, nashtar va simob mavjudligini aytadi. Istanxriy Farg'ona Xo'jand bilan chegaralanganligini ta'kidlaydi va Xo'janddan Axsikentga o'tish yo'lini ko'rsatadi.

Farg'ona shaharlaridan yana biri Qubo (Quva) esa Istanxriyning ma'lumotlariga ko'ra, kattaligi jihatidan Axsikentdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi va qal'a, rabot, jome masjidi va yirik bozorlari mavjud bo'lган. Bu shahar xarobasi Farg'ona viloyati Quva tumani markazida joylashgan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxungacha yetib bo'radigan Nahr sohilida qad ko'targan. Uning markazida Registon maydoni, Ko'handizda jome masjidi, rabodida esa saroy hunarmandchilik markaziga aylangan.

*Toshkentning* qadimgi nomi yozma manbalarda keltirilishicha, Choch bo'lган. Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach, arab alifbosida «ch» harfining yo'qligi tufayli arabiya asarlarda «Shosh» deb yuritilgan. Ilk o'rta asrlarda u «Choch», «Shosh», «Shoshkent», «Madinat ash-shosh», «Binkat» va «Tarkan» deb nomlangan. Toshkent haqidagi dastlabki ma'lumotlar Tabariy, Istanxriy asarlarida uchraydi. Istanxriyning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» asarida Shoshning bosh shahri Binkat deb ko'rsatiladi. «Hudud-al olam» («Olamning chegaralari») kitobida «Choch – bu katta viloyat, xalqi jangovar va saxiydir, u yerda kamon

va o‘q-yoy yasaladi. Bu katta shahar, ayni vaqtida podshoning qaror-gohidir», deb ta’riflanadi. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Choch o‘zining kamoni shoshiy (o‘q-yoylari) bilan mashhur bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor.

Shahar «Toshkent» nomi bilan dastavval Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg‘ariyning asarlarida tilga olinadi. Beruniy «Hindiston» asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to‘g‘risida so‘z yuritib, «Tosh» so‘zi asli turkcha bo‘lib, Shosh ko‘rinishini olgan. «Toshkand-toshli qishloq demakdir», deb izohlaydi.

O‘rta asrlarda Toshkent vohasi Shosh va Iloq nomi bilan yuritilgan. Mutaxassislar Iloqni Angren daryosi vodiysi, Shoshni esa Parak daryosi (Chirchiq) vodiysi deb tushuntiradilar. Angren etagida Benaket shahri, Chirchiq etagida esa Nejaket shahri joylashgan bo‘lib, ular orasidagi masofani Istanriy 3 farsaxga teng deb keltiradi. Ibn Havqal vohaning o‘ziga xosligi haqida to‘xtalib, Xuroson va Mavarounnahr Shosh vohasidek masjidlarga, katta-katta qishloqlarga boy, ko‘plab binolar mavjud bo‘lgan hududni ko‘rmaganligini ta‘kidlaydi. U Shosh vohasi chegaralari bir tomonidan Shosh daryosigacha, ikkinchi tomonidan Temir darvozagacha, uchinchi tomonidan Iloq tog‘larigacha, to‘rtinchi tomonidan esa xristianlar qishlog‘i Vikkerdgacha cho‘zilganligini ta‘kidlaydi.

Tarixiy o‘lkashunoslikka oid bir qancha qimmatli ma’lumotlar yurdoshlarimiz tomonidan ham berib o‘tilgan. Abu Rayhon Beruniy deyarli barcha yo‘nalishlari bo‘yicha buyuk kashfiyotlar qilgan olimdir. U kishilik jamiyatni tarixida ilk bor Yerning dumaloq shaklda ekanligini aniqlab, globusni yaratadi. Beruniyning yirik asarlaridan biri «Al-osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadiimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»)da alloma o‘zining hayotiy kuzatuvlari asosida yunonlar, rimliklar, arablar va boshqa xalqlarning yilnomasi (kalendar) tizimlarini bir-biriga taqqoslab, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qilib beradi. Bu asarda Turonzamin xalqlarining urf-odati va madaniyatiga oid masalar ham o‘z ifodasini topgan.

XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Koshg‘ariyning umumiy turkiy tillarni o‘rganish, turkiy til shevalalarining qiyoziy grammatikasini tuzish, folklor va etnografiya sohasidagi xizmatlari juda kattadir. Shu bilan birga, u tabiiy fanlar terminologiyasini yaratishga va geografiya faniga ham katta hissa qo‘shgan. Koshg‘ariyning geografik merosi quyidagi-

dinat ur-Rijol» (Mardlar shahri) deb atalgan. 1333-yilda Termizga tashrif byurgan arab sayyohi Ibn Battuta o‘z «Sayohatnama»sida «Ko‘hna Termiz shahri Jayhun bo‘yida barpo etilgan edi. Chingizzon bu shaharni vayron etgandan so‘ng yangi shahar ikki chaqirim narida qurilgan. Bu shaharda gavjum bozorlar va muhtasham imoratlar bo‘lib, uni ko‘plab anhorlar kesib o‘tadi. Unda bog‘-rog‘lar mo‘l. Ayniqsa, bu joyning uzuumi va behisi haddan ziyod shirindir», deb ta’kidlab o‘tadi.

*Ustrushona.* Ibn Havqal Ustrushonani alohida viloyat deb tasvirlaydi, viloyatning eng katta shahri Bunjikent bo‘lgan. Hukmdor qaror-gohi ham shu yerda joylashganligini ta’kidlaydi. Bunjikent yirik siyosiy va hunarmandchilik markazi bo‘lib, IX–X asrlarda aholisi zich va juda qulay, suvga serob bo‘lgan yerda joylashgan shahar bo‘lgan. Shahar shahriston, ko‘handiz va rabotdan iborat bo‘lib, shahristonda 2 ta darvoza, rabotda esa 4 ta darvoza mavjud bo‘lgan. XII asrda Bunjikent tushkunlikka uchragan.

Bu shahardan so‘ng kattaligi jihatdan keyingi o‘rinda turuvchi shahar Zomin hisoblanadi. Istashriyning ma’lumotiga ko‘ra, Zomin Farg‘ona va Xo‘janiddan So‘g‘dga eltuvchi yo‘lda joylashgan. Zomin aholi zich joylashgan hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi bo‘lgan. Ibn Havqal Ustrushona shaharlaridan yana Jizzaxni eslab o‘tadi va uni tekislikda joylashgan shahar deb ataydi.

Istashriy o‘zining ma’lumotlarida Ustrushona shaharlarini bog‘lovchi yo‘llarni, ular orasidagi masofalarini keltirib o‘tadi. Ustrushona aholi punktlarini bog‘lab turuvchi ichki yo‘llar tarmog‘iga ega bo‘lgan. Bu yo‘llar, o‘z navbatida, O‘rta Osiyo savdo yo‘llarining tarkibiy qismi sifatida ham ahamiyatga ega edi. Ustrushona hududi orqali Samarqand, Buxoro, Xuroson hamda g‘arbda joylashgan shahar va mamlakatlarga boruvchi yo‘llar o‘tgani.

Ilk o‘rta asrlarda (V–IX asr) O‘rta Osiyodagi Ustrushona tarixiy geografik viloyati tarkibiga kirgan. Uning siyosiy tarixi manbalarda ham yoritilgan. U O‘ratepa nomi bilan dastlab Boburning «Boburnoma» asarida (XVI asr) tilga olinadi. XVIII asrda mustaqil hudud sifatida ma’lum edi.

*Jizzax.* Yunon solnomalarida Kiropol va Gazoni alohida tilga olishadi. Arxeologlar Gazo shahrining o‘rnini aniq va asosli tayin etmasalarida tarixiy manbalarda Samarqand va Toshkent oralig‘ida joylashganli-

gini aytadilar. Olimlar Gazoni qadimiy joy deb taxmin qiladilar. Yozma manbalarda ilk bor arab geograf olimlari va sayyoohlaridan Ibn Havqal va Muqaddasiylarning asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olinadi. Shahar bir necha bor inqirozga uchrab, yana qayta tiklangan.

*Zomin.* Tarixiy shahar bo'lib, qadimda Sarsakda, Susakda, Sabda nomlari bilan yuritilgan. Uning asos solingan vaqtı noma'lum. Arab sayyoohlarining ma'lumotlariga ko'ra (Ibn Havqal, Muqaddasiy), Zomin arablar kelmasidan oldin ham bo'lgan va Ustrushonada yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Shahar Zomin suvining har ikkala sohilida joylashgan. X asrda Zomin yonida arablar kelgunga qadar bo'lgan eski shaharning xarobalari saqlanganligi manbalarda qayd etilgan. Shahar yonida jome masjidi bo'lgan. Zominning Samarcand, Buxoro, Shosh va Farg'ona vodiysi shaharlarini bog'lovchi katta karvon yo'lda joylashganligi uning ravnaqiga ijobiy ta'sir qilgan. XV–XVII asrlarda Zomin mustahkam qal'adan iborat viloyat markazi edi.

*Xorazm vohasi shaharlari.* Xorazm hududidan o'tgan karvon yo'llari va ular bo'yida joylashgan shaharlar, karvonsaroylar haqida o'rta asr mualliflari Istanriy, Yoqut, Maqdisiy, Muqaddasiy va boshqalar ma'lumot beradilar. Xorazmnинг poytaxti bo'lgan Kat shahri muhim savdo-iqtisodiy, savdo yo'llarida joylashgan. Istanriy Xorazm shaharlarining iqtisodiy hayotini yoritganda «Xorazm shaharlari serhosil va mevalarga boy, u yerda paxta va jundan buyumlar tayyorlanadi, turklar bilan olib boriladigan savdoda katta foyda ko'radi», deb xabar beradi.

Xorazmshohlar davlatining poytaxti Gurganj shahri hisoblangan. Zakariyo Qazviniyning yozishicha, Gurganj Jayhun daryosi bo'yidagi katta shahar, aholisi juda ko'p deb ta'rif beradi. 1219-yil mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan davrda Gurganjda bo'lgan Yoqub Hamaviy: «Men Gurganj kabi buyuk va go'zal shahar ko'rmadim», deb yozadi. Qazviniy esa Gurganj haqida fikr bildirib, bu go'zal shahar «Jannatdag'i shahar, uni chimildiqdag'i kelinchakni qo'riqlaganday, farishtalar qo'riqlaydi», deb yozadi.

Mo'g'ullar istilosiga qadar Gurganj juda obod, aholisi gavjum, zinch bo'lgan. Qazviniyning yozishicha, Gurganjda aholi ko'pligidan ko'chalarda, bozorlarda odamlar bir-biriga urilib yurgan va o'tish ancha qiyin bo'lgan. Shahar bozorlari gavjum bo'lib, savdo-sotiqni muhtasib

larni o‘z ichiga oladi: «Devon»da berilgan tabiiy geografik terminlar va ularning izohi; «Devoni lug‘atit turk»ka ilova qilingan dunyo xaritasi; «Devon»da uchraydigan joy nomlari va ularning izohi; O‘rta Osiyoda-gi ayrim qabilalarning joylashishi haqidagi «aholi geografiyasi»ga doir ma’lumotlar; «Devon»dagi astronomik ma’lumotlar, kalendar sistemi- si, lug‘atlar va ularning tarixi.

Mahmud Koshg‘ariyning tasviriga ko‘ra O‘rta Osiyo yer yuzasi ji-  
hatidan tog‘lik va tekislik qismalaridan iborat, uning tog‘lik qismi hozir-  
gi Qozog‘iston, O‘zbekiston o‘lkalariga to‘g‘ri keladi. Shimoli-g‘arbda  
faqat bitta tog‘ – Jabali Qorachuk yozilgan, boshqalarining yozuvi  
yo‘q. Yer yuzasining markazi qilib qoraxoniylar davlatining poytaxti,  
ma’muriy markazi Bolasog‘un shahri olingan.

#### 4. Tarixiy o‘lkashunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixidan

O‘lkani o‘rganish masalasi O‘rta Osiyoda, shu jumladan,  
O‘zbekistonda ham XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Rus  
tadqiqotchilar O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib  
olinishidan oldin bu o‘lkani o‘rganish bo‘yicha bir qancha ishlarni  
amalga oshirdilar. Jumladan, o‘lka haqidagi dastlabki ma’lumotlardan  
birini 1819–1822-yillarda Xivaga sayohat qilgan N.N. Muravyov berib  
o‘tadi. U Kaspiy dengizini ko‘zdan kechirib, uning sharqiy qirg‘oqlarini  
o‘rganadi. Shuningdek, Xiva xonligi aholisining turmush tarzi, urf-  
odatlari, tabiatni to‘g‘risida ham ma’lumotlar beradi.

1820–1821-yillarda Buxoroga A.Negri boshchiligidida elchilar tash-  
rif buyuradi. Elchilar tarkibida bosh shtab ofitserlaridan K.Meyendorf,  
V.D. Volxovskiy, A.K.Temofeyev, tabiatshunos X.Pander va sayyoh  
E.A.Eversmanlar ham bor edi. Ular Buxoro amirligida tadqiqot ishla-  
rini olib borishadi. To‘plangan ma’lumotlarni K.Meyendorf 1826-yili  
Parija kitob qilib chop etadi. Kitobda Buxoronning geografiyasi, aho-  
lisi, xo‘jaligi va davlat boshqaruvi haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

1832-yil G.S.Karelin Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy qirg‘oqlarini tadqiq etish maqsadida rus hukumatining ekspeditsiyasi-  
ga boshchilik qiladi. Bir necha oylik tadqiqotlardan so‘ng avgust oyi  
boshida kuzatuvlar yakunlandi. Karelin Kaspiy dengizining shimoli-

sharqiy xaritasini yaratadi. Uning tarkibida tog‘ muhandislari, tabiatshunoslar va bir qancha topograflar bor edi. Tabiatshunos A.A. Leman va topograf Y.P. Yakovlevlar Buxorodan Samarqandga kelishadi. Sentyabr oyida Leman o‘zining sheriklari bilan yuqori Zarafshon vodiysiga Fandaryo ( $68^{\circ}30'$  sharqiy kenglik)gacha borib, Ko‘li-Kulon ko‘ligacha ko‘tariladilar. Leman bu yerlarning go‘zalligidan hayratlanib «Osiyo-ning Shveysariyasi» deb ataydi.

Y.P. Yakovlev Markaziy Buxoroning ilk xaritasini tuzadi. Bu xarita syomkalar natijasida yaratilgan bo‘lib, Turkiston tizmasi tuzilishi biroz noto‘g‘ri berilgan. Zarafshonning g‘arbiy qismi esa haqiqatga yaqinroq berilgan. Orol dengizida suratga olish ishlarini amalga oshirish uchun harbiy dengizchi F. Butakov boshchiligidagi ekspeditsiya XIX asming o‘rtalarida Orol dengizini tadqiq qilgan. 1849–1850-yillarning qishida Orenburgga qaytgan Butakov dengizning birinchi qiyosiy xaritasini tuzadi. Aynan Butakov 1852-yili Orol dengiziga paroxod qatnovini yo‘lga qo‘ygan.

Rossiya imperiyasi ma‘murlarining O‘rta Osiyoga bo‘lgan qizi-qishi natijasida barcha jabhalarda o‘lkaga rasmiy rus ekspeditsiyalari uyushtirila boshlanadi. Rasmiy ekspeditsiyalardan biri 1841–1842-yillarda K.F. Butinov boshchiligidagi Buxoroga uyushtiriladi. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi geologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish edi. Uning tarkibida sharqshunos N.V. Xanikov, topograflar Yakovlev, Plotnikov, Chalpanov, Petrov va boshqalar qatnashadi. Ekspeditsiya natijasida to‘plangan ma‘lumotlarni 1843-yilda N.V. Xanikov kitob qilib chiqaradi.

O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng rus tadqiqotchilari o‘lkaning tabiatni, aholining turmushi, tarixi, moddiy madaniyati va foydali qazilmalarini tizimli o‘rganib, olingan ma‘lumotlarni umumlashtirib nashr qila boshladi. Zarafshon okrugi zakot boshqarmasi boshlig‘i A.P. Koroshin Zarafshon vohasining shahar va qo‘rg‘onlari tarixini o‘rganish bilan bir qatorda u yerda yashaydigan aholining turmush tarzi va ijtimoiy tarkibini aniqlashga katta e’tibor qaratadi. Shuningdek, V.V. Radlov, Bikov, A. Grebyonkin, L.N. Sobolev, A. Kun va boshqalar O‘rta Osiyoning tarixi, jug‘rofiyasi, gidrogeologiyasi, metrologiyasi, etnografiyasiga oid tadqiqot ishlarini olib borishgan. Kapitan Grebyonkin Zarafshon vohasining foydali qazilmalari va

tabiiy boyliklarini o'rganib chiqadi. Shundan so'ng vohaning tog'li hududlari ham Zarafshon okrugiga qo'shib olinadi.

1870-yili general-gubernator Konstantin fon Kaufmanning topshirig'i bilan A.L.Kun o'lka tarixida bиринчи bo'lib Zarafshon vobasida qazish (arxeologik) ishlarini olib boradi va qadimiy obidalarning qoldiqlari va boshqa moddiy ashyolarni topadi. A. Kun tomonidan to'plangan qadimiy topilmalar Samarqanddan Toshkentga, so'ng Rossiyaga jo'natilgan. Bu topilmalar Peterburgdagi Ermitajda ko'rgazmaga qo'yilishi lozim edi. A. Kun Turkiston o'lkasining arxeologik albomini tuzish maqsadida 1870–1871-yillarda Samarqand shahridagi me'moriy yodgorliklarning suratlarini oladi.

1875-yili Afg'oniston–Buxoro chegarasida yuzaga kelayotgan voqealar munosabati bilan Kaufman buyrug'iga ko'ra harbiy topografik ekspeditsiya uyuştiriladi. Ekspeditsiya a'zolari Hisor va Kulob tumانlарida ham bo'lishadi. Ekspeditsiya a'zosi Vishnevskiy Hisor, Kulob va Zarafshonning yuqori, ya'ni tog'li tumanlarining xaritasini chizadi va hali noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. N. Mayev esa ekspeditsiya uyuştirilgan hududlarning tarixiy, topografik va antropologik tafsilotlari haqida ma'lumotlar to'pladi.

Harbiy maslahatchi kapitan Petrov Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va hozirgi Turkmaniston hududlarida joylashgan bekliklarni bir-biri bilan bog'lovchi yo'llarni o'rganib chiqib, ularning oraliq masofalarini aniqlaydi va bu yo'llar haqida bat afsil ma'lumot beradi. Boysun bekligida Machaydan quyiga qarab ikkita tog'li yo'l o'tgan bo'lib, ular daryoning o'ng va chap tomonlaridan o'tgan. Bu yo'llar tog'lar orqali o'tib, chuqur dara bo'ylab Darbandga kelgan u yerdan Boysun, Sherobod va G'uzorga boruvchi yo'llarga tutashib ketgan. Bu yo'nalishdan tashqari, Darbanddan Xomkan tog'i va Qoraxaval dovonи orqali kichik O'rada ryo bo'ylab yo'l ham mavjudligini aniqlaydi.

XIX asming ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga nisbatan bo'lgan qiziqishi tobora ortib bordi. Shu niyatda Nikolay I 1854-yil 22-oktabrda Sankt-Peterburg dorilfununida Sharq tillari bo'limini sharq tillari fakultetiga aylantirish haqidagi farmoniga imzo chekadi. Bu yangi fakultetda «Sharq tillari» kafedrasи ochilib, O'rta Osiyoning tarixi va tarixshunosligini chuqurroq o'rganishga e'tibor qaratadi.

O'rta Osiyoning juda boy tabiatи azaldan rus tadqiqotchilarini o'ziga jalg etib kelgan. Shuning uchun ham barcha jabhalarda o'lkaga rasmiy rus ekspeditsiyalari uyushtirila boshlandi. Shunday ekspeditsiyalardan biri – 1841–1842-yillarda K.F. Butinov boshchiligidagi ekspeditsiya tarixda alohida o'rн tutadi. 1841-yil bahorida Sankt-Peterburgdan Buxoroga qarab geologik ekspeditsiya yo'lga tushadi. Uning tarkibida K. Butinov (boshliq), tog' muhandisi M. Bogoslovskiy, sharqshunos N. Xanikov, topograflar Yakovlev, Plotnikov, Chalpanov, Petrov va Limanlar bor edi. Ekspeditsiya qatnashchilari uchun maxsus qaydnomalar tuzilgan bo'lib, ular geologik qidiruv ishlari bilan birga bir qator metrologiya, zoologiya va botanika sohalarida ham kuzatuv ishlarini olib borish ko'zda tutilgan edi. F. Bagloevitskiy geologik qidiruv ishlari natijasida Zarafshon daryosi bo'yida oltin borligini aniqlaydi. Bundan tashqari, Zarafshon tog'inining ba'zi joylarida o'simliklarning yangi turlarini topdi. Iskandarko'l va Ko'liklonni tekshirib, yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritdi.

1868–1870-yillarda A.P. Fedchenko, O.A. Fedchenkolar O'rta Osiyoda tadqiqot ishlarini olib bordi. A.P. Fedchenko o'zining birinchi ishini O'rta Osiyoning iqlimini kuzatishdan boshladi. 1869-yilning 31-yanvaridan 4-fevraligacha (Samarqandda) olib borgan kuzatishlari bu yerning iqlimi Norvegiya poytaxti Oslo iqlimiga, 10–14-fevral orasidagi kuzatishlari Rim iqlimiga o'xshashligini ta'kidlaydi. Zarafshon vohasini zoologik jihatdan o'rganishda A.P. Fedchenkoning xizmati katta. U qisqa vaqt mobaynida 8 mingdan ortiq hasharot, qush va hayvon turlarini yig'ib kolleksiya qiladi. Uning rafiqasi O.A. Fedchenko esa Zarafshon vodiysi o'simliklari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar to'playdi. Shuningdek, u tabiat, mahalliy xalq turmushi va mehnat qurollari haqidagi muhim ma'lumotlar yig'adi.

1870-yilga kelib Fedchenko yana Turkistonga sayohat qiladi. Ushbu ekspeditsyaning maqsadi Iskandarko'l, Yag'nob vodiysi tumanlarini tadqiq etishdan iborat edi. 1871-yilga kelib esa Qo'qon xonligiga sayohat qiladi. Bu ekspeditsiya Janubiy Tyanshan, Farg'ona, Oloy va Pomir tog'larining geografiyasi bo'yicha fanga boy va qiziqarli materiallar beradi. Ekspeditsiya so'ngida Qo'qon xonligi va Amudaryoning yuqori oqimi aks ettirilgan xaritasini yaratadi.

A.P. Fedchenko sayohatlarini ta'riflab I.V. Mushketov shunday yozgan edi: «A.P. Fedchenko sayohatlari o'z mashg'ulotlarining kengligi

da Amudaryo flotiliyasi ochiladi. Dastlab ishga tushirilganda «Sar» va «Saritsa» deb nomlangan paroxodlar va ikkita temir barjalar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan edi. 1895-yilga kelib qo‘srimcha «Sesarevich» nomli paroxod qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Shundan so‘ng yanada ko‘plab paroxod va po‘lat barjalar olib kelindi. 1897-yil «Velikiy knyaz», «Velikaya knyajna Olga», 1901-yilda «Imperator Nikolay II» paroxodlari olib kelinib qatnovga qo‘yildi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. *Mavlanov O.* Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. –T., 2008.
2. *Karamatov H.* O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. –T., 2009.
3. *Ochilidiyev F.B.* Tarixiy o‘lkashunoslik. –T., 2008.
4. *Saidboboyev Z.A.* Yevropada O‘rta Osiyo tarixiga oid tarixiy kartografiq ma’lumotlar. –T.: «Fan», 2008.
5. *Saidboboyev Z.A.* Tarixiy geografiya. –T., 2010.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. *Eshov B. J.* O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. – T., 2008.
2. *Asanova G., Nabixanov M., Safarov I.* O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug‘rofiyasi. – T., 1994.
3. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. – T., 2002.
4. *Сухарева О.А.* К истории городов Бухарского ханства. –T., 1958.

### **Internet manbalar**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
3. [www.ec.edu.uz](http://www.ec.edu.uz).
4. [www.performance.edu.uz](http://www.performance.edu.uz).
5. [www.history.ru](http://www.history.ru)
6. [www.natura.com](http://www.natura.com)

### **Nazorat savollari**

1. Tarixiy o‘lkashunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Tarixiy o‘lkashunoslik fanining rivojlanish tarixi.
3. Tarixiy o‘lkashunoslik fanining turlari.
4. O‘lkashunoslikning rivojlanishida Rossiya imperiyasi tadqiqotchilarining o‘rni.
5. O‘lkashunoslikning rivojlanishida Yevropa tarixchilarining o‘rni.
6. O‘lkamiz tarixini o‘rganishda etnografiyaning o‘rni.

## Test savollari

- 1. Tarixiy o'lkashunoslik fani vazifasiga ko'ra necha turga bo'linadi?**
  - A. 3 ta
  - B. 5 ta
  - C. 7 ta
  - D. 4 ta
- 2. XIX–XX asr boshlariga oid adabiyotlarda Turkiston o'lkasi nechta geografik qismga bo'lib ko'rsatilgan?**
  - A. 2 ta: sharqiy va g'arbiy
  - B. 2 ta: shimoliy va g'arbiy
  - C. 2 ta: janubiy va sharqiy
  - D. 2 ta: janubiy va shimoliy
- 3. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo o'lkasini o'rganish nechanchi asrdan boshlandi?**
  - A. XIX asrning 2-yarmidan
  - B. XIX asrning 1-yarmidan
  - C. XX asrning 2-yarmidan
  - D. XX asrning 1-yarmidan
- 3. Turkiston xalq kutubxonasi qayerda birinchi bo'lib ish boshladi?**
  - A. 1970-yil Toshkentda
  - B. 1764-yil Samarqandda
  - C. 1965-yil Farg'onada
  - D. 1970-yil Buxoroda
- 4. 1929–1930-yillarda Farg'onada kim boshchiligidagi arxeologik qazishma ishlari olib borilgan?**
  - A. L. Potapov
  - B. V. Bartold
  - C. A. Shishkin
  - D. M.Y. Masson

bilan emas, balki kuzatuvlarining ajoyib tashkil etilishi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bosib o'tilgan yerlar ko'p emas, ammo qo'lga kiritilgan natijalari shunchalik ahamiyatli va muhimki, bu boshqa ko'p yillik va bir necha ekspeditsiyalar uchun sharaf bo'lur edi».

A. Butakov taddiqotlaridan yarim asr o'tgach, 1900–1902-yillarda L.S. Berg Orol dengizini kompleks ravishda tekshirdi. U dengizning g'arbiy-sharqiy va shimoliy qirg'oqlarini kuzatadi. A. Butakov tuzgan xaritasing bir nechta joylarini yanada aniqlashtiradi. L.S. Berg 1908-yilda «Orol dengizi» nomli monografiyasini yozadi va kitobga ikkita xarita ham ilova qilinadi. Shuningdek, Berg Orol va Kaspiy dengizlarining XIII–XV asrlarda yo'q bo'lGANI haqida tasavvurlarning noto'g'ri ekanligini isbotlaydi.

A. Kun Zarafshon vohasida ilk bor arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Kun qazish va arxeologik materiallarni o'rghanishda mahalliy aholining bilimdon vakillarini ham jalg qildi. Masalan, Mirzo Mullo Abdurahmon ibn Muhammad Latif, Muhtojir Samarqandiyilar shular jumlasidandir. 1870-yilda Kun boshchiligidagi Iskandarko'lga ekspeditsiya uyuşhtiriladi. Bu ekspeditsiyaga Mirzo Mullo Abdurahmon ibn Muhammad Latif hamrohlik qiladi. U safar taassurotlari asosida «Ro'znomayi safariy Iskandarko'l» («Iskandar safari kundaligi») asarini yozadi. Unda Zarafshon daryosining yuqori qismida joylashgan barcha aholi manzilgohlari haqida ma'lumot beriladi. Kundalikda mazkur joylarda yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, urf-odatlari hamda ba'zi arxeologik yodgorliklar to'g'risida ham ma'lumot berib o'tilgan.

Kun tadqiqotlarining eng muhim natijasi shundan iboratki, 1871–1872-yillarda Turkiston o'lkasining arxeologik albomini tuzadi va Samarqand me'moriy obidalarini suratga oladi. Biroq savobli ishlar bilan bir qatorda, Zarafshon vohasida ham butun o'lkada bo'lGANI kabi rus amaldorlari, harbiylari va savdogarlari o'rtasida qadimiy noyob narsalarga bo'lgan g'arazli qiziqish kuchayib bordi. Ular qadimiy noyob narsalarni har xil yo'llar bilan qo'lga kiritishga urindilar.

Masalan, A. Kun general Abramovga yo'llagan maktubida mahalliy millat vakillaridan uch kishi uning iltimosiga ko'ra Buxorodan oltin va boshqa metallardan ishlangan tangalarni olib kelganligini, ularga bir xil narx taklif qilganligiga qaramay, Samarqand bo'limi boshlig'i podpolkovnik Serovga undan ham qimmatroq narxlarda sotganligini

ta'kidlaydi. A. Kun general Abramovdan Rossiya hukumati amaldorlari ning qadimiy noyob topilmalar bilan o'lkada chayqovchilik qilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishini so'raydi. Abramov javobida A. Kun bu masalada haq ekanligini tan olsa-da, bu ishga aralashishdan qat'iy bosh tortadi va amaldorlarning o'lka xususiy mulkiga tegish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

General Abramovning A. Kunga bergan javobidan ruhlangan rus amaldorlari yanada yirik ishlarni qilishga yo'l ochib berdi. Ba'zi amaldorlar arxeologik topilma nima ekanligini bilmasdan Samarqanddag'i Afrosiyob xarobalarini qazishga tushdilar. Bunday qazish ishlari o'lkada ommaviy tus olib ketganligi boisdan o'zboshimchilikni cheklash uchun Turkistondagi chor hukumati 1871-yil 3-martda 942-sonli maxsus qaror chiqarishga majbur bo'ldi. Bu qarorga ko'ra shaxsan K. fon Kaufmanning ruxsatisiz hech qanday qazish ishlarini amalga oshirish mumkin emas edi. Biroq bu ko'rsatma ham to'liq samara bermadi. Shunga o'xshash qarorlar 1879, 1882, 1892-yillarda ham e'lon qilindi.

Shu o'rinda N.I. Veselovskiy quyidagilarni ta'kidlaydi: «Mana bu – haqiqiy harbiy boshqaruvdir... Biz bu yerga sivilizatsiya keltirdik, deb o'ylaymiz... Biz bo'ysundirgan o'rta osiyoliklarga tinchlik, osoyishtalik, xavfsizlik keltirdik, deb o'ylaymiz... Ammo bularning hammasidan a'loroq bir saodat bor. Bu milliylik, milliy g'ururdir... Bo'ysundirilgan musulmonlarning ahvolini tushunish kerak. Siyosiy o'lim og'ir, ammo millatning o'limi yanada fojaliroqdir. Bizning hukmronligimiz vaqtida ular milliy qiyofasini yo'qotdilar. Milliylikni boshqa biror baxt-saodat bilan almashtirish mumkin emas. Bizning hukmronligimizga qarshi harakatlar portlashiga ajablanmasak ham bo'ladi. Axir milliy manfaatlar degan gap bor. Xalq to'qmi, yaxshi kiyinmaganmi, och-yupunmi, bundan qat'i nazar milliy manfaatlar tashqariga otolib chiqishi mumkin».

1879-yil O'rta Osiyoda ham temiryo'l qurish va Amudaryoda kemalar qatnovini yo'lga qo'yish uchun kompleks ekspeditsiya amalga oshirildi. Ekspeditsiya tarkibiga graf Rostovsev, muhandis Yakupov, professor Sorokin, podpolkovnik Mayev va boshqalar qatnashdi. Bu tadqiqotdan asosiy maqsad O'rta Osiyoning qaysi yo'nalishida temiryo'l qurish, yo'l qurish uchun qulay bo'lgan joylarni aniqlash, Buxoro amirligi chegaralarini mustahkamlash va nazorat qilish qulay bo'lishi uchun Amudaryo flotiliyasini ochishni maqsad qilib qo'yilgan edi. 1887-yil-

**5. O'lkamizda ilk paleolit davriga oid moddiy manbalar qayerdan topib o'r ganilgan?**

- A. Farg'ona, Toshkent
- B. Samarqand, Farg'ona
- C. Buxoro, Navoiy
- D. Xorazm, Andijon

**6. O'rtta Osiyoda yashagan neolit qabilalari xo'jalik shakllariga ko'ra nechta madaniyatga bo'lib o'r ganilgan?**

- A. 3 taga – Joytun, Kaltaminor, Hisor
- B. 4 taga – Zamonbobo, Joytun, Kaltaminor, Hisor
- C. 1 taga – Zamonbobo
- D. 3 taga – Joytun, Kaltaminor, Hisor

**7. O'lkada dastlab Turkiston xalq dorilfununi ochilgan yil to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating.**

- A. 1918-yil may
- B. 1917-yil oktabr
- C. 1916-yil yanvar
- D. 1920-yil may

**8. Abulqosim madrasasi respublikamizning qaysi hududida joylashgan?**

- A. Toshkentda
- B. Samarqandda
- C. Buxoroda
- D. Termizda

**9. N.N. Muravyov Xivaga diplomatik topshiriq bilan qachon kelgan?**

- A. 1819-yil oktabrda
- B. 1823-yil dekabrda
- C. 1821-yil noyabrda
- D. 1830-yil mayda

**10. Strabonning «Geografiya» asari nechta kitobdan iborat?**

- A. 17 ta
- B. 19 ta
- C. 20 ta
- D. 22 ta

---

## II BOB. O'LKAMIZNING TARIXIY GEOGRAFIK O'RNI

### **Reja:**

1. O'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografiyasi.
2. Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davri tarixiy geografiyasi.
3. Somoniylar, qoraxoniylar va mo'g'ullar bosqini davri tarixiy geografiyasi.
4. Amir Temur va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi.
5. Xonliklarning ma'muriy-hududiy bo'linishi, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi.
6. O'zbekistonning tabiiy geografik tavsifi.
7. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi.

**Tayanch iboralar:** tarixiy geografiya, ma'muriy, hududiy, o'lka, antik, ilk o'rta asrlar, somoniylar, qoraxoniylar, Amir Temur, temuriylar, shayboniylar, ashtarkoniylar, Buxoro, Xiva, Qo'qon, relyef, daryolar, suv manbalari, tog', tekislik.

### **1. O'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografiyasi**

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda ilk temir davriga o'tilishi bilan O'zbekistonda dastlabki yirik davlatlar vujudga keldi, shaharlar barpo etilib, dehqonchi'tik, hunarmandchilik jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

*Qadimgi Baqtriya* turli qadimgi tillar yozma manbalaridagi Baxdi, Baqtrish (Avesto), Baqtriyona, Baqtriya (yunon), Baxli (hind manbalarida) yirik o'lka va davlatning nomidir. Olimlarning fikriga ko'ra, Baqtriya – bu Baxdi, Bastra daryosi (hozirgi Balxob) nomi bilan bog'liq bo'lgan tushunchadir. Rim tarixchisi Kursiy Ruf bunday xabar qiladi: «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan».

Baqtriya tarixiy-madaniy viloyat, Baqtriya davlati ma'nolarida ishlatalilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari qo'shilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida daryolar muhim hayot manbayi vazifasini bajargan. Hozir ham O'zbekistonning viloyatlari, asosan, daryo va shaharlar nomlari bilan belgilangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Baqtriya yerlari Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyatini o'z ichiga olgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Baqtriya hududida ibridoiy odamlar ilk va o'rta tosh davridan boshlab yoyilgan. O'zbekistonga qarashli Baqtriya qismida Teshiktosh, Machay va Zarautsoy kabi tosh asri yodgorliklari uzoq o'tmisht hayoti haqida ma'lumot beradi.

Miloddan avvalgi 700–540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, bu yirik davlatning hududiy chegaralari: Murg'ob vohasi, Hindukush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro vohasiga borib taqalgan bo'lishi mumkin (daryo vohalari – Murg'ob, Balxob, Qunduz, Panj, Vaxsh, Kofirnixon, Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon). Bu ilmiy xulosani isbotlash uchun bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Agar yuqorida ko'rsatilgan hududiy chegaralarni Baqtriya davlati o'z ichiga olganligi haqidagi ilmiy xulosalar to'g'ri bo'lsa, Markaziy Osiyoda rivojlangan dastlabki davatlardan qadimgi Baqtriya eng yirigi bo'lган. Bu davrlarda Baqtriya viloyatlariga qadimgi Xorazm davlati va sak-massagetlarning harbiy-siyosiy uyushmasiga tegishli o'lkalar chegaradosh bo'lган.

Videvdat kitobida Baqtriya «eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lган, baland bayroqli, go'zal o'lka» sifatida yoritilgan. So'nggi yunon manbalarida Baqtriya «ming shaharlar davlati» deb atalgan.

Baqtriya ayrim daryo vohalaridagi beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirnixon, Vaxsh, Panj, Ko'kcha, Qunduz vohalari shular jumlasidandir. Surxon vohasining markazi Qiziltepa bo'lган. Shimoliy Afg'onistonda yirik shaharlar qoldiqlari – Bolo Hisor va Oltindilyorlar topib tekshirilgan. Bolo Hisor o'mida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Gerodot va Ktesiylarning ta'kidlashicha, Baqtrianing markazi bo'lган.

Ktesiyning «Persika» asarida Baqtriyaning juda ko‘p istehkomlari va qal’alari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog‘idan miloddan avvalgi I mingyllikning bиринчи yarmiga oid 240 dan ortiq uy-qo‘rg‘onlar, qal’alar va shaharlar qoldiqlari topib tekshirilgan. Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Beshqo‘ton, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Bo‘yrachi, Qizilcha, Obishir va Sho‘rtepa yodgorliklarini sanab o‘tish lozim.

**So‘g‘diyona.** Turli manbalardagi So‘g‘da, So‘g‘uda, So‘g‘diyona nomlarining kelib chiqishi va ularning ma’nosisi hozircha noma’lum. «Avesto»ning «Yasht» kitobida tilga olingan «So‘g‘d makoni Gava» – So‘g‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Gava (Gau) – «buqa», «poda» degan ma’nolarni bildirib, u Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan.

Qadimgi yunon tarixshunoslari So‘g‘diyonani Baqtriya yoki sak-massagetlarga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Iskandar yurishlaridan so‘ng So‘g‘diyona haqida ma’lumotlar ancha to‘liqroq bo‘lib, kengayib boradi.

So‘g‘diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi-sharqda Baqtriya va shimoli-g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh bo‘lgan. Qadimgi zamonlarda ham So‘g‘diyona muhim savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan. So‘g‘diyona haqida «Avesto», Gerodot va ahamoniylar davri yozuvlarida ma’lumotlar berilgan.

So‘g‘diyonaning markazi Maroqanda shahri bo‘lgan. Maroqanda-ning qoldiqlari – bu hozirgi Afrosiyob shahar xarobalaridir. Ahamoniylar davrida bu shaharning maydoni 219 hektardan iborat bo‘lib, u muddofaa devorlari bilan o‘ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma’lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km ga yaqin bo‘lgan tashqi devori va qo‘rg‘oni bo‘lgan.

So‘g‘diyonaning markaziy shaharlari qatoriga Qarshi atrofidagi Yerqo‘rg‘on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir yodgorliklari ham kiritish mumkin. Bu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi So‘g‘diyona aholisining xo‘jaligi va madaniyatini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

**Qadimgi Xorazm.** Xvarizam («Avesto» tilida), Xvarazmish (qadimgi fors tilida), Xorasmiya (qadimgi yunon tilida) tushunchalari

O'zbekistonning ma'lum bir viloyatining nomi sifatida saqlangan. Gekatey va Gerodotlarning Akes daryosi suvlari bilan foydalanuvechi yerlar haqidagi xabarlariga ko'ra, «Katta Xorazm» davlati to'g'risidagi ilmiy nazariya paydo bo'lgan. Bu davlatga Gerodot sanab o'tgan xalqlar girkanlar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylar yerlari ham kirgan. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha (V.Tarn, F.Altxaym), ahamoniylar davridan oldin xorazmliklar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida joylashganlar. Xorazm davlatining markazi Marv va Hirot atrofida bo'lib, bu davlatni Kir II bo'ysundirgandan so'ng xorazmliklar quyi Amudaryo (hozirgi Xorazm viloyati)ga ko'chib borganlar deb faraz qilinadi (V.B.Xenning, I.Gershovich). Bu nazariyaga ko'ra, xorazmliklarni Quyi Amudaryo yerlariga qadimgi forslar siqib chiqarganlar, degan xulosa paydo bo'ladi.

S.P. Tolstov, M.G. Vorobyovalar bu nazariyaga qarshi chiqishadi, xorazmliklar Markaziy Osiyo janubidan ko'chib kelmaganlar. Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan degan xulosaga kelganlar. Ammo bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududidan ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryoda Qo'shqal'adan boshlab Orol dengizigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Bu hududda miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid 310 ta uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari aniqlangan. Bu yodgorliklar ichida eng yiriklaridan biri Qo'zaliqir shahri hisoblanib, u mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Qo'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi Baqtriyadagi Qiziltepa shahar devorlarining tuzilishiga ancha o'xshashliklar tomoni borligi kuzatiladi. Baqtriya, Xorazm shahar markazlari mudofaa devorlarining o'rtasida jangchilar yurishi uchun maxsus yo'lak bo'lgan.

Qadimgi Xorazm davlati miloddan avvalgi VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan yerdarda vujudga kelgan degan xulosaning to'g'riligi tasdiqlandi. Bu davlat Marg'iyonadagi Marv atrofida rivojlanmagan, chunki yozma manbalarga ko'ra, Marg'iyona qadimgi Baqtriya davlatining yirik viloyati bo'lgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan.

Shu yerlarda bir-biriga ro‘para holatda ikkita qadimgi istehkom – Odoytepa va Qo‘sqal’ a qurilgan. Xorazmliklar egalik qilgan yerlar So‘g‘diyona, Marg‘iyona va Baqtriyaga tegishli o‘lkalarga borib ta-qalgan. Balki shuning uchun ham Gekatey xorazmliklar viloyatini parfiyaliklardan sharqiy tomonda joylashtirgan. Gerodot esa parfiyaliklar va xorazmliklarning yerlari chegaradosh bo‘lgan deb ko‘rsatgan.

**Sak-massagetlar.** Saklar Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning tog‘lari, dashtlari va cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalardir. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda ularga qarindosh bo‘lgan qabilalar Qora dengizning shimoliy sohillaridan to Xitoy chegaralarigacha bo‘lgan keng hududda joylashgan.

Qadimgi fors yozuvlari ko‘chmanchilami «saka», «shaq» deb yoritadi, yunon tarixshunoslari esa «skiflar», «sarmatlar», «saklar», «massagetlar», so‘nggi davrlarda «dahlar», «olonlar» deb ataganlar. Ahamoniylar yozuvlarida saklar quyidagi guruhlarga bo‘lingan: 1. «Saka tigraxauda» (I.M. Oranskiy fikricha, «tigra» – bu «o‘tkin», «xauda» – «bosh kiyim»). 2. «Saka xaomavarka» («xaomani ulug‘lagan saklar»). Xaoma «muqaddas ichimlik» hisoblangan. 3. Saka-tiay-taradorayya. Suza shahrida topilgan Doro I ning haykalidagi yozuvlarda «balchiq va tuproq o‘lkasi saklari» tilga olingan. Gerodot «amirgiy» saklar haqida xabar beradi. Olimlar fikriga ko‘ra, «sak» so‘zi – bu qudratli, idrokli, epchil bo‘lish yoki kuchli, azamat, mard deb tarjima qilinadi. Behistun yozuvlarida ko‘chmanchilarning yurti umumiy yagona bir so‘z bilan «Saka» deb ko‘rsatilgan.

Sak massagetlarni, Gerodotning aytishicha, «ba’zilar skif qabilasi deb hisoblaydilar». Saklarning ot anjomlari, o‘qlari va xanjarlari skif qurol-aslahalariga o‘xshaydi. Bronzadan ishlangan san’at buyumlarida ham yaqin xususiyatlar va katta o‘xhashliklar bor. Ko‘chmanchilarni mustahkam madaniy aloqalar bir-birlari bilan bog‘lab turgan. Gerodotning fikriga ko‘ra, massaget va skiflarning turmush tarzi ham bir-biriga o‘xshaydi, biroq ular otda va piyoda jang qiladilar. Ko‘chmanchilarning madaniy an‘analari va urf-odatlari ularning xo‘jaligi va yashash sharoitidan kelib chiqib, bir-biridan uncha farq qilmagan.

Massagetlar, tadqiqotchilar fikricha, bu aynan sak qabilalarining yirik harbiy-siyosiy uyushmasidir. Massaget so‘zini ikki xil – «ulug‘

getlar» yoki «yirik sak o'rdasi» deb tarjima qilish mumkin. Oxirgi tushuncha «massaget» so'zi ma'nosiga ko'proq to'g'ri keladi.

Bronza davridan boshlab Yevrosiyoning keng hududida chorvador qabilalar tarqaladi. Ilk temir davrida ular Markaziy Osiyoning o'troq xo'jaliklariga ega viloyatlari chegaralarida ham joylashadilar. Saklarning mozor-qo'rg'onlari Baqtriya yerlariga yaqin bo'lgan Pomir tog'larida, So'g'diyona chegaralarida, Quyi Zarafshonda, Xorazm atrofida, Quyi Sirdaryoda va boshqa hududlardan topib tekshirilgan.

Miloddan avvalgi VI asming o'rtalarida tashkil topgan ulkan ahamoniylar davlati tarkibiga hozirgi Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Shimoliy Hindiston, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Misr kabi hududlar kirgan edi. Bu ulkan davlat ma'muriy qaram o'lkalar – satrapiyalarga bo'lingan edi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu an'ana Middiya davlatidan qabul qilingan, Doro I davrida ma'muriy boshqaruva islohotlar o'tkazilib, butun davlat 20 ta ma'muriy qaram satrapiyalarga bo'linadi. Ularni satraplar (shahanshoh noiblari) boshqargan. Satrapiyalar ancha yirik bo'lib, ayrim hollada bir necha o'lka va viloyatlarni birlashtirgan. Masalan, Parfiya, Girkaniya, Ariya, Xorasmiya va So'g'diyona bitta satrap tarkibiga kirgan.

Miloddan avvalgi 323-yilda Aleksandr Makedonskiy o'lgandan keyin makedoniyalik mahalliy zodagonlar O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy birligini yo'qotish maqsadida mamlakatni mayda bo'laklarga bo'lib tashlaydilar. Miloddan avvalgi 312-yilda Iskandarning sarkardalaridan biri bo'lgan Salavkaga Bobil (Mesopotamiya) va uning sharqidagi mamlakatlar topshiriladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, u o'zi hukmronlik qilayotgan mamlakatlarning chegaralarini kengaytirib, Sirdaryo va Hind daryosi nariyog'idagi yerlarni ham egallaydi, shu tariqa salavkiylar sulolasini boshlab beradi.

Salavkiylarga qarshi xalq ommasining kurashi asta-sekin kuchayib botganligi natijasida miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya davlati ajralib chiqadi. Bu davlat quldorlikka asoslangan bo'lib, salavkiylarning Baqtriyadagi vorisi Diodot tarafidan asos solingan. Markazlashgan monarxiya shaklidagi Yunon-Baqtriya davlati tepasida podsho turgan. Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hokimlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta yerlar qo'shib olinadi.

Davlatning poytaxti Shimoliy Afg'onistonidagi Baqtra shahri edi. Davlat bir necha satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ma'lum darajada mustaqil bo'lgan.

Miloddan avvalgi II asrning so'nggi choragi (ba'zi manbalarda ayishlaricha, miloddan avvalgi 166-yil)da Yunon-Baqtriya podsholigi sak va yuechji qabilalari tomonidan istilo qilingan.

Miloddan avvalgi II asr boshlarida ko'chmanchi qabilalar Qang davlatini barpo qiladilar. Qang davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni miloddan avvalgi II va milodiy I asrda Qang davlatining hududi ancha kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olar edi.

Ushbu davlatlar haqida ilk ma'lumot Chjan Syan (miloddan avvalgi 128-yil) yozma manbalarida uchraydi. Qang davlati tarkibiga O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi yerlari (Baqtryadan tashqari) kirgan.

Qang davlatining poytaxti Bityan shahri bo'lgan. Aholisini qang'lar deb yuritishgan. Qang davlati konfederatsiya shaklida bo'lib, unga miloddan avvalgi I asr – milodiy I asrda 5 ta mustaqil mulklar kirgan. Bu mulklar quyidagilar:

1. Suse (Kesh, hozirgi Qashqadaryoning sharqiy qismi).
2. Fumu (Zarafshon vodiysi).
3. Yuni (Choch-Toshkent vohasi).
4. Gi (ehtimol, Buxoro).
5. Yuegan (Urganch, Xorazm).

Bu mulklar Qang davlati podshosiga bo'ysungan. Qang podsholari o'zlarining tangalarini zarb qilganlar. Milodning III asriga kelib Qang davlati bir necha mustaqil mulklarga bo'linib, davlat sifatida barham topdi.

O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida: Chjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning

«Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolası tarixi» asarlарида берилди. Бұнан балдарда ушбу даял «Дайюань» яки «Даван» номи остида есептілді. «Фарг‘она» со‘зи со‘г‘д манбаларада «Фрагоник» тәкілдә ўзіліп, «тог‘лар орасындағы водиј, атрофи берк соылік» ма’носини беради. Хитой манбаларадағы Dayyuan ham «тог‘лар орасындағы водиј» ма’носини беради.

Davlatning poytaxti Ershi shahri bo‘lgan. Davlatning hududlari Toshkentgacha borib, davlat boshida hukmdor turgan. Davlat boshqaruvida yoshi ulug‘ kishilarning yig‘ini katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular hatto hukmdorlarni ham o‘zgartirishlari mumkin bo‘lgan. Miloddan avvalgi 104–102-yillarda Dovon bilan Xitoy o‘rtasında urushlar bo‘lib o‘tgan. Xitoylyklar bu yerda o‘z hokimiyatlarini o‘matgach, qaytib ketganlar. Lekin farg‘onaliklar xitoylyklar qoldırıb ketgan hukmdorni ag‘darib tashlab, o‘z hokimiyatlarını o‘rnatadilar.

Miloddan avvalgi II – milodiy IV asrlarda O‘rta Osiyoning кatta қисми, Afq‘oniston, Shimoliy Hindiston va boshqa bir qator yerlarni o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasi O‘rta Osiyo xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Miloddan avvalgi I asrga kelib katta yuechji uyushmasidagi Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib, hududi kengayib bordi.

Kushonlar davlatining shimoliy chegaralari muammosi hozirga qadar uzil-kesil hal qilinmagan. Kushonlar sultanatining shimoliy chegaralari masalasi ilk bor 1938-yili S.P. Tolstov томомидан ко‘tarildi. Olim O‘rta Osiyoning qadimgi tarixiga bag‘ishlangan maqolasida Kushonlar sultanati таркебига So‘g‘diyonani ham qo‘shgan. Uning fikricha, So‘g‘diyona Kushonlar sultanatiga Kujula Kadfiz (Kudzula) hukmronligi davrida qo‘shib olingen. Kushonlar sultanatining shimoliy hududlari to‘g‘risida S.P. Tolstovning xulosalari keyingi tadqiqotchilar uchun узоқ ваqt ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Улар S.P. Tolstovning fikriga qo‘shilgan holda qator yangi o‘lkalarни Kushon davlati таркебига kirita boshladilar. Xususan, 1949-yili B.R. Kafurov So‘g‘diyona va Xorazmni Kushon davlati таркебига kirgan degan fikrni qo‘llab-quvvatladi. Xuddi shunday fikrni 1950-yili K.V. Trever ham yoqlab chiqdi.

K.V.Trever Kushon davlati таркебига So‘g‘diyona va Xorazm bilan birga Choch viloyatini ham qo‘shgan. B.K. Kafurov va K.V. Trever o‘zlarining keyingi tadqiqotlarida bu fikrlarini yana-

da rivojlantirdilar. Xuddi shu yillari A.N. Bernshtam Tyanshan va Pomir-Oloyda olib borilgan arxeologik qazishmalarning yakunlariga asoslanib va yozma manbalarni tahlil qilgan holda Farg'onani ham Kushon davlati tarkibiga kirgan degan xulosaga keldi. Keyinchalik Ustrushona ham Kushonlar sultanati tarkibida bo'lgan, degan fikr paydo bo'ldi. Mazkur masala xususida M.Y. Masson mavjud yozma manbalar va arxeologik topilmalarni chuqur tahlil qilib, Kushon davlatining shimoli-g'arbiy chegaralari Kujula Kadfiz hukmronligi davrida Marvdan sharqroqda, Omul-Chorjo'ydan o'tgan degan xulosaga keldi.

1956-yil «SSSR tarixidan lavhalar» kitobi nashr etildi. Mazkur kitobning «O'rta Osiyo milodning I asrlarida» degan bobini yozgan mualliflarning fikricha, So'g'diyona, Xorazm va Farg'ona Kushonlar davlati tarkibiga kirgan. Xuddi shu yili I.V. Kudryavsev ushbu masalaga to'xtalib, So'g'diyona va Farg'ona Kushon davlati tarkibiga kirgan degan xulosaga keladi. Uning taxminicha, Xorazm Kujula Kadfiz tomonidan bosib olingan. 1961-yili B.Y. Stavitskiy mazkur muammo bo'yicha bildirilgan mavjud fikrlarni o'rjanib, arxeologiyaning yangi ma'lumotlari va yozma manbalarni jalb qilgan holda Kushon davlatining dastlabki o'zagi sifatida Baqtarya bilan birga So'g'diyona, Xorazm va Chochni qayd qiladi. Uning fikricha, Farg'ona bu davlat tarkibiga kirmagan.

1962-yili S.P. Tolstov o'zining yirik asarida Xorazmdagi Tuproq-qal'ada olib borilgan qazish ishlarini tadqiq qilib, Xorazm milodning II-III asrlarida Kushonlar sultanati tarkibiga kirgan degan xulosaga keldi. Ushbu muammo xususidagi an'anaviy fikrlarga birinchilardan bo'lib E.V. Zeymal qarshi chiqdi. U Tojikistonda topilgan tangalarini har tomonlama tahlil qilib, Xorazmni Kushonlar davlati tarkibiga kirgan degan fikrni noto'g'ri deb hisoblaydi. Uning fikricha, Marg'iyona ham Kushonlar davlatining tarkibiga kirmagan. Lekin So'g'diyona masalasida V.M. Masson ikkilanadi va bu o'lka kushonlarning ta'sirida bo'lgan bo'lishi mumkin deb qayd qiladi. M.Y. Masson Marvni Xorazm va So'g'diyona bilan bog'lovchi savdo yo'llarini o'rjanar ekan, Xorazm va So'g'diyonani Kushon davlati tarkibiga kinnagan deb hisoblaydi. Uning fikricha, Omul-Chorjo'y hududlarigina Kushonlar sultanati tarkibiga kirgan.

M.Y. Masson Xorazm, Choch, Farg'ona va So'g'diyonani Kushonlar davlati tarkibiga kiritishni asossiz deb hisobladi. Shimoliy Baqtriya Kushonlar sultanati tarkibida strategik ahamiyatga molik chegara viloyat bo'lgan. Darband devorining kashf etilishi So'g'diyona, Farg'ona, Choch va Xorazmni Kushonlar sultanati tarkibiga emas, balki Kangda Kangyuy davlati tarkibiga kirganligini ko'rsatadi. Bu borada Baqtriyada va yuqorida qayd qilingan viloyatlardagi so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning natijalari ham guvohlik bermoqda. Kushonlar davri Baqtriyasining aytarli hamma yodgorliklarda uchraydi. Kushon tangalari, buddaviylik yodgorliklari va umuman, moddiy madaniyat So'g'diyona, Farg'ona, Choch va Xorazmning moddiy madaniyatidan jiddiy farq qiladi.

Agar ular bir davlat tarkibida bo'lganlarida edi, ularning moddiy madaniyati ham o'zaro yaqin bo'lgan bo'lardi. Shunday qilib, yangi tadqiqotlarga tayangan holda xulosa qilinsa, Kushon davlatining shimoliy chegaralari Hisor-Boysun tog'lari orqali o'tgan deb hisoblash mumkin. Aytish mumkinki, yozma manbalardagi ma'lumotlar ham bu fikrga zid emas. Chunki ularda Kushon shohlari Shimolga, So'g'diyona yoki Xorazmga yurish uyushtirganlari to'g'risida so'z yuritilmagan. Darband devorlarining kashf etilishi, Kushon sultanatining Qang'da Kangyuy davlati bilan munosabatlari masalasiga ham ma'lum oydinlik kiritadi. So'nggi o'n yil davomida chop etilgan ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarida Kushon davlatining shimoliy chegaralari masalasida xato va noto'g'ri fikr-mulohazalar bildirilgan. Ba'zi kitoblarda So'g'diyona, Xorazm va Choch viloyatlari Kanishka davrida Kushon davlati tarkibiga kirgan hamda mazkur hukmdor tomonidan zarb etilgan «Shohlar shohi, ulug' xaloskor» degan so'zlar bitilgan tangalar Ashxoboddan Xorazm va Toshkent vohasigacha bo'lgan hududlarda ko'plab yurilgan degan asossiz xulosalar bildirilgan.

## 2. Kidariylar, xioniyilar, eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davri tarixiy geografiyası

IV–V asrlar O'rta Osiyo hududlariga ko'chmanchi qabilalarning kiritib kelishi, qabilalar ittifoqi yuzaga kelishi natijasi bo'lgan, yangi siyosiy kuchlardan biri kidariylar bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar

Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g‘arb muallif tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma’lumotlarida uchraydi. Tadqiqotchilarning fikricha, kidariylarning dastlabki vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida berilishicha, yuechjilar hukmdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o‘z qarorgohini Bolo (Balx)ga ko‘chirgan. Yana shu manba xabar berishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib Gandharadan shimoldagi 5 ta davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar Sharqiy Turkistondan ko‘chishni boshlaganidan so‘ng ular ikki qismga bo‘linib, katta qismi shimoli-g‘arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O‘rta Osiyoga joylashadilar, degan fikri ilgari suradilar.

Ayrim tadqiqotchilar kidariylarni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig‘i bo‘lishi mumkin degan fikri ilgari surishadi. Shuningdek, kidariylarning O‘rta Osiyoning janubidagi xioniylar bilan ittifoqchiligi hamda ulaming Eronga qarshi birgalikdagi harakatlari to‘g‘risidagi taxminlar ham bor.

IV asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo yerlariga shimoli-sharqdan xion qabilalari bostirib kira dilar. Tarixda xioniylar nomi bilan mashhur bo‘lgan bu qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orolbo‘yida deb hisoblaydilar. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo‘lganliklaridan bo‘lsa kerak, g‘arb tarixchilari ularni «oq xunlar» deb ataydilar. IV asrning o‘rtalarida ancha kuchaygan xioniylar janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to‘qnashadilar. Bu to‘qnashuvlar hamda xioniylar yo‘lboshchisi Grumbat, ulaming Suriyadagi Umda shahrini qamal qilganliklari haqida Ammian Marsellin ma’lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag‘lubiyatga uchrasalar-da, keyinroq ular sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi Shopur II ga qattiq zARBalar beradilar. O‘rta Osiyoda kidariylar va eftaliylar hukmronligi o‘matilgach, xioniylarning siyosiy ahvoli o‘zgaradi va ular eftaliylarga tobe bo‘lib qoladi.

V asming o‘rtalarida O‘rta Osiyoga ko‘chmanchi eftaliy qabilalari kirib kelishadi. Eftaliylar davlati hududlari haqida Xitoy solnomalari va arab-fors tarixchilari asarlarida ma’lumotlar uchraydi. Ularga tayangan holda eftaliylar davlatiga O‘rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston, Gandhara va V asming ikkinchi yarmida Shimoliy Hindistonning boshqa bir qancha viloyatlari ham kirganligini bilishimiz mumkin. Bu davlat o‘z hududiga ko‘ra kushonlar davlatidan ham katta edi. Kushonlar davridagi kabi eftaliylar zamonida ham saltanat yakka hukmdor

tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, taxt otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o‘sha taxtga o‘tirgan.

VI asming boshlariga kelib, eftaliylar anchagina katta hududlarni egallagan edilar, ko‘pchilik manbalar eftaliylarning dastavval ko‘chmanchi xalqlar bo‘lib, keyinchalik o‘troqlashganligi haqidagi ma’lumot beradi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni ko‘chmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta’kidlaydilar. Eftaliylarning poytaxti Balx shahri edi.

VI asrda Oltoy hududlarida davlat tuzilmalari tashkil topa boshlaydi. Bu davlat birlashmalaridan biri Turk xoqonligi bo‘lib, O‘rtta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu davlat asoschisi Bumin avval tele qabilalarini birlashtirib, so‘ngra jujanlarga qattiq zarba beradi. Ularni inqirozga uchratib, Mo‘g‘uliston va Oltoy hududlarida davlat tuzadi. Shu yili, ya’ni 551-yilda Bumin yabg‘u unvonini oladi va shu davrdan boshlab Turk xoqonligi rasmiy e’tirof etiladi. Turklar va eftaliylar o‘rtasidagi dastlabki to‘qnashuvlar VI asming 50-yillariga to‘g‘ri keldi. Ular dastlab O‘rtta Osiyoning shimoliy qismida to‘qnashgan edilar.

Turklar Eron bilan eftaliylarga qarshi ittifoq tuzadi va ikki tomonlama qurshovda qolgan eftaliylar turklarga yaxshi qarshilik ko‘rsata olmaydi va Buxoro yaqinidagi hal qiluvchi jangda yengilishadi. Katta Kultegin bitiktoshida: «Ular (Mug‘an va Istem) Temir kapig‘gacha o‘z xalqini yoyishdi» degan yozuvlar bor. Temir kapig‘, ya’ni Temir darvoza Boysun tog‘idagi So‘g‘d va Toxariston oralig‘idagi o‘tish joyi edi. Turk xoqonligining sharqdan g‘arbgacha bo‘lgan chegarasi esa Koreyadan Qora den-giz bo‘ylarigacha cho‘zilgan edi. Lekin bu davlat u darajada mustahkam bo‘lmay, balki urug‘-qabilachilik sababli hamda 603-yilda ichki nizolar tufayli ikkiga: g‘arbiy va sharqiy turk xoqonligiga bo‘linib ketadi.

VI asming oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida yangi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib, markazlashgan davlat birlashmasi vujudga keldi. Bu jarayonda shu davrda Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan asos solingan islom dini birlashtiruvchi vazifani bajaradi. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng, ya’ni 632-yildan uning o‘rniga davlatni xalifalar boshqaradi va bu davlat tarixga arab xalifaligi nomi bilan kiradi. Arab xalifaligi istilochilik yurishlari olib borib, tez orada Yaqin va O‘rtta Sharqning boy viloyatlarini bosib oladi. Shu bilan birga arablar sosoniylar hududlariga ham

yurishlar qilib, 651-yilda Marvgacha yetib keladi va bu yerda sosoniylarning so'nggi hukmdori Yazdigard III o'ldirilib, bu sulola hukmronligiga chek qo'yiladi. Mazkur hududda markazi Mary bo'lgan Xuroson noibligi tashkil topadi va keyinchalik bu markaz arablarning O'rta Osiyoni istilo qilish maqsadidagi yurishlariga bevosita boshchilik qiladi.

Arablar Amudaryoning shimolidagi yerlarni Movarounnahr, ya'ni daryo ortidagi yerlar deb atashadi. Ularning Movarounnahrdagi faoliyatni ikki bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichda arablar Movarounnahrda faqat talonchilik va raqiblarning kuch-qudratini aniqlash maqsadida yurishlar olib borishadi.

Ikkinci davrda arablar Movarounnahr hududlarida istilochilik yurishlarini olib borishadi.

Arablarning Movarounnahrni istilo qilishi 704-yilda Xuroson noibligiga tayinlangan Qutayba ibn Muslim faoliyati bilan bog'liq. Qutayba o'z faoliyatini 705-yilda Balkni va uning atroflarini bosib olishdan boshlaydi. Mazkur hududlarni bosib olgan Qutayba 706-yilda Poykandni istilo qiladi. Arablarning keyingi yurishlari Buxoroga qaratilgan bo'lib, 708–709-yillardagi urushlardan so'ng Buxoro ham arablar qo'l ostiga o'tadi. 711-yilda Xorazm ham arablarning vassalligiga aylantiriladi. 712-yilda Qutayba Xorazm va janubiy viloyatlaridan olingan qo'shimcha qo'shin bilan Samarqandga tashlanadi. Bir oylik qamaldan so'ng Samarqand ham arablar qo'l ostiga o'tadi.

### **3. Somoniylar, qoraxoniylar va mo'g'ullar bosqini davri tarixiy geografiyası**

IX asming ikkinchi yarmida Movarounnahrda somoniylar sulolasini paydo bo'ldi. Bu sulola asoschisi Somon bo'lib, uning xalifalik oldidagi xizmatlari evaziga nabiralariga Movarounnahrning turli viloyatlari noiblik sifatida beriladi. Nuhga Samarqand; Ahmadga Farg'ona; Yahyoga Shosh va Ustrushona; Ilyosga Hirot beriladi. Somoniylar sulolasini noiblariga dastlab Ahmad, 864-yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Nasr boshchilik qildi. 873-yilda Buxoro aholisining taklifiga binoan bu hudud ham somoniylar boshqaruviga o'tib, unga Nasrning ukasi Ismoil noib qilib tayinlanadi. Ismoil Nasrga bo'ysunmay mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. 886-yilda Nasr va Ismoil o'rtaida jang

bo'lib, Ismoil yengiladi. Lekin ikki yildan so'ng bo'lib o'tgan keyingi to'qnashuvda Ismoil g'alaba qozonadi va 892-yilgacha, ya'ni akasining vafotigacha rasmiy ravishda somoniylar hukmdori sifatida e'lon qilinmaydi.

Somoniylar davlati ikki ulkan mamlakatni – Movarounnahr va Xurosonni o'z ichiga olgan. Movarounnahrga Amudaryo shimolidagi yerlar kirgan. Shulardan Buxoro, Samarqand So'g'di, Istaravshan, Choch, Iloq, Farg'ona, Kesh, Nasaf viloyatlari siyosiy va madaniy, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan edi. Daryolarning yuqori oqimi viloyatlaridan Chag'oniyon, Xuttalon, Qubodiyon, Ahorun, Shumon, Vashgird, Rasht, Kumed, Badaxshon, Karon, Shikinon, Vaxon, Ro'shon qisman somoniylarga tobe edilar. Xuroson Amudaryoning janubida joylashgan Balx, G'uzg'onon, Marv, Hirot viloyatlarini o'z ichiga olgan.

Somoniylar xalifalikdagidek hukmronlik tizimini o'matdilar. Davlat tepasida amir turgan. Amirlikning ma'muriy tizimi quyidagicha bo'lган: dargoh (amir saroyi) va devon (davlat idorasi). Saroydagi eng ulug' mansabdor hojibi buzrug (ulug' hojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Undan keyin sohibi meros (saroy soqchilari boshlig'i) turgan.

996-yilda qoraxoniylar Movarounnahrga tomon navbatdagi hujum boshlaydilar. Ularga Nasr ibn Ali boshchilik qiladi. Nuhga yordam berish uchun Sobuqtakin Chag'oniyon, G'uzg'on va Xuttalon hokimlari ning birlashgan qo'shinlaridan iborat katta kuch bilan Keshga yetib keladi. Nuhning ham o'z qo'shini bilan unga qo'shilishini talab qiladi. Bu somoniylar amirining hukmdorlik huquqlarini mensimaslik va ochiqdan ochiq unga qarshi chiqish edi. Nuh, shubhasiz, bundan bosh tortadi va farmoyish yuborib, Sobuqtakinni Buxoroga chaqirtiradi. Bunga javoban Sobuqtakin qo'shin yuborib Buxoroni egallaydi. So'ngra u qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o'itasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Sobuqtakin esa Amudaryodan janubdagi yerlar, shu jumladan Xurosonga hukmdor bo'lib oladi. Somoniylarga Movarounnahring markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar Buxoroni bosib oladilar. Garchi somoniylar to 1005-yilgacha Samarqand va Buxoroni qaytarib olishga uringan bo'lsalar-da, ammo 999-yilda Buxoroning Nasr Eloqxon tomonidan zabit etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topgan edi.

Shunday qilib, X asr oxirida somoniylar davlati o‘rnida ikkita yangi davlat tashkil topdi: biri Koshg‘ardan Amudaryogacha cho‘zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg‘ona va qadimgi So‘g‘dni o‘z ichiga olgan qoraxoniylar davlati bo‘lsa, ikkinchisi shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlarigacha bo‘lgan viloyatlarni qamrab olgan G‘aznaviylar davlati edi.

XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o‘rtalari oqimlaridan to Yettisuv, sharqda esa Torim daryosigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan edi. Ayrim olimlarning fikricha, shu vaqt-dan boshlab Qoraxoniylar Buxoro, Samarcand va umuman, Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg‘ona, Samarcand, Buxoro, Chag‘oniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg‘oq yerlari to G‘aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari g‘aznaviylar, Xorazm esa xorazmshohlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi yerlar o‘g‘uzlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

1017-yilda Mahmud G‘aznaviy tomonidan zabit etilib, o‘z mustaqilligidan mahrum bo‘lgan Xorazm ko‘p vaqt o‘tmay (1044-yil) saljuqiylar davlatiga qaram bo‘lib qoldi. Xorazmning mustaqillik uchun kurashti XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi. Saljuqiylar davlatining kuchsizlanishi natijasida bu davrda Xorazm o‘z mustaqilligini yanada mustahkamlaydi.

XII asrlarda, ayniqsa, shaharlar kengayadi, aholining soni ko‘payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarcand, Buxoro, Termiz, O‘zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi.

*Mo‘g‘ul (Chig‘atoy) ulusi.* Zabit etilgan o‘lka va viloyatlarni Chingizzxon hali hayotlik chog‘idayoq o‘g‘illari va nabiralariga taqsimlab berdi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrga uning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy ega bo‘ldi.

Shu tariqa XIII asr boshlaridayoq Chig‘atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig‘atoy ulusi tashkil topdi. Bu feodal davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi.

XIII asming 70–80-yillariga kelib, Movarounnahrda asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, shahar hayoti, xususan, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshladi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa, mahsulot va pul munosabatlarining tiklanishida Ma’sudbek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatlarida, jumladan Samarqand, Buxoro, Taroz, O’tror, Xo‘jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqardi.

#### 4. Amir Temur va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi

Chig‘atoy ulusi davrida Movarounnahrdagi o‘zaro nizolar va tarqoqlikni tugatish maqsadida Amir Temur kurash boshlaydi. 1365-yilda Movarounnahr hukmdori deb tayinlangan Ilyosxo‘ja qo‘s Shinlari bilan Temur va Husaynning ittifoqchi qo‘s Shinlari o‘rtasida Chirchiq daryosi bo‘ylarida bo‘lib o‘tgan jangda Ilyosxo‘ja qo‘s Shinlarining qo‘li baland keladi va u Xo‘jand, Jizzax shaharlarini egallab, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandda bu paytda sarbadorlar harakati maydonga chiqib, mo‘g‘ullarning qo‘s Shiniga qarshi qaqqhatqich zarba beradi. Ilyosxo‘ja avval Samarqandni, so‘ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Bundan xabar topgan Amir Temur va Amir Husayn Samarqandga keladilar. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi munosabat keskinlashib, nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. 1370-yilda Amir Temur Balxga yurish qilib, Amir Husayni taslim qiladi.

1370-yilning 10-aprelida Amir Temur Movarounnahr hukmdori deb e‘lon qilinadi. Amir Temur Movarounnahring yagona hukmdori bo‘lib olgach, o‘z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalo, 1370-yilning may oyida Samarqandga qaytib shaharni tiklaydi. Maxsus qo‘s Shin tuzib, davlat chegaralarini kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni birlashtirib, o‘ziga bo‘ysundiradi. Mo‘g‘ullar davrida Xorazm ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo‘lgan shimoliy Xorazm Oltin O‘rdaga, mar-

kazi Kat bo‘lgan janubiy Xorazm esa Chig‘atoy ulusiga bo‘ysungan. 1371-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlik hamda o‘zaro nizolarga barham berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo‘lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Keyinroq Shibirg‘on viloyati, Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar.

Yigirma yil (1371–1390-yillar) mobaynida Amir Temur Mo‘g‘ulistonga yetti marta yurish qilib, mo‘g‘ul hukmdorlari ustidan g‘alaba qozondi. 1395-yilda Shimoliy Kavkazning Tarak daryosi bo‘yida Amir Temur va Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon qo‘smini o‘rtasidagi jangda Amir Temur g‘alaba qozonadi va Oltin O‘rda hokimiyatiga chek qo‘yiladi. 1381-yilda Hirot, Saraxs, Jom shaharlari, keyinroq esa Eronning katta qismi Amir Temur hokimiyatiga bo‘ysundiriladi. Uch yillik (1386–1388-yillar) harbiy yurishlar natijasida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi yerlar egallanadi. 1392–1396-yillardagi besh yillik urush davomida Amir Temur G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egallaydi. 1398–1399-yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qilib, bu hududni ham o‘z tasarrufiga kiritadi. 1399–1404-yillardagi yetti yillik urush davrida esa Shomning Halab, Kumis, Baalbek, Damashq kabi shaharlari, Bag‘dod hamda Turkiyaning katta qismi egallanadi. 1402-yilda Anqara yaqinidagi jangda Boyazid Yildirim qo‘smini yakson qilinib, Kichik Osiyo ham Temur hokimiyatini tan oladi.

Dashti Qipchoqdan bostirib kelgan Shayboniyxon boshliq qo‘sishlar qariyb 10 yil (1501–1510-yillar) ichida Sirdaryodan Markaziy Afg‘onistongacha bo‘lgan hududlarni, jumladan temuriylarning Movarounnahr va Xurosondagi barcha mulklarini qo‘lga kiritdilar. 1510-yili Shayboniyxon Eron shohi Ismoil I bilan bo‘lgan jangda yengilib, qatl qilindi. Xuroson Ismoil I qo‘liga o‘tdi.

Movarounnahmi shayboniy avdodlari o‘z qo‘llarida saqlab qoldilar. Muhammad Shayboniyxon vafotidan keyin Ko‘chkunchixon (1510–1531-yillar) va Abu Said (1531–1533-yillar) davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o‘rtasida nizo kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo‘lib ajralib chiqdi va Turkiston yerlari parchalandi. O‘zaro urushlarga bir-

muncha barham bergen Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydulla Sulton 1512-yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1533-yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. Shayboniylar o'rtasidagi o'zaro urushlar natijasida Movarounnahr ikki-ga bo'linib, mustaqil Xiva xonligi ajralib chiqdi.

Shayboniylardan keyin Buxoro taxtini egallagan sulola – ashtarxoniyalar (kelib chiqishi Astraxandan bo'lganligi uchun) yoki joniylar (sulola asoschisi Jonibek sulton nomidan olingan) hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr hisoblanadi. Oliy hokimiyati 150 yildan ortiqroq (1601–1756-yillar) davr mobaynida o'z qo'llarida saqlab kelgan ashtarxoniyalar davrida markaziy davlat hokimiyati juda zaiflashdi, o'zaro urushlar nihoyatda avj oldi. Abdullaxon II ning sa'yharakati bilan barpo etilgan ulkan Buxoro xonligi hududi qisqarib ketdi. Markaziy hokimiyat mamlakatdagi vaziyatni nazorat qilolmaganligi, hududiy yaxlitlikni ta'minlay olmaganligi sababli XVII asr boshlarida yoq Xurosonning katta qismi qo'ldan boy berildi. Xorazmda mustaqil Xiva xonligi barpo etildi. XVIII asr boshiga kelib esa xonlikning shimaliy chegaralarida Qo'qon xonligiga assos solindi.

Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligi hududi keskin qisqarib, XVII asr boshlariga tegishli manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi oltta viloyat – Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratega, Shahrисабз va G'uzor viloyatlari tilga olinadi, xolos. Keyinchalik Imomqulixon tomonidan Hisor, Toshkent, Turkiston, Farg'ona, Balx viloyatlari qayta bo'ysundirilgan bo'lsa-da, Xurosondagi bir necha yirik viloyatlar (Hirot va boshqa hududlar) va Xorazm butunlay Buxoro xonligi tarkibidan chiqdi. Xonlikka bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

## **5. Xonliklarning ma'muriy-hududiy bo'linishi, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi**

XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrn tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juz-

lari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog‘laridan, g‘arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo‘lgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofimihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg‘ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qaragan.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e’tirof etilgan Buxoroyi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G‘uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko‘lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo‘y shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘rtasida, Jizzax, O‘ratepa va Xo‘jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida tez-tez urushlar bo‘lar, bu shaharlar qo‘ldan qo‘lga o‘tib turardi.

Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, G‘uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo‘y, Hisor, Ko‘lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho‘g‘non-Ro‘shon, Qo‘rg‘ontepa, Qubodiyon, Kalif, Bo‘rdalik, Qoboqli va Xorazmbekliklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqarilgan. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo‘ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko‘hna Urganch, Hazorasp, Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O‘rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xonlikning poytaxti bo‘lgan.

Ma’muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Hazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko‘hna Urganch, Qo‘shko‘prik, Pitnak, G‘azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo‘jayli, Shumanay, Qo‘ng‘iroq kabi beklik va viloyatlarga bo‘lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘iroq noibliklari ham bo‘lgan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek

va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko‘pdan ko‘p mansabdarlar bo‘lgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hududiy jihatdan O‘ita Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo‘lgan. Qo‘qon xonligi bilan Rossiya o‘rtasida huvillab yotgan Mirzacho‘l va Muyunqul cho‘llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘li o‘lkalarni o‘z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turgan.

Qo‘qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o‘laroq, sersuv daryolar, so‘lim vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo‘qon, Marg‘ilon, O‘zgan, Andijon, Namangan, Farg‘ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzoq, Oqmachit kabi yirik shaharlari ham Qo‘qon xonligi tasarrufida edi. Qo‘qon xonligi 15 beklik, ya’ni harbiy okrugga bo‘lingan bo‘lib, ularning yarmidan ko‘piga xonning o‘g‘illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o‘z hududidagi harbiy kuchlar qo‘mondoni hamda fuqaro boshqaruvingin boshlig‘i edi.

O‘ita Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin chor hukumati bu yerda mustamlakachilik siyosatini boshlab yubordi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tuzilib, o‘lkani boshqarish Harbiy vazirlikka bo‘ysundirildi. Turkiston general-gubernatorligi XX asr boshlariga kelib besh viloyatga bo‘lindi: Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari. Ularni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o‘zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan.

Harbiy gubernatorlar qoshida viloyat boshqarmalari bo‘lib, ular guberniya boshqarmasi huquqlariga ega bo‘lishgan. Viloyat ijtimoiy hayotining barcha masalalari shu boshqarmalarda ko‘rilgan. Viloyatlar, o‘z navbatida, tumanlarga (uyezdlarga) bo‘linib, ularni tumanboshilar idora etishgan. Tumanlar Turkiston general-gubernatori ma’muriy tuzilmasining asosini tashkil etgan. O‘lkaning tub viloyatlari hisoblanan Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqanddan tashqari Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlari ham shu asosda tumanlarga bo‘linib idora qilingan.

Sirdaryo viloyati quyidagi tumanlarga bo‘lingan: Toshkent, Avliyota, G‘azali, Perovsk, Chimkent, Amudaryo tumani ham shu viloyatga bo‘ysungan. Farg‘ona viloyatiga Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qon, Namangan, O‘sh tumanlari qaragan. Samarqandga Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand, Samarqand tumanlari; Yettisuvga Verniy, Jarkent, Kopal, Lepsinsk, Pishpak, Prjevalsk; Kaspiyorti viloyatiga Ashxobod, Krasnovodsk, Mang‘ishloq, Marv va Tajan tumanlari kirgan.

## 6. O‘zbekistonning tabiiy geografik tavsifi

O‘zbekiston Respublikasi shimoliy yarimsharda, Yevrosiyo materining o‘rtasida, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida, mo‘tadil va subtropik mintaqalarda, okeanlardan ancha uzoqda, janub va sharq tomonlaridan baland tog‘lar bilan o‘ralgan berk havzada joylashgan.

O‘zbekiston respublikasi hududi 448,96 ming km<sup>2</sup> (yoki 44896,9 ming hektar) bo‘lib, maydonining kattaligi bo‘yicha jahondagi 130 dan ortiq mamlakatlardan oldinda, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida esa beshinchi o‘rinda (Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Turkmanistondan keyin) turadi. O‘zbekiston hududi shimoldan janubga tomon meridian bo‘ylab 930 km ga, g‘arbdan sharqqa geografik uzunlik bo‘ylab 1425 km ga cho‘zilgan.

O‘zbekiston chegaralari asosan quruqlikdan, ozgina qismi Amudaryo va Orol dengizi orqali o‘tadi. Uning uzunligi 5300 km dan ortiqroq bo‘lib, shundan 2100 km dan ko‘prog‘i Qozog‘istonga to‘g‘ri keladi. Bu chegara shimolda, sharqda va shimoliy-g‘arbda tekisliklar va platolar orqali, uning eng chekka janubi-sharqiy qismi Qorjantog‘ va Ugam tizmalari orqali o‘tadi. Sharqda Qirg‘iziston bilan chegara esa Piskom, Chotqol tog‘ tizmalari, Farg‘ona va Oloy tog‘ tizmalarining etaklaridan, Tojikiston bilan esa Qurama, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalari bo‘ylab o‘tadi. O‘zbekistonning janubiy chegarasi Amudaryo orqali o‘tib, uni Afg‘onistondan ajratsa, g‘arbiy va janubi-g‘arbiy chegarasi asosan tekislikdan o‘tib, O‘zbekistonni Turkmanistondan ajratib turadi.

O‘zbekiston chegarasining asosiy qismi tekisliklarga to‘g‘ri kelishi transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulaylik tug‘diradi. O‘zbekiston xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish nuqtayi nazaridan va o‘z

taraqqiyot istiqbollari jihatidan ancha o‘ziga xos geografik-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G‘arbni bog‘lab turgan Buyuk ipak yo‘li O‘zbekiston orqali o‘tgan. Bu yerda savdo yo‘llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal ketgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okean mintaqasiga olib boradigan quruqlikdagi yo‘llar shu yerda kesishadi. O‘rta Osiyo davlatlari Hindiston yarimorolini Rossiya va Yevropa bilan bog‘lab turadi. O‘zbekiston o‘zining mavjud va potensial tabiiy hamda xomashyo zaxiralari bilan hozirdayoq XXI asrda dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shti davlatlar o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘tamoqda. O‘rta Osiyoning markazi bo‘lgan Toshkent, imziy qilib aytganda, Sharq darvozasi hisoblanadi.

O‘zbekiston hududi yer yuzasining tuzilishiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: tog‘oldi-tog‘lar va tekisliklar. Tog‘oldi va tog‘larga respublika sharqi va janubi-sharqidagi tog‘ tizmalari, tog‘oldi qiya tekisliklari hamda tog‘ oralig‘idagi botiqlar, tekisliklarga esa pasttekisliklar, denudatsion tekisliklar va platolar kiradi. Respublikamizning sharqiy va janubi-sharqiy qismini Tyanshan va Oloy tizmalarining tarmoqlari, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismini Turon tekisligining markaziy qismi egallagan. O‘zbekiston umumiy maydonining 78,7 % ini tekisliklar, 21,3 % ini tog‘lar tashkil etadi, mamlakatning eng past nuqtasi Mingbuloq botig‘i bo‘lsa (12 m), eng baland nuqtasi Hisor tog‘ ining Qoldirg‘a tizmasidagi Hazrati Sulton cho‘qqisidir (4643 m). O‘zbekistonning yer yuzasi asosan sharq va janubi-sharqdan g‘arb va shimoli-g‘arb tomon pasayib boradi. Shu sababdan ham daryolar shu tomonga oqadi.

Tekisliklar yaxlit bo‘lib, Amudaryoning quyi va o‘rta oqimi, Sir-daryoning o‘rta oqimi, Zarafshonning o‘rta va quyi oqimi atrofidagi yerlarni ishg‘ol etgan. O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida Ustyurt platosi atrofidagi tekisliklardan tik ko‘tarilgan chinklar bilan ajralib turadi. O‘zbekistonning eng past yerlari Orolning qurigan qismi, Amudaryoning deltasi, Qizilqumning shimoli-g‘arbiy qismlari bo‘lib, bularning okean sathidan o‘rtacha balandligi 30–100 m. Sulton Uvays, Bo‘kantog‘, Quljuqtog‘, Tomditog‘lar O‘zbekiston tekislik qismining eng baland (900 m gacha) qismlaridir.

O‘zbekistonning sharqiy va janubi-sharqiy qismlarini egallagan tog‘ tizmalari Qorjontog‘, Ugam, Piskom, Chotqol, Farg‘ona, Qurama, Nurota, Morguzar, Turkiston, Hisor-Zarafshon tizmalari G‘arbiy hamda Janubiy Tyanshan va Oloy tog‘ tizmalarining tarmoqlari bo‘lib, ularning o‘rtacha balandligi 2000–2500 metrni tashkil etadi. Ayrim cho‘qqilarning balandligi esa 4500 m dan ham oshadi. Bu tog‘ tizmlarini Toshkent-Mirzacho‘l, Farg‘ona, Samarqand, Sangzor, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi tog‘ oralig‘i va tog‘oldi botiqlari bir-biridan ajratib turadi.

**Teksliklar relyefi.** O‘zbekistonning g‘arbiy tekislik qismi relyefining xususiyatiga ko‘ra Ustyurt platosi, Qizilqum va ular orasida joylashgan Orol-Sariqamish soyligiga bo‘linadi. **Ustyurt** – to‘lginsimon baland tekislik (plato). Uning maydoni (O‘zbekistonda) 40 ming km<sup>2</sup>, yer yuzasining mutlaq balandligi qirlarida 160–250 metrni, ular orasidagi qum va sho‘rxoklar bilan baland-pastliklarda 50–80 metrni tashkil etadi. Eng baland nuqtasi Qorabovur qirlarida 292 metrga yetadi. Ustyurtning chekkalari tik jarliklar – «chink»lar bilan tugaydi. Chinklar uchlamchi davrning ohaktosh, mergel va gillaridan iborat gorizontal qatlamlar hosil qilgan yotqiziqlardan tuzilgan. Bu yotqiziqlar ochilib qolib, yemirilib tik yonbag‘irlar hosil qilgan. Chinklar Ustyurt platosining tabiiy chegarasi hisoblanadi. Orol dengizi g‘arbiy qirg‘og‘i bo‘ylab cho‘zilgan sharqiy chinkning mutlaq balandligi 180–200 m. Chinkning kengligi bir necha yuz metrdan 1,5 km gacha boradi.

Ustyurt platosi sarmat ohaktoshi, gipsi, neogen mergellari va paleogen gillaridan tashkil topganligi uchun unda karst relyef shakllari ko‘plab uchraydi. Sarmat yotqiziqlarining usti 1–1,5 metr qalinlikda shag‘al, qum, chag‘irtoshlar bilan qoplangan. Ustyurt bilan Qizilqum oralig‘ida Amudaryoning alluvial-delta yotqiziqlari bilan to‘lgan Orol-Sariqamish botig‘i joylashgan. U Turon pasttekisligining katta qismini egallagan pliotsen tekisligi o‘rnida hosil bo‘lgan. Quyi Amudaryoda yoshi har xil bo‘lgan uchta alluvial-delta tekisliklari ajratiladi. Bular Sariqamish, Oqchadaryo va hozirgi zamon deltalaridir.

Amudaryoning hozirgi zamon va harakatdagi deltasi va shakllanayotgan, ya’ni Orolbo‘yi deltasi qiya tekislik bo‘lib, uning mutlaq balandligi yuqori qismida (Nukus yaqinida) 73 metr bo‘lsa, Mo‘ynoq yaqinida 53 metr bo‘lgan. Yer yuzasi o‘zanlar, ko‘l o‘mi botiqlari,

o'zanlararo pastliklar, qum tepalar, kanal va kollektorlar bilan parchalangan. Shakllanayotgan delta relyefi hozirgi zamon deltasidan farq qiladi, u deltaning g'arbiy va markaziy qismini egallaydi (chega-ni Qiziljar-Qo'shkanatog'-Bel tog' yo'nalishi bo'y lab o'tadi), u yerda 1960-yillargacha bo'lgan suv toshqinlarining izlari saqlanib qolgan. Bular yosh yotqiziqlar va o'zanlar, o'zanlararo pastliklardan iborat. Hozirgi kunda bu yerda dengizning chekinishi va deltagagi gidrografik re-jim o'zgarishi bilan cho'llashish avj olmoqda, relyefning shakllanishida dellatsiya kuchayib bormoqda. Amudaryo hozirgi zamon deltasining abraqiy qismini ko'p yillardan beri suv bosmagan. Shuning uchun bu yet relyefining shakllanishida shamol ishining ta'siri katta. Shamol bu yerdag'i pastliklarni to'ldirib, ancha tekislab yuborgan, bu yerda qum relyefi shakllari keng tarqalgan.

O'zbekiston tog'lari O'rta Osiyodagi oqim vujudga keladigan tog'li hududning bir qismi hisoblanadi. Ammo respublika hududidagi tog'larda O'zbekiston yerusti suvlarining faqat oz qismi vujudga keladi. Respublikamizdagi ko'p daryolarning bosh qismi Tojikiston va Qing'izistonidagi doimiy qor hamda muzliklar ko'p bo'lgan baland tog'larda joylashgan. O'zbekistonda foydalaniadigan daryo suvlarining faqat 10 % i ( $10 \text{ km}^3$  atrosida) respublika hududida vujudga keladi, qolgan 90 % i, ya'ni  $89 \text{ km}^3$  suv manbayi mamlakatdan tashqarida joylashgan. Bevosita O'zbekiston hududida vujudga keladigan daryo oqimi Amudaryo havzasi umumiyoqimining 6 % ini, Sirdaryo havzasi oqimining 15 % ini tashkil qiladi. O'zbekiston hududi gidrografik jihatidan ochiq dengiz va okeanlar bilan bevosita bog'lanmagan berk havzadan iborat. O'zbekiston daryolari dunyo okeaniga tabiiy bog'lanmagan Orol havzasiga kiradi.

**Daryolar.** V.L. Shuls O'zbekiston hududidagi daryolarni to'yinish manbayiga qarab 4 ta turga ajratadi:

- I. Muzlik va qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
- II. Qor va muzlik suvlaridan to'yinadigan daryolar.
- III. Qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
- IV. Qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar.

Biroq bu to'yinish turлari shartlidir. Ma'lumki, tog' daryolarining to'yinishi jihatidan qaysi turga kirishi shu daryolarning ma'lum bir kuzatish punktiga nisbatan aniqlanadi va daryoning hamma qismi xususi-

yatini aks ettirmaydi. Bundan tashqari, daryolarning to‘yinish sharoitlari yildan yilga ham o‘zgarishi mumkin.

I. Respublikamizdagi Amudaryo, Zarafshon, Isfayramsov, Oqsuv, Xo‘jabaqirgan, Sox, Isfara kabi daryolarning bosh qismlari tog‘larda 4500 m dan balandda joylashgan muzliklar va doimiy qorlar suvidan to‘yinadi. Bu xil daryolarda oqim yillar davomida eng kam o‘zgaradi, yillik oqimda to‘lin suv davri eng kech bo‘lib, asosan iyul-avgust oylariga to‘g‘ri keladi. Bu oylarda oqib o‘tgan suv yillik oqim miqdoring 30–38 % ini tashkil etadi. Chunki bu oylarda havo haroratining ko‘tarilishi tufayli tog‘larning baland qismidagi muz va qorlar eriydi. Daryo suvining eng kamaygan davri, aksincha, qish oylariga to‘g‘ri keladi.

II. O‘zbekistonning Sirdaryo, Norin, Qurshob, Qoradaryo, Chirchiq, Surxondaryo kabi daryolari qor va muz suvlaridan to‘yinadi. Bu turdagи daryolarning oqimi ko‘proq maysumiy qor va kamroq miqdorda ko‘p yillik qorlarning erishi hisobiga hosil bo‘ladi, muzlik suvlarining hissasi ancha kam – yillik oqimning 15% igacha boradi. Bu daryolarda to‘lin suv davri may-iyun oylariga to‘g‘ri kelib, bu oylarda yillik oqimning 30–40 % i o‘tadi. Kamsuvlik davri esa dekabr-fevral oylariga to‘g‘ri keladi.

III. Qashqadaryo, G‘uzordaryo, Sangzor, Ohangaron, G‘ovasoy kabi suv yig‘ish maydonlari 3400 metrdan pastda joylashgan daryolar asosan mavsumiy qorlar suvi hisobiga to‘yinadi. Bu daryolar to‘yinishida ko‘p yillik qor va muzliklarning hissasi juda kam, to‘lin suv davri esa ertaroq, ya’ni aprel-may oylarida qorlarning erishi natijasida kuzatiladi va yillik oqimning 60 % gacha qismini tashkil etadi. Yozda esa bu tipdagi daryolar suvi kamayib qoladi.

IV. Kalas, Zominsuv, Sheroboddaryo kabi suv yig‘ish maydonlari 2000 metrdan pastda joylashgan daryolar qor-yomg‘ir va yerosti suvlaridan to‘yinadi. Bu turdagи daryolarda to‘lin suv davri juda erta, bahor boshida (mart-aprel oylarida) bo‘lib o‘tadi va bu davrda yillik oqimning 80 % i oqib o‘tadi. Chunki bu davrda tez-tez yomg‘ir yog‘adi, qorlarning erishi tezlashadi. Aksincha, yozning ikkinchi yarmida daryolar suvi juda kamayib, ba’zi soylarning suvi esa qurib qoladi.

O‘zbekistonda doimiy oqimga ega yoki qurib qoluvchi mayda soyollar asosan chekkadagi tog‘ tizmalarida, tog‘ oldilarida, past tog‘larda

ko‘p uchraydi. Ularning soni Farg‘ona vodiysining o‘zida 6500 ta, Zarafshonning o‘rtacha oqimida 120 tadan ko‘proq, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq daryosi havzalarida ham ancha ko‘p. Soylar havzasining o‘rtacha balandligi 1000–2000 m oralig‘ida, to‘yinish manbalari qor-yomg‘ir va buloq suvlaridan iborat, to‘lin suv davri fevral-iyun oy-lariga to‘g‘ri keladi va bu davrda yillik oqimning 50–100 % oqib o‘tadi. O‘rtacha yillik oqim miqdori ko‘pchilik soylarda  $0,02\text{--}0,1 \text{ m}^3/\text{sekundga}$  to‘g‘ri keladi. Lekin sel kelganda soylarda katta miqdorda suv o‘tadi. Sel suvlari miqdori soylaming bir yillik oqimidan ham ko‘p bo‘lishi mumkin.

Sel respublikamizning tog‘oldi hududlarida kuzatilib, ancha tash-vishlar keltiradi. Dahshatlil sel hodisalari, asosan, o‘monsiz tog‘lardan oqib tushadigan soylarda jala tarzida yoqqan yomg‘irdan sodir bo‘ladi. Bahordagi iliq yomg‘irlar tog‘dagi qorlarni eritgach soylarda suv miqdori bir necha barobar ortib ketadi. Sel asosan aprel (22 %), may (30 %), iyun (18 %) oylarida ro‘y beradi. Sel tez nuraydigan tog‘ jinslari tarqalgan hamda eroziya mahsulotlari yig‘ilib qolgan soylarda ko‘proq yuz beradi. 1977–1990-yillarda Farg‘ona vodiysida 1000 dan ortiq, Qashqadaryo tog‘li hududida 180 dan ortiq sel hodisasi qayd qilingan. Bu hududlarda hozir ham sel kelish xavfi mavjud, chunki bitta Farg‘ona vodiysining o‘zida sel o‘tadigan 270 dan ortiq soy bor. Respublikada sel o‘tadigan havzalarning maydoni  $93,5 \text{ ming km}^2$  dan ortiqroq.

Ko‘p yillik o‘rtacha oqim miqdori O‘zbekistonda ham asosan iqli-miy omillarga, eng avvalo, yog‘in miqdori bilan bug‘lanish miqdoriga bog‘liq. Qolgan hamma tabiiy-geografik omillar – daryo havzasining telyefi, tuprog‘i, o‘simliklar qoplami va geologik tuzilishi ko‘p yillik o‘rtacha oqim miqdoriga ta’sir ko‘rsatsa ham, ularning ta’siri asosan yog‘in va bug‘lanish miqdoriga ta’sir etish orqali bo‘ladi. O‘zbekiston tog‘larida ko‘p yillik o‘rtacha oqimning miqdori bir xil emas. Nam havo oqimiga ochiq va ular yo‘nalishiga ro‘para bo‘lgan chetki tog‘ tizmalarining g‘arbiy, janubi-g‘arbiy va janubiy yonbag‘irlaridagi dar-yolar (Chirchiq, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim imoqlari) suv yig‘ilish maydonlari sersuvligi bilan ajralib turadi.

## 7. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1992-yil 9-yanvarda suveren respublika huquqini olgan. Ushbu respublika Amudaryoning quyi qismlarida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 166,6 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi hamda mamlakatimiz maydonining 38 foizini egallagan. Bu yerda 1869,7 ming kishi yashaydi (2019). Poytaxti – Nukus shahri. Qoraqalpog‘iston tarkibiga 15 qishloq tumanlari va 12 shahar kiradi.

Andijon viloyati 1941-yil 6-martda tashkil topib, Farg‘ona vodiyining sharqiy qismida joylashgan. Maydoni 4,2 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Aholisi eng zinch viloyatlardan biri bo‘lib, 2253,5 ming kishi yashaydi. Viloyat aholisining 3/1 qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 14 qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Viloyat markazi – Andijon shahri.

Buxoro viloyati respublikamizda dastlab tashkil topgan viloyatlardan. Viloyat mamlakatimiz janubida joylashgan bo‘lib, Qizilqum cho‘lining kattagina qismini egallagan. U 1938-yil 15-yanvarda paydo bo‘lgan. Viloyat egallagan maydon dastlab juda katta bo‘lib, 144,3 ming km<sup>2</sup> ga teng edi. 1982-yil Navoiy viloyati tashkil topgach, Buxoro viloyatining kattagina qismi ana shu viloyat uchun ajratildi. Hozirda Buxoro viloyati 40,3 ming km<sup>2</sup> ga teng, aholi soni 1460,6 ming kishini tashkil etadi. Viloyat tarkibida 11 qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Buxoro shahri viloyatning ma’muriy markazidir.

Samarqand viloyati 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Viloyat respublikamizning markaziy qismida, Zarafshon daryosining o‘rtalari havzasida joylashgan. Maydoni 16,8 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 3596,6 ming kishini tashkil etadi (2016). Viloyat tarkibida 14 qishloq tumanlari va 11 shahar mavjud. Samarqand shahri viloyat markazi bo‘lib, u 1924-yildan 1930-yilgacha O‘zbekiston poytaxti ham bo‘lgan.

Sirdaryo viloyati 1963-yil 16-fevralda tashkil topgan. Viloyat Sirdaryoning chap sohilida joylashgan. Maydoni 5,3 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 667,7 ming kishini (2003) tashkil etib, ularning 32 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Guliston shahri viloyat markazi bo‘lib, viloyat tarkibida 9 qishloq tumanlari va 5 shahar mavjud.

Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng janubida joylashgan bo‘lib, 1941-yil 6-martda tashkil topgan. Maydoni 20,1 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 2612,4 ming kishini tashkil etadi (2019). Viloyatda aholining 19,7 foizigina shaharlarda yashaydi. Termiz shahri viloyat markazi bo‘lib, viloyat tarkibida 14 qishloq tumanlari va 8 shahar mavjud.

Toshkent viloyati respublikamizning markaziy viloyati bo‘lib, respublikamizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. U 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Maydoni (Toshkent shahrini qo‘shib hisoblaganda) 15,6 ming km<sup>2</sup> ga teng. Bu respublika maydonining 3,5 foizi demakdir. Aholisi esa (Toshkent shahrini qo‘shib hisoblaganda) 4560,3 ming kishini tashkil etadi.

Farg‘ona viloyati respublikamizning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Maydoni 6,8 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 3317 ming kishini tashkil etadi (2012). Aholining 71 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 15 qishloq tumanlari va 9 shahar mavjud. Farg‘ona shahri viloyat markazi sanaladi.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, Orol-Kaspiy pasttekisligining bir qismini egallagan. Viloyat 1938-yilning 15-yanvarida tashkil topgan. Maydoni 6,3 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 1810 ming kishini tashkil etib, ularning 23,3 foizi shaharlarda yashaydi. Viloyat tarkibida 10 qishloq tumanlari va 3 shahar (Urganch, Pitnak, Xiva) mavjud. Urganch shahri viloyat markazidir.

Qashqadaryo viloyati Pomir-Oloy tog‘ tizmasining g‘arbiy chekka-sida joylashgan bo‘lib, 1943-yilning 20-yanvarida tuzilgan. 1960-yilning yanvariga kelib viloyat Surxondaryo bilan birlashtirilgan edi. 1964-yilning 7-fevralida esa Qashqadaryo viloyati qayta tiklangan. Maydoni 28,6 ming km<sup>2</sup> ga teng. Aholisi esa 3225,8 ming kishini tashkil etadi (2020). Aholining 25,2 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyat tarkibida 13 qishloq tumanlari va 12 shahar mavjud. Qarshi shahri viloyat markazidir.

### Asosiy adabiyotlar

1. Mavlanov O’. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. – T., 2008.
2. Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – T., 2009.
3. Ochilidiyev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. – T., 2008.
4. Saidboboyev Z.A. Yevropada O‘rta Osiyo tarixiga oid tarixiy kartografsik ma’lumotlar. –T.: «Fan», 2008.
5. Saidboboyev Z.A. Tarixiy geografiya. – T., 2010.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. *Eshov B.J.* O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. – T., 2008.
2. *Asanova G., Nabixanov M., Safarov I.* O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. – T., 1994.
3. *Sagdullayev A.S.* Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2002.
4. *Сухарева О.А.* К истории городов Бухарского ханства. – Т., 1958.

## **Internet manbalar**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)
3. [www.ec.edu.uz](http://www.ec.edu.uz)
4. [www.performance.edu.uz](http://www.performance.edu.uz)
5. [www.history.ru](http://www.history.ru)
6. [www.natura.com](http://www.natura.com)

## **Nazorat savollari**

1. IX–XVII asrlar davri o'lkamiz tarixi geografiyasini so'zlab bering.
2. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, relyesi va tabiatи.
3. O'lkamizning ilk o'rta asrlar somoniylar va qoraxoniylar, Amir Temur va temuriylar, shayboniylar va ashtarkoniylar davri tarixiy geografiysi qanday bo'lgan?
4. Xonliklar davri tarixiy geografiysi haqida so'zlang.

## **Test savollari**

### **1. Tabiiy-tarixiy geografiya nimani o'rganadi?**

- A. Aholining joylashuvini
- B. Tabiat hodisalarini
- C. Iqlimni
- D. Relyefni

### **2. Aholi tarixiy geografiysi ...**

- A. Aholi geografiyasini o'rganadi
- B. Xo'jalik geografiyasini o'rganadi
- C. Siyosiy geografiyanı o'rganadi
- D. Iqlimni o'rganadi

### **3. Boburning «Boburnoma» asarida o'lkamizdagи geografik joy nomlari necha bor tilga olingan?**

- A. 1000 marta
- B. 1200 marta
- C. 1500 marta
- D. 500 marta

**4. Maqdisiy Buxorodan Xorazmgacha necha kunlik yo'l bo'lganligini ta'kidlaydi?**

- A. 3 kunlik yo'l
- B. 5 kunlik yo'l
- C. 7 kunlik yo'l
- D. 4 kunlik yo'l

**5. Amudaryo o'rta asrlarda qanday nomlangan?**

- A. Jayhun
- B. Terek
- C. Oks
- D. Miyoni Ro'don

**6. Surxondaryoning o'rta asrlardagi nomini aniqlang.**

- A. Chag'onyon
- B. Davon
- C. Qang'
- D. Ohangaron

**7. Ko'plab tarixchi va geograflarning ta'kidlashicha, «Turon» qanday ma'noni anglatadi?**

- A. Turklar, turkiy qabilalarning yurti
- B. Ming shaharlar mamlakati
- C. Marg'iyyona va So'g'diyona hududlari
- D. Ikki daryo oralig'i

**8. Quyidagi nomlari qayd etilgan o'lkashunos olimlardan kimlar Buxoroning ilk xaritasini tuzib, Rossiyaga yubordilar?**

- A. Leman va Yakubov
- B. Eversman va Butakov
- C. Leman va Eversman
- D. Butakov va Yakubov

**9. Ilmiy izlanishlar natijasida 1850-yilda qaysi o'lkashunos olim Orol dengizining birinchi siyosiy xaritasini tuzadi?**

- A. Y. Butakov
- B. N.N. Muravyov
- C. V. Grekov
- D. Leman

**10. «Avesto»ning «Yasht» qismi kitobining birinchi ro'yxatida eng birinchi mamlakat qanday nomlangan?**

- A. Arionam Vayjo
- B. Mauri va Gava
- C. So'g'da va Xvarizam
- D. Transoksiyana

---

### **III BOB. ARXEOLOGIK VA ME'MORIY YODGORLIKLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI O'RNI**

**Reja:**

1. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati.
2. O'zbekistonda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi.
3. Eneolit, bronza va ilk temir davri me'morchiligi.
4. O'zbekistonning antik davri me'moriy yodgorliklari.
5. O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davri me'morchiligi va me'moriy yodgorliklari.

**Tayanch iboralar:** arxeologiya, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir, antik, qadimgi, moddiy, ashyo, mehnat, quollar, me'morchilik, tadqiqot, kulolchilik, hunarmandchilik, to'qimachilik.

#### **1. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati**

Arxeologik ma'lumotlar o'qituvchilarning ma'ruzalari davomida bergen bilimlariga yanada aniqlik kiritib mazmunini boyitadi, ikkinchidan esa ma'lum davr yoki hudud tarixini chuqurroq anglashga va o'rganishga imkon beradi, uchinchidan, alohida mavzularni o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. To'rtinchidan, ko'rsatish vositasi vazifasini o'taydi.

Tarixiy o'lka ashunoslik fanida arxeologik materiallarning qo'llanilishi o'quvchilarning ibridoiy odamlar mashg'uloti, ularning mehnat quollari, ibridoiy jamoa tuzumidan quidorlikka o'tish jarayoni, qadimgi va o'rta asrlar davri shaharsozligi, qadimgi davr davlatchiligi va ularning shakllari, qadimgi va o'rta asr davridagi madaniyati, san'at, me'morchilik, xalqning turmush tarzi haqidagi bilimlarni aniqroq va

mustahkamroq o'rganishga ko'maklashadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda arxeologiya fanining o'lka tarixini o'rganishdagi o'mi kataligi yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita xulosa chiqarishimizga imkon yaratadi. Arxeologiya o'lka o'tmishini o'rganishda muhim mamba sifatida yoshlarga atrof-muhit tarixini aniq dalillar asosida chuqur o'rganishga imkon beradi. O'lakashunoslik o'quvchilarga darsdan olgan bilimlarini hayot bilan bog'lash, davr materiallarini mustahkamlashga ko'maklashadi. Ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Vatanni anglamoq, vatanni sevmoq mavhum tushunchalar bo'lib qolmasligi uchun yoshlarga o'zлari yashab turgan o'lkani, ya'ni ko'cha, qishloq, shahar, viloyat tarixini o'rganishga va mehr-muhabbat uyg'otishga sharoit yaratib berishimiz kerak. Buning uchun tarixiy o'lakashunoslikka ko'proq e'tibor berib, uning muhim manbalaridan biri bo'lgan arxeologik materiallardan foydalanishni kuchaytirish zarur. Arxeologik materiallar tarix fanining vazifasini bajarish sohasida ham muhimdir. Masalan, Vatanimiz tarixini aniq dalillar asosida o'rganish va o'tmishni moddiy manbalar asosida tanishtirish natijasida o'quvchilar o'z xalqining tarixi va madaniyati haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu esa yosh avlodda o'z xalqining o'tmishi va madaniyatiga nisbatan hurmat bilan qarashga yordam beradi.

Arxeologik tadqiqot ishlari natijasida topib o'rganilgan moddiy manbalarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

*Tabiiy manbalar* (paleoantropologik, paleozoologik, paleobotanik) – inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlardan iborat bo'lib, ularni asosan antropologlar, zoologlar, botaniklar va geologlar o'rganadilar.

*Inson tomonidan yaratilgan manbalar*. Ular mehnat qurollari, yaroq-aslahalar, sopol idishlar, san'at va zeb-ziynat buyumlar, qoyatosh rasmlari, qadimgi g'or makonlar, qadimgi va o'rta asrlar davri qishloq va shahar xarobalari va hokazolardir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, yozma manbalarni asosan tarixchilar, moddiy manbalarni arxeologlar o'rganib, moddiy topilmalar yozma manbalarga tayangan holda ilmiy tahlil qilinadi.

O'rta Osiyo qadimgi sharq tarixining ajralmas qismini tashkil etib, kishilik jamiyatining ilk markazlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo xilma-xil tabiiy sharoit, o'simlik va hayvonot dunyosiga boy. Iqlim

sharoiti asosan mo'tadil bo'lganligidan, insonning yashashi juda qulaydir. Bu hol esa ibtidoiy va qadimgi kishilar diqqat-e'tiborini tortmasligi mumkin emas edi. Shu tufayli odamlar bu o'lkada juda qadim zamonlardan boshlab yashaganlar. O'lkaning hamma yerida ibtidoiy va qadimgi davr kishilari qoldirgan xilma-xil tosh asr makonlari, g'orlari, bronza davri qishloqlari va mozorlari, temir davri qal'alari va shaharlarning xarobalari, qoyatoshlarga ishlangan rasmlar, sug'orish inshootlarining qoldiqlari, qadimiy mudofaa devorining qoldiqlari juda keng tarqalgan.

Arxeologik qazishmalar davomida topilgan moddiy manbalami o'rganish bilan birga har xil yer qazish ishlarida tasodifan topilgan narsalarni, shu jumladan, xazinalarni ham o'rganadi. Yer tagida yotmagan moddiy manbalar ham bor. Masalan, o'rta asr xazinalaridan qolgan buyumlar, naqshinkor eski binolar va hokazolar mana shunday manbalaridir.

Arxeologiya ishlab chiqarish qurollarining tarixini ish qurollari va ular bilan yasalgan buyumlar orqali o'rganadi. Tosh, metall, sopol va yog'ochdagи yozuvlarni o'rganadigan epigrafika fani, tanga pullarni o'rganadigan numizmatika fani, muhrlarni o'rganadigan sfragistika fani, gerblarni o'rganadigan geraldika fani kabi arxeologiyaning bir qancha alohida tarmoqlari bor. Arxeologiya tarixga oid fan bo'lib, qazishmalardagi kuzatmalarni izohlab berish uchun geologiya, botanika, zoologiya va antropologiya ma'lumotlaridan foydalaniadi va u bilan birga o'zi ham o'sha tabiat fanlariga qimmatli materiallar beradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichi paleolit (qadimgi tosh davri – «palaios» – qadimgi, «litos» – tosh) davri bo'lib, arxeologik nuqtayi nazardan u ikki davrga, ya'ni ilk va so'nggi paleolit davrlariga bo'linadi. Ilk paleolit, o'z navbatida, olduvay, ashel va mustye bosqichlaridan iborat bo'lib, davriy sanasi mil. avv. 3/2,5 million – 12 mingyililiklar bilan chegaralanadi. Eng qadimgi topilmalar Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan topilgan bo'lib, u Olduvay madaniyati deb yuritiladi. O'rta Osiyo hududida ilk paleolit davriga oid moddiy manbalarning ilk namunalari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur va Toshkent vohasidagi Ko'lbuluoq makonlaridan topib o'rganilgan. Selung'ur makoni Vatanimiz hududida ilk odamlarning tarqalishi va ular tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat namunalarini o'rganishda muhim o'rinn tutadi. Ushbu makondagi moddiy topilmalar ashel davrining yuqori bosqichi bilan

belgilanib kelingan. Lekin so'nggi yillardagi ilmiy tekshirishlarga ko'ra uning davri qadimiy lashtirildi. Toshkent vohasidagi Ko'lbulloq makoni moddiy manbalari o'lkamiz ibridoiy tarixini anglashda muhim manba bo'lib, uning quyi qatlami esa so'nggi paleolit davriga oid.

O'zbekistonning mustye davri nisbatan yaxshi o'rganilgan davrlardan biri sanaladi. Bu davrga oid moddiy manbalar Vatanimizning ko'pgina hududlaridan topib o'rganilgan. Ular ichida Teshiktosh, Omonqo'ton, Ko'lbulloq, Xo'jakent va boshqalar bor. Mazkur davr kishilarining qurollari o'zining soddaligi, qo'polligi, turlarining kamligi jihatdan keyingi davrlardan farq qiladi. Mustye davriga kelib O'rta Osiyoning assosiy hududlari qadimgi odamlar to'dasi tomonidan egallana boradi. Mehnat qurollari takomillashadi. Bu davring so'nggi bosqichlariga kelib ibridoiy to'dadan – urug'chilik jamoasiga o'tish boshlanadi.

So'nggi paleolit – bu davrga oid yodgorliklar nisbatan kam o'rganilgan. So'nggi paleolit davriga oid Ko'lbulloq makoni e'tiborga loyiq. Toshkent shahrining g'arbida Bo'zsuv makoni, Samarqand shahrida ushbu nomdag'i makon ochilgan. So'nggi paleolitdan boshlab ibridoiy odamlar g'orlardan chiqib, yengil turar joylar qura boshlaganlar. Natijada ular faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'y lab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar sohillarida joylasha boshlaydilar. So'nggi paleolitga kelib antropogenet jarayoni tugallanadi, zamonaviy qiyofadagi odamlar (kromanyon) paydo bo'ladi. Shuningdek, ibridoiy to'dadan urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tiladi, xo'jalik shakllari murakkablashib, yangi tarmoqlari vujudga keladi. Mehnat qurollari takomillashib, uning turlari ko'paya boradi. Mezolit davri kishilar jamiyatida yangi yutuqlarga erishiladi.

Yer yuzining muzliklardan tozalanishi va haroratning ko'tarilishi fauna va floraning keskin o'zgarishiga olib keldi. Bu esa kishilar xo'jalik faoliyatida muhim yutuqlarga erishishida turtki bo'lishi tabiiy edi. Termachilik va ovchilik sohalarining yangi shaklga kirishi keyingi davrlarda kishilar jamiyatida xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakli qaror topishi uchun zamin yaratdi. Bu davring katta yutuqlaridan biri kamon va o'q-yoning kashf etilishidir. Shuningdek, bu davrda mehnat qurollariga ishlov berish takomillashdi, ularning turlari ko'payib bordi. Bu davrda mikrolitlar juda nozik ishlardan tortib, o'ta og'ir vazifalar-gacha bajarar edi. Bu davrda Vatanimiz hududida ibridoiy san'at paydo bo'ldi. Mezolit davriga oid moddiy manbalar saqlangan madaniy qat-

lamlar Qo'shilish makoni (Toshkent), Machay g'or makoni (Boysun), Obishir (Farg'ona vodiysi) g'or makonidan topib o'rganilgan. Markaziy Farg'onadan 80 ga yaqin mezolit davri yodgorliklari topilgan. Mehnat qurollari trapetsiya va uchburchak shakldan, mayda qurolchalar – mikrolitlardan iborat. Suyakdan yasalgan va bigiz qurollarining topilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Neolit uzoq davom etgan tosh asrining so'nggi va yakunlovchi bosqichidir. Neolit («neos» – yangi, «litos» – tosh) tosh asri degan tushunchani bildiradi. Arxeologiya faniga neolit tushunchasini ingliz arxeologi Lebbok olib kigan. Neolit davrida iqlim hozirgi davrga ancha yaqin bo'lgan, u davr kishilari yer yuzi bo'ylab ancha keng tarqala boshlagan. Ular turli tabiiy sharoitga moslasha boshlagan va alohida madaniyat yaratgan. Turli geografik muhit va shart-sharoitdan kelib chiqib ularning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylari va xo'jaliklari ham har xil shaklga ega bo'lgan. Bu esa xo'jalikning notekis rivojlanishiga sabab bo'lgan. Janubiy o'lkalarning serhosil joylarida yashagan kishilar xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan. Shimoliy o'lkalar esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli uzoq vaqt orqada qolib ketgan.

Neolit davri kishilarining eng katta yutug'i – bu ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining qaror topishi va kulolchilikning paydo bo'lishidir. Bu davrda, shuningdek, to'qimachilikning kashf etilishi, o'zaro buyum almashinuvi rivojlanadi. O'rta Osiyoning janubiy yerlarida, xususan, Kopetdog' etaklarida dehqonchilik va ilk chorvachilik qaror topib, daryo va ko'llarning sohilida ovchilik va baliqchilik rivoj topa boshlaydi. O'rta Osiyoda yashagan neolit qabilalari xo'jalik shakllariga ko'ra Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatiga bo'lib o'rganiladi. ULARNING sanasi miloddan avvalgi VI-IV/III mingyilliklar bilan belgilanadi. Bu davrda janubiy mintaqalarda guvaladan turar joylar barpo etila boshlangan. Uylar asosan bir xonadan iborat bo'lib, ularda xo'jalik uchun maxsus qurilgan imoratlar ham mavjud bo'lgan. Vatanimiz hududida bu davrga oid Kaltaminor madaniyati rivojlanib, uning izlari Amudaryoning quyi oqimidagi hududlarda, ya'ni hozirgi Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida tarqalgan.

Bu madaniyat sohiblari xo'jalikning o'zlashtiruvchi shakli bilan shug'ullanib, ularning moddiy madaniyati namunalari Jonbos-4 yod-

gorligida o‘z aksini topgan. Ularning uy-joylari karkas shaklida barpo qilingan chaytlalardan iborat. Ularning o‘itasida umumjamoa uchun mo‘ljallangan katta o‘choq va uning atrofida esa alohida oilalarning o‘choqlari joylashgan.

Eneolit (lotincha «aeneus» – mis, «ditos» – tosh) davrida O‘rta Osiyo, xususan, Vatanimiz xalqlari muhim tarixiy taraqqiyot bosqichini boshidan kechiradi. Janubiy mintaqalarda o‘troq dehqonchilik madaniyatining yanada rivojlanib, murakkablashishi va hududiy jihatdan kengayishi bilan tavsiylansa, shimoliy mintaqalarda xo‘jalikning o‘zlashtiruvchi shakli saqlanib qoladi. O‘rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Turkiston) va Zarafshonning yuqori oqimi hududlari uchun eneolit davri quyidagi yangi madaniy-tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq:

- xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
- toshdan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarining paydo bo‘lishi;
- katta-katta ibridoiy jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta uylarning paydo bo‘lishi;
- xo‘jalikda muhim texnika yutug‘i – xumdonlarning ishlatalishi;
- o‘troq xo‘jalikning rivojlanishi;
- sug‘orish inshootlarining paydo bo‘lishi;
- qurilishda xom g‘ishtning paydo bo‘lishi va manzilgohlarda mudosaa devorlarining yuzaga kelishi;
- rangdor sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davriga kelib Joytun madaniyati qisman saqlangan holda Janubiy Turkmaniston hududida arxeologiya fanida Anov madaniyati nomi bilan ataluvchi yangi qabilalar guruhi paydo bo‘ladi. Joytun madaniyatining davomi va ushbu madaniyat sohiblariga xos yodgorliklarining o‘rnii Anovtepa, Namozgochtepa, Qoratepa, Oltintepa, Mullalitepa, Geoksyur guruhidagi tepaliklar va boshqalarda o‘z aksini topgan. Bu davrga kelib Zarafshonning yuqori oqimi hududlarida, ya’ni hozirgi Panjikent tumanidan Sarazm madaniyati qaror topadi. Bu manzilgoh 90 gektardan iborat maydonni egallab, undan aholi uy-joylari, xo‘jalik imoratlari va boshqa moddiy topilmalar topib o‘rganilgan. Ularning sopol buyumlari Anov madaniyatining eneolit davri rivojlangan bosqichiga oid sopollarga o‘xhash. Bu madaniyatga, olimlarning fikriga ko‘ra,

Turkmaniston janubidan kelgan bir guruh qabilalar tomonidan asos solingan. Qadimgi sarazmliklar mil. avv. II mingyillikning boshlariga qadar hayot kechirishgan.

Miloddan avvalgi III mingyillikning ikkinchi choragiga kelib O'ita Osiyoning qadimgi tarixida bronza davri boshlanadi. Bu davrga kelib tarixiy taraqqiyotning barcha sohalariga rivojlanishning keyingi bosqichga kirishi, kishilik jamiyatni tuzilmalarining chuqurlashishi, qadimgi dehqonlar tomonidan yangi mintaqalarning o'zlashtirilishi va shimoliy mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi kuza tiladi. Janubiy Turkmanistonning eneolit davri manzilgohlarining ayrimlari o'mida rivojlangan qadimgi qishloqlar strukturasi murakkabla shib, ular ma'lum vohaning madaniy va iqtisodiy markazlari darajasiga ko'tariladi.

Bu davrga oid yirik hajmdagi manzilgohlar alohida qismlarga (sittadel, aholi uy-joylari va dastlabki ishlab chiqarish inshootlari) dan iborat bo'lib, ular mudofaa tizimi, mahobatli va diniy xarakterdagi qurilish inshootlari, tabaqalashgan aholi qatlamiga mansub uy-joylar o'rinn olgan. Mazkur belgilarga ko'ra ushbu yodgorliklar o'zidan qadimgi sharqqa xos protoshahar madaniyatini namoyon qiladi. Bunday manzilgohlardan Turkmaniston janubida joylashgan Namozgohtepa, Oltintepalar muhim o'rinn tutadi. Miloddan avvalgi II mingyillikning boshlariga kelib bu turdag'i madaniyat inqirozga uchrab protoshahar madaniyatining rivojlanishi hozirgi Murg'ob va Surxon vohalariga ko'chadi. Murg'ob vohasida bu davrga oid bir nechta dehqonchilik tumanlarida qadimgi manzilgohlar rivojlanib, ulardan Tug'aloq, Gonurlar ajralib turadi. Bu yodgorliklarda qadimgi uy-joylar, hunarmandchilik ustaxonlari, mudofaa inshootlari qoldiqlari, qadimgi ibodatxonalarining o'mi qazib o'rganilgan.

Surxon vohasida miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi choragidan boshlab Sopolli madaniyati qaror topadi. Bu madaniyat o'z tarixiy taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tgan. Sopolli madaniyatining ilk bosqichiga oid yodgorliklardan Sopollitepa yaxshi o'rganilgan. U ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, sakkizta kvartaldan tashkil topgan. Manzilgoh vayronalarida uy-joy xarobalari, hunarmandchilik ustaxonlari va shuningdek, yuzdan ortiq qabrlar (qabrlar uylarning ichida joylashgan) hamda ularda o'rinn olgan moddiy man-

balar topib o'rganilgan. Sopolli qishlog'i qadimgi aholisining asosiy mashg'uloti sug'orma dehqonchilik bo'lган. Ular sopolli buyumlarni kulolchilik charxida yasashgan. Keyingi Jarqo'ton bosqichi (mil. av. 1550-1500-yillar)ga kelib ushbu madaniyat o'z tarixiy taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko'tariladi.

Manzilgohlar hajmi yiriklashib, me'morchilik strukturasi murakkablashadi. U 100 ga maydondan iborat bo'lib, alohida qismlardan tashkil topgan. Manzilgohning bir qismida sitadel (ark) va unga tutash joylashgan aholining turli tabaqa vakillariga tegishli uy-joy imoratlari va hunarmandchilik ustxonalaridan iborat mahalla mavjud. Sitadelda mahalliy boshqaruv ma'muriyatiga tegishli mahobatli imorat va qadimgi otashparastlarning ibodatxonasi o'rinni olgan. Manzilgohdan tashqarida jarqo'tonliklarning mozori o'rinni olgan. Unda 3 mingga yaqin qabr ochib o'rganilgan. Qabrlardagi moddiy manbalar marhumlarning jamiyatdagi mavqeyiga qarab qo'yilgan.

Ulardagi ayrim moddiy manbalar va tabaqalashgan uy-joy va imoratlari Jarqo'ton bosqichida aholi o'rtasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanish sodir bo'lganligidan dalolat beradi. Jarqo'ton manzilgohining nima sababdan tashlab ketilganligi to'g'risidagi masalani olimlar turlicha ifodalashadi. Sopolli madaniyatining keyingi bosqichlari (Ko'zali va Mullali)da protoshahar shaklidagi manzilgohlar o'miga kichik qishloqlar paydo bo'ladi. Shuningdek, bu bosqichga oid qabrlar ham topib o'rganildi. Ulardagi moddiy manbalarga ko'ra sopolli madaniyatining so'nggi bosqichiga kelib aholi o'rtasida mulkiy tengsizlik va tabaqalanish yanada chuqurlashib borganligi kuzatiladi. Umuman, mil. av. II mingyillikning oxirlariga kelib Murg'ob va Surxon vohalaridagi madaniyatlar inqirozga uchraydi.

O'zbekistonning shimoliy mintaqalarida bronza davriga oid chorvador va dehqon-chorvador qabilalariga tegishli madaniyatlar tarqaladi. Ulardan Zamonbobo, Tozabog'yob hamda tog' va tog'oldi mintaqalari-da yashagan chorvador qabilalarning madaniyatlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Zamonbobo madaniyati Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan shu ko'l atrofidan topib o'rganilgan yodgorliklar va qabrlardan iborat. Zamonbobo mil. av. III mingyillikning oxiri va II mingyillikning birinchi yarmi davomida rivojlanadi. Yodgorliklar yerto'la shaklida uy-joylar va qabrlardan iborat. Mazkur yodgorliklardan tosh

quollar, metalldan ishlangan zeb-ziynat buyumlari, sopol buyumlar, xumdonlar, yovvoyi va xonaki havvonlar suyaklari aniqlangan. Manzilgoh va qabrlardan bug'doy qoldiqlari ham aniqlangankim, bu zam'onaboliklar hayotida chorvachilik bilan birlashtirilishda dehqonchilik ham muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Dehqonchilik neolit davri Joytun madaniyati shaklida bo'lgan. Shuningdek, ular qo'shimcha mashg'ulot sifatida ovchilik bilan ham shug'ullaniganlar.

Amudaryoning quyi oqimi hududlarida bronza davriga oid Tozabog'yob madaniyati rivojlanib, uning moddiy madaniyati va xo'jalik xususiyatlari bilan bog'liq masalalar arxeologik jihatdan o'rganilgan. Qadimgi Xorazm aholisi xo'jaligida dehqonchilik ustun bo'lib, qadimgi sug'orish inshootlarining izlari yaxshi saqlangan. Ular yarimyerto'la shaklidagi uylarda istiqomat qilishgan. Sopol idishlar qo'lida ishlangan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi hududlarida bronza davriga oid Qayroqqum va Chust madaniyatlari rivojlangan. Qayroqqum madaniyatiga mansub aholining yerto'la shaklidagi uy-joylari va metallga ishlov berish ustaxonalari izlari aniqlangan. Chust madaniyatining quyi bosqichi so'nggi bronza, yuqori bosqichi esa ilk temir davriga oiddir. Chustliklarning bu davrga oid o'troq manzilgohlari va ulardan uy-ro'zg'or manzilgohlari topib o'rganilgan. Ko'rinishidan bronza davri uylari yerto'la shaklida bo'lgan, sopol idishlari qo'lida yasalib, atrofida naqshlar berilgan. Bronzaga ishlov berish yaxshi rivojlangan. Chustliklar xo'jalik xususiyatlariga ko'ra dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

Temir davri O'ita Osiyo tarixida chuqur tarixiy-madaniy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu davrga kelib o'troq dehqonchilik hududlari kengayib, qadimgi shaharlar va davlat birlashmalari paydo bo'ladi. Janubiy mintaqalarda so'nggi bronza davri protoshahar madaniyati inqirozga uchrab, uning o'mida o'ziga xos madaniyat qaror topadi. Bu davr madaniyati, xususan, yodgorliklari strukturasiga ko'ra ixcham va murakkabligi bilan ajralib, ular Vatanimiz hududida qadimgi shaharlarning paydo bo'lishida asosiy tugun bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston hududida qadimgi shahar turidagi manzilgohlardan Qiziltepa (Surxon-daryo), Uzunqir va Yerqo'rg'on (Qashqadario), Afrosiyob va Ko'ktepa (Samarqand) ma'lum.

Ular keng maydondan iborat qadimgi manzilgoh bo'lib, mahalliy va markaziy ma'muriyat apparatiga tegishli mahobatli imoratlardan ark,

aholi uy-joylari va ixtisoslashgan hunarmandchilik inshootlari joylashgan qismlardan iborat bo'lib, umumi yudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Bu kabi qadimgi shaharlar yirik davlat uyushmalari va ayrim ma'muriy bo'linmalaming markazi vazifasini o'tagan. Farg'onada vodiyida shaharsozlik janubiy mintaqalardan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Bu mintaqada Dalvarzin va Chust kabi qadimgi shahar xarobalari saqlanganki, ular shahar qurilishi strukturasiga ko'ra janubiy mintaqalarning shaharlaridan farq qiladi. Miloddan avvalgi I mingyilikning o'rtalariga kelib, shaharsozlik an'analari mavjud bo'lgan hududlarda urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi, qolgan hududlarda esa shakllanishi kuzatiladi.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti murakkab jarayonlar: bosqinchilik yurishlari, xalqlar va madaniyatlarining kirib kelishi, mintaqaviy davlatlarning tashkil topishi va boshqa o'zgarishlar bilan belgilanadi. Bu esa har mintaqada o'ziga xos madaniyatning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Antik davrga kelib qisman qadimgi shaharlarning rivojlanishi bilan birgalikda yangi shahar markazlari paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu davrga oid yirik shahar markazlaridan Dalvarzin, Zartepa, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Ko'ktepa, Tuproqqa'l'a, Kanxa va boshqalarning o'mida keng ko'lamli arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilib, natijada mazkur davr shaharlarning tuzilishi, ulardan o'rinn olgan qurilish inshootlari, ularning qurilish usullari va texnikasi, shuningdek, qadimgi xalqlar yaratgan boy moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari o'rganilgan.

Ushbu shahar markazlari iqtisodiy, savdo va madaniy markaz bo'lish bilan birgalikda Yunon-Baqtriya podsholigi, Kushon podsholigi, Qang'lar davlati, Xorazm va Davan kabi yirik davlatlar yoki ularning tarkibidagi ayrim ma'muriy bo'linmalarning markazi ham bo'lgan. Shahar xarobalari va alohida joylashgan diniy inshootlar o'z davri aholisining g'oyaviy qarashlarini ochishga yordam beradi. Bu davrda qadimgi O'zbekiston aholisi bir necha dinlarga e'tiqod qilganliklarini hozirgi paytda saqlanib qolgan topilinalar va ibodatxonona xarobalaridan ko'rish mumkin. Xususan, Surxon vohasida budda ibodatxonalarini va stupalari (Qoratepa, Fayoztepa, Zurmala, Dalvarzintepa ibodatxonasi), zardushtiylar (Dalvarzintepa) ibodatxonasi, Xorazm vohasidagi turli xil ossuariylar va joylardagi diniy xarakterdagi ayrim topilmalar fikrimizning dalilidir. Qadimgi qishloq

hayotini yoritib berishda ham arxeolog manbalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab qishloq xarobalari o'rganilgan.

Antik davrga oid yodgorliklardan topib o'rganilgan haykalchalar, tasviriy san'at namunalari, yozuvlar va boshqa moddiy manbalar o'z davri kishilarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotlarini yoritib berish bilan birgalikda boshqa xalqlar bilan aloqalari va o'zaro ta'siri masalalarini ochib berishda ham yordam beradi. Dalvarzintepa, Xolchayon, Qoratepa va Fayoztepa xarobalaridan boy mazmunga ega bo'lgan haykalchalar va tasviriy san'at namunalari ochilib, yuksak darajada rivojlangan madaniyat qaror topganligidan dalolat beradi. Ular o'zida mahalliy madaniyat an'analari bilan birgalikda yunon, hind madaniyati namunalarini aks ettirib, bu tasvirlar mazmunan ancha boy bo'lib, murakkab mafkuraviy qarashlarni o'zida aks ettiradi.

Qadimgi So'g'd, Xorazm, Farg'on'a vodiysi va Toshkent vohasi hududlarining bu davrga oid madaniyati o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Ular asosan sodda ishlangan haykalchalar va tasvirlardan iborat bo'lib, mavzusiga ko'ra ko'proq real hayot, kishilar turmush tarzi va xo'jalik faoliyati yoki nufuzli kishilarni tasvirlashgan.

Kushonlar imperiyasi va Qang'lar davlati inqirozi davrida O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida yer egaligi munosabatlari churqashib, ilk o'rta asrlar davrida bu jarayon yanada kuchaydi. Natijada yirik shaharlar markazlari bilan birgalikda dehqonchilik qishloqlarining ahamiyati ortib bordi. Yirik shahar markazlaridan Samarqand, Buxoro, Naxshab, Kesh, Termiz, Binkent va boshqalarda madaniy va iqtisodiy hayot rivojlandi. Shuningdek, zodagon dehqonlarning saroy, qasr, ko'shk va qo'rg'on shaklidagi imoratlari paydo bo'ldi. Ular o'zining qurilish usullari va boshqa xususiyatlariga ko'ra yangi shakldagi me'morchilik inshootlari hisoblanadi. Shaharsozlik va me'morchilik sohasidagi o'zgarishlar ilk o'rta asrlar davri feodal davlatlar shakllanishi va taraqqiyoti bilan chambarchas rivojlandi. Bu davr me'morchilik inshootlari devorlari, odatda, rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Bunday tasviriy san'at namunalari Bolaliktepa, Afrosiyob, Varaxsha va Panjikent shahar xarobalarida qayd etilgan. Ulardagi devoriy suratlarda diniy, dunyoviy va afsonaviy syujetlar ajralib turadi. Bu davrda haykalchalar bilan birgalikda yirik haykallar paydo bo'ldi. Ular dunyoviy va diniy mazmunga ega bo'lib, kishilar ijtimoiy hayoti va mafkuraviy qarash-

lariini belgilashda muhim manba hisoblanadi. Ilk o'rta asrlar davomida qadimgi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniyat namunalarini arablar bosqini davrida yo'q qilib tashlanadi.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonning rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davri arxeologiyasi hozirgi paytda mavjud bo'lgan yoki o'z davrida inqirozga uchragan shaharlarda arxeologik qazish ishlari natijasida topib o'rganilgan imoratlar va boshqa moddiy manbalar hamda hozirgi paytgacha saqlanib qolgan me'morchilik obidalarida o'zining aksini topgan. IX asrga kelib O'rta Osiyoda Arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan feodal davlatlar tashkil topgan so'nggi davr somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, Chig'atoy ulusi, temuriylar, shayboniylar, ashtarkoniylar va xonliklarning hukmronligidan iborat bo'lib, shaharsozlik madaniyati, qurilish, me'morchilik va boshqa moddiy manbalarni yaratish ulaming iqtisodiy imkoniyatlari va qudrati bilan belgilanadi.

## 2. O'zbekistonda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi

Hozirgi kunda O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini butun dunyo tan olmoqda. Zero, O'zbekiston kishilik taraqqiyoti tarixidagi eng muhim va qadimgi hududlardan biri sanaladi.

Tarixni o'rganar ekanmiz, uni o'rganishdagi asosiy manba yozuv ekanligiga guvoh bo'lamiz, lekin insoniyat tarixi faqatgina yozuv paydo bo'lgan davrdan boshlanmaganligi barchamizga ayon. Yozuv paydo bo'lgan davrdan oldingi uzoq o'tmishni o'rganishda arxeologiya ma'lumotlarining o'mni muhim hisoblanadi.

Arxeologiya so'zining o'zi qariyb 2500 mingyllik tarixga ega bo'lsa-da, fan sifatida arxeologiya 21 asr davomida shakllandi va ijtimoiy fanlar darajasiga ko'tarildi. Xususan, Vatanimiz tarixini ilmiy jihatdan o'rganish **XIX** asming ikkinchi yarmidan boshlandi. Jumladan, dastlab Rossiya imperiyasi tomonidan uyushtirilgan ekspeditsiya a'zolari arxeologik qidiruv (razvedka) ishlarini olib bordilar. Masalan, 1870-yili A.L. Kun Zarafshon vohasida ilk bor qazish ishlarini olib borib, qadimiy obidalar qoldiqlari, tangalar va boshqa ashyolarni to'pladi.

A.L. Kun tadqiqotlarining eng muhim natijasi shuki, u 1871-1872-yillarda Turkiston o'lkasining arxeologik albomini tuzish

maqsadida Samarqand obidalarini suratga oldi. Shundan so‘ng arxeologiyaga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kuchaydi. 1895-yili V.V. Bartoldning bevosita rahbarligida va taklifi bilan «Turkistonlik havaskor arxeologlar» to‘garagi ta’sis etildi va uning ustavi tasdiqlandi. Bu to‘garak a’zolari o‘lkadagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish va ularni ilmiy jihatdan tadqiq etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydilar. V.V. Bartold arxeologik qidiruv ishlariga mahalliy kadrlarni jalb qilib, ularning bilim va tajribalaridan foydalanishga ham alohida e’tibor berdi.

U «Turkistonda arxeologik tadqiqotlarning umumiyligi ahvoli va fan oldida turgan vazifalari» deb nomlangan ma’ruzasida o‘lkada ilm-fanni rivojlantirishda mahalliy bilimdonlarni jalb qilish va bu ishda mahalliy bilimdonlarning ahamiyati katta ekanligini ta’kidlaydi. Bu davrda mahalliy aholi orasidan ham arxeologiyaga qiziquvchilar paydo bo‘la boshladi. Toshkentlik Akrom Polvon Asqarov, buxorolik Muhammad Vafo, samarqandlik Mirza Buxoriy, Mirza Barot va boshqalar shular jumlasidandir. Shulardan Akrom Asqarov birinchi havaskor o‘zbek arxeologi nomi bilan mashhur. Uning numizmatika kolleksiyasida 15000 dan ortiq (17 ta oltin, 1498 ta kumush va 13537 ta mis) tanga pullar bo‘lgan. Uning kolleksiyasidan sopol haykalchalar va sopol idishlar ham o‘rin olgan edi. To‘plangan kolleksiyalardan 504 tasi hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

O‘zbekistonda tarix fani sohasidagi ilk ilmiy izlanishlar Turkiston Xalq universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tashkil topishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki ilmiy izlanishlar aynan mana shu ilm dargohida olib borilgan. 1930-yillarning o‘rtalariga kelib respublikamizda arxeolog mutaxassislarga bo‘lgan talab yaqqol sezila boshlandi. Ayni shu davrga kelib arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilishi yanada kuchaydi.

O‘zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishida S.P. Tolstov, M.M. Dyakonov, A.P. Okladnikov, M.M. Gerasimov, V.G. Grigoryev, A.V. Yakubovskiy, Y.G. Gulomov, M.P. Gryaznov, V.A. Latinin, A.R. Terenoshkin, V.A. Shishkin, V.M. Masson, G.A. Pugachenkova, V.A. Litvinskiy kabi arxeologlarning xizmatlari beqiyos darajada katta.

Shu o‘rinda Yahyo G‘ulomovni alohida ta’kidlab o‘tish lozim. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998-yilda tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan bo‘lgan suhbatida «Men akademik Yah-

yo G'ulomovni yaxshi bilardim. U mustaqil fikrga ega bo'lgan, kerak bo'lsa eng yuqori lavozim egasiga yoqmaydigan to'g'ri gapni dadil ayta oladigan olim edi. Tarixchilar yaxshi biladilar, odatda tepaliklar qarida tarixiy obidalar yastangan bo'ladi. Sho'ro davrida faqat tomillardagina paxta ekilmay qolgan bir paytda ana shunday tarixiy tepaliklarni ham tekislab paxta dalasiga aylantirish siyosati avj olganda bunga qarshi chiqqan olim Yahyo G'ulomov bo'lganini men yaxshi eslayman. Bu fazilati tufayli tazyiq ko'rganini ham eshitganman. Lekin adolatni hamma narsadan ustun bilgan vatanparvar odam shunday bo'ladi. Ana shunday odamlar hayoti bizga ibrat maktabi bo'lmog'i lozim», deya ta'kidlaganlarining o'ziyoq olimning qay darajada ilm fidoyisi bo'lganligidan darak beradi.

O'lkamizda arxeologik tadqiqot ishlari XX asrning 30-yillaridan boshlab jadal rivojlandi. 1929–1930-yillarda Farg'ona vodiysida Pota-pov boshchiligida arxeologik qazishma ishlari olib borildi. 30-yillarning oxirlarida S.P. Tolstov boshchiligida Xorazmda arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Tadqiqotlar natijasida qadimgi Xorazmning ko'hna qal'alari o'rghanildi. Shu davrda V.A. Shishkin boshchiligida Buxoro viloyatining g'arbiy qismida tekshirishlar o'tkazildi.

Surxondaryo viloyatida qazish ishlari B.P. Denike boshchiligida olib borildi. 1930-yillarga kelib juda katta ilmiy ishga molik arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. M.Y. Masson tomonidan Termizda termiziy-shohlar saroyi qazib o'rghanildi. Undan so'ng A.P. Okladnikov, O'. Islovmov boshchiligida keng ko'lami arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. 1938-yilda A.P. Okladnikov tomonidan Boysun tog'ining Teshiktosh g'orida olib borgan tadqiqotlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Arxeolog mutaxassislar tayyorlashda O'rta Osiyo davlat universitetining xizmati katta bo'ldi. 1940-yil 1-aprelda universitetning tarix fakulteti tarkibida M.Y. Masson rahbarligida O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasи ta'sis etildi. Ushbu kafedrada M.Y. Massondan tashqari T.G. Obolduyeva va M.V. Voronsovlar bor edi. Shu tariqa O'rta Osiyo arxeologiya ilmiy maktabiga asos solindi.

1945-yili Moskvada arxeologlarning I Butunitifoq kengashi bo'lib o'tdi, kengashda Turkmaniston hududida arxeologik izlanishlarni jollantirish masalasi ham ko'rib chiqildi va Janubiy Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasini tashkil qilish to'g'risidagi qaror qabul

qilindi. Ekspeditsiya rahbari qilib M.Y. Masson tayinlandi. U yerda barcha arxeologik ekspeditsiya ishlarini olib borish O'rta Osiyo davlat universiteti tarix fakulteti arxeologiya kafedrasи zimmasiga yuklatildi.

XX asr 40-yillarining oxirlaridan boshlab O'rta Osiyoning barcha mintaqalarida qadimgi tosh davridan o'rta asrlargacha bo'lgan davri ni qamrab olgan yodgorliklarda arxeologik tadqiqot ishlari olib borish jadallashdi. Xususan, Amudaryoning quyi oqimida Xorazm arxeologik- etnografik ekspeditsiyasi (XAEE) faoliyati takomillashdi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent vohasi va Farg'onan vodiysi hududlaridagi bir necha yodgorliklarda ham tadqiqot ishlari olib borildi.

60-yillardan boshlab arxeologik tadqiqot ishlarining ham davriy, ham hududiy doirasi kengayib, Vatanimiz tarixi va madaniyati yangi ma'lumotlar bilan boyib bordi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi arxeologiya va san'atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan Surxondaryo viloyatidagi bronza, temir va antik davrga oid ko'plab yodgorliklarda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Arxeologik tadqiqot ishlari Vatanimiz tarixi va madaniyatini churroq o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) arxeologiya kafedrasи tomonidan 1963-yili Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi tashkil etilib, vohaning sharqiy hududlari qadimgi va o'rta asrlar davri yodgorliklari tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. 70-yillardan boshlab O'z RFA arxeologiya instituti R.H. Sulaymonov boshchiligidida Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on yodgorligida tadqiqot ishlari olib borildi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, so'nggi 40-50 yil ichida O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda arxeoglarning katta guruhi yetishib chiqdi, ular jurnlasiga E.V. Rteladze, A. Muhammadjonov, A. Asqarov, O'Islomov, P. Albaam, Y.F. Buryakov, R.X. Sulaymonov, O.K. Berdiyev, M.R. Qosimov, M. Jo'raqulov, T. Mirsoatov, A.S. Sagdullayev, E.B. Bijanov, A. Kabirov, M. Filanovich, T. Shirinov, T. Annayev, Sh. Shaydullayev va boshqalarni kiritish mumkin. Demak, keyingi yillarda O'zbekistonda arxeologiya fani rivoji ayni shu ilm fidoyilarini nomi bilan bog'i, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning o'tkazgan arxeologik tadqiqotlari va yozgan ilmiy asarlari tufayli O'rta Osiyo, xususan,

O‘zbekiston tarixi va arxeologiyasiga doir juda qimmatli ma’lumotlar to‘plandi va keng jamoatchilikka e’lon qilindi. E.V. Rtvveladzening «Средневековые памятники Сурхандарьи», «Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi; davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar», «История и нумизматика Чача»; G.A. Pugachenkovning «Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана», «Искусство Бактрии эпохи Кушан»; Y.F. Buryakovning «Горное дело и металлургия средневекового Илака», «Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса», «Toshkent vohasining qadimiy karvon yo‘llari»; A.R. Muhammadjonovning «Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi», «O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari», «Qadimgi Toshkent»; A.A. Asqarovning «Джаркутан», «Sopollitepa» «Eng qadimgi shahar»; R.H. Sulaymonovning «Древний Нахшаб» kabi ko‘plab asarlari chop etilib, ilmiy jamoatchilikka arxeologiya fani yutuqlari e’lon qilindi.

ToshDU tarix fakulteti O‘rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasining yana bir alohida maqtovga sazovor jihat shundaki, 1985–1992-yillar davomida Afg‘oniston, Efiopiya, Yaman, Vyetnam, Jazoir, Iraq kabi davlatlardan kelgan 50 dan ortiq talabalarga arxeologiya fanining sir-larini o‘rgatib, oliy ma’lumotli qilib yetishtirishda kafedraning xizmati juda katta. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarix fakulteti faqatgini respublika miqyosida emas, balki xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash bilan jahon maydoniga chiqdi. Bu esa arxeologiya kafedrasи a’zolarning mehnati samarasidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so‘ng xorijiy mutaxassislarining qadimgi tariximizga bo‘lgan ilmiy qiziqlishi kuchayib, o‘quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda Vatanimizning turli hududlarida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, Avstraliya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Yaponiya davlatlari o‘quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari O‘zRFA arxeologiya instituti, FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tarix instituti va O‘zMU arxeologiya kafedrasи bilan hamkorlikda Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida arxeologik qazishma ishlari olib borilmoqda.

Shunisi quvonarligi, 2007-yildan boshlab O‘zMUning tarix fakultetida arxeologiya yo‘nalishi ochildi va talabalar qabul qilinib, ularga

arxeologiya mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim berilmoqda. Yildan yilga arxeologiyaning tarixni o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. O‘zbekistonda ham arxeologiya fanining dolzarb muammolari talaygina. Bulami o‘rganish esa kelajakda o‘zbek arxeologlarining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

### 3. Eneolit, bronza va ilk temir davri me’morchiligi

Eneolit davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqori ko‘tariladi. Lekin bu yerdagi qabilalaming madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada bo‘lman. Arxeologik tekshiruv ishlari natijalari O‘rta Osiyo aholisi orasida notejis rivojlanish bo‘lganligidan dalolat beradi. Unumdon xo‘jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, qo‘sishma xo‘jaliklar bilan mashg‘ul bo‘lganlari esa madaniy jihatdan bir necha yuz yillar orqada qolgan.

Yassitepada olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida ibtidoiy ibodatxonaning qoldiqlari ham topib tekshirildi. Qadimgi inshootning devorlari geometrik naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, ularga qora va qizil rangli bo‘yoq berilgan. Markaziy xonada katta o‘choq topilgan. Ibdatxonaning devorlari yonida yog‘och ustunlar o‘rnatish uchun polga chuqurchalar o‘yilgan.

**Oltintepa.** Ilk shaharlarning paydo bo‘lishi Oltintepa misolida yaxshi o‘rganilgan. Ilk bronza davridayoq Oltintepaning ayrim hududlari mustahkam aylana devorlar bilan o‘rab olingan. Bu davming oxirlari-da manzilgohning janubiy qismida mahobatli darvoza bunyod etilgan. Kirish qismi maxsus minoralar bilan himoyalangan.

Oltintepa shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga cho‘zilgan bo‘lib, balandligi 20 metrga yetadi. Oltintepaning umumiyligi maydoni 60 ga dan ortiq. Oltintepaning atrofi qalinligi 2 m g‘isht devor bilan o‘ralgan bo‘lib, ichida aholi yashaydigan massivlar, kulolchilik mahallalari bo‘lgan. Keng va uzun yo’llar, bir necha xumdonlar, mahobatli uy qoldiqlari, diniy inshootlar, zikkurat topilgan.

**Sarazm.** Zarafshon vodiysining eneolit va ilk jez davridagi qadimgi dehqonchilik madaniyatiga oid arxeologik yodgorlik. «Sarazm» atamasi so‘g‘dcha «sarizamin», ya’ni «yerning boshlanishi», «vohanining boshlanishi» demakdir. Yodgorlik yassi tepalar ko‘rinishida 100 gek-

targa yaqin yerni egallagan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yodgorlikda 4 ta tarixiy bosqich aniqlangan. Sarazm I davri sopol idishlari rangli naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, Turkmanistonning Anov II, Geoksur tipidagi moddiy buyumlariga ancha o'xshaydi. Idishlar sirtida qora va qizil bo'yoqlar bilan ishlangan turli geometrik naqshlar bor. Madaniy qatlamda misdan yasalgan qurollar ham uchraydi.

*Sarazm I* davri qurilishlari ko'pxonali uy massivlaridan iboratdir. Ular katta jamoa uylari hamdir. Hozirgi vaqtida 48 ta paxsadan qurilgan xona topib tekshirilgan. Umumiylar joylar yakka kichik oilalarga mo'ljallanib, 2–3 xonali qilib qurilgan, ular uy-joy va ro'zg'or-xo'jalik inshootlari vazifasini bajargan. Turar joyga moslashgan xonalarda dumaloq shaklda ishlangan o'choqlar topilgan.

*Sarazm II* davrida bir-biridan tor ko'chalar bilan ajratilgan, ko'pxonali turar joy massivlari doirasida jamoa ibodatxonasi qad ko'taradi. Ibodatxonaning devorlariga qizil rangda naqsh berilgan va ularning qoq o'rtaida murabba' shaklida mehrob joylashgan.

*Sarazm III* davrida ijtimoiy xarakterdagi monumental binolar paydo bo'ladi. Ular urug' jamoalarining ma'muriy bino va ibodatxonalaridan iborat bo'lgan. Bu davrda patriarchal oila hovli-joylari kengayadi, bu hovlilar ichida kulolchilik xumdonlari va metall eritish ustaxonalarini paydo bo'ladi. Kulolchilikda ichi va sirtiga sayqal berilgan sopollar keskin kamayadi. ularning o'mini mahalliy an'anaviy shakldagi naqshlar egallaydi. Mahalliy naqshlar bilan ibodatxonalarining devorlarini bezash vujudga keladi.

*Sarazm IV* davriga kelib, demografik o'zgarishlar bilan bog'liq holda abolining vodiylab tarqalishi va uning inqirozi kuzatiladi. Bu davr kulolchiligidagi yaqqol ko'zga tashlanadigan, yana bir tomoni sirtida, idishlarning gardishi bo'ylab, oddiygina rangli naqsh solish kuzatiladi. Ikkinci tomonidan, sopol idishlarning kulolchilik charxida yasash texnologiyasi kashf etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishdan ayrim belgilari terrakota, tosh va jezdan ishlangan muhrlar paydo bo'ladi. Qishloq jamoasi sardori, qabila boshlig'inining hukmdorlik belgisi bo'lmissiz jamoa nishoni yangi ma'no va mazmun kashf etgan.

*Bronza davri. Manzilgohlar va me'morchilik.* Marg'iyona va Baqtrianying manzilgohlari ikkita asosiy tipga: mustahkamlangan va qal'alari bo'lgan manzilgohlarga ajratiladi. Mustahkamlangan

manzilgohlar turar joy va xo'jalik xonalari uchun mo'ljallangan ko'p xonali uylar ko'rinishida qurilgan bo'lib, ular kichik ko'chalar bilan ajratilgan. Bunday (uylar) manzilgohlar oddiy qishloq jamoasiga tegishli bo'lgan. Kopetdog' tog' hududlarida bronza davrida ma'lum bo'lgan qal'alar mahobatli me'morchilikni o'zida aks ettirib, Baqtriya-Marg'iyona me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Ularni o'rab turgan himoya tartibi deyarli bir xil reja asosida bo'lib, turli shakllarga ega (Gonur 1, Sopollitepa, Dashtli-3, kvadrat shakldagi To'g'aloq 21, to'rtburchak Dashtli-1). Manzilgohning qal'a devorlarida ko'p hollarda to'rtburchak, aylana, yarimaylana yoki to'g'riburchakli shakldagi minoralar o'rnatilgan. Minoralar ba'zi hollarda faqat burchaklarda, ba'zi hollarda esa devor bo'ylab ma'lum masofada qurilgan.

Bronza davri tosh buyumlar orasida turli-tuman idishlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ulardan ayrimlari turli geometrik shakllarga hamda o'simlik va hayvon tasvirlari bilan bezatilgan idishlarning ko'plab topilishi marosimlar bilan bog'liq bo'lib, To'g'aloq 21 dan 30 dan ziyod bunday idishlar topilgan.

Afsonaviy va diniy mazmundagi boy manzaralarga ega bo'lgan turli-tuman muhrlar – tulyuflar Baqtriya-Marg'iyona moddiy madaniyati majmuasining o'ziga xos ajralib turadigan tomonlaridan hisoblanadi. Muhrlar uchta asosiy guruhga bo'linadi: 1) ko'pchiligi to'rsimon ishlangan metall buyumlar; 2) toshdan ishlangan silindrsimon muhrlar; 3) nisbatan ko'p sonli to'rtburchak yoki aylana shakldagi ikki tomoniga tasvir tushirilgan muhr-tumorlar. Muhrlardan bir qismi geometrik ishlangan bo'lib, xoch shaklini eslatadi. Ulardagi bezaklarda odamsimon va hayvonsimon tasvirlar mavjud bo'lib, ular orasida haqiqiy va fantastik mavjudotlar uchraydi. Ayrim tasvirlar yaxshilik va yomonlik o'tasidagi kurashni aks ettirgan. Ayrimlari diniy tantana va bayramlarni eslatadi (Sopolli, Jarqo-ton).

Qal' alarming paydo bo'lishi harbiy xavf-xatar paytida boshpana vazifasini bajarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, qal'alar qadimgi dehqonlar jamiyatida chuqurlashib borayotgan ijtimoiy tabaqalashuv jarayonini o'zida aks ettiradi. Qal' alarming ichki qismlari turli uslublarda bunyod etilgan. Gonur 1 ning shimoliy qal'asida yakka reja asosida qurilgan katta zal va biridan biriga o'tiladigan qator uylar ochil-

gan. To‘g‘aloq 21 da ham qal‘a to‘la qazib o‘rganilgan. Qal‘aning shimaliy tomonida katta gulli ustunlar bo‘lgan bosh kirish qismi joylashgan. Qal‘aning markaziy hududida to‘g‘ri burchakli xonalari bo‘lgan markaziy saroy qurilgan. Xonalarning devorlari va sathida gips suvoqlar saqlanib qolgan.

Qadimgi dehqonlar *Sopollitepa* qishlog‘i uchun tabiiy tepalikdan iborat hududni tanlashgan. Uning markaziy qismida o‘lchamlari 82x82 m bo‘lgan qal‘a joylashgan. Ichki yo‘lakni 3 qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Birinchi ichki mudofaa devori qishloqning markaziy qismini himoya qilgan. Devorlarning qalnligi 2 m dan ortiq. Bu devorlar juda murakkab me’moriy reja bilan qurilgan. Qal‘a devorlari har xil balandlikda saqlanib qolgan. Birinchi ichki devorning qal‘a balandligi 1,4–2 m, ikkinchisini 1,2 m, uchinchisi, ya’ni tashqi devorning saqlanib qolgan balandligi 0,4–1 m. Qal‘aning butun ichki qismi 8 ta mahallaga ajratilgan bo‘lib, ular bir-biri bilan yo‘lakchalar orqali ajratilgan. Qal‘aning asosiy devoridan uning markaziga qarab katta ko‘cha o‘tgan.

*Jarqo‘ton yodgorligining* umumiy maydoni 100 gektardan ortiq. Jarqo‘ton qishlog‘i bundan 3,5 ming yil avval qad ko‘tarib, uch qismdan iborat bo‘lgan. Qishloqning markazida maydoni 5 gektarga teng bo‘lgan arki a‘lo joylashgan. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, uning ichida hukmdorning qarorgohi joylashgan. Bu arki a‘lo to‘rtburchak shaklida bo‘lib, tashqi mudofaa devorining balandligi 5 metrni tashkil etadi. Mudofaa devori burjlar bilan himoyalangan. Uning ichki qismida, shuningdek, turar joylar va hunarmandchilik inshootlar ham joylashgan. Jarqo‘ton yodgorligining eng baland qismida esa ofashkada yoki olov ibodatxonasi joylashgan. U to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, o‘lchamlari 45x60 m. U qalin tashqi devorlar bilan o‘rab olingan. O‘z vazifasi va qurilish uslubiga ko‘ra, u ikki qism: ibodatgoh va xo‘jalikdan iborat bo‘lgan.

*Ilk temir davri.* Miloddan avvalgi I mingyllikning boshlariga kelib turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli O‘rtta Osiyoning janubida maydoni jihatidan uncha katta bo‘lmagan manzilgohlar paydo bo‘ladi. Bu manzilgohlar qal‘a inshootlari bilan, ixchamgina ikki qisqli tabiiy asosida paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan. Shimoliy Baqtriya hudудida aynan shunga o‘xhash ikkita manzilgoh: Bandixon va Kuchuktepa

aniqlangan. Ulardan kattarog‘i Bandixon I hisoblanadi. Bu manzilgohning sharqiy qismida (90x80 m) to‘rtta qurilish davri aniqlangan bo‘lib, ular yirik shakldagi xom g‘ishtlardan qad ko‘targan bino qoldiqlari orqali izohlanadi. Manzilgoh so‘nggi bosqichiga kelib, mahobatli bino ostida to‘rtburchak xom g‘ishtdan mustahkam poydevor paydo bo‘ladi.

Ilk temir davriga kelib, Baqtriya shaharsozligida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ko‘plab rivojlanish jarayonlari: temir qurollarning keng yoyilishi, sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilikning takomillashuvi, manzilgohlar sonining ortishi, ular maydonining kengayishi, yangi unsurlar qo‘ylgan holda, tuzilishining murakkablashuvi aynan temir davri uchun xosdir. Shuningdek, temir davriga kelib, aholi punktlarining turli shakllari: o‘troq dehqonchilik zodagonlarning mustahkamlangan qo‘rg‘onlari (qizilcha), yirik manzilgohlari (Bandixon II), murakkab rejaviy tuzilishiga ega, ilk qo‘rg‘onli shahar (Qiziltepa) paydo bo‘ladi.

Bandixon II qal‘a, qal‘aning shimoliy va sharqiy tomonida joylashgan mustahkamlangan manzilgohdan iborat. Manzilgohning janubi-sharqiy burchagida joylashgan qal‘a (110x100 m) hamma tomonidan xandaq va paxsa devor bilan o‘rab olingan bo‘lib, burchaklari yon tomonidan himoyalangan va yarimaylana shaklidagi minoralari hamda uchburchak shinaklari mavjud. Bandixon II uchun rejaning ma‘lum zichligi, himoya tartibining murakkabligi (minorali devorlar, xandaqlar), manzilgoh barcha qismlarining bir vaqtida shakllantirilishi va rivojlanishi xosdir. Bandixon II himoya inshootlari murakkablashgan tartibi va qal‘asining ichki tuzilishi bilan farqlangan holda, bronza davri Sopollitepa (ikki qisqli tuzilish) an‘analarini takrorlaydi.

Bu davrga kelib, manzilgohlarning ilgaridan ko‘plab belgilari bilan farqlanuvchi Qiziltepa ko‘rinishidagi yangi shaharsozlik shakli ham paydo bo‘ladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, Qiziltepa bir necha qal‘a, shahar, «shahar oldi» va atrof hududlar qismlaridan iborat. Maydoni 2 ga, balandligi 14–15 metr tepalik ustiga joylashgan qal‘aning g‘arbiy yarmi baland sun‘iy poydevor ustida qad ko‘targan, hokimning saroyi bo‘lgan katta qurilishdan iborat. Qal‘aning sharqiy yarmi g‘arbiy qismidan katta hovli yoki maydon bilan ajratilgan bo‘lib, bu yerda xo‘jalik turar joy majmuasi joylashgan va bu majmua ko‘plab turli davrlarga oid xonalardan iborat. Qal‘adan janubi-sharq tomonda

undan keng va chuqur xandaq bilan ajralib turgan to'rtburchak shaklga yaqin (420x360 m) rejadagi ko'hna shaharning asosiy qismi joylashgan bo'lib, bu qism janubi-sharq va janubi-g'arb tomondan minorali devorlar bilan o'ralgan. Bu qismning ichki rejasi ma'lum muntazamlik, hovlilari pasayib uylar ko'tarilgan va navbatma-navbat zinch qurilgan inshootlar, maydonlar hamda ko'chalar bilan izohlanadi (Kuchuktepa, Uzunqir, Sangirtepa, Ko'zaliqir, Dingilja, Qumrobod, Chordaryo).

*Yerqo'rg'on.* Miloddan avvalgi birinchi mingyillikning o'rtalarida shahar kengayib boradi. U 35 hektarlik maydonni egallaydi. Taxminan miloddan avvalgi VI asrda qurilgan. Mudofaa devorining qalinligi 8 metr, poydevorining qalinligi 3 metr kenglikda bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan devor bir necha bor qayta ta'mirlangan. IV asr o'rtalariga kelib, uning qalinligi 20 metrga yetgan.

#### 4. O'zbekistonning antik davri me'moriy yodgorliklari

Bizga ma'lumki, Aleksandr va uning vorislari davrida Ellistik davlatlarda shaharsozlik madaniyati yuksak darajada rivojlandi. Bu davrida boshqa hududlarda bo'lgani kabi O'rta Osiyoda ham shaharsozlik yuksak darajada rivojlandi. Er. avv. IV-III asrlarga kelib shaharlar rejali ravishda qurila boshladi. Bunga Aleksandriya Esxata misol bo'la oladi. Uning tashqi ko'rinishi to'rtburchak shaklda bo'lib, o'rtasidan shohko'cha o'tgan.

O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro maydonga tortilishi yaqin sharqdagi Ellin davlatlari shaharsozligi bilan tanishishga imkon yaratdi. Bu esa ellin shaharsozlik an'analarini O'rta Osiyo sharoitidan kelib chiqib o'zlashtirishga, uyg'unlashuviga olib keldi. Lekin O'rta Osiyo ellin shaharlarida baribir milliylik saqlanib qolindi. Antik davr O'zbekiston hududida shaharsozlik san'atining yuksak rivojlangan davri hisoblanadi. Hozirgacha hech bir antik davr shaharlari to'liq o'rganilmagan, shuning uchun ularning ilk ko'rinishini tiklab bo'lmaydi. O'rganilgan ba'zi tomonlarga qarab ularning taxminiy ko'rinishini tiklash mumkin.

*Tuproqqal'a* binolari ichida ikkinchi qavatdagi beshinchi xona, ay-niqlsa, bezakdor bo'lib, bu xona qasrning shimolidagi qo'fgaga qaratib solingen. Xona to'rtta ustunli, yassi tomli ulkan zal edi. Zalda tantanali marosimlar o'tkazilgan bo'lsa kerak. Zalning devorlariga qora va sariq

tusdagi yo‘l (polosa)laming bir-biri bilan kesishishidan hosil bo‘lgan bezakli rasmlar ishlangan, bu yo‘llarga esa yurak, atirgul bargi va ayiq-tovon o‘simligi bargini tasvirlovchi shakllar zeb berib turgan. Mazkur yo‘llar rombsimon kataklar hosil qilgan bo‘lib, bu kataklarga mash-shoqlarning rasmlari ishlangan.

Shu rasmlardan nafis rasmi qariyb butunicha saqlanib qolgan. Ayolning bilaguzuk taqilgan, bir qadar lo‘ppiroq qilib chizilgan qo‘lining barmoqlari uchburchak shaklidagi katta arfaning torlariga tegib turgan bo‘lib, bu arfa ossuriyaliklarnikiga o‘xshab ketardi. Ayol yelkalarining va yuzining yumaloqligi, umuman butun obrazning yaratilish uslubi bizga Kushon-Gandhara badiiy an'analarini eslatadi: Tuproqqal’ adan topilgan arfachi ayol rasmi Ayritomdan topilgan friz (uy devorlari tepe-siga solinadigan naqshning o‘rita qismi)lardagi sozandalarga o‘xshaydi.

*Qo‘yqirilganqal’* – miloddan avvalgi IV–III asrlarda qadimiy Xorazm uslubida qurilgan bo‘lib, ajoyib yodgorlik sifatida bizgacha yetib kelgan. Qo‘yqirilganqal’ a o‘n sakkiz qirrali doira shaklida bo‘lib, boshqa qal’alardan ajralib turadi. Qal’ a devorining umumiyligi 865 metrni tashkil qiladi. Qal’ a ikki devor bilan o‘rab olingan bo‘lib, o‘rtasida ikki qavatli silindr shaklidagi joy mavjud. Pastki qavat to‘liq saqlanib qolningan.

*Dalvarzintepa* – qadimgi shahar xarobasi, maydoni 47 ga. Dalvarzin 2 qismdan: qudratli mudofaa devori (qalinligi 10 m gacha) bilan o‘rab olingan shohsaroy qal’asi va shaharning o‘zidan iborat. Shahar ham mudofaaning istehkomli tizimiga ega bo‘lib, bu yerda asilzodalar, hunarmandlar, kulollar, savdogarlar va ruhoniylar istiqomat qilganlar. Miloddan avvalgi II asr oxiri – I asrlarda hozirgi Dalvarzintepa o‘rnida kichik manzilgoh paydo bo‘lgan. Kushon podsholaridan Kanishka davrida Dalvarzin shahar sifatida shakllangan. Mil. avv. I asr oxiri – milodiy I asr boshlarida Shimoliy Baqtriya hududida Dalvarzindan boshqa bunchalik katta shahar bo‘limganligi ta’kidlanadi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, harbiy hamda ma’muriy boshqaruvning markazlashuvi shaharning gullab-yashnashi va me’morchilikning rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

*Xolchayon* Yunon-Baqtriya va kushonlar davri madaniyatiga oid yodgorliklar majmuasi (mil.av. IV – mil. V asr) Surxondaryo viloyatining Denov tumani hududida joylashgan. Bir necha tepalik (Xonaqoh-

tепа, Qorabog‘тепа, Maslahatтепа va boshqalar)дан iborat. Xonaqoh-teпадан mil. avv. II-I асрларга oid hukmdor saroyi qoldiqlari topilgan. Bino to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, maydoni 35x26 m bo‘lib, markaziy fasadi to‘rt ustunli ochiq ayvondan iborat. Yog‘och ustunlar ohaktosh-dan ishlangan tagkursiga o‘rnatilgan. Ayvondan katta zalga o‘tilgan. Zal devorlari osti bo‘ylab keng supa yasalgan. Bino poydevori kvadrat shakldagi xom g‘ishtlardan ishlangan, g‘ishtning sirtiga turli shakldagi taing‘alar bosilgan. Bino bir qavatli, usti tekis qilib yopilgan bo‘lib, tashqi qalinligi 2,2 m, ba’zi joylarida 4 m ga yetgan.

Zal va ayvon devorlarining pastki qismida devoriy surat izlari topil-gan. Yuqori qismiga esa haykallar ishlangan. Xolchayondagi binoning asosiy ayvon peshtoqining joylashuv usuli uning ortidan baland katta xonaming joylashuvi bizga ahamoniylar davri me’morchiligin eslatadi. Ayvon va ayrim xona ustunlari yog‘ochdan bo‘lib, tomi tekis, qirrali, tomlari cherepitsa bilan yopilgan. Qalin cherepitsadan tarnovlar qilin-gan. Cherepitsali me’morchilik an’analari O‘rta Sharq uchun begona bo‘lib, ellistik an’analarga borib taqaladi. Inshoot bo‘rtib chiqqan tish ko‘rinishiga ham o‘xshab ketadi.

*Qoratepa* buddaviylik yodgorligi Eski Termiz majmuasi tarkibiga kiradi. Tadqiqotlar natijasida Qoratepaga milodiy I asr oxirlarida asos solinganligi, yodgorlik janubiy, g‘arbiy va shimoliy tepaliklardan tashkil topganligi aniqlandi. Qoratapaning o‘rganilishi 1928-yilda A.S. Strelkov tomonidan boshlangan bo‘lib, turli tanaffuslar bilan hozirga qadar davom etmoqda, hozirgacha to‘qqizta ibodatxona ochib o‘rganildi.

Qoratepa qazilganida undan budda dini marosimlariga oid buyum-lar, toshdan yasalgan soyabon, qopqoqlar, nilufar surati va boshqa ko‘plab narsalar topildi. Sopol buyumlar va devorlardagi yozuvlarning ham bu boradagi ahamiyati kattadir. Sopol buyumlardagi yozuvlarning ko‘pi hindcha kharoshthi va braxma yozuvlaridir, ammo binodan kushon yozuvli buyum ham topildi. Kushon yozushi mahalliy sharqiy fors tiliga moslashtirilib, yunon alifbosi asosida tuzilgani aniqlandi. Bu bilan arxeologlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotini o‘rganishda g‘oyat qimmatli yodgorlikka ega bo‘ldilar. Bundan tashqa-ri, Qoratepadagi budda yodgorligi Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning Hindiston va Xitoy bilan bo‘lgan aloqalarini o‘rganishga ham imkon beradi.

*Fayoztepa.* Kushon davri yodgorliklaridan biri Fayoztepa Eski Termiz devorlarining shimoli-g'arbida, Qoratepa tekisligining shimoli-g'arbidan janubi-sharqqa yo'naltirilgan holda qurilgan budda ibodatxonasidir. Bu to'rtburchak ziyoratgohning ichkari hovlisi ikki tomondan tirkak vazifasini o'tovchi yo'g'on ustunlar bilan ko'tarilgan bo'lib, maxsus ayvon bilan o'ralgan imoratdir. Ushbu budda obidasining qurilgan paytida binokorlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, umuman, shaharsozlik va me'morchilik rivojlangan Kushon-Baqtriya davlati davriga, ya'ni milodning II asrlariga to'g'ri keladi. Fayoztepadagi devorlar qurilishiga asosan paxsa va xom g'isht ishlatilgan, tomlarning ba'zilari gumbazsimon shaklda bo'lgan.

## 5. O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davri me'morchiligi va me'moriy yodgorliklari

Ilk o'rta asrlar davrida me'morchilik rivojlanib, bir necha qavatli shinan uylar, rasmlar va haykallar bilan bezatilgan saroy va ibodatxonalar qad ko'taradi. VII asrda Samarqand ixshidi (podshosi) Varaxshanining qassi monumental san'atning eng yaxshi namunasi hisoblangan. Qasming «Katta qabullar zali» rang-barang devor suratlari bilan bezatilgan. Bezaklarning saqlanib qolgan ikki metr balandlikdagi namunasi yuksak badiiy ijrosi bilan lol qoldiradi. Qasr devoridagi suratlar o'sha davr uchun eng xarakterli voqealar – shunqorlarning ov qilish sahnalari, ibodatxonaga tantanavorlik bilan kelishi, diniy marosimlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, ular orasida so'g'd hukmdori huzuriga sovg'alar bilan kelgan diplomatik missiyalarini shohona qabul qilish manzarasi ham o'rin egallagan.

Bu davrga oid O'zbekistondagi ilk o'rta asr shaharlarining aniq ko'rinishini Varaxsha shahri ifodalab beradi. Varaxshanining maydoni 9 ga, balandligi 10–20 metr keladigan ulkan tepe ustida qurilgan. III–IV asrlarda Varaxsha tanazzulga yuz tutadi. V asrdan boshlab yana tiklanib Buxoroning qadimgi hukmdori – buxorxudotlarning qarorgohiga aylanigan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo'lgan. Arkning janub tomonida mudofaa devoriga tutashgan.

*Panjikent yodgorligining* maydoni 13,5 ga ni tashkil qilib, shahriston, ko'handiz, rabod va qabristondan iborat. Shahristonda ko'p tarmoq-

li ko'chalar, xom g'isht va paxsadan qurilgan 2 qavat ayvonli turar joy binolari, hunarmandchilik ustaxonalari va do'konlar mavjud bo'lgan. Shahriston markazida V–VII asrlarga oid ibodatxona ko'rinishida 2 ta bino bo'lgan. Shahar devorlari g'arbda uch qavat istehkom bilan o'rалган. Panjikent saroyi devorlardagi rasmlarda oq suyaklar bazmlari, diniy marosimlar, ov, janglar manzilgohlari va afsonaviy shakllar tasvirlangan. Panjikentdagi o'ziga xos belgilar Varaxshaga to'g'ri kelmaydi. Lekin Panjikent me'morchiligidagi qo'llanilgan me'moriy usullar O'rta Osiyoning shu davrga oid ko'plab hududlarida ishlatilgan me'moriy uslublar bilan o'xhash jihatlari mavjud.

*Yunusobod Oqtepasi*. Yunusobod Oqtepasining janubiy tomoni baland va tik tepalik ko'rinishidagi ko'shikli qo'rg'on – qasr va istehkomsiz qishloq xarobasidan iborat. Maydoni 100 ga. Eng baland joyi 21 m. Ko'shkli qo'rg'on shimoldan janubga tomon cho'zilgan va qishloqdan chuqur jarlik (xandaq) bilan ajratilgan. V asrda qasr do'nglik ustiga urib chiqilgan paxsa tagkursida qad ko'targan. U uzun va keng zinapoyaga o'xhatib qurilgan. Ikki qavatli binodan iborat. Uning birinchi qavatining maydoni 80x80 m, yuqori qavatining maydoni 50x50 m ga teng. Qasning har ikkala qavatining ichkari tomoniga uzun yo'lak – galereya bino qilingan va tomi ravoqsimon qilib yopilgan. Yo'laklar halqasining kenligi 2 m, balandligi 2,3 m. Ustki qator yo'laklari burchaklarida gumbazli dumaloq xonalar bo'lib, ular tashqaridan doira shaklidagi minoralarni hosil qilgan.

*Xorazmdagi Teshikqal'a* qo'rg'onining qurilish uslubi birmuncha mukammalroq. Tarhi kvadrat bo'lgan qasr, atrofi qalin paxsa devor bilan o'rab olingan. Markazda baland paxsa supa ustida ko'p xonali turar joy minorasi qad ko'targan. Uning devorlariga arklar bilan bezatilgan yarim-ustunlar o'matilgan. Devor bilan minora oralig'ida turar joy xonalarini va xo'jalik ahamiyatidagi binolar qurilgan. Teshikqal'a qasrining rivojlaniishi davri va qurilishi me'morchiligi Marvdagi Nagimqal'a va Toshkentdagi Oqtepa qasrlarining rivojlanishi va qurilish me'morchiligidagi umumiy o'xhashlik mavjud.

Ilk o'rta asrlarda So'g'd, Toxariston, Xuroson va Xorazmda qadimdan mavjud bo'lgan maktablar asosida o'ziga xos me'morchilik an'analari shakllandı. Bu davrda qadimiy o'zakning mushtarakligi, O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati bir-biriga yaqinligi me'moriy inshootlar-

ning qurilishida ham o‘z aksini topdi. O‘rtalashtirishda qurilishi va uslublarida rivojlanish ko‘zga tashlanadi. Deyarli ko‘p joylarda ushbu davrda yirik hajmli xom g‘ishtlar o‘mini kichik hajmdagi g‘ishtlar egalladi. Shuningdek, to‘g‘ri to‘rburchakli g‘ishtlar bilan birgalikda to‘g‘ri burchakli g‘ishtlardan ham keng foydalanila boshlandi. IX asr boshlarida avvalgidek asosan xom g‘isht, paxsa ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik pishiq g‘isht ma’muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy xomashyo bo‘lib qoldi. Turar joy binolari qurilishida esa sinchli konstruksiya keng tarqaldi. Pardoz ishlarida somonli loysuvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar qo‘llanildi.

*Qirqqizqal‘a*. Ushbu yodgorlik Surxondaryo hududida joylashgan bo‘lib (IX–X asrlar), nima maqsadda qurilganligi haqida ma’lumot yo‘q. O‘rtalashtirishda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal‘a shahar tashqarisidagi qo‘rg‘on vazifasini o‘taganligini ko‘rsatadi. Qal‘a to‘rburchak tarhli (53,3x54,8 m), bir qavatli, faqat yo‘laklari umumiyligida ikki qavatli bo‘lib, xom g‘isht (30x30x5–5,5 sm li)lardan qurilgan, toq va ravoplarda shu o‘lchamdagisi pishiq g‘ishtlar ham ishlangan, qalin devor bilan o‘ralgan (tashqi devor qalinligi 2–2,5 m), burchaklari hajmdor burjlar bilan mustahkamlangan. Burjlar oralig‘ida toqlar bilan yopilgan ayvonlar joylashgan. Tarhlarga bir maromda takrorlanuvchi tuynuklar ishlangan. Qal‘aning barcha xonalari va markazdagi sahn (11,5x11,5 m) o‘zaro yo‘laklar bilan bog‘langan. Ayvon va yo‘laklar binoni to‘rt qismiga bo‘lgan.

Qirqqiz IX–X asr me’morchiligining takrorlanmas namunasi hisoblanadi. Unda xom g‘ishtdan foydalanilgan holda rejaviy va me’moriy qurilish yechimlarini hal qilishga urinish ko‘zga tashlanadi. Qirqqiz me’moriy yechimidagi aniq loyiha, arklarning aniq ifodalanganligi, xonalarning joylashuvi, arklar shaklining soddaligi, bino devorlarining tishchalar bilan yakunlanganligi to‘la ma’noda o‘scha davr me’morchiligidagi yangi uslublarning qo‘llanilganligidan dalolat beradi.

*Somoniyalar maqbarasi*. Somoniylar maqbarasi ilk o‘rtalashtirishda me’morchiligining asrlar silsilasiga bardosh berib kelgan O‘rtalashtirishda noyob me’moriy inshootlardan biridir. Har bir me’moriy obida kabi bu yerda ham tilsiz g‘ishtlar mavhum narsani bildirgandek bo‘ladi. Me’morchilikning hayratga soladigan kuchi shundaki, uning har bir qismi nimanidir gapirayotganga o‘xshaydi. Me’moriy obida o‘z buloq-

lariga ega bo'lib, ular goho jilg'a kabi bilinmas bo'libadi. Shu bilan bir qatorda o'z o'zanlariga egaki, ulardan obi hayot to'lib oqadi.

Somoniylar maqbarasi IX–X asrlarda O'rta Osiyoda pishgan g'ishtdan bino qilingan me'moriy obidalarning yagona namunasi bo'lib qolmadidi. Bu davrda bir qancha maqbaralar bunyod etilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Mirsaid Bahrom (Karmana), Surxondaryodagi Oqostonabobo, Turkmanistondagi Alamberdara maqbaralari Somoniylar maqbarasi me'morchiligining bevosita davomchilar hisoblanadi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. *Eshov B.J. O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi.* – T., 2008.
2. *Mavlanov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari.* – T., 2008.
3. *Nabiyev A. Tarixiy o'lakashunoslik.* – T., 1996.
4. *Ochiladiyev F.B. Tarixiy o'lakashunoslik.* – T., 2008.
5. *Kabirov A., Sagdullayev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi.* – T., 1990.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. *Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарыи с древнейших времен.* – Т., 1973
2. *Arsixovskiy A. V. Arxeologiya asoslari.* – Т., 1970.
3. *Annayev T.J., Shaydullayev Sh.B. Surxondaryo tarixidan lavhalar.* – Samarqand, 1997.
4. *Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi.* – Т., 2002.
5. *Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства.* – Т., 1958.
6. *Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары.* – М., 1976.
7. *Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб.* – Т., 2000.
8. *Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара.* – М., 1968.
9. *Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана.* – Т., 1958.

### **Internet manbalar**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
3. [www.ec.edu.uz](http://www.ec.edu.uz).
4. [www.performance.edu.uz](http://www.performance.edu.uz).
5. [www.history.ru](http://www.history.ru)
6. [www.natura.com](http://www.natura.com)

## Nazorat savollari

1. O'lkamizda neolit va eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
2. Antik davr arxeologiyasi haqida so'zlang.
3. O'lkamizda dastlabki arxeologik to'garaklarning tuzilishi va ularning maqsadi haqida nimalarni bilasiz?
4. Arxeologik ma'lumotlarning o'lka tarixini o'rganishdagi o'rni qanday?
5. O'lka tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati nimalardan iborat?
6. Antik va ilk o'rta asrlar davri me'morchilik yodgorliklariga qaysilar kiradi?
7. O'lkamizdag'i dastlabki arxeologik qazishma ishlarning olib borilishi va ularning natijalari haqida so'zlab bering.
8. Mustaqillik yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va arxeologiya faniga bo'lgan e'tibor nimalarda namoyon bo'lmoqda?

## Test savollari

1. O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy yodgorliklari ilmiy jihatdan qachondan o'rganila boshlangan?
  - A. XIX asrning ikkinchi yarmidan
  - B. XX asrning 30-yillaridan
  - C. XIX asrning 80-yillaridan
  - D. XX asrning 60-yillaridan
2. O'lkada dastlab «Turkiston arxeologiyasi havaskorlari» to'garagi kim tomonidan tuzilgan?
  - A. V. Bartold
  - B. V. A. Shishkin
  - C. M. Y. Masson
  - D. V. Veselovskiy
3. Buxoro viloyatining arxeologik yodgorliklarini o'rganishda birinchilardan bo'lib kim jonbozlik ko'rsatgan?
  - A. V.A. Shishkin
  - B. I. Albaum
  - C. S.P. Tolstov
  - D. V. Veselovskiy
4. Surxondaryo viloyatida kim boshchiligidida dastlabki kompleks arxeologik qazishma ishlari olib borilgan?
  - A. B.P. Denike

B. I. Albaum

C. S.P. Tolstov

D. A. Asqarov

**5. 1970-yilda Sopollitepa, Jarqo'ton manzilgohlarini mahalliy arxeologlardan kim o'rganganini toping?**

A. A. Asqarov

B. O. Islomov

C. Sh. Pidayev

D. A.S. Sagdullayev

**6. Arxeolog R.H. Sulaymonov boshchiligidagi o'lkamizdagidagi qaysi yodgorlik hozirgacha tadqiq etilmoqda?**

A. Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on manzilgohi

B. Surxondaryodagi Jarqo'ton manzilgohi

C. Urgut tumanining Omonqo'ton manzilgohi

D. Farg'ona vodiysidagi Chust manzilgohi

**7. O'lkamizda ilk paleolit davriga oid moddiy manbalar qayerdan topib o'r ganilgan?**

A. Farg'ona, Toshkent

B. Samarqand, Farg'ona

C. Buxoro, Navoiy

D. Xorazm, Andijon

**8. Mustye davrining so'nggi bosqichiga kelib qanday o'zgarish yuz berdi?**

A. Ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tish boshlandi

B. O'q-yoy kashf qilindi

C. Birinchi mehnat taqsimoti yuz berdi

D. Matriarxatdan patriarxatga o'tildi

**9. Surxon vohasida Sopolli madaniyati qachon qaror topgan?**

A. Mil. avv. 2-mingyllikning 2-choragida

B. Mil. avv. 4-mingyllikning 1-choragida

C. Mil. avv. 3-mingyllikning 2-choragida

D. Mil. avv. 2-mingyllikning boshida

**10. Arxeologik moddiy manbalarni shartli ravishda nechta turga bo'lish mumkin?**

A. 2 ta

B. 3 ta

C. 4 ta

D. 5 ta

---

## IV BOB. PALEOANTROPOLOGIK MA'LUMOTLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

**Reja:**

1. Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganishda antropologik ma'lumotlarning o'mi.
2. Janubiy Orolbo'y va Toshkent vohasining qadimgi aholisi.
3. So'g'd, Kushon, Baqtriya va Zarafshon vohasining qadimgi aholisi.
4. Farg'onada vodiysining qadimgi aholisi va antropologik tipi.

**Tayanch iboralar:** antropologiya, etnologiya, qadimgi odamlar, irqlar, yevropeoid, mongoloid, tiplar, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Baqtriya, Zarafshon, aholi, etnik, zamonaviy, etnografiya, moddiy, ma'naviy, an'anaviy, xo'jalik, turmush, xalq og'zaki ijodi, manbalar, o'lka, Rossiya, tadqiqot.

### 1. Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganishda antropologik ma'lumotlarning o'rni

Antropologiya («antropos» – odam, «logos» – fan) odam haqidagi fan bo'lib, kishilik jamiyatining qadimgi tarixi, xususan, antropogenetika jarayoni, joylardagi etnogenez jarayonlarini o'rganishda ushbu fan yutuqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fan yutuqlari asosida qadimgi tosh asridan boshlab, xalqlarning paydo bo'lishigacha, hatto hozirgi davrda yashayotgan aholining antropologik masalalarini o'rganishda muhim vosita sifatida foydalanish mumkin. Umuman, antropologik ma'lumotlar asosida antropogenetika jarayonining borishi, unda O'rta Osiyoning tutgan o'mi, Vatanimiz hududida qadimgi odamlarning paydo bo'lishi va ularning tashqi qiyofalari bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

O'rta Osiyoning antropogenez jarayonining shakllanishidagi o'mi va etnogenezi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda arxeologik tadqiqot ishlari natijasida topib o'rganilgan ma'lumotlarning ahamiyati katta. O'rta Osiyo hududida tosh asriga oid antropologik topilmalarning eng qadimgi namunasi Teshiktosh g'oridan topilgan. Bu yerdagi antropologik topilma neandertal tipidagi bolaning bosh chanog'i hisoblanib, yaqin yillarga qadar muhim topilma sanalib kelindi. Undan oldingi ashel davriga oid antropologik ma'lumotlar juda kamchilikni tashkil etsa-da, ba'zi bir yodgorliklardan topib o'rganilgan shag'al tosh qurollariiga asoslanib, O'rta Osiyo hududida qadimgi odamlar so'nggi ashel davridan boshlab tarqalgan, degan xulosaga kelish mumkin edi. Demak, O'rta Osiyoda qadimgi odamlar yashaganligi arxeologik manbalar asosida ma'lum bo'lsa-da, antropologik topilmalarning kamligini ayrim tabiiy sharoitlar bilan izohlash mumkin.

Mustye davriga oid antropologik ma'lumotlarning klassik namunasi Teshiktosh g'or makonidan topilgan neandertal tipidagi yosh bolaning chanog'i bo'lib, u mustye davrining so'nggi bosqichiga oiddir. Bosh chanoqda sapiyentlashish jarayoni yuqori bo'lib, O'rta Osiyo hududida ham antropogenez jarayonida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi.

So'nggi paleolit davriga oid kam sonli antropologik manbalar saqlanib qolgan. Ularning yagona namunasi Samarqand yodgorligidan topib o'rganilgan erkak va ayolga tegishli iyak va tishlardan iborat. Tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra, bu topilmalar yevropeoid irqining janubiy tipiga mansub bo'lgan.

Mezolit va neolit davri aholisi antropologiyasi to'g'risida ma'lumotlar nisbatan yaxshi saqlangan. Bu davrlarga Surxondaryo viloyatida Machay, Samarqand viloyatida Sazag'on, Janubiy Tojikistonda Tutzovul, Janubiy Turkmanistonda Cho'pontepa, Kovushut, Ovadamtepa, Chingilditepa, Chaqmoqlitepa, Manjuqlitepa yodgorliklaridan qadimgi odam suyaklari topib o'rganilgan. Bu davrlarda yashagan odamlar aniqlagan antropologik topilmalarga ko'ra yevropeoid irqining Sharqiy O'rtayer dengizi tipiga mansub bo'lib, boshi cho'ziq, yuzi qisqa va o'rtacha qisqa bo'lgan (dolixokran). Ular, tadqiqotchi olimlarning fikricha, Old va Janubiy Osiyo xalqlariga yaqin bo'lib, genetik jihatdan yaqin aloqada bo'lgan. O'rta Osiyoning shimoliy mintaqalarida, xususan, Quyi Amudaryo hududlarida yashagan qadimgi qabilalar to'g'risida

ma'lumotlarni Sariqamish deltasida joylashgan neolit davrining so'nggi bosqichlariga oid Tumikkichijik qabrlaridan topilgan. Uchta erkak va to'rtta ayolga tegishli bosh chanoqlardan farq qilib, o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Umuman, O'rta Osiyoning bu davrda yashagan aholisi yevropeoid irqining turli shakllanish bosqichida bo'lgan.

Arxeologiya fani yutuqlaridan bizga ma'lumki, O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri muhim tarixiy-madaniy o'zgarishlar; joylarda madaniyatlarning qaror topishi, qabilalarning doimiy migratsiyasi va ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir hamda aloqalar bilan belgilanadi. Bu jarayonlar, ayniqsa, miloddan avvalgi II mingyilliklarda ko'proq namoyon bo'lib, madaniy xo'jalik jihatidan ikkita alohida mintaqada tarkib topadi.

Bu davrlarga oid antropologik topilmalar doirasi son jihatdan ham, hududiy jihatdan ham ancha keng hisoblanib, qisman yaxshi o'rganilgan. Asosiy topilmalar o'troq dehqonchilik manzilgohlari, chorvador qabilalarning mozorlardan olingan antropologik materiallardan iborat. Ularidan Sumbar, Yangiqal'a, Qoratepa, Geoksyul, Namozgoh, Oltintepa, Tohirboy (Janubiy Turkmaniston), Ko'kcha-3 (Xorazm), Zamonbobo, Mo'minobod, Sopollitepa, Jarqoton, Bo'ston, Tigrovaya, Balka, Tulxar va boshqa yodgorliklardagi bir necha yuzlab qabrlardan aniqlangan antropologik topilmalar o'lkamizda miloddan avvalgi III-II mingyilliklarda yashagan xalqlarning tashqi qiyofasi, irqi va boshqa antropologik xususiyatlarini o'rganishda muhim maniba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu topilmalarga ko'ra eneolit davri va bronza davrining ilk va rivojlangan bosqichi aholisi yevropeoid irqining Sharqiy O'rtayer dengizi tipiga mansub bo'lgan. Millodan avvalgi II mingyillikka kelib O'rta Osiyo xalqlari tiplariga ko'ra bir-birlaridan farqianuvchi ikki mintaqaga ajraladi. Janubiy mintaqalarda cho'ziq bosh, qisqa va o'rtacha qisqa yuzli Sharqiy O'rtayer dengizi tipiga oid xalqlar xos bo'lsa, shimaliy mintaqalarda yashovchi chorvador qabilalar keng va o'rtacha keng bo'lgan protoyevropa va adronovo tipiga mansub bo'lgan.

Ular o'rtasidagi chegara tadqiqotchi olimlarning xulosalariga ko'ra, Janubiy Orolbo'y, Zarafshonning o'rta oqimi va Farg'ona vodiysi orqali o'tgan. Lekin, ayrim yodgorliklarda, xususan, Tohirboy-3 (Murg'ob vodiysi) va Ko'kcha-3 (Xorazm)da har ikkala tip vakillariga tegishli bosh chanoqlar aniqlangan. Shuningdek, Vodil (Farg'ona) qabristonidan delixoktan tipidagi chanoqlar aniqlangan. Umuman, O'rta Osiyo aholisi

mil. avv. II mingyillikda asosiy ikki guruhga bo‘linsa-da, Tohirboy-3 va Vodil topilmalari aholi o‘rtasida madaniy aloqalarning chuqurlashuvi va kichik migrantsiyalardan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi II mingyillikning oxiriga kelib, ayrim o‘troq dehqonchilik markazlari (Baqtriya va Marg‘iyona)da qadimgi madaniyatlar inqirozga uchraydi. Mil. avv. I mingyilliklarning boshida O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlarida yangi o‘troq dehqonchilik madaniyatları tarkib topadi. Mazkur o‘troq dehqon qabilalar moddiy madaniyati yoz I, II, III (miloddan avvalgi X-IV asrlar) komplekslari sifatida fanda ma’lum. Shuningdek, bu davrda Farg‘ona vodiysi (Chust va Eylaton), Xorazm, Toshkent va Ustrushona hududlarida dehqon va qisman o‘troqlashgan chorvador (Quyisoy) qabilalar, shimoliy va tog‘oldi mintaqalarda chorvador qabilalari tarqalgan edi.

Yozma manbalar orqali bizga ma’lumki, miloddan avvalgi I mingyillikning o‘rtalarida O‘rta Osiyoda baqtriyaliklar, so‘g‘diylar, xorazmiylar, parfiyaliklar, saklar, massagetlar va boshqa xalqlar yashagan. Lekin yuqorida sanab o‘tilgan madaniyat markazlaridagi arxeologik komplekslardan to miloddan avvalgi III asrlargacha bo‘lgan davrga oid antropologik ma’lumotlar deyarli uchramaydi. O‘troq dehqonchilik vohalaridagi Kuchuk I, II, yoz III, Afrosiyob kabi yodgorliklarda kam sonli paleoantropologik ma’lumotlar saqlangan.

Yoztepa yodgorliklaridan yosh bolaning chanog‘i aniqlangan. Bu topilma yevropeoid irqining Sharqiy O‘rtayer dengizi tipiga mansub bo‘lib, u aylana deformatsiyaga ega. Miloddan avvalgi I mingyillikning o‘rtalariga oid paleoantropologik manbalar sak va qadimgi usunlarga tegishli bo‘lib, ular Orolbo‘yi, Tyanshan, Oloy va Pomir tog‘laridan topib o‘rganilgan. Ular tashqi qiyofalariga ko‘ra yevropeoid va mongoloid irqiy belgilar bilan ajralib turadi. Shularni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, O‘rta Osiyo hududlariga mongoloid irqiy belgilariga ega bo‘lgan xalqlarning kirib kelishi miloddan avvalgi I mingyillik o‘rtalarida sodir bo‘lib, ularga oid ma’lumotlar Sirdaryoning quyi oqimi hududlarida uchraydi.

Shimoliy mintaqalarda yevropeoid irqining protoevropa (andronovo) tipi belgilari ustun bo‘lgan xalqlar soni ko‘payib boradi. Shuningdek, ularning janubiy hududlaridagi Sharqiy O‘rtayer dengizi tipi bilan aralashish jarayoni jadallahib boradi. Bu esa O‘rta Osiyoning markaziy viloyatlarida keyinchalik paydo bo‘lgan Pomir-Farg‘ona yoki ikki

daryo oralig'i tipining tarkib topishidagi dastlabki qadam bo'lib, tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra, mil. avv. I mingyillikning o'rtalaridan boshlangan.

Keyingi bosqichlar, xususan, antik va ilk o'rta asrlar davri vohada qabilalar o'rtasida qorishish jarayonining kuchayishi va natijada yevropeoid irqi ikki daryo oralig'i tipining shakllanish jarayoni tugashi hamda mongoloid irqiy belgilari ustun bo'lgan qabilalarning ommaviy siljishi bilan tavsiflanadi.

O'zbek xalqining etnogenезини органиш борасыда антрополог олимлар хам исса қошганлар. Уларнинг тадқиқотларидан ма'lум бо'лишicha, ҳозирги О'збекистон hududida (miloddan oldingi III-II minginchi yillarda) yashagan xalqlar mahalliy yevropeoid антропологик tipidagi odamlar bo'lган. Bu irqiy tipdagi aholi Markaziy Osiyoning bir qancha mintaqalarida, xususan, ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'ida miloddan avvalgi I minginchi yillar davomida saqlangan. Mongoloid irqiy tipidagi alomatlar O'rta Osiyo hududlari chegaralariga miloddan avvalgi I va milodiy birinchi asr boshlarida kirib kelgan bo'lishi kerak. Mahalliy yevropeoid антропологик tipini A.N. Yarxo Pomir-Farg'она irqi deb nomlasa, L.V. Oshanin O'rta Osiyo daryo oralig'idagi irq deb nomlaydi.

## 2. Janubiy Orolbo'yini va Toshkent vohasining qadimgi aholisi

*Janubiy Orolbo'yining qadimgi aholisi.* Bu mintaqaning neolit davri aholisi asosan (Kaltaminor madaniyati) yevropeoid irqiga mansub bo'lib, shu bilan birga mahalliy irq belgilarini ham o'zida mujassam-lashtirgan, ya'ni dolixokefal bosh chanoqlidir. Bu mintaqaga bronza davrida (Tozabog yob madaniyati) mahalliy aholi tipidan farq qiluvchi o'zga etnos vakillari kirib keladilar. O'zga yurt aholisining (Ko'kcha-3 materiallari asosida) qiyofasi ham yevropeoid bo'lib, ularning bosh chanog'i braxikefal shaklda bo'lган. Ko'kcha-3 odamlari ikki xil bosh chanoqqa ega. Birinchisi o'zlarining irqiy xususiyatlari bo'yicha Quyi Volga, Qozog'iston, Oltoy pasttekisligi dashtlari bronza davri aholisiga yaqin tursa, ikkinchi guruh odamlar o'z irqiy belgilariga ko'ra, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va Markaziy Osiyoning qadimgi dehqonchilik madaniyatları aholisi tipiga o'xshab ketadi. Ularning har ikkala-

si ham yevropeoid irqining turli tiplarini tashkil etadi. Ilk temir davri Janubiy Orolbo'yi aholisi tarkibida ham bronza xos irqiy belgilar saqlanadi. Biroq bir seriya xronologik (kalla suyagi) materiallarda ikki xil irq vakillari emas, balki bir individda har xil irq belgilarning mujassamlashgan variantlari uchray boshlaydi. Ammo mahalliy an'anaviy irq belgilari hali kuchli bo'lib, antropologlar bu holatni Qadimgi Xorazmning quyi soy madaniyati materiallarida kuzatishgan.

Qadimgi Xorazmda miloddan avvalgi V-IV asrlarga doir antropologik turkum Sulton Uvaystog' mozor-qo'rg'onlaridan topilgan. Arxeologlarning aytishicha, ular chorvador qabilalarga tegishli hisoblanaadi. Bu yerga dafn etilgan odamlar o'zbeklarga xos braxikefal yevropeoid tip bilan xarakterlanadi. Ammo dafn qilinganlar orasida bir ayol borki, u boshqalardan tubdan farq qilib, mo'g'ul qiyofa Janubiy Sibir tipini eslatadi. Ehtimol, u asiradir yoki qadimgi xorazmliklarga kelin bo'lib tushgandir. Shu davrga oid Ustyurtdan topilgan antropologik topilmalarda andronovo tipidan (braxikefal yevropeoid tipidan) O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipiga o'tish holati kuzatiladi. Bular orasida bir guruh materiallar borki, ular Janubi-Sharqiy Orolbo'yi odamlarining o'zginasidir. Janubi-Sharqiy Orolbo'yi tiplari orasida mongoloid qorishmaning hissasi katta.

Qadimgi Xorazmning Sariqamish deltasi atrofida yashagan antik davr aholisi asosan yevropeoid bo'lib, ular orasida ham qisman Janubiy Sibir tipiga xos odamlar uchraydi. Milodning boshlaridan Janubiy va Janubi-Sharqiy Orolbo'ylarida mongoloid irqining hissasi ko'paya boradi. Jetiasar madaniyatiga tegishli, Oltin asar shahar xarobalari atrofida bir necha mozor-qo'rg'onlar ochib o'r ganilgan. Uning aholisi aralash bo'lib, antropologik tipning asosini mahalliy yevropeoid uzun boshli qabilalar tashkil qilsa, ular orasida Xorazm vohasiga xunnlar bilan birga kelib qolgan Janubiy Sibir tipi ham uchraydi. Mo'g'ul qiyofa odamlar ko'proq Quvondaryo havzasiga joylashgan. Qal'aliqir shahar qabristoni suyak materiallarining aksariyat ko'pchiliginini Kaspiyorti tipidagi yevropeoid odamlari tashkil qiladi.

Janubiy Orolbo'yi aholisining irqiy tarkibi rivojlanishining keyingi ikki mingyllik tarixi Mizdaxqon qabristoni materiallari asosida kuzatiladi. Bu yerdan topilgan xronologik materiallar tahliliga ko'ra, milodning birinchi mingylligida Janubiy Orolbo'yi aholisi asosan yevropeoid bo'lib, ular orasida Kaspiyorti tipi ko'proq qismni tashkil qil-

gan. Milodiy I mingyillikning ikkinchi yarmida uzun boshli aholining braxikefallashish (kalta boshli bo'la borish) jarayoni kuzatiladi. Shuning natijasida I mingyillikning oxiri va II mingyillik boshlarida Janubiy Orolbo'yи hududining hamma qismida asosiy etnik qatlamni O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi tashkil qila boshlaydi. Qorishma sifatida Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoqlar tarkibida Kaspiyorti uzun boshli tip belgilari hozirgacha saqlanib kelmoqda.

*Toshkent vohasining qadimgi aholisi.* Toshkent vohasining tarixiga oid antropologik materiallarning eng qadimgisi miloddan avvalgi I mingyillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bundan qadimiyroq ma'lumotlar hozircha aniqlanmagan. Shuning uchun bu davrlarda yashagan aholining antropologik xususiyatlari to'g'risida Toshkent vohasiga qo'shni va yaqin madaniy aloqada bo'lgan hududlardan topilgan materiallarga asoslanamiz. Bundan 3–4 ming yil ilgari O'rta Osiyo hududida yashovchi qabilalar antropologik jihatdan ikki katta guruhga bo'linadi. Ma'lumki, har bir katta irq vakillari muhim antropologik belgilar asosida bir nechta mayda irqiy guruhlarga yoki antropologik tiplarga bo'linadi. O'rta Osiyoda yevropeoid irqi ikki katta guruh – shimaliy yevropeoid tip (ilmiy asarlarda protoyevropeoid yoki andronovo) va janubiy yevropeoid tipi (O'rtayer dengizi)lariga bo'linadi.

Bunda Toshkent vohasining aholisi shimaliy guruh tarkibiga kirib, hududda andronovo irq belgilarini o'zida mujassamlashtirgan, degan fikr kelib chiqadi. Ular baland bo'yli (erkaklar bo'yi o'rtacha 170–172 sm, ayollar 163–165 sm atrofida), jismoniy jihatdan baqvuvvat bo'lganlar. Ularning bosh va yuz tuzilishlariga kelsak, boshlarning shakli cho'zinchoq (dolixokran), keng peshonali, qosh suyagi bo'rtmalari kuchli rivojlangan, yuzlari keng, ammo baland emas, burunlari esa qirra va yuz sathidan ancha yuqori ko'tarilgan. Iablari ingichka bo'lgan. Ko'rib turibmizki, bu odamlarda yevropeoid irqiga xos barcha belgilar namoyondir. Janubiy yevropeoid irqi vakillari esa O'rta Osyoning janubiy viloyatlari, Shimoli-G'arbiy Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Kavkaz va Yaqin Sharqda keng tarqalgan. Shunday qilib, Toshkent vohasida protoyevropeoid (andronovo) tipiga xos odamlar bronza davrida yashagan, degan xulosaga kelish mumkin. Ular antropologik tipi jihatidan Sharqiy Yevropa, Qozog'iston, G'arbiy Sibir hududlarida yashagan andronovo, yog'ochband madaniyatlari aholisi kabi

antropologik qiyofaga ega. Antropologiya fanida O'rta Osiyo xalqlarining shakllanish tarixida har xil tipdagi yevropeoid alomatlarni o'zida saqlagan urug' va qabilalardan tashqari, mongoloid irqiy xususiyatlari ga ega bo'lgan qabilalar ham ishtirok etganligi to'la isbotlangan.

Milodiy birinchi asrlarda Toshkent vohasidagi ayrim qabrlardan olingan bosh suyaklarning birida yevropeoid irqining ta'siri kuchli bo'lgan. Yangiyo'l qo'rg'onidan olingan ikkita ayol bosh suyagi yevropeoid irqining mezobraxikranli (o'rta yumaloq bosh) turidagi kishilarниki bo'lgan. Shunga asoslanib T.K. Xodjayev Toshkent vohasining mahalliy chorvador aholisining tarkibiga, ehtimol, O'rtayer dengizi irqiy tipi qatnashgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Toshkent yaqidagi Bo'zuv sohilida hamda Niyozboshtepadan (hozirgi Yangiyo'l tumani hududida) olingan bosh suyaklari M.M. Gerasimov tomonidan o'rjanilgan va ular milodiy V asrga oid bo'lgan. Bu bosh suyaklarning qadimgi sohiblari braxikran turdag'i Pomir-Farg'ona antropologik kishilar bo'lganligi aniqlandi. Bu tipdagi kishilar vohaning mahalliy aholisi bo'lgan, albatta. Bundan ko'rindiki, vohada antik davrlardanoq ikki yevropeoid antropologik guruhi (yevropeoid irqining mezokran turi va Pomir-Farg'ona tipidagi broxikran turi) hukm surgan. Har ikkala guruh yevropeoid antropologik tipdagi kishilar bo'lishi bilan birga ularning bosh suyaklarida mongoloid irqiy alomatlari borligi aniqlanadi. Bu Toshkent vohasiga antik davrlardanoq Markaziy Osiyoning Shimoliy mintaqalaridan mongoloid irqiga mansub etnik guruhlar kelib qo'shilgan bo'lishi kerak, deb taxminiy xulosa qilishga imkon beradi.

*Toshkent vohasining o'troq va chorvador aholisi.* Qovunchi madaniyati Sirdaryo o'rta havzasi antik davri o'troq va chorvador qabilalari uchun xarakterlidir. Uning markaziy viloyatlari Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonning Chordara suv omboriga qadar bo'lgan hududlar bo'lib, uning ta'siri Sharqda Yettisuv va Shimoliy Farg'onagacha, g'arbda Buxoro vohasi, janubda Qashqadaryo havzalarigacha yoyilgan. Arxeologlar uning xronologik sana doirasini (miloddan avvalgi II – milodiy VI asrgacha) aniqlaganlar. Qabrlarning tuzilishi ayvon va lahadli bo'lib, etnomadaniy rivojlanishining so'nggi bosqichida mozor-qo'rg'onlar bilan birga oilaviy xilxonalar (novuslar) ham uchraydi. Qadimgi davr mozor-qo'rg'onlari Ohangaron vohasida, ayniqsa, uning yuqori qismida ko'p uchraydi.

Mozor-qo'rg'onlami arxeologik jihatdan o'rganish o'tgan asming 30-yillaridanoq boshlangan. Dastlabki qazishmalar To'ytepa, Piskent tumanlarida olib borildi. O'tgan asming 50-yillarida Tuyabo'g'iz, Mingtepa novuslari o'rganildi. Biroq ularni qazish jarayonida olingan xronologik materiallar o'rganilmay yo'qolgan. So'nggi bronza va ilk temir davri materiallari ham yetarli emas. U davr aholisini braxikefal yevropeoid va dolixocephal yevropeoidlar deb taxmin qilish mumkin. Milodiy I asriga tegishli kalla suyaklar orasida Sharqiy O'rtayer dengizi tipi, andronovo va mo'g'ul qiyofa odam suyaklari uchraydi. Antik davrga oid kalla suyaklar Bo'zuv bo'yłari, Niyozboshi (Yangiyo'l) qabristonidan topilgan. Ular deformatsiyali braxikefal bosh chanoqlardan iborat. Umuman olganda, Toshkent vohasining ham o'troq, ham chorvador aholisi orasida turli tip vakillari uchraydi.

Ayniqsa, vohaning chorvador aholisi suyaklari Qozog'iston cho'llarining sak va usun qabilalari hamda Buxoro vohasi braxikefal yevropeoidlari bilan ko'proq o'xshashlikka ega. O'tgan asming 70-yillarida «Toshkent dengizi» tevarak-atrofidan Qovunchi madaniyatiga tegishli yirik qabriston ochib o'rganildi. Xronologik materiallar milodiy I-II asrlarga oid. Bosh suyaklardagi irqiy belgilar braxikran yevropcoid tipli bo'lib, ularda mo'g'ul irqiy belgilar ham bor. Milodiy I-II asrlarga tegishli 30 dan ortiq qabrlar ochildi. Ularning barchasi yevropeoid va mongoloidga xos irqiy belgilar bilan xarakterlanadi.

1977-yilda qadimgi Tunket shahar xarobalari yaqinidan milodiy I asrlarga tegishli Qulota qabristoni o'rganilgan. Uning xronologik seriyasi braxikran, bosh chanoqning orqa qismi ezilgan, kalla suyakkarda mo'g'ul irqiy belgilar kuchli. Kallalar orasida bitta dolixocephal yevropeoid uchraydi. Qulota xronologik seriyasida o'troq hayotga o'tayotgan braxikefal yevropeoidlar kuzatiladi.

Bunday seriyalar Toshkent vohasining Qovunchi madaniyati aholisiga xarakterli tip bo'lib, bu tip Tuyabo'g'iz, Yangiyo'l, Vrevsk, Kavardan xronologik materiallarida yaxshi kuzatiladi. Markaziy Osiyoda mo'g'ul qiyofa irqiy belgilarning boshlanishi ilk temir davridan boshlangan, uning ko'rinishida Qovunchi madaniyati aholisida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida gilar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Toshkent vohasi nafaqat madaniy, balki antropologik rejada ham qo'shni Farg'ona vodiysiga, ayniqsa, uning shimoliy mintaqalariga ko'p ta'sir qilganligi ehtimoldan xoli emas.

### 3. So‘g‘d, Kushon, Baqtriya va Zarafshon vohasining qadimgi aholisi

*So‘g‘dning qadimgi aholisi.* So‘g‘d Markaziy Osiyoning Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida tarkib topgan tarixiy-madaniy sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lib, tarixiy manbalarda miloddan avvalgi I mingyllikning birinchi yarmidan tilga olinadi. Arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, bu mintaqa aholisi qadimdan sug‘orma dehqonchilik, ko‘p tarmoqli hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib kelganlar. Yozma manbalarga qaraganda, ularning o‘troq aholisi so‘g‘diy tilda so‘zlashganlar. Antropologik tip jihatidan uning o‘troq aholisi dolioxekfal yevropeoidlar bo‘lgan. Ammo So‘g‘dning qadimgi chorvador aholisi irqiy jihatdan har xildir. Chorvador aholining mozor-qo‘rg‘onlari asosan Buxoro vohasida ko‘proq o‘rganilgan.

Masalan, miloddan avvalgi V–III asrlarga tegishli Qalqonsoy mozor-qo‘rg‘onlaridan topilgan xronologik materiallar 5 ta antropologik tiplarga bo‘linadi. Ular yevropeoid va mongoloid irqlarining turli variantlarini tashkil etadi. Miloddan avvalgi II–I asrlarga oid Lavadok qabristoni esa yevropeoidlar tipini beradi. Chorvador qabilalarining milodiy davning boshlariga tegishli Hazora va Qiziltepa yodgorliklari aralash xronologik material beradi. Milodiy III–IV asrlarga oid Qizilqir mozorlaridan O‘rtta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipining braxikefal bosh suyaklari va mo‘g‘ul tip aralashmali Sharqiy O‘rtayer dengizi tipiga duch kelinadi. Panjikent atrofidan, yuqori Zarafshondan esa milodiy I mingyllikning birinchi yarmiga tegishli O‘rtta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipining braxikran yevropeoid varianti topildi. Ular o‘zlarining irqiy belgilariga ko‘ra, O‘rtta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipining braxikefal yevropeoid tipini tashkil etishi aniqlandi.

Hozirgi kunda Buxoro vohasining Konimex cho‘llaridan 800 dan ortiq mozor-qo‘rg‘onlar topib o‘rganilgan. Ular yorma lahadli, xum go‘rlar va krematsiyali (kuydirilgan) mozorlardan iborat bo‘lib, xumlarga solib ko‘milgan mozorlardan milodiy III–IV asrlarga oid sopol idishlar uchraydi. ULARNING XRONOLOGIK MATERIALARI BIR TIPLI BO‘LMAY, BALKI ULER ORASIDA MAHALLIY SAKLARGA XOS DOLIXOKEFAL ANDRONOVO TIPINING MO‘G‘UL QIYOFADA ODAMLARI BILAN QORISHGAN BRAXIKEFAL YEVROPEOIDLAR VA ULARDAN TARKIB TOPGAN O‘RTTA OSIYO IKKI DARYO ORALIG‘I TIPI VAKILLARI MAVJUD EDI.

Afrosiyob qadimgi shahar xarobasidan topilgan (miloddan avvalgi V asrga oid) kalla suyaklari mavjud. Ular dolixokefal yevropeoidlar bo'lib, ularning ildizlari bronza davrining Zamonbobo, Mo'minobod, Chakka materiallariga genetik jihatdan o'xshab ketadi. Miloddan avvalgi III-II asrlarga tegishli kalla suyaklar Yerqo'rg'onidan hamda milodiy II-IV asrlarga tegishli kalla suyaklar Urgut tumanidan topib o'rganilgan. Ularning xronologik sana oralig'i katta bo'lishiga qaramay, ular braxikefallashish jarayonining sekin-asta davom etayotganligidan guvohlik beradi. Milodiy IV-V asrlarga kelib, So'g'd aholisining aksariyat ko'pchiligi braxikefal yevropeoidlashgan edi. So'g'dda miloddan avvalgi II-I asrlarga tegishli bir guruh bosh suyaklar borki, ular Shimoliy Baqtriyaning kushon urug'lariiga tegishli chorvador aholisini eslatadi.

Yuechji qabilalari asosan braxikefal yevropeoidlar bo'lib, ular Baqtriyaga So'g'd orqali o'tganligi tufayli ularning xronologik izlari So'g'dda ham uchrashi bejiz emas. Kushonlar davri So'g'dning o'troq aholisi avvalgidek Sharqiy O'rtayer dengizi tipida edi. So'g'dning mahalliy chorvador aholisi ham ulardan farq qilmas edi. Ammo Buxoro vohasi chorvador qabilalari (miloddan avvalgi V-III asrlar) tipida mo'g'ul qiyofa irqiy belgilari xuddi Shimoli-Sharqiy Orolbo'yi aholisdagidek kuchli edi. Shu holat Orolbo'yi usunlarida, Tyanshan, Yettisuv aholisida ham kuzatiladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyoning g'arbiy mintaqalari orqali mo'g'ul qiyofa tiplarning Buxoro vohasiga kirib kelishi yuz bergen.

*Kushon Baqtriyasi aholisi* to'g'risida o'tgan asr 50-yillarning boshlaridagina ilk paleoantropologik ashyolar topilgan va ular O'rta Osiyo antropologiyasining bilimdoni B.V. Ginzburg tomonidan tadqiq etilib, nashr qilindi. Keyinroq janubiy Tojikistonda Kushon Baqtriyasining ko'chmanchi-chorvador aholisidan qolgan so'nggi Tulxar va Orixtov qo'rg'on qabrlaridan ko'plab antropologik ashyolar topildi. Ularni tadqiq etish natijalari Kushon Baqtriyasi aholisi yevropeoid irqining har xil guruhlari bilan, xususan, qishloq aholisi, asosan, Sharqiy O'rtayer dengizi tipi belgilari bilan ifodalangan. Qishloq aholisi uchun boshning cho'zinchoq shaklda bo'lishi, «dolixokefaliya» (dolixo – uzun, «kefaliya» – bosh), yuzi ingichka, cho'ziq yoki o'rtacha darajada cho'ziq bo'lib, burni tor, lekin sezilarli darajada bo'rtib turishi kabi morfologik belgililar xos.

Qishloq aholisi antropologik tip jihatidan o'zgarishlarga uchramaydi va bronza hamda ilk temir davri aholisiga xos irqiy xususiyatlarni saqlab qoladi (T. Xodjayev). Shahar aholisi esa o'z tarkibida qishloq aholisiga xos irqiy xususiyatlar bilan bir qatorda, O'rta Osiyoning shimaliy hududlardagi chorvador aholi ko'pincha mongoloid aralashmanga ega bo'lgan yevropeoid urug'ining ta'sirida shakllandi, u hozirgi o'zbeklar va tekisliklarda yashovchi tojiklarda namoyon bo'ladi. Kuchun Baqtriyasining paleoantropologik ashyolarda butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan tarixiy qonuniyatni ko'rish mumkin. Antik davrda kelgan ko'chmanchi-chorvador qabilalar shahar muhitiga kirib borib mahalliy aholi bilan aralasha borgan.

O'rta Osiyo mintaqalarida qadimda mahalliy yevropeoid irqning mavjudligi antropologik materiallar asosida isbotlandi. 1947–1948-yilorda professor M.M. Dyakonov rahbarligidagi Kofirmihon arxeologik ekspeditsiya guruhi tomonidan qadimgi Baqtriya tarkibiga kirgan janubiy Tojikistonning Hisor tumanidagi To'pxona deb nomlangan joydan 37 ta qabr ochilgan edi. Qabrlardagi jasadlarning qo'yilish xususiyatlarini va sanasini hisobga olib, M. Dyakonov ularni to'rt tipga bo'lgan edi: 1. Milodiy VI–VIII asrlarga; 2. Milodiy IV–VI asrlarga; 3. Milodiy I–III asrlarga; 4. Miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarga. Olim qadimgi Baqtriya aholisining asosiy qismi yevropeoid irqining braxikran (dumaloq boshli) tipidagi (O'rta Osiyo daryo oralig'idagi tip) kishilar bo'lganligini va irqiy jihatdan qo'shni So'g'diyonaning hozirgi aholisiga juda o'xshashligini ta'kidlaydi. V. Ginzburg, yuqorida aytiganlardan xulosa qilib, hozirgi kunlarda (ya'ni bizning davrimizda) «Hisor tog'laridan shimolda va uning janubidagi mintaqalarda yashovchi xalqlar qadimgi Baqtriya va So'g'diyona aholisining keyingi avlodlaridir», deb yozgan edi.

Demak, hozirgi o'zbek va tojik xalqlarining antropologik jihatdan o'xshashliklari qadimgi davrlarda hosil bo'lgan. Ko'p asrlar davomida bular bir-birlari bilan aralashib kelishlari natijasida Markaziy Osiyo volhalarida (tog'li tojiklar bundan mustasno) Pomir-Farg'ona (O'rta Osiyoning ikki daryo oralig'idagi) antropologik tip vujudga kelgan. O'rta Osiyoda daryo oralig'idagi (Pomir-Farg'ona) antropologik tipi mahalliy (avtoxton) antropologik tip ekanligini, bu tip kishilar boshqa yerdan kelmaganligi, uning hozirgi O'zbekiston hududida qo'shni

viloyatlar bilan etnogenetik aloqada bo‘lib kelishi natijasida vujudga kelganligini L. Oshanin bir necha marotaba ta’kidlab o‘tgan edi.

O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i xalqlarining antropologik kelib chiqishi va shakllanishi muhim masala hisoblanadi. Bu haqda har xil fikr-mulohazalar yuritilgan bo‘lsa-da, hozirgi kungacha aniq bir isbotini topgani yo‘q. Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, mongoloid irqiy tipi Markaziy Osiyoning, xususan, Movarounnahrning barcha hududlarida bir xilda (bir maromda) tarqalmagan. Antik davrlarda Yettisuv va Tyanshan etaklarida yashovchi sak, usun qabilalarining antropologik tiplarida yevropeoid irqining braxikran turi hukmronlik qilgan. Shu bilan birga, ularda juda oz miqdorda mongoloid irqidan ham qo‘shilgan.

*Zarafshon vohasi aholisi.* Zarafshon vohasi hududida Yevrosiyoning yevropeoid va mongoloid kabi ikki asosiy irq o‘rtasida chegara mintaqasini tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, 1971-yilda arxeolog G. Shishkin Afrosiyobning shimoliy qismidan miloddan avvalgi V asrga oid odam skeletini topdi. Skelet qadimgi so‘g‘dlik bo‘lib, bo‘yi 172 sm, tiriklikdagi vazni 68 kg ga yaqin bo‘lgan. Ularning bosh tuzilishi hozirgi o‘zbek va tojiklarga o‘xhash va orqa tomoni yassi bo‘lgan. Bu esa O‘rta Osiyoda bolani beshikka yotqizish qadimdayoq keng tarqalganini ko‘rsatadi. So‘g‘dliklarning peshonasi tik va keng, qirraburun bo‘lgan, yuzi o‘rtacha kenglikda, lekin mongoloid irqiga xos, yuzining yapaloqligi ko‘rinmaydi. Bu belgilar so‘g‘dliklarning yevropeoid irqiga mansub ekanligidan dalolat beradi, ular o‘zining irqiy xususiyatlari bilan shu davridagi Shimoliy Baqtriya odamlariga o‘xshaydi. Demak, yevropeoid irqiga mansub O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi, ya’ni hozirgi o‘zbeklarga va tekislikda yashovchi tojiklarga xos tip miloddan avvalgi 1 mingyillik o‘rtalaridayoq So‘g‘d hududida tarqalgan. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan antropologik tipdan tashqari, so‘g‘dliklar orasida uzun boshli O‘rtayer dengizi irqiga mansub bo‘lganlar ham uchraydi.

Samarqand yaqinidagi Kofirqal‘a va Buxoro viloyatidagi Poykentda olib borilgan arxeologik qazishmalar paytida topilgan o‘rta asrga oid odam suyaklari So‘g‘d hududida yashovchi xalqlar yevropeoid irqining O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i antropologik tipi bilan tavsiflanishini ko‘rsatadi. Miloddan avvalgi 1 mingyillik o‘rtalaridan to milodning VI asrlarigacha, ya’ni taxminan ming yil davomida So‘g‘dda yashagan aholining antropologik qiyofasi juda kam o‘zgargan.

So'g'dliklar orasida ko'pchilikka xos bo'lgan O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i antropologik tipidan tashqari boshqa antropologik tiplar ham uchraydi. Bunga VI–VIII asrlarga oid Panjikent antropologik materiallari dalil bo'la oladi. Panjikentda bu davrda yevropeoid irqiga mansub ikki guruh aholi yashagan. Ikki guruh aholisining bosh tuzilish shakli bir-biridan farq qiladi.

Mazkur guruhlardagi ko'pchilik erkaklarning boshi uzun, ayollarning boshi esa dumaloq shaklda bo'lgan. Bu esa VI–VIII asrlarda Panjikent aholisining aralash bo'lganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda So'g'd aholisining shakllanishida boshqa irqqa mansub aholi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Milodiy I mingyillikning ikkinchi yarmida So'g'd aholisi tarkibiga mongoloid irqiy belgilar aralashuvini ko'ramiz. Antropologik materiallardan ma'lum bo'lishicha, o'sha davrda mongoloid irqiga taalluqli belgilar shahardan tashqarida (qishloqlarda) yashovchi so'g'dliklar tarkibiga 10–15 % ni tashkil qilgan. Mongoloid irqiga mansub antropologik belgilari mavjud bo'lgan odamlar (masalan, yuzning yalpoqlanishi, yonoqlarning bo'rtib turishi, burun burchagining pasayishi va boshqalar) So'g'd hududiga sharqiy va shimoliy viloyatlardan kirib kelib, mahalliy xalqlar qiyofasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsata boshlagan.

Buxoro vohasida miloddan oldingi VI–III asrlarga oid Shodbek guruhidagi qo'rg'onlar ochildi. Bu yerda yashagan aholi qadimda dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan xalqlar bo'lib, antropologik jihatdan aralashib ketgan. Bularning kelib chiqishiga ko'ra, bir tomonidan Zamonbobo madaniyati bilan, ikkinchi tomonidan Qozog'istonning janubi-g'arbiy qismida yashagan mo'g'ullahsgan irqiy tip (asosan, andronovoliklar) bilan bog'liq. Qiziltepa qo'rg'onlaridan birida dolixonitan turiga oid ayol kishining (milodiy I asr) bosh suyagi topilgan. Bu bosh suyak Sharqiy O'rtayer dengizi antropologik tipida bo'lib, mongoloid irqi bilan ham aralashgan. Hazora (Buxoro viloyati) yaqinidagi qo'rg'ondan topilgan antropologik topilma (milodiy I–III asrga oid) erkak kishining suyagi bo'lib, mongoloid tipi aralashgan yevropeoid irqiga mansub bo'lgan. Shu qo'rg'ondan (yog'och tobutda ko'milgan) bolaning bosh suyagi tekshirilganda u O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i yevropeoid tipiga mansub bo'lib chiqdi.

Umuman olganda, antik davrda Zarafshon vohasining yuqori oqimlarida yashagan chorvador aholisi yevropeoid irqiy tipiga mansub

bo‘lib, dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan aholidan deyarli farq qilmagan. Zarafshonning quyi oqimida yashovchi aholi aniq mongoloid irqiy xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Samarqand yaqinidagi Kofirqal’ a qo‘rg‘onidan topilgan 14 ta bosh suyagidan 10 tasi V.Y. Zevenkova tomonidan o‘rganilgan. Bu bosh suyaklari milodiy IV–VI asrlarga oid Bayramalidan (Turkmaniston) topilgan bosh suyaklari bilan solishtirdi. Natijada Kofirqal’ adan olingen bosh suyaklar O‘rtayer dengizi irqiy tipining Kaspiyorti antropologik turi bilan Pomir-Farg‘ona (hozirgi O‘zbekiston aholisining) o‘rtasidagi antropologik tipidagi kishilar bo‘lganligi aniqlanadi. Bularda mongoloid alomatlari bo‘lmagan. Shunga asoslanib V.Zevenkova O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i (Pomir-Farg‘ona) antropologik tipi milodiy VI asrda shakllangan, degan xulosaga keladi.

#### **4. Farg‘ona vodiysining qadimgi aholisi va antropologik tipi**

*Qadimgi Farg‘ona aholisining antropologik tipi.* Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning yirik sug‘orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan mintaqalaridan biri bo‘lib, qadimda turli xil xo‘jalik sohiblari o‘rtasida olib boriladigan o‘ziga xos etnomadaniy hudud bo‘lgan. Miloddan avvalgi II asrgacha yozma manbalar vodiylar haqida deyarli ma’lumotlar bermaydi. Ammo miloddan avvalgi II asrdan boshlab qadimgi Farg‘onaning Qang‘ davlati bilan iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy aloqalari rivojlanganligi haqida Xitoy yozma manbalarida ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

Arxeologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, qadimgi Farg‘onaning shariqiy va shimoliy mintaqalarida (Andijon va Namangan viloyatlari huddi), bronza va ilk temir davrida dehqonchilik madaniyati (Chust madaniyati), uning janubiy va g‘arbiy qismining adirli mintaqalarida esa asosan chorvachilik xo‘jaliklari rivojlangan. Ammo miloddan avvalgi IV asrdan boshlab, qadimgi Farg‘onaning janubi-g‘arbida ham sug‘orma dehqonchilik xo‘jaliklari tarkib topa boshladi. Antik davrda butun vodiylar bo‘ylab, vohalarda dehqonchilik, tog‘oldi va adirli mintaqalarda yarim ko‘chmanchi chorvachilik taraqqiy etadi.

Shu munosabat bilan vodiylar o‘troq aholisining aksariyat ko‘pchiligi dolioxekfal yevropeoid bo‘lsa, dasht aholisining etnik tarkibi turlicha

edi. Masalan, miloddan avvalgi III asrlarga tegishli Oqtom qabristoni-dan topilgan kalla suyaklari asosan mahalliy mezobraxikran yevropeoid aholi bo'lib, ular bronza davrining dolixomezokran qabilalarning avlod-lari edi. Ular andronovo madaniyati aholisi ta'sirida braxikefallashgan.

O'zgan tevarak-atrofida yashagan aholining antropologiyasida (mil. avv. III—I asrlar) mo'g'ul irqiy belgilari bilan birga yevropeoidlarga xos belgililar ham mavjud bo'lgan. Farg'onaning Shirinsoy qabristonidan milodiy II—IV asrlarga tegishli antropologik ma'lumotlar topilgan. Bu topilmalar aralash xronologik ma'lumotlarni beradi.

Xo'jand yaqinidagi Qayrag'och qabristonidan topilgan suyaklar esa O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipini eslatadi. Isfara atrofidagi 6 ta qabristondan olingan antropologik ma'lumotlarda mo'g'ul irqiy belgilari yo'qligi, ya'ni ularda sof O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipi saqlanib qolningligini ko'rsatadi.

Milodiy I—III asrlarga tegishli ma'lumotlarda Quvasoyning o'troq aholisi dolioxokefal va braxikefal tipdag'i yevropeoid irqini berdi. Shimoliy Farg'onada yashovchi chorvador aholisining antropologiyasida (antik davr) mo'g'ul irqiy belgilari qo'shilgan yevropeoidlar bo'lganligi aniqlangan.

Shunday qilib, qadimgi Farg'onaning asosiy aholisi O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipining mezobraxikran yevropeoid varianti bilan xarakterlanadi. Aholining tarkibida Sharqiy O'rtayer dengizi tipi va Janubiy Sibir tipi vakillari ham uchraydi. Yevropeoid tiplar qisman mo'g'ul irqiy belgilardan ham xoli emas. Qadimgi Farg'onaning xronologik materiallar tahliliga qaraganda, yevropeoid irqiy belgilari vodiyning g'arbiy tumanlari aholisida kuchli bo'lgan. Janubi-Sharqiy Farg'ona hududlarida esa yevropeoid tip orasida qisman mo'g'ul qiyofa odamlar ham uchraydi. Shimoliy Farg'ona tumanlarida yevropeoid aholi orasida mo'g'ul irqiy belgilari vodiyning boshqa mintaqalariga qaraganda ancha kuchli ekanligi kuzatiladi.

### Asosiy adabiyotlar

1. Nabihev A. Tarixiy o'lkashunoslik. – T., 1996.
2. Ochilidiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. – T.: Universitet, 2008.
3. Shoniyozov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –T.: Sharq, 2001.
4. Kabirov A., Sagdullayev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.

5. Xo'jayev T., Xo'jayeva G. O'zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi. –T., 1995.
6. Xo'jayev T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. – T.: Universitet, 1995.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Алексеев В.П., Аскаров А.А., Ходжасаев Т.К. Историческая антропология Средней Азии. – Т., 1990.
2. Jobborov I.M. O'zbek xalqi ethnografiyasi. – Т., 1994.
3. Нажимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области. – Т.: САГУ, 1958.

### Internet manbalar

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archeology.ru](http://www.archeology.ru)
4. [www.archeology.com](http://www.archeology.com)

### Nazorat savollari

1. O'lka tarixini o'rghanishda antropologiya qanday o'ringa ega?
2. O'zbekiston hududida zamonaviy odamlar qanday paydo bo'lgan va voha bo'ylab qanday tarqalgan?
3. O'lkamizdag'i dastlabki irqlar va ularning tarqalishi haqida so'zlab bering.
4. Antik davr migratsiyalari va etnik jarayonlari (yuechjilar, usunlar, xioniyla;, toxarlar, eftaliylar va b.) haqida nimalarни bilasiz?
5. O'rta Osiyo qadimgi aholisining antropologik shakllari va tipi, O'rta Osiyoda mongoloid irqining paydo bo'lishi to'g'risida ma'lumot bering.

### Test savollari

- 1. So'nggi paleolit davriga oid odam suyak qoldiqlari qayerdan topib o'rganilgan?**
  - A. Samarqand viloyatidan
  - B. Buxoro viloyatidan
  - C. Toshkent viloyatidan
  - D. Andijon viloyatidan
- 2. Respublikamizda mezolit va neolit davrida yashagan odamlar qanday irqqa mansub bo'lgan?**
  - A. Yevropeoid irqining Sharqiy O'rtayer dengizi tipiga

- B. Yevropeoid irqining Janubi-Sharqiy O'rtayer dengizi tipiga
- C. Shimoliy yevropeoid tipiga
- D. Shimoliy yevropeoid-andronovo tipiga

**3. Qaysi vohada yashagan aholi asosan andronovo irqi belgilarini o'zida mujassamlashtirgan?**

- A. Toshkent vohasi
- B. Samarqand vohasi
- C. Surxon vohasi
- D. Buxoro vohasi

**4. O'rta Osiyo xalqlari tiplariga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi nechta tipga bo'lingan?**

- A. 2 ta: janubiy va shimoliy yevropeoid irqi
- B. 4 ta: shimoliy yevropeoid, andronovo tipi, janubiy va shimoliy tipiga
- C. 3 ta: janubi-sharqiy, O'rtayer dengizi tipiga
- D. 2 ta: shimoliy yevropeoid, andronovo tipiga

**5. Miloddan avvalgi 2-mingyllikda O'rta Osiyo xalqlari bir-biridan farqlanuvchi qaysi 2 mintaqaga ajralgan?**

- A. Janubiy, shimoliy
- B. Shimoliy, sharqiy
- C. Janubiy, g'arbiy
- D. Shimoliy, g'arbiy

**6. Kimning asarida ilk o'rta asrlarda o'lkamizda yashovchi aholi 2 tilda so'zlashganligi haqida ma'lumot berilgan?**

- A. Mahmud Koshg'arriy
- B. Yusuf Xos Hojib
- C. Abu Zayd Balxiy
- D. Hofiz Tanish Buxoriy

**7. Muravyovning fikriga ko'ra, Xivaga ko'chmanchilar qayerdan kelishgan?**

- A. Buxorodan
- B. Turkman cho'llaridan
- C. Dashti Qipchoqdan
- D. Mo'g'ulistondan

**8. O'lkamizda tibbiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havas-korlar jamiyatining Turkiston bo'limi qaysi tadqiqotchi tomonidan ochilgan?**

- A. A.P. Fedchenko
- B. L.N. Sobolev
- C. A. Kun
- D. N. Mayev

## **V BOB. O'LKAMIZ TARIXINI O'RGANISHDA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI**

**Reja:**

1. O'lka tarixini o'rganishda dastlabki etnografik ma'lumotlar.
2. O'zbek urug' va qabilalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
3. Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o'lcamiz etnografiyasining o'r ganilishi.

**Tayanch iboralar:** etnografiya, qabilalar, elat, xalqlar, maishiy turmush, xo'jalik, urf-odat, din, til, marosim, xalq og'zaki ijodi.

### **1. O'lka tarixini o'rganishda dastlabki etnografik ma'lumotlar**

Etnografiya ko'p qirrali ijtimoiy fan bo'lib, uning tadqiqot obyekti xalq va elatdir. Bu fan xalqlarning kelib chiqishi va joylashuvi, ijtimoiy hayoti, xo'jaligi va g'oyaviy qarashlari kabi muammolarni o'r ganadi.

Dastlabki etnografik ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat qaror topgandan keyin qabilalar o'rtasida aloqalar o'matilishi natijasida to'plana boshlangan. O'sha davrdayoq ayrim qo'shni qabila, elat va xalqlarning maishiy turmushi, etnik xususiyatlarini o'rganish taqozosi bilan vujudga kelgan. O'zbek xalqining eng qadimiy ajdodlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Qadimgi Eron, Bobil, Ossuriya hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bitilgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'y sundirilgan elat va xalqlarni tilga olganlar. Shular ichida o'rta osiyoliklarning qadimiy ajdodlari to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud.

Ilk yozuv manbalaridan qadimgi eron, yunon va rim mualliflari ning asarlarida Vatanimiz hududida yashagan qadimgi qabila va elatlari tilga olinadi. Masalan, antik davr mualliflаридан miletlik Gektay, Strabon, Gerodot, Arrian, Ptolemey va Ktesiy, sitsiliyalik Diodor, Pompey Trog, Tatsitlar o‘z asarlarida sak va massaget qabilalari, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parfiyaliklar va so‘g‘diylar to‘g‘risida ayrim ma'lumotlar keltirganlar. O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi ajdodlari va ularning turar joylari, urf-odat va marosimlari to‘g‘risida noyob ma'lumotlarni bizgacha yetib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»dan olish mumkin. «Avesto»da keltirilgan ayrim ma'lumotlarni arxeologik ma'lumotlar to‘ldiradi. Miloddan avvalgi II–I asrlardan boshlab arablar istilosigacha bo‘lgan davrdagi O‘rta Osiyo xalqlariga tegishli ba‘zi axborotlarni Eron solnomalarida, xitoylik sayyoohlarning esdaliklarida, Vizantiya va arman manbalarida uchratishimiz mumkin.

Arablar hukmronligi davrida ilk o‘rta asr mualliflаридан geograf va sayyoohlar Ibn Hurdodbeh, Balxiy, Istashriy, Ibn Havqal, Ma’sudiylar o‘z sayohatnomalarida zamondosh elatlari to‘g‘risida nisbatan boy ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Masalan, Xurosonda yashagan geograf olim Abu Zayd Balxiy 60 ga yaqin asar yozgan. U dunyo xaritasini tuzadi, uning asarlaridagi xaritalardan biri Buxorodagi somoniylar kutubxonasida saqlangan.

O‘rta asming eng yirik olimlaridan iste’dodli tilshunos Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devoni lug‘otit turk» nomli noyob asarida o‘zbek xalqining eng qadimgi turkiy tilda gaplashuvchi ajdodlаридан biri bo‘lgan chigil qabilalari Iskandar Zulqarnayn yurish qilgan davrdayoq yirik etnik guruhlardan hisoblangani haqida ma'lumot beradi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida ilk o‘rta asrlarda aholi ham turkcha, ham so‘g‘diycha so‘zlashganligini, ya’ni ikki til ham muomalada bo‘lganligini qayd qilgan. Demak, o‘zbek xalqining ajdodlari qadimdan muayyan bir hududda o‘ziga xos bir moddiy va ma’naviy birlik yaratib, asta-sekin til jihatidan umumiylikka erisha boshlagan. XI asming yetuk shoiri va olimi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan «Qutadg‘u bilig» asarining bizgacha yetib kelganligini alohida aytib o‘tish kerak. Unda ham juda ko‘p xalqimiz etnik tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Amir Temur va uning taxt vorislari hukmronlik qilgan davrda O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududiy yirik madaniyat markaziga aylandi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalari kuchaydi. Bu davarga oid qiziqarli etnografik ma’lumotlarni ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning asarida, rus solnomalarida, mahalliy mualliflar Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarcandiy va boshqalarning asarlari-da uchratish mumkin. XVII asr bosqlarida O‘rta Osivoni bosib olgan ko‘chmanchi o‘zbeklarning etnik tarkibi, hududiy joylashuvi, turmush tarzi va urf-odatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Mas‘ud Ibn Usmon Ko‘histoniyning «Tarixi Abulxayrxon», Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma», Abulxayr Fazlulloh Ro‘zbexonning «Mehmonnomayi Buxoro» nomli asarlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek xalqi etnografiyasiga oid ma’lumotlarni to‘plash XIX asrning birinchi yarmidan boshlanib, N.N. Muravyov, A.F. Negri, N.V. Xanikov, G.I. Danilevskiylar olib borgan kuzatishlar O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbeklarning etnografiyasini o‘rganishdagi dastlabki ilmiy qadamlar bo‘ldi. 1870-yili Buxoroga jo‘natilgan A.F. Negri boshchiligidagi diplomatik missiya qatnashchilaridan E.A. Eversmann, X. Pandar, P. Yakovlev, polkovnik Meyendorflarning esdalik va xotiralari nihoyatda boy tarixiy-etnografik ma’lumotlarga ega. G. Meyendorfning turli tillarga nashr qilingan «Orenburgdan Buxoroga sayohat» kitobida Buxoro xonligining geografik o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi, aholisi, ularning mashg‘uloti, qishloq xo‘jaligi, sug‘orish tizimi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo aloqalari, oila va xotin-qizlarning turmushi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Chet el mualliflaridan biri, fors tilini yaxshi biladigan ingliz sayo-hatchisi Aleksandr Byorns 1831–1832-yillarda Buxoroda turib muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va etnografiyaga oid materiallar to‘playdi. Byorns yozib qoldirgan sayohatnomalarida o‘zbek xalqi haqida nihoyatda ko‘p qiziqarli ma’lumotlarni olish mumkin. 1840–1850-yillar davomida Qozog‘iston va O‘rta Osivo xalqlarining etnografiyasini ilmiy jihatdan o‘rgangan aka-uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmatlari katta. Yakov Xanikovning 1851-yilda nashr etilgan «Orol dengizi va Xiva xonligi xaritasiga izohnoma» asarida etnik masalalarga alohida e’tibor berilgan.

Turk tillarini yaxshi bilgan mashhur venger olimi H. Vamberi 1863-yilda Xiva, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarga sayohat qiladi. Uning O'rta Osiyo haqida yozgan asarlarida mahalliy aholi, shu jumladan, o'zbek xalqi etnografiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar mavjud. U o'zbek urug'lari haqida gapirib, birinchilaridan bo'lib «o'zbek» so'zining kelib chiqishi haqida so'z yuritadi. H. Vamberi 32 ta o'zbek qabilalarining ro'yxatini hamda badiiy san'ati, urf-odatlari va diniy marosimlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Shuningdek, o'zbek urug'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni N. Xanikov ham keltirib o'tadi, u o'zbek urug'lari sonini 96 ta bo'lgan deb e'tirof etadi.

O'tgan asrning dastlabki yillaridan boshlab fan va ma'rifat fidoyilari Turkiston Respublikasi hududida etnografiya tadqiqotlarini o'tkazishga katta e'tibor bera boshladilar. 1918-yilda ochilgan Turkiston xalq do'rifununda o'zbek etnografiyasidan maxsus kurslar o'qitala boshlandi. O'rta Osiyoda 1920–1924-yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tashkilotchilaridan biri M.P. Magidovich o'zining aholi o'rtasida to'plagan tarixiy etnografiyaga oid ma'lumotlariga asoslanib, o'zbek xalqi qabilalarining ro'yxati hamda ularning qisqacha etnografik tafsifini berdi.

Butun umrini O'rta Osiyoda o'tkazgan, mahalliy tilni yaxshi bilgan M.S. And va A.A. Semyonovlar ham o'zbek etnografiyasi ni o'rganishga katta hissa qo'shdilar. 1920–1921-yillarda M. And boshchiligidida Shimoliy Farg'ona va Samarqand viloyatlariga ilmiy safarlar uyushtirilib, nihoyatda boy etnografik ma'lumotlar to'playdi. 1819–1820-yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan N.N. Muravyov o'z taassurotlari asosida muhim ilmiy asar yaratadi. Muravyov asarining ba'zi boblarida bevosita o'zbeklarning tabiat, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari, ma'rifat, kiyim-kechagi, urug'-aymoqchilik munosabatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Uning ta'kidlashicha, Buxoro tomondan kelgan o'zbeklar, asosan, to'rt toifadan: qiyot-qo'ng'iroq, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, po'kis-mang'itdan iborat. Har bir toifa mustaqil hokim – inoqqa ega, ulardan qiyot-qo'ng'iroq hokimligi eng kattasi hisoblanadi. Xiva xonligidagi qabilaviy o'zbeklar ko'chmanchi bo'lgan, ularning ko'pchiligi qora uylarda yashashini, ammo boy urug'lar

o‘troq sart singari katta paxsa devor bilan o‘ralgan uylarda yashaganligini ta’kidlaydi.

## 2. O‘zbek urug‘ va qabilalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar

O‘zbeklarning qabila va urug‘larining soni to‘g‘risida tarixiy manbalarda ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Tadqiqotchilar o‘z davridagi ma’lumotlarga tayanib qabila va urug‘lar sonini har xil tarzda ko‘rsatib o‘tishgan. Ko‘pgina manbalarda 92 bovli o‘zbek eli haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbek eli deganda nafaqat hozirgi O‘zbekiston hududida, shu bilan bir qatorda Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Volgabo‘yi xalqlari, Boshqirdiston, Tatarlar, Oltoy, Tuva, Yoqtular, Uyg‘urlar hamda Mo‘g‘uliston hududida yashovchi turkiy xalqlarni e’tiborga olish lozim.

Rashididdinning «Jome’ ut-tavorix» asarida (bu asarni 1301–1311-yillarda yozgan) turkiy xalqlarning qabila, urug‘lari haqida batfsil ma’lumot berilgan. X. Doniyorov Rashididdin fikrlarini davom ettirib, ularning hozirgi avlodlari o‘zlarini qadimgi vaqtlardan beri mo‘g‘ullarga qo‘silib kelgan, deb ta’kidlaydi. N. Norboyev qadimgi vaqtda mo‘g‘ullarning o‘zları ham cho‘llarda yashovchi turkiy xalqlarning bir bo‘lagi bo‘lgan degan fikrni ilgari suradi.

O‘zbek xalqining qabila va urug‘lari haqida Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» asarida ham ma’lumotlar keltirilgan, unda turklar 20 ta qabiladir: beyenek, qipchoq, o‘g‘uz, yaman, bashg‘irt, basmil, qay, yoboku, tatar, qirg‘iz, chigil, tuxsi, yag‘mo, ig‘loq, yumup (shamul), uyg‘ur, tangut, tovg‘ochlar ko‘rsatilgan. Hozirda bu urug‘larning o‘zbeklar tarkibida 10 ta urug‘i mavjud.

Abulg‘izi Bahodirxonning «Shajarayi turk», Boburning «Boburnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», «Abulxayrnoma» va boshqa asarlarda ham o‘zbek urug‘ va qabilalari haqida ma’lumotlar mavjud. Abulg‘izixon o‘zbek qabilalarini ikkiga bo‘ladi, birini turk avlodlari, ikkinchisini esa mo‘g‘ul avlodlari deb ko‘rsatadi. Abulg‘izi Bahodirxon qo‘ng‘iroq qabilasidan bo‘lib, bir necha tillarni bilgan, tabiat, tarix, til, siyosat sohasida ham yetuk inson bo‘lib, 1644–1664-yillarda Xiva xonligini idora qilgan. N. Xanikovning

1843-yilda yozilgan «Buxoro xonligining tavsifi» asarida o'zbek xalqining urug' va qabilalari haqida ma'lumotlar berilgan. 1849-yilda Buxoroga sayohat qilgan A. Byoms o'zining «Buxoroga sayohat» nomli asarida o'zbeklar qadimgi davrda 32 ta urug'dan iborat bo'lganligini ta'kidlaydi va ular ichida eng yiriklarini keltirib o'tadi: Qo'ng'irot - Boysun va Urganchda, Qatag'on - Qunduzda, Mang'it - Buxoroda, Yuz - Qo'qon va Hisorda, Loqay - Hisorda, Qipchoq - Balxda, Yobu (Yaba) - Balxda, Ming - Maymanada ko'proq yashaganlar deb xabar beradi. Herman Vamberi 1865-yili yozgan «O'rta Osiyo bo'y lab sayohat» nomli asarida o'zbeklarning 32 ta urug'ini keltiradi: qo'ng'irot, qipchoqlar, yuz, mang'itlar, nukis, nayman, qulam, qiyot, oz (os), toz, sayyod, jig'atoy, uyg'ur, oybek, do'rmon, ushin (uyshun), qanjig'ali, nug'ay, bolg'ali, metan (mitan), jaloyir, kenagas, qangli, ichkili, bag'urli (bavurli), olchin, ochmayli (ochmayli), qorakursoq, birquloch, tirlish, katta kesor, ming.

H. Vamberining asarida qo'ng'irot, uyg'ur, qipchoq, nukus (nukuz), ochmayli (ochmayli) urug'lari Xivada, ming - Maymanada, Nayman - Qarshida ko'p uchrashi ta'kidlanadi. Shuningdek, Afg'onistonning Qunduz, Xulma, Okcha, Shibirg'on, Maymana va Antxam shaharlarning aholisi, asosan, o'zbeklar toifasidan deb ko'rsatilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixini o'rganishda N.A. Aristovning «Turkiy xalqlarning etnik tarkibi to'g'risida mulohazalar va ularning soni to'g'risida ma'lumotlar» asari muhim sanaladi. Unda turkiy xalqlar (xunnlar) ichki nizolar va urushlar natijasida Sharqiy va G'arbiy Xunnlarga bo'linib ketganligi, G'arbiy Xunnlar davlatiga O'rta Osiyo va Orol bo'yłari, Kaspiy va Volgaboyi hududlari kirganligi yoritilgan. D.N. Logofetning 1911-yilda yozilgan «Buxoro xonligi Rus vassalligida» asarida o'zbeklarning 102 ta urug'ga bo'linishi keltirib o'tilgan. Unda mang'it, qo'ng'irot, o'zbek, qizil, qozoq, qatag'on, laqay kabi urug'lami keltirilgan. Yuqorida urug'lar to'g'risida keltirib o'tilgan ma'lumotlarning barchasini ham to'g'ri keltirilgan deb xulosa chiqarish biroz o'rinali emas, ularda birmuncha xato va kamchiliklar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi.

**Abulg‘oziy Bahodirxonning urug‘lar to‘g‘risida  
bergan ma’lumotlari**

1. Uyg‘ur	25. Merket	49. Jalayir	73. Xizreli
2. Kangali	26. Qo‘ng‘irot	50. Orlat	74. Xurosanli
3. Qipchoq	27. Qoranut	51. Og‘ar	75. Xalaj
4. Qalach	28. Quralas	52. Olayutli	76. Dukar
5. Qorluq	29. Engigin	53. O‘qli	77. Sariq
6. Tekrin	30. Urmovut	54. Uyg‘ur	78. Solur
7. Qirg‘izlar	31. Ko‘niklar	55. Aymoq	79. Surxi
8. Kemkemchut- lar	32. Arlot	56. Boshqird	80. Soqar
9. O‘rmankat	33. Kelket	57. Bayot	81. Saljuqlar
10. Nukuzlar	34. Bodoy	58. Tot	82. Sultonli
11. Tatarlar	35. Qishliq	59. Totar	83. Savroqi
12. Oyrot (Uyrot)	36. Uyshin	60. Temirli	84. Sovchili
13. To‘rg‘ovut	37. Suldus	61. Turumchi	85. Qo‘g‘onli
14. Qo‘ri	38. Eldurkin	62. Turk	86. Qo‘rqin
15. Tulaslar	39. Kenket	63. Turkiman	87. Qorluq
16. Bulg‘ochin	40. Durban (Do‘rmon)	64. Taka	88. Qipchoq
17. Kermuchinlar	41. Barin (Bahrin)	65. Turbotli	89. Qoratoshli
18. Tulengut	42. Sukut	66. Tevachi	90. Qalliq
19. Urasut	43. Kurlovut	67. Jobi	91. Qirg‘iz
20. Kusutit	44. Burkut	68. Jomachi	92. Chiroyli
21. Nayman	45. Uklan	69. Cho‘bichoq	93. Qutlar
22. Kerayit	46. Jo‘yrat	70. Chubani	94. Lola
23. Ungutlar	47. Xojarat	71. Chig‘atoy	95. Mug‘ul
24. Turchoq	48. Boyovut	72. Chuni	96. Mang‘it
			97. Mundi
			98. Ezir
			99. Yog‘mo
			100. Yovmut
			101. Yurti

**N. Xanikov tomonidan urug‘lar to‘g‘risida  
berilgan ma’lumotlar**

1. Mang‘it	26. Qabatlar	51. Ilachi	76. Ug‘lon
2. Ming	27. Qangli	52. Julgan	77. Gurlat
3. Yuz (Juz)	28. O‘z	53. Qishliq	78. Igilan
4. Qirq	29. Chunglachi	54. Gadoy	79. Jimaboy
5. O‘ng	30. To‘nchi	55. Turkman	80. Chelkes
6. O‘ng‘ochit	31. O‘tarchi	56. Durman	81. Uyg‘ur
7. Jaloyir	32. Upilachi	57. Tobin	82. Og‘ir
8. Saroy	33. Julun	58. Toma	83. Ebu
9. Qo‘ng‘irot	34. Jid	59. Rindan	84. Norg‘il
10. Yalchin	35. Juyut	60. Mo‘min	85. Yuzak
11. Org‘un	36. Chiljiyut	61. Yuysin	86. Kaxat
12. Nayman	37. Bo‘ymavut	62. Beroy	87. Nocher
13. Qipchoq	38. Uymavut	63. Xofiz	88. Xo‘jalik
14. Chechak	39. Orlot	64. Qirg‘iz	89. Buzan
15. Uyrot	40. Qrayt	65. Yuyruvchi	90. Shirin
16. Qolmoq	41. Ungut	66. Juyrat	91. Baxrin
17. Qartuv	42. Qang‘it	67. Bo‘zachi	92. Tuma
18. Burloq	43. Xolyovat	68. Sixtiyon	93. Nukuz
19. Busloq	44. Masad	69. Botosh	94. Mug‘ul
20. Samargin	45. Murkut	70. Yag‘rin	95. Kalon
21. Qatog‘on	46. Berkut	71. Shuldir	96. Tatar
22. G‘alachchi	47. Kurolas	72. Tumay	
23. Kenagas	48. Uchljan	73. Tilov	
24. Bo‘rtak	49. Qori	74. Qardor	
25. O‘zoy	50. Arab	75. Qirqin	

**Herman Vamberi tomonidan urug‘lar to‘g‘risida  
berilgan ma’lumotlar**

1. Qo‘ng‘irot	10. Sayyod	18. Bolg‘ali	25. Olchin
2. Qipchoqlar	11. Jig‘atoy	19. Metan (Mitin)	26. Ochamayli
3. Mang‘itlar	12. Uyg‘ur	20. Jalayir	27. Qorqursoq
4. Nukis	13. Oybet	21. Kenagas	28. Birquloch
5. Nayman	14. Do‘rmon	22. Qangli	29. Tirpish
6. Kulam	15. O‘sishin (Uyshin)	23. Ichkili	30. Katta Kesar
7. Qiyot	16. Kanjig‘al	24. Bovurli	31. Ming
8. Oz (Os)	17. No‘g‘ay		
9. Toz			

**N.P. Xoroshxin tomonidan urug‘lar to‘g‘risida  
berilgan ma’lumotlar**

1. No‘g‘ay	26. Qizili	51. Qatag‘on	72. Ovchi
2. Tatar	27. Qirabit	52. Qilovchi	73. O‘tarchi
3. Qozoq	28. Ramadon	53. Uyrot	74. Tilov
4. Qirg‘iz	29. Tobin	54. Kibot	75. Qirqin
5. Qo‘ng‘irot	30. Kenagas	55. Qaxat	76. Jo‘yrot
6. Nayman	31. Mang‘it	56. Juyachi	77. Turgan
7. Qangli	32. Qiyot	57. Po‘latchi	78. Savdon
8. Toma	33. Sayyod	58. Turbot	79. Bavdaloq
9. Qoraqalpoq	34. Shag‘atay	59. Jiyot	80. Arduri
10. Turkman	35. Durman	60. Buyot	81. Lakay
11. Tuyoqli	36. Uyg‘ushun	61. Arlot	82. Qiyiqchi
12. Turk	37. Mo‘ytay	62. Uykut	83. Utachki
13. Birkut	38. Xaybat	63. Jafjut	84. O‘tkan
14. Misit	39. Kuchurli	64. Xit	85. Itchi
15. Abu	40. Ballos	65. Saidli	86. Nitagay
16. Saroy	41. Qavchin	66. Turlos	87. Jovsar
17. Baxrinlar	42. G‘arab	67. O‘lon (O‘qlon)	88. Akonsoldi (Arqonsoldi)
18. Qipchoqlar	43. Qalmoq	68. Ilachi	89. Amon
19. Ming	44. Qoraxon	69. Qishliq	90. Abdal
20. Yuz	45. O‘ng	70. Tejamli	91. Asaka
21. Qirq	46. Yaman	71. Bo‘ri	
22. Jalayir	47. Chaqmoq		
23. Batosh	48. Arzuk		
24. Olchin	49. Qarluq		
25. Org‘in	50. Turdos		

O'lkamizning etnik tarixiga oid ma'lumotlarni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vohada bo'lgan rus sayyohlarining asarlari va harbiy to'plamlardagi ma'lumotlardan hamda XX asrning o'rtalarida yaratilgan asarlarda uchratishimiz mumkin. To'plangan ma'lumotlar XIX asr va XX asr boshlarida o'lkamizda yashagan aholi etnik tarkibi ancha murakkab bo'lgan turli urug' va elat vakillaridan tarkib topganligini ko'rsatadi. Biz o'zbek urug'lari ichida Vatanimiz bo'ylab ko'proq tarqalgan qo'ng'irot va do'rmon urug'lari haqida ma'lumot berib o'tishni joiz topdik. O'ita asrlarda Dashti Qipchoqdan kelib vohada yashagan o'zbek qabilalari vakillari orasida qo'ng'irotlar boshqa o'zbek urug'la-tiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. Ular o'lkamizning barcha hududlarida istiqomat qilishgan.

Qo'ng'irot urug'idan juda ko'p qavmlar ajralib chiqqan va ularning hat biri o'ziga xos nom va laqab bilan farqlangan. Qo'ng'irotlar qavmi 5 ta katta urug'ga bo'lingan: Vaxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Qonjig'ali, Oyinnali (Oyindi), Tortuvli. Qo'ng'irot urug'i 64 ta otadan tarqalgan bo'lib, bu urug'lar o'z o'mida yana kichik oila va bo'g'lnlarga bo'linib ketadi (ba'zi ma'lumotlarda 66 ta deb ko'rsatilgan).

*Vaxtamg'ali* urug'i shoxobchalari: bug'ajili, oboxli, irg'oqli, qaychili, qozoyoqli, qoraqo'ng'irot, uyivali, ishqili, toroqli, chanchiqli, qiyg'oshli, xandaqli, boymoqli, ochamayli, gilamboboli, ushquli (jami 16 ta).

*Qo'shtamg'ali* urug'i shoxobchalari: tilavmat, kuchaxo'r, bandiku-chuk, cholbachcha, oqpichoq, mavlish, ko'sa, savribuzar, kal, qoraqalpoq, tulangit, o'troqi, barchoq, kulobin, qoraqasmoq, zambiri.

*Qonjig'ali* urug'i shoxobchalari: kuldovli, jelkellik, qurtag'oy, to'pqora, moltaka, qora, qorabuvra, duska, gala, qo'g'oy, qo'yin, ulus, chullik, qoraqursak.

*Oyinnali* (Oyindi) urug' shoxobchalari: kovka, qochay, qoraqalpoq, to'por, beshbola, chulan, gala, turkman oyinni, xojibachcha, kal, qora, oqtona, oytamg'ali.

*Tortuvli* urug'i shoxobchasi: to'ng'iz, tunka, o'r, chupoq, xurosoni, qoramoyin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta urug'lar o'z o'mida yana bir necha kichik shoxchalarga bo'linib ketganligi kuzatiladi. Masalan, Vaxtamg'ali urug'i tarkibiga kirgan Ochmayli bo'g'ini: Tuja, Qozoqoyoqli,

Jortibosh oilalariga bo'lingan. Tujanning o'zi yana Kar-tuja, Gabal-tuja, Mirzatop, Xudoyqultop, Jortibosh, Barak kabi oilalarga bo'linib ketadi. Bolg'ali bo'g'inida: Merkit, Chog'ir-chachir, Pokiskar, Beshul, Sart, Ko'sa kabi oilalar mavjud.

Qo'shtamg'ali urug'i tarkibiga kiruvchi Tilovmat bo'g'ini quyidagi oilalarga bo'lingan: Tuliboy, Xoliboy, Qo'yliboy, Irisboy, Chag'ir, Haybat, Imomqulchut, Berdi, Dusha. Kal bo'g'ini: Bengar-kal, Qorahol, Beshkaltak, Maydakal, Solibochcha, Tentak, Oylachaparga bo'lingan. Barmoq bo'g'ini: Jiyansaroy, Tursunjetim, Katta barmoq, Sherdak, Ismoni, Naka. Qangi oilalariga bo'lingan. Bandi Kuchukda esa Ko'sa, Uzun, Beshyog'och, Boybotir, Jabu, Damgarin, Chalamulla, Xo'ja, shoxobchalari mavjud.

Qanjig'ali urug'i tarkibidagi Xo'jaqul bo'g'ini: Arriq, Qurbonqul, O'rtakeldi, Ajina, Tentak, Eshaboshi, Cho'llik oilasi: Chaullik, Madi, Guljetim, Chambil, Qulbrun, Pitak, Jong'abotir, Tashat, Chorbetim shoxobchalariga bo'lingan.

Asrlar davomida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida qo'ng'irot urug'i ham o'zining yuqori mavqeyini saqlab qolgan. Ularning qishloq xo'jaligidagi mashg'ulotlari dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lган. Vohaning tekislik qismida dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lib, bug'doy, arpa, sholi, paxta, polizchilik, bog'dorchilik va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirganlar. Tog' yonbag'irlari va qir-adirlarda lalmikorlik hamda chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Hozirgi kunga kelib, qo'ng'irotlar vohaning barcha tumanlarida qishloqlarda, alohida ba'zi qishloqlarda esa, boshqa urug'lar bilan aralash yashab kelmoqda. Vohada yashovchi qo'ng'irot urug'lari ancha murakkab etnik tarkibga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda ularning 300 dan ortiq kichik guruhlari borligini kuzatishimiz mumkin.

*Do'rmon* urug'i ham o'l kamizda ancha keng hududlarda tarqalgan. Abulg'oziy Bahodirxonning do'rmon urug'ining kelib chiqishini mo'g'ulning Bichanqayon otli podshohining to'rt o'g'lidan tarqalgan deb ta'kidlaydi. Bichanqayon dunyodan ko'z yumishidan oldin el-yurtga kichik o'g'lini to'ra qilib saylashni vasiyat qilgan ekan. Otasining vasiyatini inobatga olib, kichik o'g'lini xoqon qilib saylabdilar. Ammo uning to'rtala akasi kenja ukasining boshliq bo'lганligidan no-

rozi bo'lib, bizdan birimizni xoqon qilib saylanglar, deb xalqqa mu-rojaat etishganda, ulaming istaklari rad etiladi. Natijada to'rt aka-uka begona elning ichiga ko'chib boradi. Begona elda ularni «do'rmon» deb atashadi.

Hofiz Tanish Buxoriy «Abdullanoma» asarida do'rmon urug'i ha-qida quyidagi ma'lumotni berib o'tadi: «Bu toifa ham Nurindan tarqalgandir. Shunday naql qiladilarki, bular aka-uka bo'lib, to'rt o'g'ildurlar. Ular o'zлари turgan joydan Chingizzxonning viloyatiga kirishni istaganlar va sol bog'lab unga o'tirganlar va uning viloyatiga kirganlar. Hikoya qiladilarki, do'rmon qavmi o'shalarning naslidandur va mo'g'ulcha «do'rmon» «to'rt» deganidir».

Har ikkala manbada ham do'rmon so'zi mo'g'ulcha «to'rt» degan ma'noni bildirishi ta'kidlangan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, to'rt aka-ukadan tarqalgan avlodlar do'rmonlar deb atala boshlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, do'rmonlar to'rt toifadan iborat bo'lib, 18 ta urug'ga bo'lingan.

Do'rmonlarning birinchi toifasi uchuri deb nomlangan. Bu toifa urug'lari: tibir, soltiq, qoratona, qunur, ola-toy, jomontoy, oxcha, uyli va boshqalar. Qiyonnoma toifasining urug'lari: qiyot, qabla, qutuchi, jertebar, to'qizalu, oq qo'yli.

Gurdak toifasining urug'lari: no'g'oy, qozoq, bo'rboy, usta. Sok-san toifasining urug'lari ma'lum emas. Shuningdek, do'rmonlarni yana uvoq, uch urug', ko'k chelak, yo'g'on, oy tamg'ali, qo'yli kabi bir qator urug'larga bo'linganligi ta'kidlangan. Yuqorida tilga olingen urug'lar-dan tashqari boshqa bir qator urug'lar ham borligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Uzun tumanidagi Serharakat qishlog'ida yashov-chi do'rmonlar tarkibida biz ko'rsatib o'tgan urug'lar bilan birgalikda bodroq, moyda-turk, ko'sakalas, chorchur, jumuq, moda, kal, og'oy, bo'rloq kabi urug'larni uchratish mumkin.

Do'rmon urug'inining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va davlat boshqaruvida nufuzi yuqori bo'lган. Masalan, Muhammad Shayboniy-xon davrida Qunduz shahrining hokimi do'rmon Urusbek bo'lганligi e'tirof etilgan. Do'rmon urug'i ashtarxoniyilar hukmronligi yillarda ham mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zining yuqori mavqeyini saqlab qolgan edilar. Shuningdek, Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayotida ham ular faol qatnashganlar.

### 3. Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o'lkamiz etnografiyasining o'r ganilishi

XVI–XVII asrlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topgandan so'ng Rossiya davlati bilan muntazam ravishda savdo va diplomatik munosabatlар o'rnatila boshlandi. XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyodan Rossiyaga sakkiz marta elchilar yuborilgan bo'lsa, XVII asrda Xiva xonligidan 12 marta, Buxorodan esa 13 marta elchilar jo'natilgan. Bunga javoban Rossiya davlati ham o'z elchilarini o'zbek xonliklariga yuboradi va ularga diplomatik vazifalardan tashqari, mazkur o'lkalar to'g'risida har xil ma'lumotlar to'plash ham topshiriladi.

O'zbek xalqi etnografiyasiga oid ilmiy ahamiyatga ega ma'lumotlar to'plash XIX asrdan boshlanadi. XIX asrning birinchi yarmida N.N. Muravyov, A.F. Negri, N.V. Xanikov, G.I. Damilevskiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbeklar etnografiyasini o'r ganishda muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. 1820-yili Buxoroga kelgan A.F. Negri boshchiligidagi diplomatik missiya qatnashchilaridan E.A. Eversman, X. Pander, P. Yakovlev, Budrin, polkovnik G. Meyendorflaming kitob va xotiralari nihoyatda boy tarixiy-  
etnografik ma'lumotlarga ega. G. Meyendorfsning turli tillarda nashr qilin-  
gan «Orenburgdan Buxoroga sayohat» nomli kitobida Buxoro xonligi-  
ning geografik o'mni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi, aholisi va  
mashg'ulotlari, qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, hunarmandchilik, ichki  
va tashqi savdo, oila va xotin-qizlarning turmushi haqida qimmatbaho  
ma'lumotlar keltirilgan. Muallif o'zining shaxsiy mushohadasi, kishilar-  
dan eshitgan va so'rab to'plagan materiallari bilan cheklanib qolmay, har  
xil tarixiy manba va adabiyotlardan ham foydalangan. Bu davrda O'rta  
Osiyo xalqlari to'g'risida to'plangan bilimlarni umumlashtirgan dastlabki  
ilmiy asarlar ham paydo bo'ladi. Chet el mualliflaridan biri, fors tilini  
yaxshi bilgan ingliz sayohatchisi Aleksandr Byoms Ost-Hind kompani-  
yasining maxfiy topshirig'i bilan 1831–1832-yillarda Buxoroga kelib,  
muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va etnografik materiallarni to'playdi.  
Byoms yozib qoldirgan sayohatnomada ko'chmanchi o'zbeklar haqida  
nihoyatda qiziqarli etnografik ma'lumotlar mavjud.

O'sha yillarda atoqli sharqshunos olim V.V. Grigoryev ham bir  
qancha asarlar yaratgan. U Rossiyada birinchi bo'lib sharq xalqlari ta-

rixi kursini o'qita boshlaydi. Uning 20 dan ortiq ilmiy ishlari orasida O'rta Osiyo xalqlariga, jumladan urug'-qabila tartiblarini saqlab qolgan o'zbeklarga tegishli asarlar ham mavjud. 1858-yilda polkovnik N.P. Ignatyev boshchiligidagi Xiva va Buxoroga yuborilgan yirik diplomatik missiya ham ancha samarali ishlar olib borgan edi. Missiya qatnashchilaridan N.G. Zalesov, M.N. Galkin, E.Y. Kileveyn, A.I. Butakov, P.I. Lerxlarning yozib qoldirgan sayohatnomalar va maqolalarida qimmatbaho etnografik ma'lumotlar keltiriladi.

O'rta Osiyo yurishlari davrida V.Radlov, A.Fedchenko, A.Kun, M. Middendorf kabi tadqiqotchilar samarali mehnat qildilar. Atoqli tilshunos va folklorshunos Vasiliy Vasilyevich Radlov O'rta Osiyo xalqlarining tili va etnografiyasi haqida ancha qimmatbaho materiallar to'plagan edi. U 1868-yilda Zarafshon vodiysi bo'ylab sayohat qilib, o'zining shaxsiy kuzatishlari va qisman mahalliy aholining hikoya qilib bergan ma'lumotlari asosida O'rta Zarafshon vodiysiga doir qiziqarli ocherklar yozdi. Bu asarlarda o'zbek, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa xalqlar to'g'risida tarixiy va etnografik ma'lumotlar berilgan. Ocherklarda sun'iy sug'orishni uyuştirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Muallif tomonidan shahar va qishloqlarning nomlari, aholining tiplari, kiyim va taomlari, xotin-qizlarning ahvoli, ichki hayot, raqslar hamda o'zbeklarning urug' toifalariga oid ma'lumotlar berilgan.

Yirik tadqiqotchilardan Aleksey Pavlovich Fedchenko ham o'zbek etnografiyasini o'rganishga o'z hissasini qo'shdi. U Moskva universitetida o'qib yurgan davridayoq ilmiy to'garaklarda faol ishtirok etib, tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining kotibi bo'lib ishlaydi. Universitetni tugatgach, ikki yil (1864–1866) davomida o'sha yerda tabiatshunoslikdan dars beradi. Zarafshon ekspeditsiyasi vaqtida keng tadqiqotlar o'tkazilib, har xil etnografik kolleksiyalar, hunarmandchilik mahsulotlari va asboblarini to'plagan va rasmlar albomini tuzgan. Shuningdek, uning «Qo'qon xonligida» degan asarida Qo'qon xonligi tarixi, geografiyasi, etnografiya va iqtisodiyotga oid ma'lumotlar berilganligini ko'rishimiz mumkin.

1872-yilda Moskvada O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarziga bag'ishlangan ko'rgazma ochiladi. Ko'rgazmada O'rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari, hunarmandchilik mahsulotlari va asboblari kabi eksponatlar qo'yildi. V.V. Stasov ko'rgazmaning Turkiston bo'limiga

yuksak baho berib, unda ko'rsatilgan predmetlar: gilam, kumush bezaklar, juda ko'p metall va sopoldan yasalgan buyumlar, gazlama, qutrol-aslaha va son-sanoqsiz maishiy buyumlar «o'zining rang-barangligi bilan kishiga badiiy lazzat baxsh etadi», deb yozgan edi.

Ko'rgazma munosabati bilan tayyorlangan Turkiston fotoalbomi katta ahamiyatga ega. U 1200 dan ortiq rasmni o'z ichiga qamrab olgan. Albom bir necha nusxdangina tuzilgan bo'lib, uning bir nusxasi hozir Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanmoqda va XIX asrdagi O'rta Osiyo xalqlarining tarixi va etnografiyasini o'rganishda noyob manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur to'plamda ishtirok etgan va keyinchalik bir qancha ilmiy ishlar yaratgan A.N. Xoroshxin ham o'zbek etnografiyasiga o'z hissasini qo'shdi. Nijneuralskda yoshlik davrini o'tkazib, qozoq va qalmiq tillarini to'liq egallagan A.N. Xoroshxin ofitser sifatida Buxoro (1868-yil) va Xiva (1873-yil) yurishlarida ishtirok qiladi. U o'z asarlarini shaxsiy t'uassurotlari, mahalliy aholi turmushini bevosita kuzatishi va yerli kis'nilardan olgan ma'lumotlari asosida yozgan. Uning «Zarafshon vodiysi» nomli ishi va bir qancha tarixiy-etnografik, o'zbek qabila va urug'-aymoqlariga tegishli turli xil etnografik ma'lumotlar mavjud.

A.Kun 1865-yilda Peterburg universitetining sharq tillari fakultetini tugatib, 1868-yili sharqshunos V.V. Grigoryevning tavsiyasi bilan etnografik va statistik tadqiqotlar o'tkazish, Rossiya ilmiy jamiyatlari uchun material va kolleksiyalar to'plash maqsadida Turkiston general-gubernatorining ixtiyoriga jo'natildi. U 1870-yilda Iskandarko'l ekspeditsiyasi hamda Xiva va Qo'qon yurishlarida ishtirok qilgan. Qo'qon yurishlaridan keyin Kun Turkiston o'lkasidagi maktablar bo'yicha bosh inspektor etib tayinlanadi va bu lavozimda 1882-yilgacha ishlaydi.

U ko'p yerlarga sayohat qildi va o'z zimmasiga yuklangan asosiy vazifani bajarish bilan birga mahalliy aholi haqida, ayniqsa, Xiva xonligi aholisi haqida etnografik ma'lumotlar to'playdi. A.Kun yozib qoldirgan ilmiy maqolalar hozirgacha o'z qiymatini yo'qotmadidi. Uning xonliklardan to'plagan davlat hujjatlari, noyob qo'lyozmalari va vaqflar musulmon ta'llimiga bag'ishlangan, O'rta Osiyo tarixiy yodgorliklariga oid va boshqa maqolalari o'zbek xalqi etnografiyasini va tarixini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. O'sha yili Buxoro xonligida N. Mayev boshchiligidagi o'tkazilgan ekspeditsiya ham ma'lum yutuqlarga

erishdi. Uning Buxoro xonligiga qilgan sayohati natijasida yozgan asari va boshqa ko'pgina maqolalarida muhim etnografik ma'lumotlar bor. N. Mayevning 1875 va 1878-yillarda o'tkazilgan Hisor ekspeditsiyasi natijasida yozilgan bir qancha ocherklarida Surxon vodiysi va Sherobod bekligida yashovchi o'zbeklarning qo'ng'irot, marqa, kichi, yuz, loqay, do'mron, qatag'on kabi urug'-aymoq va qabilalari to'g'risida, mahalliy aholining geografik joylashishi, xo'jalik turmushiga oid bir qancha ma'lumotlar mavjud.

Middendorf o'zining Shimoliy va Sharqi Sibirga qilgan safaridan keyin 1877-yili Farg'ona vodiysiga qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotini o'rghanish maqsadida ilmiy safarga keladi. Uning o'z zamondoshlari tomonidan yuksak bahoga tuyassar bo'lgan «Farg'ona vodiysi to'g'risidagi ocherklari»da bu boy o'lka faqat geografik va iqtisodiy tomonidan ta'riflanibgina qolmay, mahalliy Farg'ona aholisining antropologiya va etnografiyasiga oid muhim ma'lumotlar ham keltirilgan.

1879-yili Samara ekspeditsiyasi tarkibida rassom va arxeolog sifatida ishtirok qilgan N. Simakov niyoyatda qiziqarli materiallar to'plagan edi. Bu materiallar uning «O'rta Osiyoning san'ati» nomli albomida o'z aksini topdi. Mazkur asar, V. Stasov iborasi bilan aytganda, «Qadimgi O'rta Osiyo san'atining fors, arab, Vizantiya va boshqa san'atlarga qanday ta'sir qilganligi haqidagi» masalani hal qilishda dastlabki qadam edi.

Etnografik materiallarni keng ommaga yetkazish va ulami saqlab qolishda ilmiy jurnallar, statistik qo'mitalarning hamda «Turkestanskiye vedomosti» gazetasining xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish lozim. Mazkur davriy nashrlarda A. Kun, A. Divayev, A. Ostroumov, N. Likoshin, N. Gabin, A. Kushakevich, V. Razvadovskiy, A. Semyonov, N. Kirpichnikov, A. Kalmikov, F. Pospelov va boshqalarning asarlari tez-tez bosilib turgan.

O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbeklarning tarix va etnografiyasini o'rghanishda XIX asrda atoqli rus olimlarining tashabbusi bilan tashkil topgan ilmiy jamiyatlarining roli niyoyatda kattadir. Ular faqat ilmiy muammolarni hal qilibgina qolmay, balki Rossiya imperiyasining mustam-lakachilik siyosatini amalga oshirishga ham o'z hissasini qo'shganlar. Ilmiy jamiyatlar ro'yxatining o'ziyoq rus geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi, tibbiyot, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, Turkiston qishloq xo'jalik jamiyatni, O'rta Osiyo olimlar jamiyatni, rus texnika jami-

yatinning Turkiston bo'limi, Sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi, Turkiston tabiatshunoslari va vrachlari jamiyati, Turkiston tibbiyot jamiyati hamda Farg'ona va Samarqand vrachlari jamiyatları bu muassasalar ko'laming naqadar keng ekanligini ko'rsatib turibdi.

Turkiston ziyolilarining eng yaxshi vakillarini o'z saflarida birlash-tirgan bu jamiyatlarning a'zolari (ular ichida etnograflar va sharqshunoslari ko'p edi) yaratgan asarlar ko'pincha Rossiyaning ilg'or olimlari tomonidan yuksak baho olgan. Jamiyat a'zolarining ruscha-o'zbekcha lug'atlar tuzish, maktablar uchun mahalliy tillarda o'quv qo'llanmalari tayyorlash, o'zbek, tojik va qozoqlar tomonidan rus tilini va rus o'qituvchilari tomonidan mahalliy tillarni o'rganish uchun kechki kurslar tashkil etish, Toshkentda kutubxona va Sharq instituti ochilishiga erishish va boshqa masalalardagi dastlabki urinishlari jamiyatlarning g'oyat ilg'or faoliyatidan dalolat beradi.

O'sha davrdagi vaziyat ilmiy jamiyatlar va ayrim tadqiqotchilarning faoliyati uchun juda ham noqulay edi. Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zbeklar va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar tarixi va etnografiyasini muntazam va chuqur o'rganishni to'g'ri uyuştirishga imkon bermas edi. Ular asosan o'z ixtiyoridagi juda oz va tasodify yo'l bilan to'plangan mablag'lar bilangina ish olib borar edilar. Masalan, Sharqshunoslik jamiyati Toshkent bo'limi nomiga Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni yordamchisining yozgan maktubida: «Jamiyat Sharqni Sharq uchun va fan uchun emas, balki xalqlarni Rossiyaga qo'shish, zuslashtirish uchun o'rganishi kerak», deb qayd qilingan edi. Shuning uchun ham ilmiy jamiyatlarning bir qanchasi Turkiston mustamlaka ma'muriyati tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajarishga majbur edi.

Sharqshunoslik jamiyati Turkiston bo'limida O'rta Osiyo xalqlari o'tmishi va o'sha davrdagi turmushini ilmiy jihatdan o'rganish ko'pincha rus burjuaziyasining mustamlakachilik manfaatiga bo'ysundirilgan. Jamiyat o'lka uchun oliy sharqshunoslik ta'limi zarurligi to'g'risidagi masalani ko'tarib chiqqanda general-gubernatorning og'ir qo'li uning ishini bo'g'ib qo'ydi Shunday qilib, XIX asming ikkinchi yarmi – XX asming boshlarida o'zbeklarni va O'rta Osiyoning boshqa xalqlarini etnografik jihatdan o'rganishda fanga ancha hissa qo'shilgan edi. Mustamlakachilik siyosatiga amal qilib kelgan burjua fanining tor doiradagi ta'limoti va cheklangan imkoniyatlariga qaramay, o'sha davrdayoq Turkiston

o'lkasidagi elatlarning tarixi va etnografiyasiga oid boy ma'lumotlar va materiallar keyingi tadqiqotlar uchun muhim bir zamin bo'lgan edi.

1917-yildan keyin tadqiqotchilar, shu jumladan, etnograflar orasi-da tabaqlanish boshlandi, ya'ni ayrimlar yangi tuzum tarafdori bo'lsa, boshqalar sovetlarga qarshi tomonga o'tib ketdilar. Ammo ilg'or rus va chet el olimlarining fanga fidoyi qismi izlanishlarini davom ettirib, yosh etnograflami yetishtirishga o'z hissasini qo'shdilar. Masalan, etnograf va sharqshunoslardan N. Mallitskiy, M. Andreyev, A. Semyonov, A. Divayev kabilar 1920-yilda Turkistonda birinchi tashkil topgan O'rta Osiyo Davlat universitetida qolib, o'z ilmiy ishlarini davom ettirgan edilar.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, etnografik tadqiqotlarni o'tkazishda yosh Turkiston Respublikasining fan va maorif tashkilotlari ancha jonkuyarlik ko'rsatdilar. 1921-yilda mahalliy hokimiyat tomonidan yirik etnograf olimlardan tashkil topgan «Turkiston tub aholisining maishiyl turmushini o'rganish ilmiy komissiyasi» o'zbek etnografiyasi rivojida muhim bir bosqich bo'ldi. O'sha vaqtida ikkita ekspeditsiya tashkil qilindi: A. Divayev rahbarligidagi Sirdaryo va M. Andreyev boshchiligidagi Samarqand ekspeditsiyalari. Ular mahalliy etnoslar va etnik guruhlar (o'zbeklar, turkmanlar, arablar, lo'lilar) to'g'risida boy etnografik ma'lumotlarni to'pladilar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Nabiev A. Tarixiy o'lkashunoslik. – T., 1996.
2. Ochiladiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. – T.: Universitet, 2008.
3. Shoniyo佐 K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –T.: Sharq, 2001.
4. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Т.: Наука, 1964.
5. Kabirov A., Sagdullayev A.S. O'rta Osiyo arxeologiyasi. –T., 1990.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T., 1994.
2. Jabborov I.M. Jahon xalqlari etnografiyasi. – T., 1985.
3. Norboyev N. O'zbek elining qabila va urug'lari haqida. – T., 1997.
4. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – T.: Fan, 1968.

### **Internet manbalar**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru).
2. [www.natura.com](http://www.natura.com).
3. [www.archeology.ru](http://www.archeology.ru).
4. [www.archeology.com](http://www.archeology.com).

## Nazorat savollari

1. O'lkamiz tarixini o'rganishda etnografiyaning qanday o'mni bor?
2. Dastlabki etnografik ma'lumotlar qaysi davrda paydo bo'lgan?
3. O'lkamiz tarixini o'rganishda nimalar muhim manba bo'lgan?
4. O'rta asrlarda yaratilgan manbalarda etnografik ma'lumotlarga qanday o'rinni ajratilgan?
5. Rossiya imperiyasi tadqiqotchilarining o'lka tarixiga oid etnografik ma'lumotlari nimalardan iborat?

## Test savollari

1. «Do'rraon» so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni bildiradi?
  - A. Mo'g'ul tilidan olingan bo'lib, to'rt degan ma'noni bildiradi
  - B. Xitoy tilidan olingan bo'lib, yetti degan ma'noni bildiradi
  - C. Arab tilidan olingan bo'lib, to'rt degan ma'noni bildiradi
  - D. So'g'd tilidan olingan bo'lib, besh degan ma'noni bildiradi
2. Turkiy urug'larni o'rgangan sharqshunos N. Xanikov ularni nechtaga ajratgan?
  - A. 96 ta urug'-qavmga
  - B. 32 ta urug'-qavmga
  - C. 91 ta urug'-qavmga
  - D. 90 ta urug'-qavmga
3. O'zbek xalq etnografiyasini ilmiy jihatdan o'rganish va unga oid ma'lumotlarni toplash qachondan boshlangan?
  - A. XIX asrning 1-yarmidan
  - B. XX asrning 2-yarmidan
  - C. XIX asrning 2-yarmidan
  - D. XX asrning 1-yarmidan
4. Dastlabki etnografik ma'lumotlar qachon paydo bo'lgan?
  - A. Mezolit davrida
  - B. Paleolit davrida
  - C. Neolit davrida
  - D. Bronza davrida
5. G. Meyendorfning O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid yozgan asari qanday nomlagan?
  - A. «Orenburgdan Buxoroga sayohat»
  - B. «Orenburgdan Xorazmga sayohat»
  - C. «Orenburgdan Samarqandga sayohat»
  - D. «Orenburgdan Xivaga sayohat»

---

## **VI BOB. TOPONIMIKA O'LKA TARIXINI O'RGANISHDA ASOSIY MANBALARDAN BIRI SIFATIDA**

**Reja:**

1. Toponimika tushunchasi va uning maqsadi.
2. Toponimik tadqiqotlar tarixi.
3. Toponimikaga oid asosiy ilmiy terminlar va ularning mazmuni.

**Tayanch iboralar:** toponimika, topomin, antrotponimika, gidronimika, oykonomika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, paronimlar, teonimlar, zoonimlar, religionimlar, meronimlar, xronimlar.

### **1. Toponimika tushunchasi va uning maqsadi**

1917-yilga qadar toponimika mustaqil fan sifatida o'rganilmay, uning vazifasini tarixiy geografiya fani bajarib kelardi. Toponimika geografiya, tarix, etnografiya, tarixiy o'lkashunoslik fanlari bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimlar til tarixini tadqiq etishda, xalqlarning tarixiy o'tmish xususiyatlarini o'rganishda, ularning joylashish chegaralarini belgilashda, tillarning o'tmishtagi tarqalish hududlarini tadqiq qilishda, madaniy markazlar, savdo yo'llari va shahar, qishloq geografiyasini tavsiflashda muhim hisoblanadi.

Tarix, geografiya, tilshunoslik, o'lkashunoslik, etnografiya kabi ko'plab fanlarni o'rganishda toponimikaning o'mi muhim. U fan sifatida birmuncha kechroq shakllangan bo'lishiga qaramay, o'lkamiz tarixini o'rganishda muhim sanaladi. Toponimikani bilmay turib geografik joy nomlarini birlaridan farqlash qiyin. Tabiiyki, har bir turkum (shahar, qishloq, tog', cho'l, va h.k.) tushunchalar biror nom ostida shakllangan. Shu boisdan insoniyat shakllanibdiki, ularni biron bir nomlar bilan ataydi. Natijada jamiyat tarixida millionlab nomlar paydo bo'ldi va ularning o'ziga xos ma'no-

mazmunlari shakllandı. Aynan o'sha ma'no-mazmun bir qancha fanlarni o'rganishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Buni chuqur anglagan tadqiqotchilar joy nomlarini tarixiy, lingvistik, ya'ni etimologik jihatdan tahlil qilar ekan, o'sha toponim mazmunan joylashgan nuqtasining tabiiy geografik sharoitiga naqadar mos tushish yoki tushmasligiga e'tibor qaratadilar. Chunki joy nomlari o'sha hududning o'ziga xos xususiyatlarini aniq ifodalab turadi. Masalan, Nurota tog'lari yonbag'irlarida joylashgan Temir Qobiq, Temirkon, Zarmitan, Zarband qishloqlari o'mida qadimdanoq temir yoki oltin qazib olingan, joyning bu xil nomlanishi zamonomizda ushbu hududlar bo'yab yirik konlarning ochilishga sababchi bo'lgan bo'lsa kerak.

Toponimika fani garchand mustaqil ravishda shakllangan bo'lsa-da, u rivojlanish bosqichida qator fanlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan va bu jarayon hamon davom etib kelmoqda. Chunki toponimlarni bir qancha fanlar o'z nuqtayi nazaridan turib o'rganadilar. Filologlar toponimlarning kelib chiqishi (etimologiyasi), shuningdek, lingvistik birlik sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgangan. Toponimlar o'tmishning «guvohlari» sifatida tarixchilarning diqqatlarini jalb qildi, etnograflar esa toponimlarning turli urf-odatlari, aholining yashash tarzi bilan o'zaro aloqada shakllanish xususiyatlarini tadqiq etadilar. Geograflar toponimikani fanlarning bo'linmas tarmog'i sifatida biladilar. Chunki toponimik atamalarning geografik tarqalishi, ushbu fanni tadqiq etishda o'ziga xos uslub tarzida ishtirok etadi. Zero, joy nomlari ko'pgina holatlarda o'rganilayotgan hududning geografik sharoitidan xabar berib turadi.

Toponimika geografik nomlar, kishi ismlarini o'rganadigan fan sifatida maydonga keldi. Toponimika atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «topos» – joy, «onom» – nom, umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qa'rida o'rganilayotgan nomlar, insonlarga qo'yiladigan ismlar toponimikaning manbasi hisoblanadi. Toponimika ikki obyektdan: mikro va makro toponimlardan iborat bo'lib, mikrotoponimika – grammatik jihatdan mayda obyektlarni – turdosh otlarni, makrotoponimika esa atoqli otlar, ya'ni yirik obyektlarning nomlarini tadqiq qiladi.

Joy nomlari insoniyat tarixi va hayotida alohida o'ringa ega. Ular-siz kishilar qayerga borishini ham bilmasdilar. Shuning uchun qadimgi

joy nomlariga maxsus, alohida to‘xtalish hollari bo‘lmasa hamki yozilgan ilmiy-amaliy qiymatga ega bo‘lgan asarlarda u yoki bu darajada to‘xtalgaligini tarixiy va geografik asarlardan bilishimiz mumkin. Atrofimizdagi turli-tuman joylarni ularga berilgan nomlar asosidagina tu-shunamiz, anglaymiz va eslab qolamiz, chunki toponimlar (joy nomlari) o‘ziga xos tarix, o‘ziga xos xotira hamda o‘ziga xos madaniy-ma’naviy yodgorliklardan biri sanaladi. Shuning uchun ham joy nomlari davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi qator rasmiy hujjatlarda qayd qilin-gan.

O‘zbekiston toponimikasi fani asrimizning 30-yillaridan boshlab rivojlangan. Uning rivojlanishiga toponimist olim H. Hasanovning xizmatlari katta. Vatanimiz joy nomlariga oid toponimik ma’lumotlar esa tarixiy ilmiy kitoblardan qadim-qadimdan beri naql qilinib kelmoqda. Shu sababli joy nomlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida ancha qadimiylar bo‘lgan qo‘lyozma manbalaridagi materiallar ham e’tiborga olinmoqda. Bu holni hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aniq ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston toponimikasi fani aynan Vatanimiz hududidagi joy nomlarini yig‘ish, to‘plash, ma’lum bir ilmiy-nazariy tizimga solish bilan birga, ularni har tomonlama izohlashga ham harakat qiladi. Mamlakatimiz hududida Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Naman-gan, Andijon, Farg‘ona viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi joylashgan. Yuqorida sanab o‘tilgan shahar va viloyatlar toponimikaga ma’lumotlarni yig‘ib beradi.

Har bir hudud uchun toponimik qonuniyatlar takrorlanmas ko‘rinishli holatga egaligini V. Juchkevich ham o‘z monografiyasida alohida qayd qilib o‘tganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, har bir viloyat, shahar, voxa, tuman o‘ziga xos topominlariga ega. ularni o‘rganish va ular to‘g‘risida maxsus maqola, monografiyalar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zatur. Chunki vaqt o‘tishi bilan joy nomlari unutilib borishi yohud ba’zi sabablarga ko‘ra zamonaviylashtirilishi ham mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa joy nomlarini, xoh u makrotoponim bo‘lsin, xoh mikrotoponim bo‘lsin, tadqiq etish zarur hisoblanadi.

Ma'lum mintaqa toponimikasini o'rganish ma'lumot toplashdan boshlanadi. Bu ish, odatda, o'lkashunoslik bo'yicha tadqiqot olib borilayotgan mikrotuman, qishloq, ovul, mahalla hududlarida, keyinchalik tuman, viloyat va respublika miqyosida amalga oshiriladi. Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval ma'lumotlarni qanday va qayerlardan toplash hamda kimlar bilan qanday mavzuda suhbatlar o'tkazishning, hech bo'lmaganda taxminan ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Mana shu reja va dastur asosida puxta tayyorgarlik ishlari olib boriladi, so'ngra dala tadqiqot ishlariga o'quvchi va talabalar jalg qilinadi. Dalada tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan eshitgan hikoya, afsona va o'tmish haqidagi suhbatlarni hamda boshqa materiallarni muntazam yozib boriladigan maxsus kundalik bo'lishi shart.

Shundan so'ng surishtirish va suhbat natijasida olingan ma'lumotlarni tadqiq qilishda toponimik toifalar bo'yicha maxsus kartotekalar tuziladi. Keyin shu asosda lug'atlar yaratiladi. Keyinchalik tadqiqotchilarning fikrini hisobga olgan holda bir tipdag'i ommaviy toponimlarni sinchiklab o'rganish katta ahamiyatga ega. Tadqiq qilingan va to'plangan toponimik ma'lumotlar o'lkashunoslik muzevida, shuningdek, bu ma'lumotlar maxsus kutubxonalaridagi alohida bo'limlarda saqlanadi. Toponimik ma'lumotlar toplash ko'pincha shu o'lka tarixini o'rganish ishi bilan parallel holda olib boriladi.

## 2. Toponimik tadqiqotlar tarixi

O'lkamizning qadimgi davr toponimikasini o'rganishda yunon, rim, xitoy, arab va mahalliy tadqiqotchilarning ma'lumotlari muhim sanaladi. Gerodot (eramizdan avvalgi IV asr), Aristotel, Arrian, Kursiy Ruf (miloddan avvalgi II asrlar), Klavdiy Ptolemey (II asr) kabi olimlar Amudaryoni – Oks, Sirdaryoni – Yaksart, Zarafshon daryosini Politimet, Pomir tog'ini Komed, Samarqand shahrini Marakanda tarzida ataganlar. Arrian Nautaka – «So'g'diyilar yeri», deb e'tirof etadi. Aslida Nautaka shahri so'g'diy tilida «yangi joy» mazmunini beradi. Bu viloyat Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', G'uzor vohalarini o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi 138–126-yillari xitoylik sayyoh Chjan Syan va Syuan Szan (16 yil davomida) eramizning 629-yillari butun O'ita

Osiyon kezib chiqib ko'plab toponimik atamalarni yozma tarzda qayd etadi. Bu mualliflar tomonidan ayrim mahalliy atamalarning xitoy tili transkripsiyasida aks etganligini ko'ramiz (masalan, Tyanshan – tyan – «osmon», shan – «tog»). Aslida uning nomi turkiy tilda Xontangri, Tangritog' bo'lib, xitoyliklar uni Tyanshan deb atay boshlaydilar. Xitoy manbalarida Farg'ona Davan deb atalsa-da, uning etimologik mazmuni ochiq-oydin yozilmagan. Ammo ilk o'rta asrlarga xos Xitoy adabiyotlarda Poxan, Feyxan tarzida ifoda etilgani ma'lum.

Shu tariqa o'rta asrlarda arab yozuvchilari, geograf va tarixchilari Mas'udiy, Istaxriy, Ibn Battuta, Yoqut Hamaviy, Ibn Hurdodbeh, Ibn Havqal, Qazviniy kabi sayyoh olimlarning O'rta Osiyo haqida yozgan kitoblarida qator toponimlarning arabcha transkripsiyada uchrashini yoki aynan arabcha o'zakdan iborat bo'lgan toponimlarning shakllanishini ko'ramiz. Masalan, Hisor (qo'rg'on), Vobkent, Bobkent («bob» – darvoza, «kent» – shahar mazmunida yoki Pop, Bob – darvoza tarzida uchratamiz). O'rta asrlarda mahalliy aholining ilmga bo'lgan rag'batisi yanada oshishi tufayli Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi ko'plab yirik qomusiy bilim sohiblari yetishib chiqdi.

Ulardan ayrimlarining asarlari aynan toponimika fanining rivojlanishi uchun muhim manbadir. Jumladan, Ibn Ja'far Narshaxiy (X asr) ning «Buxoro tarixi» kitobi shular jumlasidandir. Olim o'sha davrlarda Buxoro atroflarida mavjud bo'lgan shaharlarni eslash bilan bir qatorda ularning atama tarziga kirish sabablarini ham yoritib beradi. Jumladan, Xamuket – Xamuk katta yer egasi, buxorolik dehqonning nomi edi. Aslida buxoroliklar «Xamuk» deb gavhami, kent deb esa shaharni ataydilar. Demak, Xamuket – gavhar shahar yoki shaharlarning gavhari demakdir.

*Tavois* – bu Buxoro viloyatlardan biri bo'lib, asli nomi Arkuddir. Uning odamlari boy, har bir xonadonda tovus qushi saqlanadi. Arablar Buxoroga kelmaslaridan oldin tovusni ko'rmagan edilar, shu boisdan u qishloqni Arkud deb atashga qiynalib, «Zot ut-tavois» – «Tovuslar egasi» deb ataganlar. Uning asli nomi shu tariqa unutildi, keyinroq «zot» so'zini tashlab «tavois» deb qo'ya qolganlar.

Al-Xorazmiy, Jayhoniy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Bobur asarlarida ko'plab toponimlar qayd etilgan. Bu asarlarning mualliflari ham joy nomlarining mazmuniga katta

e'tibor bilan qaraganlar. XI asrda yashagan mashhur olim Yusuf Xos Hojib o'n sakkiz oy davomida yirik doston tarzidagi tarixiy asar yaratdi. Uning nomi «Qutadg'u bilig» bo'lib, bu kitob toponimik ma'lumotlarga boyligi bilan ham qimmatlidir. Mahmud Koshg'ariy toponimikasining qiymati nafaqat qadimiyligi, balki etimologiyasi, noma'lum joy nomlari mazmunini aniq ochib berishi bilan yanada oshadi.

Abu Rayhon Beruniy nafaqat geografiya, geologiya, tibbiyat, falsafa, matematika kabi o'nlab fanlar, balki toponimika sohasida ham ajoyib kuzatishlar olib borgan. Uning «Hindiston» asarida toponimika qonuniyatlar bayon etilgan bo'lib, «yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib, o'z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari tufayli bularning ma'nosini o'zgarib ketgan», deydi. Mana bu jumlalar nihoyatda ahamiyatlidir. «Tosh» so'zi (asl) turkiycha ism bo'lib, «shosh» ko'rinishini olgan. Toshkand «toshli qishloq» demakdir. Ptolemyning «Jug'rofiya» kitobida u Burj al-Xitora (tosh qal'a) deb nomlangan», deydi olim. Ko'rinish turibdiki, Beruniy joy nomlarining tarixi va to'g'ri yozilishiga astoydil qiziqqan.

Jumladan, Mo'lton shahri nomiga tarixiy manbalardan olib, quydagicha izoh bergen: «Mo'ltonning (asl) nomi Koshyakura edi, keyin Xajapura, keyin Baganura, keyin Saibxanura va Mo'lastxona, ya'ni «Asl joy» deb nomlandi. Bunda, mo'l – «asl», tona – «joy» demakdir. Beruniyning aniqlashicha, ayrim joylar o'sha yerda uchramaydigan buyumlar nomi bilan atalgan. Masalan, Hind okeanidagi Yoqut orolida yoqut mutlaqo yo'q. U yerdagi kishilarning go'zal fazilatlari, husni tufayligina orolning nomi Yoqut bo'lib qolgan.

Bobur toponimika fanining rivojlanishi uchun muhim tadqiqotlar qilgan qomusiy bilimlar egasidir. Uning «Boburnoma» asarida O'rta Osiyo xalqlari ishlatgan geografik terminlar va ularga berilgan izohlar bilan boydir. Jumladan, «jilg'a» kichik soy, «nayshakar» shakarqamish, «tangi» dara, tog' oralig'idagi yo'l, «uchma» chuqur jar yoqasi, «ulang» o'tloq, yer, keng maydon degan ma'nolarni bildiradi. «Boburnoma»da XVI asr boshidagi joy nomlari o'sha vaqtlardagi holatida va transkriptiyada berilgan. Shu boisdan ularning ko'pchiligi zamonamizda ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan uchraydi. Masalan, Samarqand viloyati Ishtixon tuman hududidagi Chaqar qishlog'ida chokar so'zining o'zgargani, ya'ni «o» tovushlarining «a» tarziga kirganligini ko'ramiz. Bu so'zning

Choqar tarzidagi ko‘rinishi esa askar, harbiy kishi mazmunini ham beradi. «Ulang» so‘zi olang shaklida ishlataliladi.

O‘zbekistonda toponimika fanining yirik vakillaridan biri Suyun Qorayev o‘zbek toponimika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Qorayev asarlaridan lingvistik, kartografik, tarixiy va etnografik ma’lumotlar yaratilgan bo‘lib, «Toponimika», «Geografik nomlar ma’nosi», «Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?» va «O‘zbekiston viloyatlari toponimlari» risolalari o‘zining joy nomlari, uning talqini, izohi va etimologiyasini atroflicha bayon etilishi bilan ajralib turadi. S. Qorayev asarlarining aksariyati oddiy, sodda tilda, ayni paytda ommabop tarzda yozilgan. Olimning hamma asarlarida oykonim, etnooykonim, antropooykonim, fitooykonim, zoonim, gidoronim, oronim, geomorfologik, agronim va boshqa turdagи joy nomlari keng o‘rin olgan.

Geologiya, mineralogiya fanlari doktori R. Musin va H. Rahmatullayev O‘rta Osiyodagi foydali qazilma boyliklarining geografik tarqalishini joy nomlarining mazmun-mohiyatiga ko‘ra qidirish borasida qiziqarli tadqiqotlar olib bordilar. Shu bilan geologik qidiruv ishlarida toponimikaning rolini yanada oshirishga muvaffaq bo‘ldilar.

T.Nafasov toponimika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning «Janubiy O‘zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi», «Qishlog‘ingiz nega shunday atalgan?» asarlari toponimika fanining yangi qirralarini ochib berdi. Ayniqsa, bu tadqiqotlar oykonimika ilmida yaratilgan dastlabki tadqiqot hisoblanadi. T. Nafasovning «Janubiy O‘zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» nomli monografiyasida mamlakatimiz janubidagi joy nomlarining etnolingvistik tahlili berilgan.

Geografiya yo‘nalishida olib borilgan toponimik tadqiqotlar mahalliy kadrlar tomonidan o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu borada H. Hasanovning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Uning «Geografik nomlar imlosi», «O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan», «Yer tili», «Geografik nomlar siri» asarlari shular jumlasidandir. Keyingi vaqtarda toponimika fani geograf olimlar tomonidan yanada katta ishtiyoq bilan tadqiq etilmoqda.

H. Hasanovning toponimikaga bag‘ishlangan asarlaridan biri 1977-yilda chop etilgan «Yer tili» risolasidir. Olimning bu kitobi ikki

qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi yer yuzidagi joy nomlarining turlari, shakllanishi va geografik nomlarning mактабда о‘рганишими о‘зичига олди. Risolaning ikkinchi qismida ayrim nomlarning etimologiyasi, ya’ni lug‘aviy ma’nolariga izoh berilgan. Bu risola o‘qituvchilar, talabalar, o‘quvchilar va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Ayni paytda risolada joy nomlarining klassifikatsiyasi berilib, ularning har biriga qisqacha izoh ham berilgan. Risolada O‘rta Osiyodagi geografik nomlar va ularning etimologiyasi-semantikasiga alohida e’tibor berilgan. H. Hasanov toponimikaga bag‘ishlangan o‘nlab maqolalarni chop ettirgan. Olimning «O‘rta osiyolik geograf va sayyohlar» (1964) va «Sayyoh olimlar» (1981) kabi risolalarning chop etilishi O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatini, tarixini o‘рганишда muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur risolada O‘rta Osiyodan yetishib chiqib fanimiz, madaniyatimiz tarixiga buyuk hissa qo‘sghan qirqqa yaqin olimning hayoti, ilmiy merosi, ularning joy nomlari, toponimika faniga qo‘sghan hissalari haqidada ancha keng ma’lumot berilgan.

L. Karimovning «O‘zbek tilidagi toponimlarning o‘рганишши» nomli monografiyasida joy nomlarining o‘рганиш metodlari, ularning lingvistik xususiyatlari, semantik tasnifi, etimologik tahlili kabi ilmiy ahamiyatga ega muammolar shimoliy o‘zbek shevalaridagi toponimlar misolida bayon qilingan. Z. Dusimov «Xorazm toponimlari» deb nomlangan monografiyasida Xorazm hududi joy nomlariga xos xususiyatlар bayon qilingan. N. Oxunovning «Til va joy nomlari», «Antropoponimlar nima?» deb nomlangan kitoblarida toponimkaga oid nazariy masalalar bo‘lgan joy nomlari, antropoponimlar va toponimlarning nomlanish xususiyatlari kabi masalalar atroficha yoritilgan.

O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda toponimlarni o‘рганиш uzoq tarixga ega. O‘zbekiston toponimikasini o‘рганишда mashhur rus sharqshunos olimlari hamda tarixchilari: V. Vyatkin, N. Sikyakovskiy, L. Sobolev, V. Bartold, S.P. Tolstov, P. Ivanov, M. Masson, O. Suxareva va boshqalar bu sohada juda katta ishlarni amalga oshirdilar. Respublikamizdagi joy nomlarining kelib chiqish tarixini hamda geografik atamalarni o‘рганишда Y.G. ulomov, R. Nabihev, A. Muhammadjonov, F. Abdullayev, S. Ibrohimovlarning ham hissasi kattadir.

### **3. Toponimikaning asosiy bo‘limlari va ularning mazmuni**

Turli xil geografik obyektlarni atovchi nomlarning kategoriyalariga muvofiq ravishda toponimika quyidagi bo‘limlarga ajratiladi:

**Gidronimika** – suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko‘l kabilarning nomlarini o‘rganuvchi soha. Masalan: Girdob, Bo‘g’oz, Sayhun, Jayhun, Zamzam, Kavsar, Atil, Murg‘ob, Nahr, Hazar, Oks, Talas, Inba.

**Aykonomika** – aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko‘cha, ovul, qo‘rg‘on nomlarini o‘rganuvchi soha.

**Oronimika** – yer yuzasining relyef shakllari: tog‘, cho‘qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini tekshiradigan soha. Masalan: Hisor, Hisorak, Ko‘hitang, Himolay, Bobotog‘, Boysuntog‘.

**Urbanonimika** – shahar ichidagi har qanday obyektlarni o‘rganuvchi soha.

**Etnonimlar** – Vaxtamg‘ali, Achamayli, Do‘rmon, Qo‘ng‘irot, Barlos, Qovchin, Qiyot, Tung‘iz, O‘g‘iz, Sak, Massaget, Mang‘it, Minjir, Nayman, Arab va boshqalar.

**Antroponimlar** – Abu, Ibn, Odamato, Momohavo, Luqmon, To‘maris, Shiroq, Chingizzon, Temurxon, Komil, Jaloliddin, O‘g‘izzon.

**Patronimlar** – Qoraxoniylar, Somoniylar, Ahamoniylar, Abbosiylar, Jadidchilar, Pahlaviylar, Naqshbandiylar, Saidlar, Saljuqiylar, Shayboniylar, Xorazmiylar, Ashtarxoniyalar.

**Teonimlar** – Alloh, Tangri, Xudo, Yazdon, Kavsar, Arsh, Behisht.

**Zoonimlar** – Bug‘ro, Duldul, Duno, Luk, Nor, Dunan, G‘unan.

**Kosmonimlar** – Zuhal, Zuhra, Kayvon, Suhayl, Hulkar, Tarozi.

**Religionimlar** – Rohib, Avliyo, Abdol, Anbiyo, Kohin, Hizr.

**Metronimlar** – ar, arshin, botmon, chorak, nimcha, nimchorak, gaz, tanob, misqol, sarjin, qarich, farsah, mil.

**Xronimlar** – Abbosiylar besh asr hukmronlik qilgan, ya’ni 749–1258-yillar, shulardan Xalifa Al-Mansur – 754–775, Mahdiy – 775–785, Xorun ar-Rashid – 786–809 va hokazolar.

*Paraonimlar* – tashkilot, idora, muassasalarining nomlari.

*Abbreviatsiya* – toponimlarning qisqartirilgan holda, bosh harflarining yoki dastlabki bo‘g‘inlami ajratib olgan holda yozilgan shakli: uzr, aksh va boshqalar.

*Agroonim* (yunoncha «agros» – dala, ekinzor, shudgor demakdir) – bog‘, xiyobon, tomorqa, dala va boshqalar nomi.

*Antonim nomlar* – mazmuni bir-biriga teskari bo‘lgan nomlar: Yuqori Chirchiq – Quyi Chirchiq, Oqdaryo – Qoradaryo, Oqtosh – Qoratosh va boshqalar.

*Antroponim* (yunoncha «antropos» – odam) – kishilarga qo‘yiladigan atoqli ot. ularning ismi, otasining ismi, taxallusi yoki laqabi bilan atalgan nomlar.

*Arealli nomlar* (yunoncha «areal» – maydon, hudud) – bir xil mazmun beruvchi yoki ayrim qo‘shimchalar tez-tez takrorlanib toponim yasaydigan so‘zlarning ma’lum hududda ko‘plab uchrashi yoki ma’lum bir hudud arealida keng tarqalgan, o‘ziga xos ko‘rinishdagi toponimlar. Toshkent, Piskent, G‘azalkent, Chimkent kabi atamalarda «kent» qo‘shimchasining takror ishlatalishi tufayli arealli nomlar vujudga keladi.

*Birlamchi va ikkilamchi nomlar:* birlamchi nomlar – asl nomlar, ikkilamchi nomlar – nom qo‘shilishidan hosil bo‘lgan toponimlar. Masalan, Zarafshon daryosi – Zarafshon shahri. Bu yerdagi toponimik atama daryo nomidan shaharga ko‘chgan.

*Droznonim* (yunoncha «dramas» – chopish, harakat, yo‘l) – ko‘cha, yo‘llar nomini anglatuvchi toponimlar: Xon yo‘li, Buyuk ipak yo‘li, Amir Temur ko‘chasi kabi.

*Etnotonim* (yunoncha «ethnos» – xalq, elat demak) – xalqlar, elatlar, millatlar nomlari bilan ataladigan toponimlar.

*Gidronim* (yunoncha «hydro» – suv, «onim» – nom, ism) – har qanday suv obyektiga berilgan nomlarni anglatadi va ularni ayrim turlarga ajratib o‘rganish mumkin: *potamonim* – daryolar, soylar, irmoqlar; *pelagonim* – okean, dengiz, ko‘rfazlar nomi; *limnonim* – ko‘llar, quduq, hovuzlarning nomlari.

*Makrotonim* (yunoncha «makro» – yirik) – yirik geografik nomlarning atoqli oti. Masalan: Hind okeani, Pomir tog‘i misolida.

*Memorial nomlar* – mashhur shaxslar, buyuk voqealar sharafiga qo‘yilgan nomlar. Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni va boshqalar.

*Mikrotoponim* (yunoncha «mikro» – kichik, «topos» – joy) – mahalliy aholigagina ma’lum bo‘lgan kichik geografik obyektlar nomi. Jarlar, quduq, ariqlar, mahalla, guzar va boshqa geografik nuqtalarning nomlari.

*Oykonim* (yunoncha «oikos» – uy, turar joy, makon) – shahar, qishloq, mahalla kabi aholi turar joylarining atoqli oti.

*Speleonim* (yunoncha «speleon» – g‘or, ungur) – g‘or, ungur, yerosti karst hosilalarining barcha turiga qo‘yilgan nomlar. Hazrati Dovud g‘ori, Zipdanak karst qudug‘i va h.k.

*Zoonimlar*. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonda yovvoyi va uy hayvonlari, shuningdek, parrandalar nomi bilan ataladigan joy, geografik nomlar ham uchraydi. Ular toponimika fanida zoonimlar deb ataladi.

Ba’zi joylar ana shu hayvonlar nomi bilan ataladi. Arxarli, Mingar-xar, Qoplonqiz, Jayronquduq, Duldulotlagan va boshqalar. Hazorasp, Baliqko‘l, Otbosar, Otchopar, Tuyamo‘yin, Tuyabo‘g‘iz, Toytuyuq, Murg‘ob, Murg‘obak, Moybaliq, Olabuloq, Olamushuk. Ustyurtdagi yassi tepalik Qorabovur deyiladi. Bu qush O‘rta Osiyoda, Hindistonda, Afrikada ham yashaydi. Uning turlari ko‘p. O‘rta Osiyoda Qorabovur va Oqbovur turi keng tarqalgan.

*Oykonim*. Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhnini tashkil etadi. Yuqorida qayd etilganidek, aholi mavzelari va uning bo‘linishlari qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar, ko‘cha nomlari oykonimlar deb yuritiladi. Oykonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish mumkinki, hudud tarixiga oid ba’zi ma’lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o‘tmishdagi etnik tarkibi qaysi urug‘, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti, qanday kasb-hunar bilan shug‘ullanganligi, shuningdek, joyning biron bir kishiga qarashliliginini ifodalovchi oykonimlar fikrimiz dalilidir.

Bundan farqli ravishda toponimlarning boshqa turlarida, chunonchi, gidronim va oronimlarda etnik nomlardan, kishi nomlaridan yasalgan toponimlar kam uchraydi. Oykonimlar ba’zilarining nomi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Bu hodisa aholi mavzelari jamiyatning ijtimoiy-siyo-

siy, iqtisodiy, madaniy hayot, turmush darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy o'zgarishlar ko'proq oykonimlarda aks etadi. Keyingi davrda bir qator qishloq nomlari yangi nomlar bilan almashindi. Xususan, ilgari Yalang'och, Kalamush, Mozorqishloq, Mozorbobo, Kallakesar, Olabaytal, Makyon, Kumoxta, Janjal, Qirqiboldi, Tashat deb atalgan qishloqlar hozirda Bo'ston, Guliston, Paxtaobod, Doimobod, Kengash, Dehqonobod, Mirzaobod, Oqoltin kabi nomlar bilan yuritilmoqda.

Oykonimlarga xos xususiyat sifatida yana aholi yashaydigan joy nomlarining gidronimlar (suv bilan bog'liq nomlari) bilan atalishini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu hol suv manbalarining inson hayotida qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyatga molik bo'lganligi bilan izohlanadi. Chunonchi, Toshariq, Achchiqko'l, Damachi, Achchi, Sho'rsuv, Qaynarbuloq, Oydinko'l, Moxonko'l, Qorasuv, Toshbuloq, Oqbuloq, Baliqko'l, Darvozako'l, Damariq, Bo'zsuv, Bo'zariq, Xo'jaariq, Moyariq, Zol (Zax)ariq nomi bilan ataluvchi qishloqlar shular jumlasidandir.

*Gidronim.* Tarixiy manbalarda «Zarafshon» nomi XVIII asming boshlaridan boshlab tilga olinadi, biroq bu daryo va uning vodiysi to'g'risidagi yozma ma'lumotlar juda qadim zamonlarga oiddir. Dastavval yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, «Politimet» nomi bilan antik davri mualliflari Kvint Kursiy Ruf va Strabonlarning asarlarida tilga olinadi. «Politimet» Zarafshon daryosining qadimgi nomi emas, balki u yunonlar tomonidan berilgan nomdir. Masalan, Strabon «So'g'ddan o'tadigan daryoni Aristotel Politimet deb ataydi. Boshqa ko'pgina nomlarni o'zgartirib, yangi qo'yilganlaridek, makedoniyaliklar ham shu nomni bergen edilar», – deydi. «Politimet» so'zi qadimgi yunon tilida «Hurmatli, ulug', azim» ma'nosini anglatadi.

Xitoy manbalarida Zarafshon daryosi «Nomi» nomi bilan qayd etiladi. Tomashiekning fikriga ko'ra, daryoning qadimgi nomi «Nomiq» bo'lgan. Xitoy manbalarida «Nomi» deb atalgan joy ostida ko'proq Sirdaryoning yuqori oqimi tushunilib, Zarafshon uning irmog'i deb hisoblangan. Abul Hasan Nishopuriyning «Xazayina al-ulum» asariga asoslangan Narshaxiy Zarafshon qadimda «Mosaf» yoki «Mosif» deb ham atalganligini ta'kidlaydi. Qadimgi davr yozma manbalariga

nisbatan o'rta asr arab geograflari asarlarida Zarafshon to'g'risida birmuncha to'liq va aniq ma'lumotlar berilgan.

Ularning asarlarida daryo «Vodiy us-So'g'd» va «Nahr us-So'g'd» nomi bilan atalgan. Ibn Havqal «Nahr us-So'g'd» So'g'd va Samarqandda «Nahr ul-Buxoro» nomi bilan mashhur bo'lganligini ta'kidlagan. «Hudud ul-olam» asarida Zarafshon Nahr ul-Buxoro deb keltiriladi. Arab geograflarining Samarqand topografiyasi, shu jumladan Zarafshon daryosi to'g'risida bergen ma'lumotlari to'g'ri va ishonchlidir. Zarafshon daryosining qadimgi toponimlari orasida «Daryoyi Haromkon va Nahri Haromkon» nomlari ham o'rta asr manbalarida uchraydi. Dastavval, u X asrda Muhammad Narshaxiy tomonidan tilga olinadi. XVI asr tarixiy hujjatlarida Zarafshonning toponimlari to'g'risida berilgan aniq ma'lumotlar Narshaxiyning asarida ham to'g'ri tilga olinganligiga shubha yo'q.

Bu ma'lumotlarga asoslanib Zarafshon daryosining qadimgi nomi arab geograflari tomonidan tilga olingan Nahr us-So'g'd, Vodiy us-So'g'd yoki Nahr ul-Buxoro emas, balki Haromkon bo'lgan deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. O'rta Zarafshon daryosi asosan Ko'hak nomi bilan mashhur bo'lgan daryoga berilgan. Bu nom dastavval XII asr mahalliy mualliflardan Nasafiyoning Samarqand tarixiga oid «Qandiya» nomli asarida tilga olinadi. XIV–XVI asrlarga tegishli tarixiy manbalarida, shu jumladan, Hofizi Abru, «Boburnoma», «Shaybonynomma» va boshqa ko'pgina asarlarda ham Zarafshon daryosi Ko'hak nomi bilan ataladi. XVIII asrga oid rus tilida bitilgan ba'zi ma'lumotlarda esa u «Kuryak» deb buzib aytildi. XVIII asr boshlarida ba'zi bir manbalarда daryo Ko'hak nomi bilan bir qatorda, «Zarafshon» deb ham yozila boshlangan. Uning keyingi nomi birinchi marta «Tarixi Roqiyamiy» asarida tilga olinadi.

1820-yilda Rossiyadan Buxoroga kelgan diplomatik missiyaning ishtirokchisi Meyendorfning yozishicha, daryo Samarqandda (orqasida) «Ko'hak», Buxoroda «Zarafshon» nomlari bilan atalganligini ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, XIX asr boshlarida daryoning quyi oqimi qadimgi Harashkon Zarafshon nomi bilan atala boshlaydi va u daryoning yuqori oqimi – «Ko'hak» bilan bir qatorda yuritiladi.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. *Nabiyev A.* Tarixiy o'lkashunoslik. – T., 1996.
2. *Ochildiyev F.B.* Tarixiy o'lkashunoslik. – T., 2008.
3. *Saidboboyev Z.A.* Tarixiy geografiya. – T., 2010.
4. *Nafasov T.* O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T., 1988.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. *Alimov I., Ergashev F., Butayev A.* Arxivshunoslik. – T.: Sharq, 1997.
2. *Сухарева О.А.* К истории городов Бухарского ханства. – Т., 1958.
3. *Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г.* Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
4. *Jabborov I.M.* O'zbek xalqi etnografiyasi. – T., 1994.
5. *Jabborov I.M.* Jahon xalqlari etnografiyasi. – T., 1985.
6. *Kabirov A., Sagdullayev A.S.* O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.

## **Internet manbalar**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archeology.ru](http://www.archeology.ru)
4. [www.archeology.com](http://www.archeology.com)

## **Nazorat savollari**

1. Toponimikaning o'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati haqida so'zlang.
2. Mustaqillik yillarida toponimika yo'nalishi qanday rivojlandi?
3. Toponimik ma'lumotlar to'plash usullarini so'zlab bering.
4. Toponimika fanining maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
5. Geografik joy nomlarini o'rganishda toponimikaning o'rni nimalaridan iborat?
6. Toponimik ma'lumotlar to'plash uslublari, O'zbekistonda toponimikaning asosiy obyektlari haqida so'zlab bering.
7. Toponimikada antrotoponimlarning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Toponimikaning turlari: mikro- va makrotoponimlar haqida so'zlang.

## Test savollari

### 1. Oronimika nima?

- A. Yer yuzasining relyef shakllari nomlarini tekshiradigan soha
- B. Aholi yashash maskanlari va ularning qismlari, qishloq, shaharlarni o'rganuvchi soha
- C. Suv havzalarini o'rganadigan soha
- D. Joy nomlarini o'rganuvchi soha

### 2. Toponimika qaysi fanlar bilan chambarchas aloqada rivojlanadi?

- A. Geografiya, tarix, lingvistika, etnologiya
- B. Geografiya, etnologiya, tarix, numizmatika
- C. Arxeologiya, etnografiya, tarix
- D. Geraldika, arxeologiya, etnografiya

### 3. «Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» nomli monografiya muallifi kim?

- A. T. Nafasov
- B. Z. Dusimov
- C. N. Oxunov
- D. H. Hasanov

### 4. Buxoro – sanskritcha «vexara» so'zidan olingan bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?

- A. Ibodatxona
- B. Savdogarlar shahri
- C. Mis shahar
- D. Qal'alar shahri

### 5. «Xorazm toponimlari» haqida yozilgan monografiya kimga tegishli?

- A. Z. Dusimov
- B. N. Oxunov
- C. T. Nafasov
- D. H. Hasanov

### 6. So'g'd tilida Samarqand qanday ma'noni bildiradi?

- A. Uchrashuv, anjumanlar joyi
- B. Barglar orasidagi yo'l
- C. Katta shahar

D. Savdogarlar shahri

**7. Aris qaysi daryoning qadimgi nomi?**

- A. Sirdaryo
- B. Amudaryo
- C. Zarafshon
- D. Chirchiq

**8. Religionimlar berilgan qatorni ko'rsating.**

- A. Rohib, avliyo, abdol, anbiyo
- B. Zuhra, kayvon, suhayl
- C. Alloh, tangri, xudo
- D. Duldul, zuhra, rohib

**9. XVIII asrda rus manbalarida Zarafshon daryosi nima deb atal-gan?**

- A. Ko'ryak
- B. Ko'hak
- C. Politimet
- D. Zarafshon

**10. O'zbekistondagi qaysi shahar nomi «saroy» degan ma'noni anglatadi?**

- A. Qarshi
- B. Termiz
- C. Guliston
- D. Buxoro

**11. Arablar Choch viloyatini nima deb atashgan?**

- A. Shosh
- B. Binkat
- C. Binokat
- D. Buxoro

**12. Toponimika atamasi qanday ma'noni bildiradi?**

- A. Lotin tilidan olingan bo'lib, «topos» – joy, «onom» – nom, umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi
- B. Xalqlar, e'latlar, millatlar nomlari bilan ataladigan joy
- C. Arab tilidan olingan bo'lib, o'simliklar dunyosini o'rganish degan ma'noni bildiradi
- D. Fors tilidan olingan bo'lib, hayvon degan ma'noni beradi

---

## VII BOB. ARXIV VA YOZMA MANBALARNING O'LKASHUNOSLIK FANIDA TUTGAN O'RNI

**Reja:**

1. O'lkamiz qadimgi yozma manbalarda.
2. IX–XII asrlar tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalar.
3. XIII–XIV asrlar tarixiga oid fors va turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar.
4. Vatanimiz tarixini o'rghanishda arxiv materiallarining ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** yozma manba, yunon, rim, Eron, Behistun, Per-sipol, antik, o'rta asrlar, «Tarixi Narshaxiy», Nizomulmulk, «Siyosat-noma», «Mehmonnomayi Buxoro», «Shayboniynoma», «Tarixi Abul-xayrxoni», arxiv, katolik, Xiva, Qo'qon, Buxoro, qushbegi, yozma, og'zaki.

### 1. O'lkamiz qadimgi yozma manbalarda

**Yozma manbalar.** Markaziy Osiyo tarixiga oid ilk yozma manbalar – «Avesto», ahamoniylar davri mixsimon yozuvlari va qadimgi dunyo (yunon-rim) mualliflari asarlari yurtimizdan tashqarida yozilgan. Ular Qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo'lib o'lkamizdag'i xalqlar nomlarini, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Zardushtiylik – otashparastlik miloddan avvalgi VI – milodning VI asri dinining muqaddas kitobi bo'lib, miloddan avvalgi VI – milodning VI asrlarida yozilgan, Eron hamda o'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, e'tiqodi, tili, adabiyoti va qisman tarixini o'rghanishda asosiy manba hisoblanadi.

«Avesto» matni to‘liq saqlanmagan. Bizgacha uning juda oz qismi yetib kelgan, xolos. Ma’lumki, «Avesto» Gishtasp – Vishtasp zamonida kitob holiga keltirilgan. Rivoyatlarga qaraganda, uning gatlar deb ataluvchi asosiy qismi xudo Zaratushtra tomonidan yozilgan va Mas’udiy, Tabariy va Beruniylarning so‘zlariga qaraganda, 12 000 ho‘kiz terisidan tayyorlangan maxsus pergamentga oltin harflar bilan yozilgan. O‘sha vaqtarda uning uch nusxasi mavjud bo‘lgan, lekin bir nusxasi Iskandar Zulqarnaynning farmoni bilan yoqib yuborilgan. Ikkinci nusxasini Yunonistonga olib ketilgan, uchinchi nusxasi esa otashparastlar diniga o‘ta e’tiqodli bo‘lgan kishilar qo‘lda saqlanib qolgan. Lekin bu nusxa to‘liq emas.

Asarning saqlanib qolgan qismlarini to‘plash va kitob holiga keltirish ishlari Parfiya podshosi Valgash III (148–192-yillar) hamda sosoziylar (milodning III asri) davrida ham davom ettirildi. «Avesto» sosoziy Shopur II (309–379) davrida tartibga solindi, izohlar va qo‘shimchalar (zand) bilan boyitildi va to‘la kitob holiga keltirilib, asosiy qismlari pahlaviy tiliga tarjima qilindi. Bu kitob «Zand Avesto» nomi bilan mashhur.

*Ahamoniylar davri mixsimon yovuzlari.* Mil. avv. 559-yilda Eron-dagi ahamoniylar sulolasining yirik davlatiga podsho Kir II asos soladi. Mil. avv. 545–540-yillarda ahamoniylar O‘rta Osiyoning Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘diyona viloyatlarini bo‘ysundirganlar. Sak-massagetlarga qarshi Kir II ning yurishlari mil. avv. 530-yilda muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Doro I davrida (mil. avv. 522–486-yillar) ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O‘rtayer dengiziga qadar bo‘lgan keng hududda o‘z hukmronligini o‘rnatgan. Ahamoniylar davlati tarixda birinchi yirik dunyo davlati deb hisoblangan. Bu davlat ko‘p sonli viloyatlar, shaharlar va xalqlarni birlashtirdi. O‘rta Osiyoda ahamoniylar ikki yuz yil davomida hukmronlik qilganlar (mil. avv. 330-yilgacha). Ahamoniylar davri mixsimon yozuvlarida O‘rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to‘g‘risida turli xil ma’lumotlar bor. Bu yozuvlar mil. avv. VI–IV asrlarga oid bo‘lib, Behistun va Naqshi Rustam qoyatoshlari-da, Suza, Persepol va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Shular jumlasidan eng muhim Behistun yozuvlari bo‘lib, Doro I davrida Kirmonshoh va Hamadon shahri o‘rtasidagi yo‘lda baland qoyatoshlarda yozilgan (Midiya o‘lkasi). Behistun yozuvlari qadimgi fors, elam va ak-

kad tillarida bitilgan. Doro I bunday xabar qiladi: «Axuramazda irodasi bilan quyidagi davlatlarni qo'simga kiritib, ularning podshosi bo'ldim: Fors, Elam, Bobil, Ossuriya, Arabiston, Misr, Midiya, Lidiya, Armaniston, Kappadokiya, Parfiya, Marg'iyona, Ar'yo, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Gandhara, Saka, Sattagadiya, Araxoziya, Maka (hammasi bo'lib 23 ta viloyat).

... Men Bobilda bo'lganimda, quyidagi davlatlar mendan ajralib chiq-qib ketganlar: Fors, Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Sattagadiya, Saka».

Shoh Doro ayturki: «Marg'iyona nomli davlat mendan ajralib chiqdi. Marg'iyonalik Frada ismli bir kishi o'zini viloyatning hokimi deb e'lon qildi. Keyin men, Baqtriya satrapi, bo'ysunuvchi odamim Dadarshishni chaqirib, unga gapirdim: «Menga bo'ysunmaganlarni tor-mor qilish kerak». Dadarshish qo'shinlari otlanib, marg'iyonaliklar bilan jang qildi. Axuramazda menga yordam ko'rsatdi. Axuramazda irodasi bilan mening qo'shinlarim qo'zg'olonchilarni butunlay mag'lubiyatga uchratdi. Bu jang asiyadiy oyining 23 kunida sodir bo'ldi. Shundan so'ng davlat mening qo'simga kirdi. Mana, men Baqtryada nimalarni qildim».

... Podsho xabar qiladi: «Bundan so'ng men saklarga qarshi sak yurtiga bostirib kirdim, ularning o'zları cho'qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim. Daryoda kemalardan ko'prik qilib, saklarni tor-mor qildim. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o'z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'l ostimga o'tdi». Shoh Doro ayturki: «Bu saklar Axuramazdani qadrlaganlar, men Axuramazdani ulug'layman. Axuramazda irodasi va xohishim bilan men ularni tinchitib qo'ydim».

Hamadon yozuvlarida Doro I bunday xabar qiladi: «Men, Doro, ulug' shoh, shahanshoh, davlatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, ahamoniylar shoh Doro ayturki: «Mana, huzurimda bo'lgan podsholik, So'g'diyonaning narigi yog'idagi saklar yurtidan Efiopiyagacha, Hindistondan Midiyagacha – bu podsholikni menga Axuramazda, xudolar o'rtaсидаги ulug' xudo, tortiq qilgan». Behistun yozuvlarida Doro birinchi bo'lib ahamoniylar davlatining g'arbiy viloyatlarini ko'rsatib bergen bo'lsa, Naqshi Rustam yozuvlarida mamlakatlar ro'yxati Midiya

va Elamdan so'ng sharqiy viloyatlardan boshlandi: «Men, Doro, ulug' podsho, shahanshoh ko'p qabilali mamlakatlarning podshosi, keng sayhon yerlaming podshosi. Vishtasp o'g'li, ahamoniy, fors, forsning o'g'li, oriyalar urug'idan kelib chiqqan oriy».

Shoh Doro ayturki: «Fors viloyatlaridan tashqari quyidagi mamlakatlarni men bo'sundirganman. Menga xiroj to'lovchi bo'lgan, menning so'zimni ijro etgan, mening qonunimga asoslanib rivojlanayotgan Midiya, Elam, Ar'yo, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm, saka-xaumavarka, saka-tigraxauda, saka-paradarayya, dengiz orti saklari». Ahamoniylar davri yozuvlarida viloyatlar va xalqlarning nomlari, siyosiy jarayonlar, Marg'iyonadagi Frada boshchiligidagi qo'zg'oloning tormor qilinishi, saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub «Shohnoma» asari uch qism va 65 ming baytdan iborat doston bo'lib, u 976–1011-yillar orasida yozilgan. Uning birinchi qismi afsonaviy bo'lib, «Avesto» materiallariга asoslanib yozilgan va Eron hamda Turon xalqlarining diniy aqidalari va rivoyatlaridan bahs yuritadi. Asarning ikkinchi va uchinchi qismlari muhim hisoblanadi. Ikkinchi qism qahramonlik dostoni bo'lib, qadimgi Eron podshohlari va ular zamonida o'tgan qahramonlar – Rustam va Kova siymolari talqin qilingan. «Shohnoma»ning uchinchi qismi tarixiy doston bo'lib, unda Eron va Turonning zardushtiylikning paydo bo'lishidan to'rablar istilosigacha bo'lgan siyosiy hayoti talqin etilgan.

*Qadimgi yunon tarixshunoslari.* Bu borada O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, juda aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «Tarix» kitobi, ayniqsa, qimmatlidir. Bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri hisoblangan. Uning muallifi Gerodot «tarixning otasi» deb nom olgan. Gerodot mil. avv. 484-yilda Kichik Osiyodagi Galikarmas shahrida tug'ilgan (mil. avv. 431–425-yillar orasida vafot etgan). U 10 yil davomida ko'pgina joylarda bo'lgan. Gerodotni Old Osiyo, Bobil, Eron va «dunyo chegaralarida» joylashgan xalqlar va davlatlar tarixi ham ancha qiziqtirgan. Qadimgi yunonlarning fikrlariga ko'ra, O'rta Osiyo va Hindiston o'lkalari inson yashagan dunyoning sharqiy chegaralari bo'lgan.

Gerodot O'rta Osiyoda hech qachon bo'Imagan va bu hudud haqida o'zi eshitgan hikoyalar, surishtirib bilganlari asosida yozgan. Ge-

rodot «Tarix» kitobini mil. avv. 455–445-yillarda yozgan bo‘lib, unda Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm va massagetlarning moddiy madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi va diniy e’tiqodlari, shuningdek, ular O‘rta Osiyodagi Araks daryosining suvlaridan foydalanishi haqida ham ayrim ma’lumotlarni beradi. Gerodot O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar va hududining nafaqat aniq, balki umumiyligi chegaralaridan ham bexabar bo‘lgan. Tarixchi massagetlarning hududiy joylashuviga haqida bunday yozadi: «Ular sharqda, quyosh chiqish yo‘nalishida, Araks daryosining narigi yog‘ida joylashganlar. Araks daryosi Matiyona tog‘laridan boshlab oqadi». Gerodot ma’lumotlarida berilgan «Baqtriya xalqi» tushunchasi ma’lum bir etnik birlikni birlashtirgan bo‘lishi mumkin. «Xalq» ma’nosini beruvchi «etnos» so‘zi Gerodot «Tarix»ida juda ko‘p uchraydi va faqat ikki joydagina bu so‘z Batqriyaga nisbatan ishlataladi.

Qadimgi yunon tarixshunoslaridan biri Gekateydir. Gekatey Milet shahridan bo‘lib (mil. avv. VI–IV asrlar), olimlar fikriga ko‘ra, birinchi bo‘lib ahamoniylarga tobe o‘lkalarning ro‘yxatini keltirgan va Qadimgi Sharq xalqlari haqida xabar qilgan (shu jumladan yurtimiz xalqlari haqida ham) va uning ma’lumotlaridan Gerodot va Ktesiylar foydalangan.

*Qadimgi hind manbalari.* Saklar, massagetlar, toxarlar va qadimgi qanha xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlarni hindlarning dostoni «Mahabharata»da ham uchratamiz. «Mahabharata» («Bharata avlodlari jangnomasi») sanskrit tilida yozilgan bo‘lib, 100 ming baytni o‘z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsanaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kavravlar va nandavlarining o‘zaro adovatlari va urushlari bayon etiladi. U miloddan avvalgi X–VIII asrlarda yaratilgan.

Asarda uzoq Hindistonga savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toxarlar va qanhalar haqida muhim ma’lumot keltirilgan: «Uning (podshoh Yudhishterining) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toxarlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Savdo-sotiqda turlituman sovg‘alar, jun, ipak, paxta, shuningdek, kamyob matolar, paxtadan to‘qilgan gazlamalar, terilar, uzun va o‘tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo‘y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar» olib borganlar.

*Xitoy manbalari.* Xitoy manbalari haqida so‘z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorla-

rining maqsad va manfaatlarini ko‘zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko‘p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin xitoy manbalari da bo‘lib o‘tgan voqealarning vaqtি va o‘rnи, bir-biriga qarshi turgan qo‘shinlarning umumiy soni aniq ko‘rsatiladi. Qadimiy O‘zbekistonning uzoq o‘tmishdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda quyidagi xitoy manbalari muhim rol o‘ynaydi.

«Shi Szi» («Tarixiy esdaliklar») xitoy tarixshunoslarining otasi hisoblanadigan Sima Syanning 130 bobdan iborat bo‘lgan asaridir. Sima Syan (taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135–86-yillar) Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy tarixchisi Sima Tan oilasida tug‘ilgan, mamlakat bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan, otasi vafot etgandan (miloddan avvalgi 108-yili) keyin uning o‘rniga saroy tarixchisi sifatida qabul qilingan. Uning «Shi szi» nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o‘tgan tarix bayon etilgan. Asarning 123-bobida, xususan, Farg‘ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlar mavjud. «Xou Xan shu» («Keyingi Xan sulolasi tarixi») tarixchi Fan Xua (398–445-yillar) asari. Olim avvalgi Xan sulolasi (25–220-yillar)ga xizmat qilgan. Kichik davlat lavozimida turgan va 424-yili viloyat hokimligiga ko‘tarilgan. Keyinchalik davlatga qarshi isyonda qatnashganlikda ayblanib qatl etilgan. «Xou Xan shu» – Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixni o‘z ichiga olgan katta asar 130 bobdan iborat. Unda O‘zbekiston, Sharqiy Turkiston va Jung‘oriyaning 25–221-yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar bor.

«Suy shu» («Suy xonadonining tarixi») Xitoy tarixchilari jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580–643-yillar) – Tan sulolasi davrida o‘tgan tarixchi, imperator Chjen Guan (626–650) davrida uning o‘g‘li va toj-u taxt vorisiga tarbiyachi bo‘lgan, Yan Shi Gu hamda Kxun In-da bilan birgalikda ishtirok etib, asarda Xitoyning Suy sulolasi davrida, V–VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637-yili yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa 20 yil vaqt kergan. Asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo‘shining tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma’lumotlarni uchratamiz.

Ko'p jildli «Sulolalar tarixi» tarkibida 9-jild sifatida 1958-yili Shanxayda chop etilgan.

## 2. IX–XII asrlar tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalar

O'zbekistonning VII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo'lgan tarixi ko'proq va deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan va bu an'ana keyin ham Temuriylar davrigacha davom etgan. Bu davrda yurtimiz avval arab xalifaligi tarkibida, so'ngra Somoniylar, Qoraxoniyilar, G'aznaviyilar, Xorazmshohlar davlatlarini boshdan kechirdi. Arab tilida Vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab, ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – arab tilida ijod etgan yurtimizdan yetishib chiqqan tarixchi va olimlar. Bular Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamashshariy, Abu Said Sam'oniy, Shihobuddin Muhammad Nisoviy va boshqalardir. Ushbu muarrixlar asarlarida ona vatanga muhabbat alohida namoyon bo'ladi, bu, ayniqsa, Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya» asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to'g'risidagi ma'lumotlarida alohida ko'zga tashlanadi.

Ikkinci guruh – xorijlik olimlardan iborat bo'lib, ular yaratgan arab tilidagi asarlarida yurtimiz tarixi, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti yoritilgan. Ushbu mualliflarning eng yiriklari Abulhasan Madoiniy (vaf. 840-y.), Abulabbos al-Ya'qubiy (IX asr), Abubakr al-Balazuriy, Ibn Hurdodbeh (820-taxm. 913), Abu Ja'far Tabariy (839–923-y.), Is'hoq al-Istaxriy (850–934-y.) va boshqalardir.

Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, arab xalifaligining bir qismi sifatida yoritganlar. Ular asosan arab xalifaligini ikki qismga, ya'ni arab va ajam – g'ayriarabga ajratib o'rghanar edilar. Arablar tomonidan yurtimizga berilgan nom Movarounnahr – daryoning u yog'idagi mamlakat mazmunini bildiruvchi jug'rofiy nom bizgacha yetib kelgan bo'lib, asosan arab mualliflari asarlarida istifoda etiladi. Quyida arab tilida bitilgan eng muhim manbalar va ularning mualliflari haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973–1048) tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ortiq asarlar yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyotlarga va

muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy fan, ayniqsa, tarix to'g'risidagi chuqur bilimlarini «Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») hamda «Hindiston» yoki «Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzima» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini tadqiq etish») va «Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm» («Xorazm haqidagi axborot haqida suhbatlar») nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, bo'lg'usi tarixchilar uchun «Osor ul-boqiya» har tomonlama namuna bo'ladigan qimmatli manbadir. Asar 1000-yili Jurjon shahrida yozib tamomlangan. Unda qadimgi O'rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, nasroniy, yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo'lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari va asosan vaqt ni hisoblash taqvim – xronologiya to'g'risida mukammal ma'lumot beradi. Ushbu asarning XIV asrda yaratilgan mo'tabar qo'lyozmasiga nodir rasmlar ishlangan va bu noyob san'at obidasi Shotlandiya poytaxti Edinburgh shahri universiteti kutubxonasida 161-raqam ostida saqlanmoqda. «Osor ul-boqiya»ning ruscha va o'zbekcha tarjimalari Toshkentda 1957 va 1968-yillari chop etildi. Kitob Yevropada «Xronologiya» nomi bilan mashhur. Biz asar to'g'risida ortiqcha ma'lumotlarni keltirmadik, chunki bizning vazifamiz qimmatli yozma manbalar to'g'risida umumiylu shuncha, bilim va yo'nalish berishdir. Ushbu kitob to'g'risida talabalar mustaqil ish paytida yoki laboratoriya ishi jarayonida chuqurroq va keng bilimga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana «Tarixi Xorazm» va «Mashohiri Xorazm» («Xorazmning mashhur kishilari») nomlari bilan ham mashhur bo'lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan «Tarixi Bayhaq» va Yoqut Hamaviyning «Mu'jam ul-buldon» asarlarida saqlanib qolgan.

«Kitob ul-ansob» («Nasablar haqida kitob») nomli asarning muallifi mashhur geograf, tarixchi va sayyoh Abu Sa'id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniy (1113–1167-y.)dir. U Marvda, yirik qonunshunos olim oilasida dunyoga keldi, Marv, Buxoro hamda Samarqanda tahsil ko'rdi, 1155–1156-yillari Movarounnahr va Xorazm bo'ylab sayohat qildi, ma'lum muddat Nishapur, Isfahon, Bag'dod, Halab, Damashq hamda Quddus (Iyerusalim) shaharlarida hayot kechirdi. Sam'oniy «Kitob al-ansob»dan tashqari yigirma jildlik «Marv tarixi»

nomli asarning ham ijodkoridir. Ammo bu kitob bizgacha yetib kelma-gan ko‘rinadi. Taxminlarga ko‘ra, bu muhim asar Chingizzxon yurishlari vaqtida kuyib ketgan bo‘lishi mumkin, chunki o‘shanda Marvning eng katta va boy kutubxonasi bilan birga Sam’oniylar xonadoniga tegishli bo‘lgan ikki yirik kutubxona ham (Yoqut Hamaviy Sam’oniylar kutub-xonasini ko‘rganligini aytadi) yonib ketganligi taxmin qilinadi. Bizga-cha olimning faqat «Kitob al-ansob» asarigina yetib kelgan.

Ibn Hurdodbeh yoki Abulqosim Ubaydulloh Hurdodbeh (820–tax. 913-y.) asli eronlik bo‘lib, u oliy martabali mansabdor xonado-niga mansub edi. Otasi IX asr boshlarida Tabariston hokimi bo‘lgan, Daylam viloyatini bo‘ysundirib, xalifaning diqqat-e’tiborini qozongan. Ibn Hurdodbeh Bag‘dodda o‘qigan va keng ma’lumot olgan. U xali-fa Mo‘tamid (870–892-y.) davrida yuksak davlat lavozimlarida turgan, dastlab Nadim, so‘ng Eronning g‘arbiy-shimoliy tarafida joylashgan Jibal viloyatida sohib barid va-l-xabar (pochta va razvedka boshlig‘i) lavozimini egallagan. Ibn Hurdodbeh turli mavzuda, adab, tarix, geog-rafiyaga oid o‘nga yaqin asar bitgan bo‘lib, ulardan eng muhimi «Kitob masolik ul-mamolik» («Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob») nomli asardir, u 846-yili yozib tamomlangan. Asarning qisqartirilgan tahriri bizgacha yetib kelgan va M. de Gue tarafidan 1889-yili chop qilin-gan. Ruscha tarjimasi (tarjimon Noila Velixanova) 1986-yili Bokuda chop etilgan. Kitob arab xalifaligi qo‘l ostidagi mamlakatlar, shaharlar, ularga boriladigan yo‘llar, shaharlar va mamlakatlar orasidagi masofa, aholidan undiriladigan soliq va jarimalarning miqdori haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Qadimgi So‘g‘d shaharlaridan Kushoniya (Samarqand atrofida joylashgan), Samarqand, Ustrushana, Shahriston (Ustrushana shahar-laridan), qadimgi Shosh, Isfijob (Sayram) shaharlarida aholi o‘rtasida muomalada bo‘lgan pul birligi, Nuh ibn Asad (vaf. 842-y.) va Ahmad ibn Asad (819–846-y.) davrida So‘g‘d va Farg‘onaning umumiylahvoli, Movarounnahr va Farg‘onada IX asrda istiqomat qilgan turkiy xalqlar haqidagi ma’lumotlar benihoya qimmatlidir. Ushbu ma’lumotlar Ibn Havqalga tegishlidir. U o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan yirik geograf olimi va sayyohi bo‘lgan. Olimning to‘la ismi Abulqosim ibn Havqal an-Nasibiy bo‘lib, nisbasiga ko‘ra Shimoliy Mesopotamiyada joylash-gan Nisibin shahridan chiqqan. Ibn Havqal 943-yildan boshlab savdo-

gar sifatida turli mamlakatlар – Markaziy Afrika, Ispaniya, Italiya, Eron, Hindiston bo‘ylab sayohat qilgan. U Istarixiy bilan shaxsan uchrashgan. Uchrashuv vaqtida Istarixiy go‘yoki undan o‘z asaridagi xato va chal-kashliklarni xalos qilish va qaytadan ishlashni iltimos qilgan.

«Men, – deb yozadi Ibn Havqal, – uning kitobidagi bir emas, bir necha xaritalarni tuzatdim, so‘ngra ushbu o‘z kitobimni yozishga qaror qildim. Istarixiy kitobida uchragan xatolarni tuzatdim, kitobimga bir nechta (yangi) xaritalarni ilova qildim va ularni izohlab berdim. «Ibn Havqalning asari «Kitob ul-masolik va-l-mamolik» («Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob») yoki qisqacha «Kitob surat al-arz» («Yerning surati») nomi bilan mashhur bo‘lib, Hamadoniylardan Sayfulla Ali I ga (945–967-y.) bag‘ishlangan. Uni yozishda muallif sayohatlari vaqtida to‘plagan, savdogarlardan so‘rab-surishtirib yig‘gan materiallardan hamda Ibn Hurdodbeh, Al-Jayhoni, Qudama asarlaridan foydalangan. Kitobda tavsiflangan har bir mamlakat va viloyatning xaritasi ham berilgan.

### **3. XIII–XIV asrlar tarixiga oid fors va turkiy o‘zbek tilidagi tarixiy manbalar**

*Fors tilidagi tarixiy manbalar.* «Buxoro tarixi», «Tarixi Narshaxiy» va «Tahqiq ul-viloyat» («Buxoro viloyati tahqiqi») nomlari bilan mashhur bo‘lgan bu asarda Buxoro va quyi Zarafshon vohasida joylashgan shahar va qishloqlaming jug‘rofiy holati, aholisining VII–X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirgan qimmatli tarixiy manbadir. Kitob muallifining nomi qisqacha Narshaxiy (899–959-y.) deb ataladi. Uning to‘liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far ibn Zakariyo ibn Hattob ibn Shariq bo‘lib, X asrda ijod qilgan buxorolik yirik tarixchi sifatida mashhurdir. Tarixchi Sam’oniyning ma’lumotiga qaraganda, Narshaxiy asli Buxoroning Narshax (hozirgi Vobkent yonida) qishlog‘idan. Narshaxiy o‘z asarini 944-yilda yozib tugatgan. «Buxoro tarixi» asarining Narshaxiy yozgan arab tilidagi asli saqlanib qolmagan. Asar 1128-yilda farg‘onalik (Quva shahridan) Abunasi Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy tarafidan ilk bor qisqartirilib forsiy tilga tarjima qilingan. Oradan taxminan 50 yil o‘tgach, 1178-yili kotib Muhammad ibn Zufar ibn Umar «Buxoro tarixi» tomonidan ikkinchi marta tahrir etildi. Shuni ham ko‘rsatish lozimki, «Buxoro tarixi» asarining bizgacha yetib

kelgan nusxalarida 1178–1220-yillardagi voqealar bayoni uning tarkibiga kiritib yuborilgan. Shunga qaraganda, Narshaxiyning asari uchinchi marta noma'lum muharrir tomonidan to'ldirilgan ko'rindi. «Buxoro tarixi» O'zbekistonning arablar tomonidan bosib olinishi, bu hududda islam dinining tarqatilishi hamda mamlakatning Somoniylar hukmronligi yillaridagi tarixini bayon etadigan noyob manbadir.

Bu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939-yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966-yillari) tarjima qilingan. «Hudud ul-olam» fors tili-da yozilgan (982-y.) birinchi jug'rofiy xarakterdagi asardir. Kitobning to'la nomi «Hudud al-olam min Mashriq ila-l Mag'rib»dir («Sharqdan G'arbg'a qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari»). Asar mualifi noma'lum. U Guznono (Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan qadimgi viloyat) hokimlaridan (Farug'inivlar) biriga atab yozilgan. «Hudud ul-olam» asari muqaddima va 59 bobdan iborat. Uning 1-dan 7-gacha bo'lgan boblarida yerning tuzilishi, dengizlar, orollar, tog'lar, daryolar, cho'l-u biyobonlar hamda dunyoning inson yashaydigan to'rtadan bir qismi – rub'i maskun va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub'i maskunning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiyl mulohaza yuritiladi.

8- dan 59-gacha bo'lgan boblarida sharqdan g'arbg'a qarab joylashgan mamlakatlар, ulaming xalqi, o'sha mamlakatlarda ishlab chiqariladigan asosiy matolar, ayrim o'rinnarda esa savdo-sotiqning umumiyl ahvoli xususida so'z boradi.

Nizomulmulk Saljuqiyilar davlatida vazir sifatida xizmat qilgan yirik davlat arbobi va tarixchi olimdir. Uning asli ismi Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Is'hoq at-Tusiy (1018–1092-y.) bo'lib, Saljuqiy hukmdorlar Sulton Alp Arslon (1063–1073) hamda Sulton Malikshoh I larning bosh vaziri bo'lgan va bu davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. U saltanatdagi tarqoqlikka barham berish, markaziy davlat tuzumini mustahkamlash, davlatning moliyaviy ishlarini tartibga solish uchun harakat qilgan. Shuning uchun unga mamlakatni tartibga soluvchi, ya'ni Nizomulmulk nomi berilgan. Nizomulmulk Bag'dodda «Nizomiya» atalmish musulmon huquq maktabiga asos solgan.

Nizomulmulk qalamiga mansub «Siyosatnoma» asarining boshqa nomi «Siyar al-muluk» («Podshohlarning turmushi»)dir. Kitob

1092-yilda yozib tugallangan. U 51 ta bobdan iborat bo'lib, unda davlat tizimi, moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shin tuzilishi, mansablar va ularga amaldorlarni tayinlash tartibi, amaldorlar faoliyatining muammo-lari xususida fikr yuritiladi. Asarda O'zbekiston tarixiga oid muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Somoniylar zamonida turk g'ulomlarining davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'mi, Turkiston xonlari, Qoraxoniylar saroyida xizmat qiluvchi xodimlarning ijtimoiy ahvoli, Somoniylar xizmatida bo'lgan amirlar unvonlari, Xorazmshoh Oltintosh (1017–1032) bilan Ahmad ibn Hasan (Sulton Mahmud G'aznaviyning vaziri) o'rtasidagi yozishmalar ana shular jumlasidandir. Asarda, bundan tashqari, karmatlar, botiniylar harakati, Muqanna qo'zg'oloni haqida ham ayrim diqqatga sazovor ma'lumotlar mayjud. «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand» («Samarqand tarixi haqida qand kitob») nomli asar muallifi yirik tarixchi, tilshunos va faqih Najmuddin Abu Hifs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Luqmon an-Nasafiy (1068–1142) dir. U musulmon qonunshunosligiga oid «Manzumot an-Nasafiya fi-l-xulofiyot» («Kelishmovchiliklar haqida Nasafiyning she'riy asari»), «Aqid an-Nasafiy» («Islom) aqidalariga an-Nasafiy sharhi»), shariat yo'l-yo'riqlari va «Qur'oni karim» sharhiga bag'ishlangan «Al-yavoqit fi-l-mavoqit» («Qulay vaqtlar xususida yoqutlar»), «Zallat al-qoriy» («Qorilarning xatolari haqida») va tasavvuf xususida «Risolayi Najmiya» kabi bir necha kitoblar yaratgan. Nasafiyning tarix fani uchun eng muhim asari «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand»dir. Uning yana bir nomi «Kitob al-qand fi ma'rifati ulamoyi Samarqand» («Samarqand olimlarini tanish borasida qand kitobi») ham mashhurdir. Ushbu asarda O'zbekistonning islomgacha bo'lgan tarixi, uning arab istilochilari tomonidan bosib olinishi, Samarqandning diqqatga sazovor osori atiqalari haqida ma'lumot keltirilgan. «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand»ning arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Nasafiyning shogirdi Abulfazl Muhammad ibn Abdujalil ibn Abdumalik ibn Haydar as-Samarqandiy (XII asr) ushbu asarning qisqartirilgan fors tilidagi tahri-rini yaratgan.

«Tarixi jahonkushoy» nomli yirik tarixiy asarni yaratgan tarixchi XIII asrda yashab o'tgan yirik olim va davlat arbobi Juvayniydir. Uning to'liq ismi Alouddin Otamatlik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniydir. U 1226-yilda G'arbiy Xurosonning Juvayn hududiga qa-

rashli Ozodvor qishlog‘ida badavlat va nufuzli siyosiy arbob oilasida tug‘ilgan.

Alouddin Otamalik Juvayniy O‘rtta Osiyoning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi asari bilan shuhrat qozongan. Kitob 1260-yilda yozib tugallangan.

«Tarixi jahonkushoy» asari uch qismdan iborat: 1) Mo‘g‘ullar, ularning Chingizxon davridagi istilochilik yurishlaridan to Guyukxon (1246–1249-y.) davrigacha, shuningdek, Jo‘ixon, Chig‘atoyxon va uning avlodlari tarixi;

2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258-yilgacha) tarixi;

3) Eronning 1256–1258-yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoiliylarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoiliylar davlati (1090–1258-y.) tarixi. Ismoiliylar tarixi Maymanduzdag‘i kutubxonada topilgan asarlar, xususan, Ismoiliylarning ko‘zga ko‘ringan namoyandalardan Hasan Sabohning (taxminan 1055–1124-y.) hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi «Sarguzashti sayyidno» («Sayidimizning sarguzashtlari») nomli kitob asosida yozilgan.

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixi uchun «Tarixi jahonkushoy»ning I–II qismlari alohida qiymatga ega hisoblanadi. Asarning Xorazm va Xorazmshohlar tarixiga oid qismi (II qism) bizgacha yetib kelmag'an. Juvayniyning ushbu asari «Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroyib» («Imtihonni salqinlashtirish joyi va ajoyib narsalarning yuqori darajasи»), Faxriddin Roziyning (1210-yilda vafot etgan) «Javome’ ul-ulum» («Ilmlar majmuasi») kitoblari asosida yozilgan. Movarounnahr va Sharqiy Turkiston tarixi, shuningdek, Mo‘g‘uliston haqidagi xabarlar asosan muallifning shu mamlakatlarga qilgan sayohatlari vaqtida to‘plangan ma‘lumotlar asosida yozilgan. Jome’ ut-tavorix» («Tarixlar majmuasi») asarining muallifi mashhur qomusiy olim, tarixchi, tilshunos, tabib va yirik davlat arbobi Rashiduddin Fazlulloh ibn Imomuddavla Abulxayr Hamadoniydir. Rashiduddin tarixda o‘zining yirik asarlari bilan ham nom qoldirdi. Ilohiyot ilmining ayrim masalalariga bag‘ishlangan «Al-majmuot ar-Rashidiya» («Rashiduddinning majmualari»), tabbi-yotga oid «Al-osor va-l-ihya» («Tirik narsalarning qoldiqlari»), «Bayon al-haqoiq» («Haqiqatlar bayoni»), qurilish masalalariga bag‘ishlangan «Asila va ajiba» («Ajib va asil narsalar») va nihoyat, jahon tarixini

o‘z ichiga olgan «Jome ut-tavorix» asari ham uning qalamiga mansub asarlar jumlasidandir. Olimning bizning zamonomizgacha to‘liq yetib kelgan birdan bir asari ana shu «Jome ut-tavorix» bo‘lib, u o‘rtalas tarixnavisligining o‘ziga xos noyob asari hisoblanadi. Bu kitob o‘rtalas Sharq tarixchiligidagi yangi an‘anani boshlab bergan asardir. Unda umumiylashtirish sifatida musulmon mamlakatlari tarixi bilan birga, G‘arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham yoritishga intilgan-u, Sharq mamlakatlari tarixini umumjahon tarixinining bir qismi, deb hisoblagan.

«Jome ut-tavorix» asari 1301–1311-yillar orasida G‘ozonxonning (Qozon xon) topshirig‘i bilan yozilgan. Asar uch qismdan iborat:

1) Mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar – Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston va Elxoniylar davlati hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin hamda O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istolosigacha bo‘lgan qisqa-chaga tarixi;

2) Sharq mamlakatlari xalqlarining islomiyotdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G‘aznaviyalar imperiyasi, Saljuqiylar davlati, Xorazmshohlar davlati tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi;

3) Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati. Afsuski, asarning so‘nggi, uchinchi qismi saqlanmagan. Qo‘lyozma 1318-yilda Rashiduddinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtarda yo‘qolgan bo‘lishi mumkin. «Jome ut-tavorix» asarining, ayniqsa, turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixini o‘z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Kitobning O‘rta Osiyo, Eron va Kaykazorti xalqlarining XIII ast bosqlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham nihoyatda qimmatlidir.

Mavlono Nizomiddin Shomiy (yoki Maylono Nizomiddin Shanbiy, Shanbi G‘ozoni) Tabrizning shimoli-g‘arbiy tarafida, undan ikki mil masofada joylashgan joyda tug‘ilgan. U «Zafarnoma» asari bilan mashhur bo‘lgan. 1402-yilda Amir Temur unga o‘zining tarixini aniq va sodda tilda yozib berishni buyurgan. Nizomiddin Shomiy bu asarni 1402–1404-yillar orasida yozib tamomlagan. Asar jahongirning hokimiyat tepasiga kelishi (1370-yil)dan to 1404-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. «Zafarnoma» asari haqiqatan ham sodda tilda,

ravon uslubda yozilgan, daliliy ma'lumotlarga boy. Lekin Amir Temur hayoti mazkur asarda birmuncha, Sharofiddin Aliga nisbatan kam ideallashtirilgan. Asar O'zbekiston, Qozog'iston, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV asming ikkinchi yarmi va XV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Nizomiddin Shomiy o'z asarini yozishda Ali Yazdiyning «Ro'znomayi g'azavoti Hinduston», Amir Temurning uyg'ur kotiblari tomonidan yaratilgan «Tarixi xoniy» va boshqa saroyda bitilgan kundaliklardan foydalangan.

«Zafarnoma»da Nizomiddin Shomiyning ikkita tahriri mavjud: 1) 1404-yili Amir Temur Ozarbayjon yurishidan qaytganda unga taqdim etilgan nusxa; 2) Mironshohning o'g'li Mirzo Umarga (1404-yil 26-martda Amir Temur «Halokuxon taxti»ni, ya'ni G'arbiy Eron hamda Ozarbayjoni in'om qilgan) paytida taqdim qilingan. U yuqorida qayd etib o'tilgan birinchi nusxadan deyarli farq qilmaydi. Asar «Zafarnoma» deb ataladi. «Zafarnomayi Temuriy», «Fathnomayi sohibqironiy», «Tarixi jahonkushoyi Temuriy» yoki «Zafarnoma» nomi bilan mashhur bo'lgan asarni o'z davrining yirik tarixchisi Sharofiddin Ali Yazdiy yozgan. U asli Eronning Yazd viloyatidagi Taft qishlog'idan bo'lib, turli fan sohalarini egallangan edi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy uni «Sharaf davla va din», ya'ni din va davlat sharafi deb ta'riflagan. Sharofiddin Ali Yazdiy Fors viloyatining hokimi Temuriy Ibrohim Sulton (1415–1435-y.) saroyida xizmat qilgan. U ilm-fan homiysi bo'lmish mazkur shahzodanigina emas, balki Shohruxning ham zo'r hurmat-e'tiborini qozongan edi. Sharofiddin Ali Yazdiy 1442-yilda Shohruxning nabirasi va Sultoniy, Qazvin, Ray hamda Qum hokimi Sulton Muhammad (1442–1446-y.)ning taklifi bilan Qumga keldi va shahzodaning xizmatiga kirdi. Sulton Muhammad 1446-yilda Shohruxning og'ir kasalligidan foydalaniib, isyon ko'tardi, Hamadon hamda Isfahonni bosib oldi, Sherozni qamal qildi. Shohrux unga qarshi qo'shin tortdi.

Sulton Muhammad Shohrux bilan ochiq jang qilishdan qo'rqib toqqa qochdi. Shohrux Sulton Muhammad bilan yaqin bo'lgan kishilarni, shuningdek, mahalliy sayyidlardan birmunchasini isyonda ištirok etishda ayblab hibsga oldi va ko'plarini o'limga mahkum qildi. O'shanda hibsga olinganlar orasida Sharofiddin Ali Yazdiy ham bor edi. Faqat Mirzo Abdullatisfning (Ulug'bekning to'ng'ich o'g'li) aralashu-

vi bilan Sharofiddin Ali Yazdiy jazodan qutulib qoldi. Shahzoda uni Samarqandga, otasi huzuriga jo‘natib yubordi. Sharofiddin Ali Yazdiy Samarqandda bir yil istiqomat qildi va fikrimizcha, Ulug‘bekning ilmiy izlanishlarida ishtirok etgan bo‘lishi kerak. Shohrux vafotidan (1447-y.) keyin 1449-yilda Sharofiddin Ali Yazdiy Xurosonga qaytdi va Sulton Muhammadning ruxsati bilan yana o‘z vatani Taftga qaytib bordi va umrining oxirgi qismini uzlatda kechirdi. Sharofiddin Ali Yazdiy 1454-yilda vafot etdi.

«Zafarnoma» asosan Nizomiddin Shomiyning shunday nomli asari asosida zo‘r badiiy mahorat bilan yozilgan. Lekin Sharofiddin Ali Yazdiy Nizomiddin Shomiy asarida bayon etilgan voqealarning ba’zilariga yangi tarixiy manbalar asosida aniqliklar kiritdi, uni yangi isbot va daililar bilan boyitdi. Amir Temurning shaxsiyati va uning faoliyatidagi qarama-qarshiliklar, ya’ni bir tomonidan qattiqqo‘l ekanligi, ikkinchi tomonlan esa Movarounnahrdagi tarqoqlikka barham berib, markazlashgan davlatga asos solganligi birmuncha to‘g‘ri va haqqoniy yoritilgan. Sharofiddin Ali Yazdiy asarining zo‘r qimmati shundaki, unda Mo‘g‘ul imperiyasining tarkibida tashkil topgan Oltin O‘rda, Elxoniylar davlati, Chig‘atoy ulusi, shuningdek Movarounnahrning Chingizxon zamonidan to Temur davlatining paydo bo‘lishigacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi qisqa tarzda yoritib berilgan. Asarning bu qismi «Tarixi jahongir» yoki «Muqaddimayi Zafarnoma» nomi bilan ataladi va 1419-yilda yozib tamomlangan. «Zafarnoma» asarining asosiy qismi, muallifning dastlabki rejalariga ko‘ra, uch qism – maqoladan iborat bo‘lmog‘i, birinchi qismda Amir Temur tarixi, ikkinchi qismda Shohrux Mirzo tarixi va nihoyat, uchinchi qismda ushbu asar yozishning tashabbuskori Ibrohim Sultonning davrida o‘tgan voqealar bayon etilishi mo‘ljallangan edi. Lekin biz hozir asarning birinchi qismigagina egamiz, xolos. Uning ikkinchi va uchinchi qismlari saqlanmagan. Ehtimol, ikkinchi va uchinchi qismlari yozilmay qolgan bo‘lsa kerak. «Zafarnoma» asarining asosiy qismi 1425-yilda yozib tamomlangan. «Zafarnoma» asarining muqaddimasi termasi va 10 yilgi Movarounnahr voqealari bayoni O. Bo‘riyev tomonidan tarjima qilinib, 1996-yili nashr qilindi. Kitobning O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati juda katta. Keyinchalik yaratilgan tarixiy asarlarga bu kitobning ta’siri yaqqol seziladi.

*Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar.* Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniyning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») nomli asari 1069–1079-yillarda yozilgan. Bu asar doston xarakteridagi badiiy asar bo'lsa ham, unda davlatni boshqarishga oid qimmatli fikrlar bayon qilingan va Qoraxoniylar davri madaniyatini o'rganishda muhim manbadir. Undagi «Idora odobi», «Qudratli davlat qonunlari», «Podshohlar-ga maslahatlar» kabi boblar katta tarixiy ahamiyatga ega.

«Temur tuzuklari», «Tuzukoti Temuriy», «Malfuzoti Temuriy» yoki «Voqeoti Temuriy» nomlari bilan atalgan asar Amir Temurning yetti yoshligidan boshlab hayot yo'li haqida hikoya qiladi. «Temur tuzuklari» muhim tarixiy manba bo'lib, unda Amir Temur davlatining tuzilishi va boshqarish xususiyatlari bayon etilgan. Asar dastlab turkiy-o'zbek tilida bitilgan. Uning bir qo'lyozmasi Yaman mamlakati oliv hukmdori Ja'far podshoh kutubxonasida saqlangan.

«Tavorixi guzida, Nusratnama» («Saylanma solnomalar, G'alabalar kitobi») nomli tarixiy asar XVI asrda yaratilgan yozma obidadir. Ushbu asar muallifining nomi ishonarli va qat'iy aniqlanmagan. «Tavorixi guzida, Nusratnama» asari muqaddimasida muallif o'zini «Ojiz», «G'arib», «Hokisor» deb ataydi. U Munke qoon nomiga yozilgan «Tavorixi jahonkushoy», G'ozonxonning qizi nomiga bitilgan «Tavorixi guzida» va Mirzo Ulug'bek nomidan yozilgan «Muntahab ut-tavorixi shohiy» nomli kitoblardan saylab tartib qilish haqida buyruq olganligi, unda Shayboniyxon tarixini ham qo'shib bir asar yaratganligi va unga «Tavorixi guzida, Nusratnama» deb nom qo'yganligini ochiq aytadi. Ushbu asar 1502–1505-yillar orasida yozilgan bo'lib, ikki mustaqil qismdan – «Tavorixi guzida» va «Nusratnama»dan iborat. Birinchi qismda O'g'uzxon va qadimgi turklar, Chingizxon hamda uning Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodni tarixi, ikkinchi qismda esa Shayboniyxon tavalludidan (1451-y.) to uning Movarounnahrni istilo qilishigacha (1500–1505-y.) Dashti Qipchoq hamda Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bayon qilingan. «Tavorixi guzida, Nusratnama»ning ikkinchi qismi zo'r ilmiy ahamiyatga ega. Unda Shayboniylar qo'shining tuzilishi, uning etnik tar-kibi, shuningdek, ko'chmanchilarning Qorako'l, Hisor, Chag'oniyon, O'ratega hamda Xo'jand viloyatlarida qilgan talon-tarojlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar bor. Asarning yana bir qimmatli tomoni

shundaki, unda sodir bo'lgan voqealarning vaqtini aniq ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Shayboniyxon qo'shinlari tarafidan Farg'ona viloyatining bosib olinishi faqat «Tavorixi guzida, Nusratnomma» asarida to'g'ri va to'liq yoritilgan. «Shayboniynoma» tarixiy dostonining muallifi Muhammad Solih (taxm. 1455–1535-y.) bo'lib, turkiyzabon bilkut qabilasidan chiqqan. Shohrux va Mirzo Ulug'bek davrida zo'r nufuzga ega bo'lgan amir Shohmalikning nabirasi. Otasi amir Nur Saidbek ham yirik amirlardan bo'lib, avval Mirzo Ulug'bek, so'ngra Sulton Abu Sa'id Mirzo xizmatida bo'lgan, 1464–1467-yillari Xorazmda hokim bo'lgan va 1467-yili Sulton Abu Saidning farmoni bilan qatl etilgan. Muhammad Solihning yoshligi Hirotda kechgan va o'sha yerda o'qib nash'u namo topgan, so'ngra Sulton Husayn, 1494-yildan Samarqandda katta nufuzga ega bo'lgan Temuriy amirlardan Darvish Muhammad tarxon va xoja Ubaydulla Ahrorning o'g'li Muhammad Yahyo, 1500–1504-yillari Buxoro va Chorjo'ydag'i noib bo'lib, shundan keyin to vafotiga qadar, Shayboniylardan Muhammad Sulton (vaf. 1505-y.) va Ubaydullaxonning kotibi bo'lib xizmat qilgan. Muhammad Solihning yaratgan tarixiy dostoni «Shayboniynoma»da Muhammad Shayboniyxonning hayoti va olib borgan urushlari haqida she'riy uslubda hikoya qilinadi. Asar qahramonning tug'ilganidan boshlab to 1505-yilgacha Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Dostonda qo'shinlarning yovuzliklari, mehnatkash xalqning og'ir ahvoli, Qorako'l, Qarshi va Huzorda Shayboniylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Asar geografik va etnografik ma'lumotlarga ham boydir. «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk va mo'g'ul» asarlarini yaratgan Abulg'oziy Bahodirxon ham Xiva xoni (1643–1663-y.) va tarixchi olim sifatida mashhurdir. U 1603-yil 23-avgustda Urganchda tug'ilgan va 1619-yilgacha ana shu shaharda istiqomat qilgan. So'ngra inilari Habash va Elbars bilan toj-u taxt uchun bo'lgan kurashda mag'lubiyatga uchrab, Buxoroga qochib bordi va Imomqulixon (1611–1642-y.) saroyida panoh topdi. Akasi Isfandiyor 1623-yili xon bo'lgach, yana Xorazmga qaytib bordi va Urganchga hokim etib tayinlandi. Lekin 1627-yili Isfandiyorxonning o'zi bilan bo'lgan kurashda mag'lubiyatga uchradi. Bu safar Abulg'ozixon Turkistonga qochib bordi va qozoq xonlaridan Ishimxon (1598–1628-y.) huzurida panoh topdi. Oradan bir yil chamasi vaqt o'tgach,

1628-yili yana bir qozoq xoni – Tursunxon uni Toshkentga olib keldi va Abulg‘ozixon Toshkentda 1630-yilning oxirigacha istiqomat qildi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Abulg‘ozixon Xiva turkmanlarining taklifi bilan yana Xorazmga qaytib bordi, lekin oradan olti oy o‘tar-o‘tmas, Isfandiyorxon uni Niso va Darunga bosqinchilik yurishi uyuşhtirganlikda ayblab hibsga oldi va Eronga, shoh Safi’ I (1629–1642-y.) huzuriga omonat tariqasida berib yubordi. Abulg‘ozixon o‘shanda Isfahondagi Taborak qal‘asiga qamab qo‘yildi va shu tarzda Eronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639-yili Abulg‘oziy qamoqdan qochdi va ko‘p mashaqqatlar chekib, 1642-yili ona yurtiga qaytib keldi. 1643-yili, Isfandiyorxon vafotidan bir yil o‘tgach, Orol o‘zbeklari uni xon qilib ko‘tardilar. O‘sha yili Abulg‘ozixon Xivadagi raqiblari ustidan ham g‘alaba qozondi va Xiva taxtiga o‘tirdi. Abulg‘ozixon keng ma’lumotli bo‘lishi bilan bir qatorda, feodal hukmdor ham edi. U o‘z faoliyati bilan ana shu doiralar manfaatlarini himoya qildi. Abulg‘ozixon 1663-yili toj-u taxtni o‘g‘li Anusha (1663–1687-y.)ga qoldirib, umrining oxirini butunlay ilmiy ishga bag‘ishlaydi. U 1664-yili vafot etgan. «Shajarayi tarokima» turkman xalqi va Turkmanistonning o‘rtta asrlardagi tarixini o‘rganishda bosh manba bo‘lib xizmat qiladi. «Shajarayi turk va mo‘g‘ul» 1664-yili yozilgan, lekin Abulg‘ozixonning og‘ir dardga chalinib qolishi va tez orada vafot etishi sababli tamomlanmay qolgan. Asar IX bobining davomi, ya’ni 1644–1663-yillar voqealari Anushaxonning topshirig‘i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan olim tomonidan yozilgan. Asarning I–IV boblari ham o‘sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiyning qalamiga mansubdir. «Shajarayi turk va mo‘g‘ul» asari qisqacha muqaddima va 9 bobdan iborat. Muqaddimada asosan asarning yozilishi sabablari haqida gap boradi. I bobda Odam Atodan to Mo‘g‘ulxongacha, II bobda Mo‘g‘ulxonidan Chingizzongacha, III bobda Chingizzonning tug‘ilishidan to vafotigacha, IV bobda O‘gaday qoon va uning Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan avlodi, V bobda Chig‘atoyxon va uning Movarounnahrda podshohlik qilgan vorislari, VI bobda Elxoniylar, ya’ni Eronda hukmronlik qilgan Chingiz avlodi, VII bobda Jo‘jixon va uning Dashti Qipchoqda podshohlik qilgan avlodi, VIII bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Qozog‘iston, Sibir va Qirimda hukmronlik qilgan farzandlari va, nihoyat, IX bobda Shayboniyxonning 1511-yildan Xorazmda podshohlik qilgan avlodi

bilan bog‘liq voqealar bayon etilgan. Asaming I–VIII boblari umum-lashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, Rashiduddinning «Jome ut-tavorix», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» va shuningdek, yana o‘n sakkizta tarixiy asarlar asosida yaratilgandir. Kitobning IX bobi yangi hisoblanadi va unda Xorazmning 1512–1663-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon etiladi. Bundan tashqari, asarda Abulg‘oziy Bahodirxon zamonida obod bo‘lgan Xorazmdagi Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bag‘dod, Kat, Durun, Qumkent, Mizdaxqon, Dorug‘an ota, Boqirg‘on, Xos minora, Ism Mahmud Ota, Chilik kabi shaharlar, Amudaryo va daryo o‘zanining o‘zgarishi, xivalik turkmanlarning og‘ir ahvoli, XVI–XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi. «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» (1910–1918-y.) asarlari muallifi serqirra iste’dod sohibi Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniy (1858–1923-y.)dir. Bayoniyning naslnasabi Xiva xonligini ko‘p yillar idora qilgan Qo‘ng‘irotlar sulolasiga borib ulanadi. Otasi Bobojonbek Xiva xoni Eltuzarxon (1804–1806-y.) ga nabira bo‘ladi. Muhammad Yusuf Bayoniy yoshligidan yaxshi tarbiya topdi, keng ma’lumot oldi. Arab va fors tillarini yaxshi o‘rgandi, adabiyot, tarix, tibb va musiqa ilmlarini egalladi. Shu bilan birga xattotlik ilmini ham yaxshi o‘rgandi. U, ayniqsa, xatlarning rayhoniy, suls, kufiy va shikasta turlari bo‘yicha mohir xattot, musiqa ilmida, ayniqsa, tanbur va g‘ijjak chalishda mahoratli sozanda bo‘lib yetishdi. Bayoniy mumtoz adabiyotni, xususan, she‘r ilmini ham puxta egalladi, o‘z zamonining shoiri sifatida dong taratdi. U mumtoz she‘riyatning barcha turlarida ijod qildi. O‘zidan bir she‘riy to‘plam va devon qoldirdi.

#### 4. Vatanimiz tarixini o‘rganishda arxiv materiallarining ahamiyati

Tarix fani taraqqiyotini belgilovchi omillar orasida arxiv materialari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Shuning uchun tarixiy jarayonlarni yoritishda va o‘lkashunoslikni o‘rganishda arxiv hujjatlarining o‘rnii juda muhim.

Arxiv yunon tilidan olingan bo‘lib, «archivum» – xizmat joyi degan ma’noni bildiradi. Lekin «arxiv» atamasining hozirgi qo‘llanish

ma’nosи butunlay boshqacha. Arxiv – bu idoralar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek tarixiy shaxslar faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan muassasa hisoblanadi. Arxivlarda tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, jamoat va davlat xo‘jaliklari, ayrim shaxslarning ko‘p yillik faoliyati haqidagi ma’lumotlar va hujjatlar saqlanadi. O‘lka tarixini o‘rganishda bu hujjatlarning ahamiyati kattadir.

Arxiv hujjatlarini qidirib topish, ular ustida ishslash va olingan ma’lumotlarni hayotga tatbiq etish murakkab ish hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati arxiv hujjatlarini har tomonlama o‘rganib, tarix, inson va jamiyat darslarida foydalanish va yoshlarni shu yo‘l bilan har tomonlama yetuk, aqlan rivojlangan qilib tarbiyalash vazifasini o‘z oldiga qo‘ymoqda.

Yozuvning vujudga kelishi doimiy ravishda arxiv ishining takomilashib borishiga sabab bo‘ladi. Mutaxassislarning fikricha, yozuvning paydo bo‘lishida hukmron doirada va mahalliy jamiyatda axborotlarga ega bo‘lish, uni yetkazish yoki boshlang‘ich holatini tiklash ehtiyojlarining ortib borishi sabab bo‘lgan. Yozuv paydo bo‘lmasdan oldin davlatlar o‘rtasidagi muloqotlar og‘zaki tarzda olib borilgan. Hukmdorlarning xabarlari maxsus choperlar (elchi) tomonidan og‘zaki usulda yetkazilgan. Buning natijasida choperlar tomonidan ortiqcha yoki ayrim so‘zlarning unutib qoldirish hollari ko‘p uchrab turgan. Buning natijasida axborot va xabarlarni to‘liq, haqqoniy yetkazishning imkoniyatlari cheklangan. Bunday axborot almashinuvlar tomonlarning bir-birini o‘zaro to‘laqonli tushunmasliklarini keltirib chiqargan. O‘rta Osiyodagi eng qadimgi yozuvlardan biri oromiy yozushi hisoblanib, bu yozuv ahamoniylar davrida keng tarqalganini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra O‘rta Osiyo hududida mil. avv. III asrdan boshlab uch xil yozuv tarqalganligi ta’kidlangan 1. Oromiy yozushi; 2. Yunon grafikasidagi yozuvlar (turk va yunon-baqtriya); 3. Hind yozuvlari (Kharoshthi brahmi). XX asrning 90-yillariga qadar O‘rta Osiyo davlatlaridagi ish yuritish va arxiv ishi haqida ma’lumotlar kam edi. Mustaqillik yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Parfiya va Xorazmda hujjatshunoslik va ish yuritish mavjud bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, Shimoliy Afg‘onistondan, Janubiy Baqtriyadan Baqtriya yozuviga asoslangan 100 dan ortiq hujjatlar topildi. Hujjatlar orasida shartnomalar, savdo-sotiq, ijara, qullikdan ozod qiluvchi hujjat-

lar mavjud hamda Kushonlar imperiyasiga oid turli xildagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Ma'lumotlarga ko'ra bu hujjatlar mil. avv. 342, milodiy 81-yillarga tegishli bo'lgan. 1948–1949-yillarda Yangi Nisodan parfiyaliklarga tegishli sopolga bitilgan yozuvlar topilgan (mil. avv. II asr). Nisodan topilgan sopoldagi yozuvlar qimmatli manba hisoblanib, Parfiya davlatining butun xronologik davrini yoritib beradi.

Bizga ma'lumki, Xorazm hududidan ham qadimgi yozuv namunalari topilgan. Mill. avv. IV asming oxirida Xorazm Ahamoniylar davlati tarkibiga kiritiladi va oromiy yozuvi bu yerda rasmiy yozuv sifatida joriy qilinadi. Ahamoniylar imperiyasi qulagach, mil. avv. III asming boshlarida oromiy xati asosida Xorazm yozuvi paydo bo'ladi. S.P. Tolstov tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Tuproqqal'adan sopolga bitilgan yozuvlar topildi. Tuproqqal'adan 140 ta yozuv namunasi topilgan bo'lib, shundan 122 tasi qora tush bilan teriga yozilgan, 18 tasi esa taxtachalarga bitilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, yog'ochdagagi yozuvlarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchisida ozod va uy qullari haqidagi ma'lumotlar berilgan bo'lib, uning a'zolari katta oilalarga taalluqliligi uy ro'yxatiga kiritilgan.

Ikkinchi guruh taxtachalarga yozilgan ma'lumotlar xo'jalikka oid yozuv bo'lib, ularning 4 tasi uncha katta bo'limgan bo'laklarda g'ildirak va aravalarga yozilgan.

Uchinchi guruhda yetta tayoqcha bo'lib, ularda mulk egaliklari ning ismlari yozilgan.

O'rta Osiyonidagi arablar bosib olgandan so'ng arab yozuviga o'tildi. Arab xalifaligida davlat g'aznasiga oid hujjatlar, shuningdek, diniy ahamiyatdagi va qozilik hujjatlarini saqlaydigan bino vazifasini masjidlar bajargan. O'z o'mida, ma'lum bir boshqaruv tizimidagi devonlar vujudga kelishi bilan ular faoliyatiga oid hujjatlar ham to'plana borgan. Masalan, devoni al-borid (pochta xizmati) devoni xalifalik vaqtida hukumat hujjatlarini choparlar orqali belgilangan manzilga yetkazish bilan shug'ullangan. Bunday faoliyat natijasida poytaxtdan viloyatlarga, viloyatlardan poytaxtga jo'natilgan hujjatlarning nusxalari, shuningdek, soliq va soliqqa oid qog'ozlar devonda to'planib borilgan. Abbosiylar davrida devonlar boshqaruvi mukammal darajaga yetganligi kuzatila-

di. Hujjatlar asosan pergament va papiruslarga yozilgan, ba’zi hollarda Xitoy qog’ozlariga bitilgan.

IX asrning oxiri – XI asrlarda O’rta Osiyoda mahalliy Toxariylar, Somoniylar, Xorazmshohlar va Qoraxoniylar davlatida rasmiy til arab tili o’rnida fors va turk tillaridan foydalaniłgan. O’rta asrlardagi kutubxona va arxivlarda elchilar, sayohatchilar va boshqalar tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlar saqlangan.

Amir Temur davrida ham saroy tarixchilari mavjud bo’lgan. Ular voqealar va xabarlar yilnomasini tuzishgan. Hujjat va qo’lyozmalarning ko’pchilik qismi saroy qoshidagi kutubxonalarda saqlangan. Amir Temur kutubxonasi istilochilik yillarda to’plangan juda ko’p nodir kitob va qo’lyozmalar kam saqlangan. Ma’lumotlarga ko’ra, Temurning onasi Kesh shahrida kutubxona tashkil qilgan. Keyinchalik u Samarqandga ko’chirilgan. Kutubxona maxsus binoda joylashgan bo’lib, unda qo’lyozma va hujjatlar sandiq va shkaflarda saqlangan.

1931-yilda Buxoro arxivleri yerto’lasidan «qushbegi arxiv» topilgan. Buxoro muzeyi xodimi M. Hakimov arxiv hujjatlarini quyidagi guruhlarga ajratgan: moliyaviy masalalarga oid hujjatlar; Buxoro amirligi va Rossiya hukumati o’rtasidagi yozishmalar; amir xazinasidan xarajatlar uchun hujjatlar; xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarga oid hujjatlar; Buxoro amirligidagi yer-suv munosabatlari taalluqli hujjatlar; turli xil yozishmalarga oid hujjatlar.

1930-yil boshlarida Mug’ tog’laridagi yodgorlik xarobalaridan Divashtich arxivleri topildi. Qazishmalar natijasida VIII asrga oid 80 dan ortiq qo’lyozma hujjatlari topildi. Tarixdan ma’lumki, Buxoroda IX–X asrlarda Abu Ali ibn Sino foydalangan arxiv kutubxona bo’lgan. O’rta Osiyoda arxivlar XI–XII asrlarda Xorazm davlatida, keyincha Oltin O’rdada, Temuriylar, Ashtarxoniyalar davrida ham mavjud edi. O’zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivleri o’zbek xalqining hujjatli madaniyat yodgorliklari saqlanadigan yirik arxiv xazinasidir. Bu yerda saqlanayotgan eng qadimgi hujjatlar vaqfnomalar bo’lib, ular XIII–XIX asrlarga oiddir.

Xonliklarning XIX asrgacha bo’lgan hujjatlari, afsuski, bizgacha yetib kelmagan. Ular o’zaro feodal urushlar, vayronagarchiliklar natijasida yo’q bo’lib ketgan. Qo’qon va Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivleri qisman saqlangan. Ularda XIX asrga oid

hujjatlarning bir qismi saqlangan. O‘rta Osiyonidagi Rossiyasi bosib olgandan keyingi davr arxivlari, ya’ni XIX asming ikkinchi – XX asr hujjatlari to‘la saqlangan.

Qo‘qon va Xiva xonliklari arxivlari tarixi o‘ziga xosdir. Chorizm bu xonliklarni bosib olganidan keyin ushbu arxiv materiallari 1876-yil Peterburgga – imperator kutubxonasiga olib ketiladi. Bu hujjatlar 1930-yilning oxirigacha e’tibordan chetda qolib, umumiyligi foydalanimay keldi. Keyin Qo‘qon, Xiva arxivlari ekanligi aniqlanib, keng foydalanila boshlandi.

Qo‘qon xonlari arxivi haqida tarixchi Troitskaya 1968-yilda «Каталог архива Кокандских ханов XIX века» nomli ma’lumotnomasini e’lon qildi. 1962-yilda bu hujjatlar Leningraddan Toshkentdag‘i Markaziy davlat arxiviga olib kelingan. Xiva xonlari arxivi hujjatlarini bиринчи bo‘lib 1939-yilda olim P. Ivanov o‘rganib chiqib, ular to‘g‘risida xabar beradi.

O‘zbekiston Respublikasining markaziy davlat arxivida Qo‘qon, Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi, Turkiston general-gubernatorligi, uning barcha tashkilotlari arxivlari, shuningdek, O‘zbekistonning oktabr to‘ntarishidan keyingi davr, sobiq Ittifoq davri tashkilotlarining arxiv materiallari saqlanadi. Unda bir milliondan ortiq yig‘ma jildlar bor bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi eng katta arxiv hisoblanadi.

Arxiv hujjatlari yozma va og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin. Og‘zaki tarixiy hujjatlar har xil texnika vositalari bilan yozib yoki tasvirlab olinadi. Hujjatlar maxsus joylarga, sohalarga va xronologik sanalarga ajratilgan. O‘zRMDA XIX asming ikkinchi yarmidan hozirgi davrigacha bo‘lgan juda ko‘p sonli hujjatlar saqlanmoqda. Turkiston general-gubernatorligiga qarashli, hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston va qisman Qozog‘iston respublikalari hududidagi viloyatlar, uyezdlar, volostlar, muassasa, korxona va tashkilotlarning tarixiy faoliyatiga doir barcha hujjatlar ushbu markaziy arxivda mujassamlashgan.

O‘zRMDA hujjatlarida Turkistondagi chor hukumatining olib borGAN mustamlakachilik siyosati, rus xalqi bilan O‘rta Osiyo, shu jumladan o‘zbek xalqining madaniy aloqalari, chor burjua apparati olib borGAN siyosat to‘g‘risidagi boy materiallari O‘rta Osiyo xalqlari tarixini har tomonlama chuqur o‘rganishda bebahoh manba bo‘lib xizmat qiladi.

Arxiv Turkiston o'lkasidagi chor hukumatining ma'muriy tashkilotlari faoliyatlariga oid bo'lib, unda mahalliy aholining ayanchli ahvoli, chotizmning shafqatsiz zulmi, chorizm amaldorlarining xatti-harakatlari va ularga qarshi xalqning kurashi o'z aksini topgan.

O'rta Osiyo xonliklari, bekliklari, diniy boshqarmalari faoliyatiga doir hujjatlar deyarli yo'q bo'lib ketgan. Ayrim hujjatlar harbiy to'qnashuvlar davomida yo'q qilib yuborilgan. Akademik V.Bartoldning so'zlariga ko'ra, bosib olgan joylardan xonliklarning kutubxonalarini va arxiv hujjatlarini saqlab qolish uchun hech qanday chora-tadbir ko'rilmagan, ular O'rta Osiyo xonliklarining madaniyati va tarixiy yodgorliklarini saqlab qolishga umuman ahamiyat bermaganlar.

1917-yilgacha arxiv ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Undan keyin saqlanib qolgan hujjat esa O'zbekiston markaziy davlat arxivining maxsus bo'limlarida talab darajasida saqlanmagan.

1917-yilgi oktabr voqealariga qadar hujjatlar har bir idora va tashkilotlarning o'zida saqlangan. Arxivlar tarqoq holda bo'lib, hujjatlar bir joyda yig'ilмаган va markazlashmagan edi. Oktabr to'ntarishidan keyin Turkiston RSFSR tarkibida muxtor respublika sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Rossiya hukumati chiqargan qonunlar Turkiston uchun ham tegishli edi. Shuni aytish kerakki, RSFSR hukumati 1918-yil 1-iyunda «Arxiv ishini qayta ko'rish va markazlashtirish to'g'risida» dekret qabul qildi. Bu dekretda asosan barcha tarqoq arxivlar markazlashtirildi.

1919-yil 15-noyabrida Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi qaroriga binoan arxiv ishlari Markaziy Bosh boshqarmasi tuzildi va V.Kucherboyev boshqarma boshlig'i etib tayinlandi.

Davlat arxiv bo'limi 8 ta seksiya va 4 ta bo'limdan iborat edi.

1-bo'lim – ma'muriy-diplomatik (yuridik seksiyalarni birlashtiradi);

2-bo'lim – harbiy seksiya;

3-bo'lim – maorif va iqtisodiyot;

4-bo'lim – tarixiy-inqilobiy, sharq va matbuot seksiyalari.

Davlat arxiv jamg'amasida 1917-yildan oldingi arxiv hujjatlariga emas, balki sovet tashkilotlari arxiv hujjatlari ham to'plana boshlandi. Tashkilotlarda hujjatlar 5 yil saqlanishi va keyin Davlat arxiviga topshirilishi belgilandi. Bu qoida 1921-yil 30-sentabrdan kuchga kirdi. Joylarda viloyat arxiv jamg'armalari tashkil qilindi. Masalan, 1920-yil martda Farg'onada, 1920-yil iyunda – Samarqandda, shu yilning no-

yabrida – Yettisuvda, 1921-yil martda Kaspiyortida ana shunday arxiv jamg‘armalari tashkil etildi.

Ma'lumki, 1924-yili O'rta Osiyo respublikalari (Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalari)da milliy davlat chegaralanishi o'tkaziladi. Natiжada RSFSR, O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari, Tojikiston ASSR (O'zR tarkibida), Qozog'iston ASSR va Qirg'iziston muxtor viloyati tashkil qilindi. Buning natijasida O'zRning o'z arxiv tashkilotlari vujudga keldi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T., 2009.
2. Ochilдиев F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. –T., 2008.
3. Alimov I., Ergashev F., Butayev A. Arxivshunoslik. – T.: Sharq, 1997.
4. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T., 1996.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Eshov B.J. O'rta Osyoning qadimgi shaharlari tarixi. – T., 2008.
2. Mavlanov O'. Markaziy Osyoning qadimgi yo'llari. – T., 2008.
3. Сүлейманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Т., 2000.
4. Saidboboyev Z.A. Tarixiy geografiya. – T., 2010.

### **Internet manbalari**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archeology.ru](http://www.archeology.ru)
4. [www.archeology.com](http://www.archeology.com)
5. <http://ziyouz.uz/tarix-uz/uzbekiston-hukmdorlari/amir-temur>
6. <http://kitobdunyosi.uz/node/332>

### **Nazorat savollari**

1. Yozma manbalarning ahamiyati va ularning turlarini sanab berling.
2. Ilk o'rta asrlar davri, arab tarixchilari, qadimgi fors manbalarida o'lkamizga oid qanday ma'lumotlar keltirilgan?

3. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davr tarixini o'rganishga bag'ishlangan manbalarni sanab bering.
4. IX–XII asrlarda yaratilgan manbalarda o'llamiz haqidagi qanday ma'lumotlar berilgan?
5. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi, qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari haqida so'zlab bering.
6. Mustaqillik davrida arxiv ishlari tizimi qanday yo'lga qo'yilgan?

### Test savollari

1. «Ular sharqda quyosh chiqish yo'nalishida, Araks daryosining narigi yog'ida yashaydi» degan ta'rifni Gerodot qaysi xalqlarga berган?

  - A. Massagetlar
  - B. Saklar
  - C. Baqtriyaliklar
  - D. So'g'dliklar

2. «Tarixi Jahonkushoy» nomli asarning muallifi kim?

  - A. Otamatik Juvayniy
  - B. Narshaxiy
  - C. Abdurazzoq Samarqandiy
  - D. Abulg'ozixon

3. «Shayboniynoma» qo'lyozmasining hozirgacha nechta nusxasi ma'lum va ular qayerda saqlanmoqda?

  - A. 2 ta – Vena va Leningradda
  - B. 1 ta – faqat Venada
  - C. 3 ta – Venada, Leningradda, Parijda
  - D. 2 ta – Parij va Moskvada

4. Xondamirning «Humoyunnomá» asari yana qanday nom bilan mashhur?

  - A. «Qonuni Humoyun»
  - B. «Fathnomayi Humoyun»
  - C. «Humoyunzoda»
  - D. «Shajarayi turk»

**5. «Shajaryi tarokima» asarida Xiva xonligining tarixiga oid qanday ma'lumotlar bayon etilgan?**

- A. Ijtimoiy-siyosiy voqealar
- B. Iqtisodiy-siyosiy voqealar
- C. O'zaro ichki va tashqi kurashilar
- D. Savdo-sotiqlar aloqalari

**6. Qaysi yunon tarixchisining «Geografiya» asarida o'rta osiyoliklar haqida ko'p ma'lumotlar berilgan?**

- A. Strabon
- B. Diodor
- C. Gerodot
- D. Arrian

**7. «Arxiv» so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni bildiradi?**

- A. Yunon tilidan olingan bo'lib, xizmat joyi degan ma'noni bildiradi
- B. Yunon tilidan olingan bo'lib, idoralar binosi degan ma'noni bildiradi
- C. Lotin tilidan olingan bo'lib, tashkilot binosi degan ma'noni bildiradi
- D. Yunon tilidan olingan bo'lib, zamonaviy imorat degan ma'noni bildiradi

**8. Ilk temir davriga oid Kuchuktepa va Qiziltepa yodgorliklari qaysi viloyatda joylashgan?**

- A. Surxondaryo viloyatida
- B. Qashqadaryo viloyatida
- C. Xorazm viloyatida
- D. Samarqand viloyatida

**9. Divashtich arxivi Mug' tog'i xarobalaridan nechanchi yilda topilgan?**

- A. 1930-yil
- B. 1939-yil
- C. 1942-yil
- D. 1970 yili

**10. Qo'qon va Xiva xonliklari arxivlari nechanchi yilda Peterburgga, imperator kutubxonasiga elib ketilgan?**

- A. 1876-yil
- B. 1859-yil

C. 1865-yil

D. 1867-yil

**11. Qo‘qon xonlari arxivi nechanchi yilda Leningraddan Toshkentdagি MDАga olib keligan?**

A. 1962-yil

B. 1985-yil

C. 1973-yil

D. 1987-yil

**12. Xiva xonlari arxivi hujjatlarini birinchi bo‘lib 1939-yilda qaysi olim o‘rgangan?**

A. P.Ivanov

B. G.Stranovskiy

C. V.Vyatkin

D. S.Tolstov

## **VIII BOB. O'LKA TARIXINI O'RGANISHDA MUZEYLARNING O'RNI**

### **Reja:**

1. Muzey turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar.
2. O'zbekistonda 1917–1990-yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.
3. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.

**Tayanch iboralar:** muzey, Turkiston, O'rta Osiyo, ko'rgazma, Toshkent, Samarqand, Ashxobod, Farg'on'a, Sirdaryo, statistika, tarix, adabiyot, amaliy san'at, okrug, viloyat, ilmiy jamiyatlar.

### **1. Muzey turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar**

Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda muzeylarning jamiyat va insonlar hayotidagi o'rni beqiyosdir. O'tmishni, tarix tajribasini o'rganishda ajdodlar yaratgan betakror moddiy va ma'naviy merosni asrashda hamda targ'ib etishda muzeylar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'lakashunoslik manbalari orasida ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasaga aylanib qolgan muzeylarning o'rni va ahamiyati kattadir. Unnoddiy va ma'naviy yodgorliklarning asl nusxalarini (arxeologiya, ethnografiya, toponimikaga oid materiallarni) to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi hamda ularni ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi.

Bugungi kunda viloyat, shahar, tuman markazlarida, xalq ta'lim tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo'lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o'nlab yozuvchilar, shoirlar, ras-

somlar, olimlar va mashhur san'at arboblarining uy muzeylari mavjud. Ushbu muzeylarda xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g'urur va iftixonni yuksaltirishga xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar qo'yilgan.

«Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analarini, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi». O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologik muzeyi va boshqa qator yangi muzeylar tashkil etildi. Mavjud muzeylarning ilmiy konsepsiysi milliy g'oya asosida qayta tuzilib, ekspozitsiyalari takomillashtirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda tarix, o'lkashunoslik, badiiy, memorial, adabiyot, aniq fanlar muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda o'zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 1602280 dan ortiq turli eksponatlar saqlanadi.

O'zbekistonda muzeylar faoliyati 1991-yilga qadar mustaqillik davri g'oyalariga zid holda o'r ganilgan, mavjud adabiyotlar va uslubiy qo'llanmalardagi ma'lumotlar esa tarqoq holda bo'lib, muzeylar haqidagi ma'lumotlar yetarlicha emas edi. Shuningdek, muzeylarning faoliyati keng ommaga atroflichcha yetkazib berilmagan. Foydalilanayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar mazmun jihatdan eskirgan, ko'pchiligi zamон talablariga javob bermasdi.

Mustaqillik yillarida qadimiy shaharlar: Xiva, Buxoro, Shahrisabz, Termiz shaharlarning 2500, 2700 yillik yubileylarining o'tkazilishi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Ogahiy kabi «Barhayot siymolar» yubileylarining o'tkazilishi, «Alpomish» dostoni yaratilganining 1000 yilligi tantanalarining nishonlanishi yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida muhim o'r in egallashi shubhasiz.

Sobiq sovet davrida faqat «qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Mustaqillik davrida muzeylar ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 1998-yil 12-yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni e'lon qilindi.

Farmor'da asosan O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar faoliyatini takomillashtirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini va mustaqilligimiz odimlarini o'zida aks etiruvchi noyob eksponatlarni avaylab-asrash, muzeylar fondini boyitib borish, muzeylarni dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajriba-larini qo'llash kabi vazifalar qo'yilgan.

*Muzey turlari.* Respublikamiz hududida uch turdag'i muzeylar mavjud:

Birinchi turdag'i muzeylarga ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlar olib boriladigan muzeylar kiradi.

Ikkinci turdag'i muzeylarga faqat bir soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan muzey laboratoriyaga ega bo'lgan maxsus muzeylar (masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi bakteriologiya va mineralogiya muzeyi) kiradi.

Uchinchi turdag'i muzeylar faqat o'quv turida bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'quv jarayonini tashkil etishdan iborat.

Muzey turlari ko'p jihatdan unda saqlanayotgan fondlarning xarakteriga va ular faoliyatining yo'nalishiga bog'liqdir. Shuningdek, turli fan sohalariga bo'lingan muzeylar ham bor. Bu muzeylar orasida ko'proq ma'lum bo'lganlari yoki faqat o'sha soha mutaxassislariga ravshan bo'lgan ma'lum tarmoqni aks etuvchi muzeylar ham mavjud.

Masalan, Toshkentdag'i O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, tassiriy san'at muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi va O'zbekiston Respublikasi harbiy okrugi muzeylarini ko'pchilik yaxshi biladi, ammo arxeologiya, etnografiya, harbiy-tarixiy, memorial, mintaqaviy, san'atshunoslik, texnika muzeylari ko'proq o'sha soha mutaxassislariga ayon.

*Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar.* Muzeylar inson madaniyatiga ikki yarim ming yil ilgari, ya'ni antik davrda kirib kelди. Lekin uning ma'nosi hozirgi muzey tushunchasidan ancha bosh-qacharoq bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda «museion» deb ma'budalar sha'niga e'zozlanadigan maskanlarni aytganlar. Bu maskanlar tabiatning go'zal joylarida, tog' etaklarida, daryo va ko'l bo'ylarida, bog'-u roq'larda joylashgan.

Muzeylar o‘zlarining ilk paydo bo‘lgan kunidan boshlab o‘z zamonasini aks ettirgan va talab-ehtiyojlarini ifoda qilgan, qisqacha qilib aytganda, zamon ko‘zgusi bo‘lgan. Hozirgi kunda ochiq osmon ostidagi muzeylar ham paydo bo‘ldi, ularning asosini me’moriy va arxeologik yodgorliklar tashkil etdi.

O‘lkada muzey ochish masalasi 1871-yilda tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo‘limi majlisida ko‘tarildi. Shundan so‘ng Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N. Golovachyov 1876-yilning 9-yanvarida muzey ochish bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazadi. Majlisga N. Mayev, V. Oshanin, A. Vilkins, D. Yujakov va I. Krauzelar taklif etiladi. Shu tariqa Toshkentda muzey ochishga qaror qilinadi.

1876-yil 16-mart kuni «Туркестанские ведомости» gazetasi muharriri N. Mayev Toshkentda muzey ochish haqidagi bayonnomasini general-gubernator idorasiga jo‘natadi. Rossiya istilosining dastlabki o‘n yili o‘tganidan so‘ng Turkistonda muzey tashkil etilishi masalasi olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘rta Osiyoning istilo qilinishi davomida tartibli va uyushgan holda kolleksiyalar to‘plashga asos solingan. Bu jarayon rasmiy tarzda amalga oshirilgan. Bundan tashqari, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga oid osori atiqalarni arzon garovga sotib olib, xususiy boylik orttirish payida bo‘lgan kishilar ham kam emas edi. Ular qatorida Zarafshon okrugi boshlig‘i general A. Abramov, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N. Golovachyov, Amudaryo bo‘limi boshlig‘i A. Galkin va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Rus olimlarining turli kolleksiyalar to‘plash faoliyati bir tomonidan Peterburg, Moskva muzeylari, kutubxonalari, ko‘rgazma zallar zaxiralarini O‘rta Osiyo buyumlari va qo‘lyozmalari bilan to‘ldirishga qaratilgan bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan ma’lum vaqt o‘tib, mahalliy muzeylar tashkil etish hamda ilmiy jamiyatlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. O‘z ishlarining fidoyilari bo‘lgan olim, o‘lkashunos va shifokorlar qo‘lyozmalar kolleksiyalarini yig‘ib, ommaviy kutubxonalarni tashkil etish ishlarini boshladilar.

1870-yili Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etildi. Xususiy kolleksiya to‘plovchilari xizmati tufayli qator qimmatbahoh qo‘lyozmalar asrab qolindi. Kutubxonasida saqlanayotgan arab, fors va

turkiy qo‘lyozmalar tavsifi 1883-yilda E. Kal tomonidan nashr etilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Rossiya istilosidan so‘ng ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati Turkistonning moddiy boyliklarini o‘rganish, ulardan foydalanishga qaratidi. A. Fedchenko, V. Dokuchayev, I. Mushketov va boshqalarning tuproqshunoslikka oid tadqiqotlari O‘rta Osiyoda zamonaviy ilmiy fanlarga asos soldi.

O‘lkamizda muzeylarni tashkil etish tashabbuskorlari sifatida A. Fedchenko, I. Mushketov, V. Oshanin, V. Bartold va boshqalarni kelтирib o‘tishimiz mumkin. Ularning asarlarida geologiya, geografiya, botanika, zoologiya, mineralogiya, numizmatika, tarix, etnografiya va qadimiy yodgorliklarni o‘rganishga oid tadqiqotlar ham mavjud edi.

Ular ilmiy jamiyatlar a’zosi sifatida to‘plangan ma’lumotlarni muzeylarga joylashtirib, ularning rivojlanishiga zamin yaratdi. A. Fedchenkoning Turkiston general-gubernatoriga yozgan axborotida: «Turkistoni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun uning tarixi, madaniyati va tabiat bilan tanishib chiqish lozim, muzey esa buning uchun ularning eng yaxshi vositadir», – deb yozadi.

*Turkistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati.* 1876-yilda O‘rta Osiyoda birinchi muzey tashkil etildi. Lekin davlat tomonidan bino berilmaganligi uchun, N. Mayev o‘zining ipakchilik mакtabidan muzey uchun ikki xona ajratdi. Ko‘p o‘tmay, muzey Statistika bo‘limi ixtiyoriga o‘tkaziladi. Muzeysi ta’moti uchun yiliga 300 so‘m ajratiladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, ba’zi shaxslarning moddiy yordamlari ham kelib tushgan. N. Mayevning yozishicha, muzey faoliyati uchun yiliga 1600 so‘mlik mablag‘ talab etilgan.

1877-yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo‘jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo‘yicha 1500 dan ortiq ashyolarga, 800 ga yaqin qadimiy tangalarga ega bo‘ldi. 1876–1880-yillar muzey faoliyatining muhim bosqichi bo‘ldi. Shu yillarda numizmatika, etnografiya bo‘limlari boy kolleksiylar bilan to‘ldirildi.

Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyayev (1882–1884) farmoniga binoan 1883-yili muzey xalq kutubxonasiga qo‘sib yuborildi. Asosiy mablag‘ kutubxonaga ajratiladi. General-gubernatorlik mahkamasi ixtiyoriga o‘tgan muzeysiga yangi tayinlangan rahbarlarning aksariyati yetarli malakaga ega bo‘lmasligi, muzey ishining nozik jihatlarini

tushunmasligi unga in'om etilgan osori atiqalarning yo'qolib ketishiga olib keladi.

Turkiston muzeylarini boyitish, o'lkadagi yodgorliklarni saqlashda havaskorlarning xizmati katta edi. Rus olimlari Turkiston o'lkasini o'rghanishda, O'rta Osiyo xalqlari hayoti bilan tanishish davomida mahalliy ziyorilar, turli xalq vakillari bilan bevosita muloqotda bo'ldilar. N. Veselovskiy, V. Bartold, E. Kal, A. Samoylovichlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan havaskorlar tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'proq tayandilar. Ularning ilmiy axborotlari, xabar va maktublarida mahalliy o'lkashunoslar faoliyati keng tasvirlangan.

Turkistonda N. Veselovskiy rahbarligida o'tkazilgan ilmiy tadqiqliklarda qatnashgan toshkentlik savdogar Akrom Asqarov yirik kolleksionerga aylandi. 1887-yili Rus imperatori arxeologiya jamiyatni a'zosi Akram Asqarovni «Arxeologiyada erishilgan yutuqlari uchun» kichik kumush medali bilan taqdirlaydi. Uni Parijdagi ilmiy arxeologiya jamiyatiga ham a'zolikka saylaydi. A. Asqarov arab, rus tillarini puxta bilgan o'z zamonasining yetuk ziyyolisi bo'lgan.

A. Asqarov o'z vasiyatnomasida to'plagan kolleksiyalarini hukumatga topshirilishini iltimos qilgan. Ammo uning o'limidan keyin to'plagan osori atiqalari alohida-alohida sotilib, turli odamlar qo'liga o'tib ketadi. A. Asqarov kolleksiyasining katta qismi – 14 mingta tanga va 200 ta buyum Turkiston general-gubernatori A. Vrevskiy farmonishi bilan Peterburgga, Imperator arxeologiya komissiyasi ixtiyoriga jo'natiladi.

Mahalliy havaskor Mirza Abdulla N.I. Veselovskiy bilan ham aloqada bo'lgan. Veselovskiy uning kolleksiyasini ko'rib chiqib, undan 1202 buyum, shu jumladan 11 ta tilla, 77 ta kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 muhr, odamlar, hayvonlar va boshqa narsalar tasviri tushirilgan 6 ta tosh sotib olgan.

Asosiy muzeylar qatorida Toshkentda 1914-yili S. Zaverinning Turkiston savdo mollari muzeyi ish boshladi. Lekin bu muzey ba'zi bir sabablarga ko'ra tez orada yopiladi. Muzey faoliyatining ijobjiy tomonlarini ham alohida ta'kidlash mumkin. Muzeyda saqlangan eksponatlar nafaqat olimlarga, balki keng jamoatchilik ommasiga o'lkani har tomonlama o'rghanishga imkoniyat yaratdi. Muzeydagagi eksponatlar tar-

tibsiz tarzda va rejasiz yig‘ilgan bo‘lsa-da, fanning ma’lum bir sohasi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lgan har xil kolleksiyalar to‘plangan edi.

## 2. O‘zbekistonda 1917–1990-yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati

Ushbu davrda respublikada yigirmadan ortiq tarix va o‘lkashunoslik muzeylari faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi muzeylar soni ko‘paydi. XX asming 60–80-yillarida o‘lkashunoslik muzeylari markaziy muzeylar fondlaridan olingan ashyo, buyum va hujjatlar hisobiga boyib bordi.

Bu davrda muzey tarmoqlarini qayta tashkil etish va kengaytirish ishlari davom etdi va ma’lum strukturaviy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Asosiy o‘rinni tarixiy va memorial muzeylar egalladi. Mayjud tarixiy va o‘lkashunoslik muzeylarining barchasida yangi tuzum yutuqlarini namoyish etib, uning g‘oyalarini keng ommaga singdiruvchi ekspozitsiyalar paydo bo‘ldi. O‘lkashunoslik muzeylarining tipologik tizimi ishlab chiqildi. Asosiy e’tibor tomoshabinlarning siyosiy va ma’naviy ongini oshirishga qaratildi.

*Namangan viloyati o‘lkashunoslik muzeyi.* 1920-yili Namanganda o‘lkashunoslik muzeyi ochildi. Muzey ochilishida Namangan shahridagi 1-rus o‘rta maktabining fizika o‘qituvchisi Vladimir Ivanovning xizmati katta bo‘ldi. U 1919-yilda Xalq ta’limi nozirligiga yozgan xatida o‘quvchilarga puxta bilim berish maqsadida Namangan shahar maktablaridagi barcha fizika o‘quv asboblarini bir joyga yig‘ishni va yagona fizika kabineti tashkil qilishni taklif etdi. Bu taklif xalq ta’limi nozirligi tomonidan qabul qilindi. Shuning negizida o‘lkashunoslik muzeyi ochildi.

Namangan o‘lkashunoslik muzeyi fondlari eksponatlar sotib olish hisobiga boyidi. Namangan o‘lkashunoslik muzeyidan Moskvadagi Tretyakov galereyasi va Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeylariga bir necha asarlar yuborilgan. Shuningdek, fondlarni boyitish uchun muzey xodimlari Farg‘ona vodiysi qamrab oluvchi tematik ekspeditsiyalar uyushtiradilar. Shu zaylda muzey fondlari etnografik, tabiatshunoslik, arxeologik eksponatlar bilan boyidi.

Urush yiilarida O‘zbekistonda muzey tarmoqlari vaqtinchalik qisqardi. Bu jarayon Namangan o‘lkashunoslik muzeyiga ham ta’sir qildi.

Eksponatlar vaqtinchalik viloyat o‘rtá maktablariga taqsimlandi. Nati-jada ko‘pgina muzey eksponatlari yo‘qolib ketdi. 1961-yili O‘zbekiston rassomlari uyushmasi qoshidagi O‘zbekiston Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi Namangan viloyati o‘lkashunoslik muzeyiga 50 ta tasviriy san’at asarlarini sovg‘a qildi.

*O‘zbekiston davlat san’at muzeyi.* Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 19-apreldagi dekreti bilan knyaz N. Romanovning Toshkentdag‘i majmualari davlat mulki deb e‘lon qilindi. Uyi esa muzeyga aylantirildi. Knyaz to‘plagan tasviriy va amaliy san’at namunalarini asosida Markaziy badiiy muzey tashkil etildi. 1941-yildan bu muzey O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga qo‘shib yuborildi. 1945-yili alohidagi muzey sifatida O‘zbekiston davlat san’at muzeyi nomi bilan atalib, faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Mazkur muzey juda boy eksponatlar to‘plamiga ega bo‘ldi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridan to‘zamonaviy davrgacha bo‘lgan tasviriy va amaliy san’atning noyob namunalarini, muzey ekspozitsiyasidan joy oldi.

*Buxoro viloyati o‘lkashunoslik muzeyi.* Buxoro muzeyi ilk bor 1922-yilda tashkil etilib, ba‘zi sabablarga ko‘ra yopiladi. Buxoroda qayta muzey ochish taklifi Zarafshon viloyati prezidiumi va eski Buxoro shahar qo‘mitasi yig‘ilishida ilgari suriladi. Mazkur yig‘ilish mazmuni 1926-yil 7-dekabrda 37-sonli bayonnomasida o‘z aksini topgan.

Muzeyning dastlabki ekspozitsiyasi arxeologiya, etnografiya va zoologiya bo‘limlaridan iborat bo‘lib, ularda mingdan ziyod buyumlar bo‘lgan. Ekspozitsiyaning birinchi bo‘limida, Buxoro okrugi qadimiy obidalarning fotosuratlari, Sayfiddin Boxarziy (XIV asr) qabriga qo‘ylgan yog‘och sag‘ana, Bahovuddindagi amirlar sag‘anasidan olib kelinib, badiiy ishlov berilgan ikkita qabrtosh, Buxoro va Samarqand me’moriy obidalarning sirli koshinlaridan lavhalar, Afrosiyobdan topilgan ossuariy bo‘laklari va sirli idish parchalari namoyish etilgan edi.

Etnografiya bo‘limida qadimgi mehnat qurollari, cholg‘u asboblari, yozuv anjomlari, ot-ulov aslahalari, kiyim-boshlar, Kitob, Hisor, Qarshi, Buxoro, Nurota choponlari, zargarlik va kashtachilik buyumlari va hokazolar yig‘ilgan. Shuningdek, numizmatika bo‘limida qadimgi tangalardan tortib sovet davrigacha bo‘lgan qog‘oz pullar namoyish qilin-gan. Zoologiya bo‘limi eksponatlarining soni kamroq bo‘lib, to‘qsonga yaqin mahalliy fauna vakillarining nusxalari bo‘lgan.

Muzey xodimlari qanchalik og‘ir sharoitda ishlamasin, ilmiy safarlar tashkil etib turganlar. Ular ilmiy muassasalar bilan aloqa bog‘lab, muzey uchun eksponat to‘plashgan. Masalan, 1934-yilning bиринчи yarmida muzeyning ilmiy xodimi Goncharova Moskva va Leningradga ikki oyga yuborilgan. Muzey xodimi u yerda markaziy muzeylar faoliyati bilan tanishgan, fondlami hisobga olish, saqlash, ekspozitsiya tuzish ishlarini o‘rgangan.

Muzeyda o‘lkashunoslik ixtisosligi 1945-yili shaharning qadimiy me’moriy obidasi Arkka ko‘chirilganidan so‘ng to‘la shakllanadi. Bu bino 300 yil davomida Buxoro hukmdorlarining qarorgohi vazifasini o‘tagan. 1948-yili Sitorayi Mohi Xosa filialida tarixiy maishiy bo‘lim amaliy san’at bo‘limiga aylantiriladi.

*Toshkent tabiat muzeyi.* Toshkent tabiat muzeyi Toshkentning eski shahrida 1926-yilning 1-yanvarida ochildi. Mazkur muzey 1921-yilning 1-mayidan boshlab Toshkentning eski shahar qismida ish olib borgan Eski shahar muzeyi asosida tashkil etiladi. U qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida bo‘lib, respublikada birinchi tarmoq muzey hisoblanar edi.

1930-yili muzeyning geologiya, geografiya, botanika, zoologiya, antropologiya bo‘limlari O‘rta Osiyo tabiatini va ishlab chiqarish kuchlari muzeyiga aylantiriladi. 1935-yildan esa umumiy tabiat ixtisosligidagi O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyi sifatida qayta tashkil etiladi.

1945-yili muzey O‘zbekiston Fanlar akademiyasi muassasalari tizimiga o‘tkaziladi va «O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tabiat muzeyi» deb ataladi. 1963-yili Madaniyat vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi.

*Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi.* Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi 1924-yili qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi asosida tashkil etiladi. Muzey binosi uchun sobiq Qo‘qon xoni Xudoyorxonning saroyi ajratiladi. Mazkur bino 1871-yili qurilgan bo‘lib, noyob tarixiy me’moriy obida hamda muzey vazifasini o‘taydi.

Barcha o‘lkashunoslik ixtisosligidagi muzeylar singari, Qo‘qon o‘lkashunoslik muzeyi ekspozitsiyasi ham qadimgi Qo‘qon tarixini yoritib beruvchi ekspozitsion materiallardan iborat edi. Inqilobdan keyingi davr siyosatiga oid eksponatlar, qishloq xo‘jaligi faoliyatini, sanoatdagi rivojlanish va o‘lka tarixini, flora-faunasining turli jabhalarini o‘zida aks ettiruvchi eksponatlar ham muzey ekspozitsiyasidan joy olgan edi. Tasviriy san’at asarlari uchun ham bir bo‘lim ajratilgan.

Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyini «muzey ichidagi muzey» deb bejiz aytishmagan. Chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, muzey binosi sobiq xon saroyi bo‘lgan.

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘lkashunoslik muzeyi.* Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham boshqa qo‘shni viloyatlardagi kabi rus olimlari va mahalliy aholi o‘lka tarixini har tomonlama o‘rganishgan. Mana shu tadqiqotlar negizida 1927-yili To‘rtko‘l shahrida birinchi o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etiladi. Ammo ba’zi bir sabablarga ko‘ra uning ishi to‘xtatiladi va 1929-yili muzey o‘z faoliyatini davom ettiradi. Muzey ilk tashkil etilganida uning ekspozitsiyasida tabiat, inqilobgacha bo‘lgan o‘tmish va zamonaviy davr bo‘limlari hamda suratlar galereyasidan iborat bo‘lgan.

Keyinchalik ekspozitsiya kengaytirilib, uchta bo‘limga ajratiladi. Birinchisi o‘lkaning umumiyligi fizik-geografik xarakteristikasini ochib beradi. Ikkinci bo‘lim o‘lkaning qadimgi va inqilobdan oldingi davrini o‘zida aks ettiradi. Uchinchi bo‘limda qizil imperiyaning tashkil etilishiga oid ekzpozitsiya namoyish etilgan.

*Andijon viloyati o‘lkashunoslik muzeyi.* Andijon shahrida 1934-yili qishloq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi uyuşhtirildi. Ushbu ko‘rgazma asosida viloyat o‘lkashunoslik muzeyi tashkil etildi. Eksponatlar orasida ibtidioiy jamoa tuzumi davrining mehnat qurollari, rang-tasvir, grafika, haykal-taroshlik asarlari, fotohujjalalar va hokazolar mavjud edi. Andijon viloyat o‘lkashunoslik muzeyi 1935–1941-yillardan viloyat hududida o‘tkazilgan ilmiy safar va ekspeditsiyalar jarayonida arxeologiya, etnografiya hamda o‘lka tabiiy boyliklari bo‘yicha kolleksiyalar umumlashtirildi.

Muzey eksponatlari Andijon viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Farg‘ona vodiysi xalqlarining etnografik o‘ziga xosliklarini, dehqonchilik, chorvachilikning rivojlanishini, o‘lkaning manbalarini har tomonlama o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

*Surxondaryo viloyat o‘lkashunoslik muzeyi.* Surxondaryodagi muzey ham qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi asosida 1933-yili tashkil etilgan. Dastlab u Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi deb atalgan. 1935-yilda viloyat muzeyi, 1964-yildan boshlab esa o‘lkashunoslik muzeyi deb atala boshlangan.

1933-yilda respublika viloyatlari muzeylarini yiriklashtirish maqsadida ulaming ishini qayta ko‘rib chiqish boshlangan. Xususan, Sur-

xondaryo okrug ijroya komiteti qarori bilan Termizdag'i Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi okrugi va shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muzeyga aylantirildi. Sherobod tumani o'lakashunoslik muzeyi esa uning filiali bo'lib qoldi. Shu yili muzeyda jonli tabiat burchagi tashkil etilib, keyinchalik u Termiz hayvonot bog'i sifatida muzeydan ajralib chiqdi. Surxondaryo okrug muzeyi ekspozitsiyasi tabiat, inqilobgacha bo'lgan o'tmishi va zamonaviy davr tarixi bo'limlariga bo'lingan. Birinchi bo'limda viloyatning hayvonot va nabotot dunyosi o'rinni oldi. Madaniy voha zonasida ingichka tolali paxtaning turli navlari hamda shakarqamish namoyish qilindi. Ikkinchi bo'limda Teshiktosh va Machay g'orlaridagi arxeologik topilmalar, Zarautsoy va Bitik Chashma devoriy naqshlari, ro'zg'or buyumlari, haykalchalar, saroy devorlaridagi naqsh parchalari, Xonaqatepa va Xayrobodtepa haykaltaroshligi va qadimgi Ayrитom frizi fotonusxalari joylashgan edi. Uchinchi bo'limda hujjatlar, suratlar orqali zamonaviy davr tarixi namoyish qilingan.

*O'zbekiston xalq amaliy san'ati muzeyi.* O'zbekiston xalq amaliy san'ati muzeyi 1937-yilda hunarmandlar ishlagan buyumlar ko'rgazmasi asosida vujudga keldi. 1938-yili muzey uchun podsho amaldori Polovsevning XIX asr oxirida qurilgan sobiq qarorgohi binosi ajratildi. Bu bino juda ko'rakam bo'lib, me'moriy yodgorlik sifatida ham qarash mumkin.

Muzey eksponatlari ko'p marotaba Polsha, Hindiston, AQSH, Fransiya, Daniya, Shvetsiya, Belgiya va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda namoyish etilgan. 1937-yili Parijda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda xonatlas va beqasam yaratuvchi ustalari oltin medalga sazovor bo'lganlar. Shu yili Parijda o'tkazilgan Butun dunyo ko'rgazmasida kashtachilik namunalari ham oltin medalga sazovor bo'lgan. 1939-yili Nyu-Yorkdagi ko'rgazmada muzey eksponatlari oliy mukofot sovrindori bo'lib qaytgan.

*Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi.* Alisher Navoiy tug'ilgan kunining 500 yilligi munosabati bilan 1941-yili Toshkentda Adabiyot muzeyi tashkil etildi.

Muzey zallarida o'zbek klassik adabiyoti namoyandalarining asarlari joylashgan. Mazkur zallarda o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning davri, hayoti va ijodi, zamondoshlari faoliyati yoritilgan. Ana shu zallarda faqat Navoiy va uning zamondoshlari

haqidagi ko'rgazmalargina namoyish etilib qolmay, XV asrda O'ita Osiyo madaniyati va san'atining badiiy namunalari – kitobot, tasviriylar san'at, xattotlik, naqqoshlik, musiqa va me'morchilik asarlari ham ko'rsatilgan.

### **3. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati**

*Mustaqillik davrida muzey ishining takomillashuvi.* O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng muzey va muzeysunoslik ishiga davlat siyosati darajasida e'tibor berila boshlandi. Prezident Farmoni, Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari, «O'zbekmuzey» tashkilotining ta'sis etilishi, «Muzeylar to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishini alohida e'tirof etish kerak.

Jahon muzeysunosligi tajribalarini qo'llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat O'zbekistondagi muzeylar faoliyatida burilish nuqtasi bo'lib, ularning tarixida yangi davr boshlanganini anglatadi.

Mustaqillik davrida muzeysunoslik va muzey ishiga oid dastlabki maxsus hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yil 23-dekabrda qabul qilindi. Albatta, bu hujjat o'z davri uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Unda respublika muzeylarining vazifalari, istiqbollari belgilab berildi.

Hujjatda O'zbekiston muzey boyliklari fondi to'g'risidagi Nizomni, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy-madaniy boyliklarni ro'yxatga olish, jamlash va saqlash tartibi to'g'risida yo'riqnomalar ishlab chiqish va tasiqlatish ko'zda tutildi.

O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar ishining yagona tizimini vujudga keltirish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy yordam ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining markaziy apparati tarkibida uchta xodimdan iborat Muzey ishlari bosh boshqarmasini tuzish ko'zda tutildi.

Hozirgi kunda tarixiy durdonalarni asrab-avaylash, o'tmish osori atiqalarini, nodir qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rghanish har taraflama tadqiq etilishiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Res-

publikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni muzeylar maqomini yuksaltirishga qaratilgani bilan qimmatlidir.

Ushbu Farmonda O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularni xalqning ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini yuksaltirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimizning boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab-asrash lozimligi ta’kidlandi. Ularni o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib etish, xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish lozimligi ko‘rsatildi. Muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligining eng ilg‘or tajribalarini qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish lozimligi ta’kidlandi.

Farmonning birinchi bandida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va tegishli idoralarga mavjud barcha turdagи muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida «O‘zbekmuzey» jamg‘armasi tashkil etilishi ko‘zda tutildi.

*«Muzeylar to‘g‘risida»gi Qonun.* 2008-yil 12-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Muzeylar to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi muzeylarning tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 8 bob, 36 moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda umumiy qoidalar, ya’ni Qonunning maqsadi, muzeylar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, asosiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda muzeylar sonining o‘sishi umumjahon jarayoni bo‘lib, har besh yilda ular 10 foizga ko‘payib bormoqda. Faqat mustaqillik yillarida O‘zbekistonda o‘ndan ziyod muzeylarning, xususan, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologik muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati va boshqa muzeylarning tashkil etilishi ham yuqorida fikrni tasdiqlaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi doirasida 90 ta muzey mavjud bo‘lib, shulardan 43 tasi tarix va o‘lkashunoslik ixtisosligidagi muzeylardir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tasarrufida

to'rtta muzey bo'lib, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeylari shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, ma'lum muammo, mavzu, inshoot yoki jarayonni ifoda etuvchi muzeylelar soni ham tobora ko'payib bormoqda.

1990-yillarning boshida O'zbekistonda jamoatchilik muzeyleari keskin kamaydi. Ammo bugunga kelib, bu muzeylarning ba'zilari qayta tiklanib, konsepsiysi tubdan o'zgartirildi. Ularda faoliyat olib borayotgan xodimlar o'zlarining kasbiy mahoratlarini oshirish uchun davlat muzeyleari xodimlari qatorida malakalarini oshirish bilan shug'ullanishmoqda. Ayrim jamoatchilik muzeyleari avvalgidek o'z faoliyatini kengaytirib, davlat muzeyi maqomini olmoqda. Yana bir o'ziga xos xususiyat ayrim jamoatchilik muzeylarining «davlat muassasasiga aylanishi» emas, balki o'zining maqomini saqlab, kuchli va e'tiborli muzeysiga aylanish harakatidir. Masalan, qadimiy Samarqand shahrida MDH va Boltiqbo'yи davlatlari orasida yagona hisoblangan muzey joylashgan. Bu Xalqaro tinchlik va birdamlik muzeyi bo'lib, jamoat tashkiloti hisoblanadi. U mustaqillik davrida Samarqand shahridagi «Esperanto» millatlararo do'stlik klubi a'zolari tomonidan tashkil etilgan. «Xalq diplomatiyasi»ning turli xil nodir ko'rgazmalari orasida «Jahon dastxati» loyihasi alohida o'rinn tutadi.

So'nggi yillarda mamlakatdagi qator qadimgi shaharlar o'zining 2500, 2700 yillik yubiley tantanalarini o'tkazdi. UNESCO qarori bilan Xiva, Buxoro va Termizning 2500 yilligi, Shahrisabz, Qarshining 2700 yilligini nishonlash, ushbu shaharlardagi tarixiy obidalarni tikhailash, restavratsiya qilish qatorida, u yerlardagi muzey ishining tubdan yaxshilanishiga, kolleksiyalarining yangi arxeologik tadqiqotlar orqali to'ldirilishiga imkon berdi. Ulardan biri Termiz arxeologik muzeyi 2001-yilning 24-oktabrida tashkil etilib, o'z faoliyatini 2002-yil 2-aprelidan boshlagan.

Termiz arxeologiya muzeyi O'rta Osiyodagi yagona arxeologiya muzeyi hisoblanadi. Ushbu zamonaviy inshoot sharqona me'morchilik uslubida qurilgan bo'lib, kirish zali, 9 ta asosiy zal va ustunlar bilan bezatilgan galereyadan iborat.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda yana bir tarixiy muzey-Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi ochildi. Ushbu muzey mustabid

sovet tuzumi davrida qatag‘on etilgan fidoyi vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan. Mazkur muzey 2002-yil 8-noyabrda tashkil etilib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» Kengashi, «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg‘armasining Fanlar akademiyasi tarkibiga kiritildi.

Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyining asosiy vazifasi quyida-gillardan iborat: qatag‘onchilik siyosatining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish; qatag‘on qurbanlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ‘ib etish, muzey zaxiralari va ekspozitsiyalarini mamlakat hamda xorijdagi turli hujjatlar va boshqa eksponatlar bilan munta-zam ravishda boyitib borish kabilar shular jumlasidandir.

So‘nggi yillarda tashkil etilgan muzeylardan biri *Tasavvuf tarixi* muzeyi bo‘lib, u tasavvuf ilmining O‘rta Osiyodagi yirik namoyandasini va xojagon tariqati asoschilaridan Abduxoliq G‘ijduvoniyning 900 yilligi va Bahouddin Naqshbandiy tavalludining 685 yillik yubileyлari munosabati bilan ochildi. Undagi ekspozitsiyalar VII asr dan to XXI asr boshlariga qadar bo‘lgan davrni qamrab olgan. Tasavvuf ta’limotining tub mohiyatini ochib bergan buyuk ilohiyotchi, faylasuf Abu Homid G‘azzoliyning «Ayuha-l-valad» va «Ihyo ulum ad-din» asarlari fotonusxasi muzey eksponatlarida namoyish etilmoqda. Abu Homid G‘azzoliy islom aqidaparastlari bilan hurfikrli tasavvuf ahli o‘rtasida vujudga kelgan jarlikni bartaraf etishga harakat qilib, islom aqidalarini so‘fiyona g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lgan buyuk mutafakkirdir.

So‘fiyona g‘oyalarini o‘zining «Devoni hikmat» asarida nazmiy bayon etib bergan Ahmad Yassaviy faoliyatini aks ettiruvchi eksponatlar ham muzey zallaridan munosib o‘rin olgan. Xojagon tariqati asoschisi Abduxoliq G‘ijduvoniy va uning ustozи Yusuf Hamadoniy ma’naviy faoliyatiga doir qo‘lyozmalar, turli maishiy-xo‘jalik buyumlari alohida vitrinada joylashgan. Bugungi kunda mazkur muzeyning O‘zbekistondagi tasavvuf tarixini o‘rganish va targ‘ib etishda ahamiyati kattadir.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ‘ib qilish, chuqr insonparvarlik ruhi

bilan sug‘ orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an‘ analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-martdagি 99-sonli qaroriga binoan juda qisqa muddatda Toshkent shahrida barpo etildi. Muzey xalqimiz va xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar ishtiroki-da 1996-yilning 18-oktabrida tantanali ravishda ochildi.

*O‘zbekiston Tasviriy san‘at galereyasi.* O‘zbekiston Tasviriy san‘at galereyasi 2004-yili Toshkent shahrida ochildi. Galereya binosi qisqa muddat ichida qurib bitkazilgan bo‘lsa-da, xalqaro standartlarga javob beruvchi eng zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlangan. U yerda o‘rnatilgan eng zamonaviy jihozlar eksponatlarni namoyish etish va asrash uchun zarur bo‘lgan eng qat’iy harorat, namlik tartiblarini ta‘minlash va qo‘riqlash shartlariga rioya etish imkonini beradi. San‘at galereyasida ma‘ruzalar va kinozallar, kutubxona, mohir usta studiyasi, ustaxonalar o‘rin olgan. Shubhasiz, bu ko‘rgazmalar yangi majmuani xalqaro darajadagi san‘atshunoslik markaziga aylantiradi.

Uning ekspozitsiya-ko‘rgazma maydoni 3500 kvadrat metrga teng. Shuningdek, galereya zarur texnikaviy uskunalar bilan jihozlangan majlislar zaliga ega bo‘lib, bu yerda ko‘rgazmalar, taqdimot marosimlari, seminarlar, amaliy uchrashuvlar, filmlar namoyishlari va boshqa tadbirlar o‘tkaziladi.

Tasviriy san‘at galereyasi zallarida XX asr boshidan hozirgi kungacha yaratilgan O‘zbekiston tasviriy san‘ati asarlarining boy to‘plami, shuningdek O‘ita Osiyoda zarb etilgan noyob tangalar kolleksiyasi namoyish etilmoqda.

*Yunus Rajabiy uy-muzeyi.* Buyuk o‘zbek kompozitor, musiqa san‘atining yetuk ustasi Yunus Rajabiyning 100 yillik yubileyi munosabati bilan, 1997-yili Y. Rajabiy uy-muzeyi ochildi. Muzeyning birinchi qavatida memorial va cholg‘u asboblar ekspozitsiyasi xonasi hamda mehmonxona joylashgan. Memorial xonada Yunus Rajabiyning mebellari, radio, ustki kiyimi, stolining ustida esa musiqa asbobi, notalari, ruchka, choynak-piyolalari qo‘yilgan.

Ushbu muzey Toshkentdagи uy-muzeylari orasida eng ko‘zga ko‘ringan, muzey ishini yaxshi tashkil etgan, juda ko‘psonli tomoshabinlarga xizmat qiladigan, yaxshi ekskursiya ishlarini olib boradigan muzeylar sirasiga kiradi.

*Olimpiya shon-shuhrati muzeyi.* Mustaqillik yillarda tashkil etilgan muzeylardan yana biri Olimpiya shon-shuhrati muzeyi bo'lib, 1996-yil 1-sentabrda tantanali ravishda ochildi. Mazkur muzeyni jihozlash va ekspozitsiyasini yaratishda yetakchi muzeyshunos mutaxassislar bilan bir qatorda fan arboblari, dizayner-rassomlar, O'zbekiston xalq amaliy san'ati ustalari ham qatnashdilar. Muzey ekspozitsiyasining asosini hozirgi zamon Olimpiya o'yinlarining eksponatlari tashkil etadi.

Muzey ekspozitsiyalarida Olimpiya harakati qachon paydo bo'lgani, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining tashkil etilganligi va g'oyalarining taraqqiy etganligi, sport o'yinlarini o'tkazish, sovrindor bo'lib chiqqan O'zbekiston sportchilarining ishtirok etayotganligi haqidagi hikoya qilinadi. Shuningdek, XX asr Olimpiya o'yinlarining shonli tarixida o'z nomlarini qoldirgan bir qator sportchilarning yutuqlarini namoyish etuvchi ekspozitsiya ham mavjud.

*Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyati.* Mustaqillik yillarda O'zbekistonda yangidan yangi muzeylar tashkil etilib, bugungi madaniy hayotimizning uzviy qismiga aylandi. Ular orasida Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishini olamshumul voqeа deb baholash mumkin.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ'ib qilish, chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an'analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida barpo etildi.

Qisqa faoliyati davrida O'zbekiston Respublikasi FA tasarrufidagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi asosiy muzeyshunoslik ilmiy-uslubiy markaziga aylandi. Keng ko'lamdagи tadbirlar va ko'rgazmalami tashkil etishda ham u asosiy tayanch vazifasini ado etayotgani tabiiy holdir. Zero, o'zbek xalqi yilnomasida oltin harflar bilan bitishga munosib voqealar aynan Sohibqiron Amir Temur hamda Temuriylar bilan chambarchas bog'liqdir.

Muzeydagи Temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar O'zbekiston viloyatlaridagi yirik muzeylardan keltirilgan, shuningdek, 1996-yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ko'rgazmadagi eksponatlar ham muzeyga o'tkazilgan.

Muzeyda arxeologiya, etnografiya, numizmatika yodgorliklari, qo'lyozmalar, tasviriy san'at namunalari bor. Muzey xazinasida

O‘zbekiston tarixini aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq ashyolar saqlanadi. Shundan «Asosiy fond»ga 1971 ta, «Yordamchi fond»ga 1090 ta ashyo kiritilgan. Hozirgi kunda muzey ekspozitsiyasidan 1700 dan ortiq eksponat joy olgan. Bular – Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid qo‘lyozmalar, yozishmalar, kumush va mis tangalar, Go‘ri Amir maqbarasidan olingan ashyolar, sopol va mis buyumlar, me’moriy qoplamlar, XIX–XX asrlarga oid kitoblar, tangalar va etnografiyaga oid buyumlar va h.k.

Muzey xazinasida O‘zbekiston aholisi hamda chet davlatlarning sovg‘alari ham mavjud. Muzeyning keng ko‘lamli ishlarini 2017-yilgi hisobotni tahlil qilish orqali ham kuzatishimiz mumkin. O‘zbekistonda hozirgi kunda 350 dan ortiq muzey va muzey faoliyati bilan bog‘liq ko‘rgazma muassasalari mavjud. Ularning 90 tasi davlat muzeylaridir.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. *Nabiyev A.* Tarixiy o‘lkashunoslik. – T., 1996.
2. *Ochildiyev F.B.* Tarixiy o‘lkashunoslik. – T., 2008.
3. *Kuryazova D.T.* O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. – T., 2010.
4. *Bekmurodov M.B., Rashidova M.X.* Muzeysenoslik. – T., 2006.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т., 1958.
2. Vohidov M.M., Mirzayev Sh.R. Me’morchilik. 1-qism. Me’morchilik tarixi. – Т.: «Tafakkur», 2010.
3. Булатова В.А., Шишикина Г.В. Самарканд. Музей под открытым небом. – Т., 1986.
4. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – М., 1976.
5. Султиманов Р.Х. Древний Нахшаб. – Т., 2000.
6. Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара. – М., 1968.

### **Internet manbalar**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archeology.ru](http://www.archeology.ru)
4. [www.archeology.com](http://www.archeology.com)

## Nazorat savollari

1. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar faoliyati va tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Turkistonagi ilk muzeylarning tashkil etilishida ilmiy jamiyatlarining o'mi.
3. Yosh avlodni tarbiyalashda muzeylarning o'mi nimalardan iborat?
4. Muzey turlari va ularning Vatanimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
5. Fan tizimida muzeyshunoslikning tutgan o'mi nimalarda aks etadi?
6. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy muzeylar va ularning ona Vatanimiz tarixini tashviq qilishdagi ahainiyati haqida so'zlab bering.
7. Muzey manbalaridan foydalanish va ularning o'lkamiz tarixini o'rganishdagi ahainiyati.
8. Muzeylarning ijtimoiy vazifasi va ma'lumotlar tizimi, o'quv-tarbiyaviy ishlarda tutgan o'mi haqida so'zlang.

## Test savollari

- 1. Bugungi kunda respublikamizning viloyat, shahar, tuman markazlarida, xalq ta'limi tizimida nechta muzey bor?**
  - A. 1200 dan ortiq
  - B. 1000 dan ortiq
  - C. 1500 dan ortiq
  - D. 2000 dan ortiq
- 2. 1998-yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi Farmoni e'lon qilindi?**
  - A. «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»
  - B. «Uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilish to'g'risida»
  - C. «Yosh kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»
  - D. «Muzeylarni isloh qilish to'g'risida»
- 3. Farg'onada va Kaspiyortida o'lka muzeylari qachon tashkil etildi?**
  - A. 1896-yilda
  - B. 1894-yilda
  - C. 1890-yilda
  - D. 1886-yilda

**4. Tarixiy muzey fondlari asosan nimalarga bo‘lib o‘rganiładi?**

- A. Davrlarga
- B. Turlarga
- C. Sanalarga
- D. Qismlarga

**5. O‘lkamizda qaysi tadqiqotchi tomonidan tibbiyot, arxeologiya, antropologiya va etnografiya havaskorlar jamiyatining Turkiston bo‘limi ochildi?**

- A. A.Fedchenko
- B. L.Sobolev
- C. A.Kun
- D. N.Mayev

**6. Abulqosim madrasasi respublikamizning qaysi hududida joylashgan?**

- A. Toshkent
- B. Buxoro
- C. Samarqand
- D. Xiva

**7. «Podsholar zali» qayerdan topilganligini aniqlang.**

- A. Tuproqqal'a
- B. Dalvarzintepa
- C. Varaxsha
- D. Fayoztepa

**8. O‘zbekiston tarixi muzeyi qachon tashkil qilingan?**

- A. 1876-yilda
- B. 1976-yilda
- C. 1890-yilda
- D. 1990-yilda

**9. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining 1-bo‘limi nimadan boshlanadi?**

- A. Ibtidoiy va quldorlik tuzumi davridan
- B. O‘rta asrlar davridan
- C. Turkiston chor Rossiyasi tarkibida bo‘lgan davrdan
- D. So‘nggi o‘rta asrlar davridan

**10. O'zbekiston tarixi davlat muzeyidagi «o'rta asrlar davri» deb nomlangan bo'lim nechanchi bo'lim hisoblanadi?**

- A. 2-bo'lim
- B. 1-bo'lim
- C. 3-bo'lim
- D. 5-bo'lim

**11. Farg'ona va Kaspiyortida o'lka muzeylari qachon tashkil etildi?**

- A. 1896-yilda
- B. 1890-yilda
- C. 1886-yilda
- D. 1876-yilda

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom etti-rib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. –T.: O‘zbekiston, 2017.
2. *Mirziyoyev Sh.M.* Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’milash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. *Mirziyoyev Sh.M.* Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
4. *Mirziyoyev Sh.M.* Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kиrishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. –T.: O‘zbekiston, 2016.
5. *Ананьев А.Г.* Шерабадская долина. – СПб., 1914.
6. *Бёрнс А.* Путешествие в Бухару. Ч. I–II. – М., 1848.
7. *Вамбери А.* Путешествие в Средней Азии. – СПб., 1865.
8. *Костенко Л.Ф.* Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. – СПб., Б.И., 1871.
9. *Логофет Д.И.* Бухарское ханство под протекторатом России. Т. I. – СПб., 1911.
10. *Маев Н.* Реконнектировка горных путей в Бухарском ханстве // Известия. ИРГО. Т. XV. – СПб., 1879.
11. *Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim.* Tarixi Salimi. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma №2016.
12. *Muhammad Ali Baljuvoniy.* Tarixi nofeiy. Tojik tilidan tarjima. So‘zboshi va izohlar mualliflari Sh. Vohidov, Z. Choriyev – T.: Akademiya, 2001.
13. *Реклю Элизе.* Земля и люди. Всеобщая география Среднеазиатских ханств. – СПб.: Изд. картогр. зав. А. Илина, 1883.
14. *Сами Мирза-Абдул Азим.* Тарихи салатини мангитиа. – М.: Наука, 1962.
15. *Alimov I. , Ergashev F. Bo‘tayev A.* Arxivshunoslik. –T.: Sharq, 1997.
16. *Annayev T., Shaydullayev Sh.* Surxondaryo tarixidan lavhalar. –T.: Meros, 1997.

17. Ahmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. –T.: O'qituvchi, 1991.
18. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: Meros, 1992.
19. Арлопов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. – М.: МГУ, 1981.
20. Buryakov Y.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. –T.: Fan, 1978.
21. Bo'riyev O. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. – Т., 2001.
22. Bunyodov Z. Anushtagan xorazmshohlar davlati. –T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1998.
23. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. – T.: Fan, 2007.
24. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Fan, 1968.
25. Дониши А. Путешествие из Бухары в Петербург. –Душанбе: Ирфон, 1960.
26. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi. –T.: Sharq, 2001.
27. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1994.
28. Jabborov I. Jahon xalqlari etnografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1985.
29. Kabirov A., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. –T.: O'qituvchi, 1990.
30. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976.
31. Mavlanov O'. Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. – T.: Akademiya, 2004.
32. Mavlanov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. –T.: Akademiya, 2008
33. Ma'naviyat yulduzlari. –T.: Meros, 2001.
34. Muhammadjonov A.R., Ne'matov T.N. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. – Т., 1957.
35. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. –T.: Fan, 1991.
36. Muhammadjonov A.R. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. – T.: Fan, 1972.
37. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob. – T.: Sharq, 2000.
38. Nabiyev A. Tarixiy o'lakashunoslik. –T.: Fan, 1996.
39. Nafasov Q. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. –T.: Fan, 1988.
40. Nizomov A., Rahimova G. Toponimika. –T.: Sharq, 2012.
41. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
42. Нажимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области – Т.: САГУ, 1958.
43. Norboyev N. O'zbek elining qabila va urug'lari haqida. – T., 1997.

44. Ostonova G. Qushbegi arxivi Buxoro tarixini o‘rganishda asosiy manba // Sharqshunoslik. – 2000. – №11.
45. Sagdullayev A.S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O‘qituvchi, 1996.
46. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: Уз Госиздат, 1958.
47. Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX вв. – Т.: Фан, 1966.
48. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob – Т.: Sharq, 2000.
49. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Т.: Sharq, 2000.
50. O‘zbekiston Soviet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. – Т.: Sharq, 2000.
51. Хидоятов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. – Т., 1965.
52. Xoliqova R. Rossiya-Buxoro: tarix chorrahasida. – Т.: O‘qituvchi, 2005.
53. Hasanov X. Sayyoh olimlar. – Т.: O‘zbekiston, 1981.
54. Xo‘jayev T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. – Т.: Universitet, 1995.
55. Xo‘jayev T.K., Xo‘jayeva G.K. O‘zbek xalqining antropologiyasi. – Т.: Universitet, 1995.
56. Qadimgi Kesh-Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Т.: Sharq, 1998.
57. Qayumov A. Sherobod vohasi aholisining etnik tarkibi (XIX – XX asr boshlari) // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1996. – № 3.
58. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Т.: Наука, 1964.
59. Shoniyozirov K.Sh. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Т.: Sharq, 2001.
60. Kuryazova D.T. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. – Т., 2010.
61. Bekmurodov M., Rashidova M. Muzeyshunoslik. – Т.: Voris Ali, 2006.
62. Илалов И. Музееоведение. – Т.: Musiqa, 2006.
63. Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, 1975.
64. Фузаилова Г., Хасанова М. Музееоведение. – Т.: Fan va texnologiyalar bosmaxonasi, 2008.
65. Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. – Т.: O‘qituvchi, 1994.
66. Nabihev A. Tarixiy o‘lkashunoslik. – Т.: Fan, 1996.
67. Kabirov A., Sagdullayev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. – Т.: O‘qituvchi, 1990.
68. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. 3-kitob. – Т.: Sharq, 2000.
69. Ochilidiyev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. – Т.: Universitet, 2008.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
-----------------	---

### I bob. O'LKASHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari .....	4
2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari .....	5
3. Tarixiy o'lkashunoslikning shakllanishiga doir dastlabki ma'lumotlar.....	13
4. Tarixiy o'lkashunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixidan .....	23

### II BOB. O'LKAMIZNING TARIXIY GEOGRAFIK O'RNI

1. O'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografiyasi .....	32
2. Kidariylar, xioniyalar, eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davri tarixiy geografiyasi .....	41
3. Somoniylar, qoraxoniylar va mo'g'ullar bosqini davri tarixiy geografiyasi .....	44
4. Amir Temur va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi.....	47
5. Xonliklarning ma'muriy-hududiy bo'linishi, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi .....	49
6. O'zbekistonning tabiiy geografik tavsifi.....	52
7. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi .....	58

### III BOB. ARXEOLOGIK VA ME'MORIY YODGORLIKLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI O'RNI

1. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati .....	62
2. O'zbekistonda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi .....	73
3. Eneolit, bronza va ilk temir davri me'morichiligi .....	78
4. O'zbekistonning antik davri me'moriy yodgorliklari .....	83
5. O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davri me'morichiligi va me'moriy yodgorliklari .....	86

## **IV BOB. PALEOANTROPOLOGIK MA'LUMOTLARNING O'LKA TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI**

1. Turkiy o'lkaslunoslilikni o'rghanishda antropologik ma'lumotlarning o'rni .....	92
2. Janubiy Orolbo'yini va Toshkent vohasining qadimgi aholisi .....	96
3. So'g'd, Kushon, Baqtriya va Zarafshon vohasining qadimgi aholisi.....	101
4. Farg'onan vodiysining qadimgi aholisi va antropologik tipi.....	106

## **V BOB. O'LKAMIZ TARIXINI O'RGANISHDA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING O'RNI**

1. O'lka tarixini o'rghanishda dastlabki etnografik ma'lumotlar .....	110
2. O'zbek urug' va qabilalari to'g'risidagi ma'lumotlar .....	114
3. Rossiya tadqiqotchilari tomonidan o'lcamiz etnografiyasining o'rjaniishi.....	122

## **VI BOB. TOPONIMIKA O'LKA TARIXINI O'RGANISHDA ASOSIY MANBALARDAN BIRI SIFATIDA**

1. Toponimika tushunchasi va uning maqsadi .....	129
2. Toponimik tadqiqotlar tarixi.....	132
3. Toponimikaning asosiy bo'limlari va ularning mazmuni .....	137

## **VII BOB. ARXIV VA YOZMA MANBALARNING O'LKASHUNOSLIK FANIDA TUTGAN O'RNI**

1. O'lcamiz qadimgi yozma manbalarda .....	145
2. IX–XII asrlar tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalar .....	151
3. XIII–XIV asrlar tarixiga oid fors va turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalar .....	154
4. Vatanimiz tarixini o'rghanishda arxiv materiallarining ahamiyati .....	164

## **VIII BOB. O'LKA TARIXINI O'RGANISHDA MUZEYLARNING O'RNI**

1. Muzey turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar .....	174
2. O'zbekistonda 1917–1990-yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati....	180
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.....	185
Foydalilanigan adabiyotlar .....	195

## **O‘quv qo‘llanma**

**Ochildiyev F.B.**

## **TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK**

Muharrir	T. Mirzayev
Rassom	D. Mulla-Axunov
Texnik muharrir	R. Axmedov
Musahhih	S. Saydamirova
Kompyuterda tayyorlovchi	G. Qulnazarova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049, 18.03.2020-y.

Bosishga 2020-yil 14-dekabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>. Bosma tabog‘i 12,5. Shartli bosma tabog‘i 11,63.

«Times New Roman» garniturasi. Offset qog‘ozida bosildi.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma raqami № 16.


«Donishmand ziyosi» MCHJ, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.

Tel: +998-71-244-40-91, 99-808-19-49.

«Kamalak-PRESS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30-uy.





## **«DONISHMAND ZIYOSI»**

ISBN 978-9943-6446-6-3



9 789943 644663